

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI BUXORO DAVLAT TIBBIYOT
INSTITUTI FIZIOLOGIYA VA PATOLOGIK FIZIOLOGIYA
KAFEDRASI**

**PATOFIZIOLOGIYA FANI
BO'YICHA ATAMALARNING
IZOHЛИ LUG'ATI**

B.B.Xasanov

Buxoro 2019 yil

Tuzuvchi:

B.B.Xasanov – BuxDTI “Gistologiya, sitologiya va embriologiya” kafedrasи kata oqituvchisi, t.f.n.

Taqrizchilar:

Sh.J.Teshaev – BuxDTI Odam anatomiyasi va OXTA kafedrasи professori, t.f.d.

G.U.Samieva – SamDTI istituti normal va patologik fiziologiya kafedrasи mudiri, t.f.d.

Buxoro davlat tibbiyat instituti Markaziy uslubiy komissiyasi yig‘ilishida muhokama qilingan «25» июнь 2018 yil 10 sonli bayonnoma.

Buxoro davlat tibbiyat instituti Ilmiy kengashida tasdiqlangan «30» oktyabr 2019 yil 3 sonli bayonnoma.

А Н Н О Т А Ц И Я

Мустақиллик туфайли юртимиз равнақ топди. Ўзбекистон Республикаси ривожланган давлатлар қаторидан ўрин эгаллади. Деярли ҳар куни юртимида мислсиз ўзгаришлар ва юксалишлар рўй бераяпти. Ўзбекистон Республикаси “Таълим тўғрисида”ги Қонуни ҳамда “Кадрлар тайёрлаш миллий дастури”нинг мақсад ва вазифаларидан келиб чиқсан ҳолда таълим тизимини тубдан ислоҳ қилиш шу билан бирга таълим муассасаларида етук кадрларни тайёрлаш мақсадида ушбу қўлланма яратилди.

“Патофизиология фанидан атамаларнинг изоҳли луғати” номли “Патологик физиология” фани дастури асосида тайёрланган. Мазкур қўлланмада патологик физиология фанида ишлатиладиган атамаларнинг моҳияти ёритилган ва тиббиёт институтларининг барча факултет талабалари учун мўлжалланган.

Патологик физиология фанидан тайёрланган ушбу луғатда одам организмининг ҳар хил патологиясида кузатиладиган ўзгаришларнинг номи ва моҳиятини ёритиб берадиган маълумотлар киритилган. Бу атамалар янги манбалардаги ахборотлар билан бойитилган.

Ушбу луғатдан тиббиёт институти талабалари ҳамда ёш педагоглар фойдаланиши мумкин.

Бу талабалар – бўлажак шифокорларнинг “тиббиёт тилини” тушуниб бемалол барча тиббиёт ҳодимлари билан мулоқотда бўлишга имконият беради.

Kirish

Mustaqillik tufayli yurtimiz ravnaq topdi. O‘zbekiston Respublikasi rivojlangan davlatlar qatoridan o‘rin egalladi. Deyarli har kuni yurtimizda mislsiz o‘zgarishlar va yuksalishlar ro‘y berayapti. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ta’lim tizimini tubdan isloh qilish shu bilan birga ta’lim muassasalarida yetuk kadrlarni tayyorlash maqsadida ushbu qo‘llanma yaratildi.

“Patofiziologiya fani bo‘yicha atamalarning izohli lug‘ati” nomli “Patologik fiziologiya” fani dasturi asosida tayyorlangan. Mazkur qo‘llanmada patologik fiziologiya fanida ishlatiladigan atamalarning mohiyati yoritilgan va bakalavrlar uchun mo‘ljallangan.

Patologik fiziologiya fanidan tayyorlangan ushbu lug‘atda odam organizmining har xil patologiyasida kuzatiladigan o‘zgarishlarning nomi va mohiyatini yoritib beradigan ma’lumotlar kiritilgan. Bu atamalar yangi manbalardagi axborotlar bilan boyitilgan.

Ushbu lug‘atdan tibbiyat instituti talabalarini hamda yosh pedagoglar foydalanishi mumkin.

Bu talabalar – bo‘lajak shifokorlarning “tibbiyat tilini” tushunib bemalol barcha tibbiyat hodimlari bilan muloqotda bo‘lishga imkoniyat beradi.

Tabiiyki, lug‘atimizda ayrim juzviy xatolikar uchrashi mumkin. Qo‘llanma haqidagi fikr, mulohazalarni mualliflar minnatdorchilik bilan qabul qiladilar va kitobning keyingi nashrlarida albatta inobatga oladilar.

SHARTLI QISQARTIRMALAR.

ADF –	adenosin difosfat kislotasi.
AMF –	adenosin monofosfat kislotasi.
ATF –	adenosin trifosfat kislotasi.
AKTG –	adrenokortotrop gormoni.
DOFA –	dioksifenilalanin.
DNK –	dezoksiribonuklein kislotasi.
FAD –	flavinadenindinuclotid
FMN –	adeninmononuclotid
LDG –	laktatdehidrogenaza
MNS –	markaziy nerv tizimi
MSG –	melanotsitstimullovchi gormon
NAD –	nikotinamidadenindinuclotid
NADF –	nikotinamidadenindinuclotidfosfat
RNK –	ribonuklein kislotasi.
Mas.: –	masalan.
va b. –	va boshqalar.
va h.k. –	va ho kazoo.
yana q. –	yana qaralsin

— A —

Aberratsiya — abberatio, onis (normal holatdan, chetga chiqish, lot.) — normal holatdan, odatdagи ko‘rinishdan, tuzilishdan boshqacharoq bo‘lish, o‘zgachalik. Bir necha hil A. farq qilinadi: ko‘z A. si — ko‘z optik sistemasining norasoligi tufayli buyumlar tasvirining ko‘z to‘r pardasiga aniq tushmasligi; jinsiy A.— jinsiy maylning aynishi, buzuqchilik qilish; xromosoma A. si — xromosoma zararlanganda tuzilishi o‘zgarib, genetik materialga nuqson yetishi.

Abscess — abscessus, -us, m (absedo, abscessum — ajralib ketmoq, yiringlash; gr. apostema — chipqon, yiring bog‘lagan yara, lot.). — to‘qimalar yoki organlar (miya, o‘pka, jigar, ichaklar oralig‘i va b.) ning chegaralangan joyida yupqa piogen parda ichida yiringli ekssudattan tashqil topgan (yiringli tanachalar yoki o‘zgargan leykotsitlar va seroz ekksudatli) chegaralangan markaz (15-20 sm va kattaroq) hosil qiladigan o‘chog‘li yallig‘lanish. A. bir bemorning bir necha organlarida ham bo‘lishi mumkin.

Abortiv — abortus, us, m (tez o‘tish, lot.) — tez o‘tish, avj olmaslik; mac., kasallikning avj olmasdan, yengil-yelpi o‘tishi, kasallikning avj olishini to‘xtatib qo‘yadigan, uni tez qaytaradigan davo.

Abstinensiya — abstinentia, ae, f (humorlik holati, lot.) — humorlik — narkotik moddalarga o‘rganib qolgan kishini undan tiyilganida paydo bo‘ladigan holat. A. ga xos alomatlar har xil morfiy va unga o‘xhash narkotik moddalarga bo‘lgan A. asosan tushkunlikka tushish, kayfiyatning aynishi (depressiya holati), ichki qo‘rquv, uyqusizlik bilan kechsa, spirtli ichimliklarga bo‘lgan A. da esa titrash, tirishish va b. kuzatiladi. Ba’zan titrash zo‘rayib, talvasa tutishi, keyinchalik «oq alaxlash» holati vujudga kelishi mumkin.

Avtoliz — autolis, i, f (autos – o‘zi + lisis – eritish, lot.) — hujayra A. – hujara struktur komponentlarining o‘zining litik fermentlari ta’sirida yemirilib ketishi.

A..., An..., a, an (lot.— a, an inkor etish) — biror narsani inkor etishni bildiradigan qo‘shimchalar.

Avirulentlik — avirulentia (a, an + virulentia, ae, f – kasallik tug‘diruvchanlik – patogenlikni yo‘qotish, lot.) — kasallik qo‘zgatuvchi mikroorgaiizmlar (mikroblar, viruslar) ba’zi turlarining tashqi va ichki muhit hamda dori-darmonlar ta’sirida kasallik ko‘zg‘atish xususiyatini yuqotishi, ya’ni avirulent bo‘lib qolishi.

Avitaminoz — avitaminosis, is, f (a + vitaminlar yetishmasligi kasalligi., lot) — organizmda vitaminlar yetishmasligi natijasida kelib chiqadigan kasallik. Amalda Chin A. dan ko‘ra gipovitaminoz ko‘proq uchraydi.

Ageneziya — agenesia, -ae, f (a + inkor qilmoq + genesis — tug‘ilish, kelib chiqishi, zoti, gr.) — tug‘ma, tana yoki biron a’zoning yo‘qligi yoki o‘sishdan qolib ketib rivojlanmasligi.

Agglyutinatsiya, agglutinatio, -onis, f (agglutinatio — yopishtirish, lot.) bakteriyalar, eritrotsitlar, leykotsitlar, trombotsitlar va to‘qima hujayralari korpuskulyar tanachalarining antitanalar ta’sirida yopishib cho‘kish hodisasi. Spetsifik, nospetsifik va spontan agglyutinatsiya reaksiyalarini (AR) farqlash mumkin. Spetsifik AR antigenlar bilan emlangan hayvonlarning zardobi ishlatilganda hosil bo‘ladi; nospetsifik AR qo‘yiladigan reaksiya muhit omillarining (pH, tuzlar konsentratsiyasi, haroratning oshishi yoki pasayishi) o‘zgarishi natijasida korpuskulyar zarrachalarning agregatsiyasi va cho‘kma hosil qilishi. Spontan AR bo‘linib ko‘payadigan bakteriyalar alohida hujayralarga ajralmasdan bir birovi bilan bog‘lanib zanjir yoki shingil hosil qilganlarida kuzatiladi.

Agglyutinogenlar — agglyutinatsiya reaksiyasida ishtirok etadigan antigenlar.

Agevziya — ageusia (ta’m bilishning buzilishi, gr.) — ta’m, maza sezmaslik. Maza sezish nervlarining markaziy o‘tkazish yo’llari buzilishidan va tildagi ta’m sezish nervlarining falajlanishidan kelib chiqadi.

Aglikogenoz — aglicogenos (glikogen sintezining buzilishi, lot.) — organizmda glikogen sintezini ta’mlovchi uridindifosfat-glyukozo-glikogen-transferaza (glikogensintetaza) fermenti bo‘lmasligi oqibatida paydo bo‘ladigan irsiy kasallik. Bu bir oilaning bir necha farzandlarida uchrashi mumkin. Kasallikda ba’zan aqliy ojizlik va b. qator o‘zgarishlar kuzatilishi mumkin. A. da jigarda glikogensintetaza va glikogen mutlaqo bo‘lmasa ham boshqa fermentlar faolligi saqlanib qoladi.

Agoniya — agonia, ae, f (kurash, gr.) o‘lim talvasasi; klinik o‘limdan avvalgi terminal holat.

Agranulotsitlar — agranulosites (donasiz hujayra, lot.), syn — agranulosis — sitoplazmasida maxsus donachalar saqlamaydigan oq qon tanachalari (leykotsitlar). A. limfotsitlar va monotsitlarga bo‘linadi. Sog‘lom odam qonida limfotsitlar oq qon tanachalarining 20—35 % ini, monotsitlar esa 6—8 % ini tashqil qiladi (yana q. Monotsit, Limfotsit).

Agranulotsitoz — agranulocytosis, -is, f (syn — agranulosis) — tomirlarda aylanib yurgan qonda donador leykotsitlar — neftrofil granulotsitlarning keskin kamayishi yoki butunlay yo‘qolishi. Allergik A. qonga birorta bakteriya, yot bo‘lgan zardob oqsillarini quyganda, anafilaktik shok natijasida va b. ta’sirida hosil bo‘ladi. Immun A. antileykotsitar antitanalar ta’siri natijasida leykotsitlar agglyutinatsiyalanib yemirilishi natijasida hosil bo‘ladi. Rentgen nurlari ta’sirida nurlanish (mielotoksik) A. hosil bo‘ladi. Ayrim hollarda medikamentlar gapten

vazifasini bajarib antileykotsitar antitanalar hosil bo‘lishiga sababchi bo‘lishlari mumkin. Mieloid va limfold to‘qimalar atipik to‘qimalar (rak metastazlari) yoki ayrim omillarning suyak ko‘migiga toksik ta’siri natijasida mielotoksik A. hosil bo‘ladi. Ayrim qon kasalliklarida (leykozlar) leykopoezning chuqur ezilishi siptomatik A. ga olib kelishi mumkin. A. isitma, stomatit, angina, og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavatining nekrozi, qon ketishi, sepsisga sabab bo‘ladi.

Agressinlar — aggressor, aggressus (hujum qilmoq, hamla qilmoq, lot.) — patogen mikroorganizmlar ishlab chiqaradigan va ularning makroorganizmlarga kirishi, tez ko‘payishi va zararli ta’sir ko‘rsatishini ta’minlaydigan moddalar.

Adaptagenlar — adaptatio, -onis, f (lot. tashqi muhit omillari ta’siriga moslashmoq) genesis — (kelib chiqishi, lot.) — organizmning og‘ir sharoitlarga moslashuvini kuchaytiradigan moddalar (jenshen ildizi, limonnik mevasi, araliya tindirmasi va b.). Ular MNS va endokrin bezlari faoliyatini oshirib, moddalar almashinuvini yaxshilaydi.

Adaptatsiya — adaptatio, -onis, f (moslashmoq, lot.) — 1) evolyutsion rivojlanish jarayonida hosil bo‘lgan tirik organizmning o‘zgarib turadigan tashqi muhit sharoitlari, yashash muhitiga o‘rganib, moslanishi, muhitni o‘zlashtirib olishi; A. mexanizmlari yordamida organizmning tashqi muhit ta’sirotlariga: iqlim, harorat, gipoksiya va infeksilarga qaramay molashib normal hayot kechirishiga yordam beradi. A. hayvon organizmi uchun muhim ahamiyatga ega, u nafaqat tashqi muhitdagi keskin o‘zgarishlarni boshidan kechiradi, undan tashqarpi u o‘z fiziologik funksiyalarini va o‘zini tutishini ham o‘zgartiradi. A. organizmning konstantalari bo‘lgan qonning kislota-ishqor holati, osmotik bosimni va boshqalarni muvazanatini ta’minlab, ichki muhit doimiyligi ta’minlab turadi. 2) turli retseptorlarning ta’sirotgaga o‘rganib, sezuvchanligining pasayishi; Mas.: ko‘zning xar hil darajadagi yorug‘lik, rang-tuslarga, qulquning turli balandlikdagi tovush ta’sirotlariga o‘rganib, moslanishi (ko‘z va qulq A. si).

Adgeziya — adhaesio, -onis, f (adhaesio — yopishish, yopishib qolish, lot.) — 1) seroz pardalarning (Mas.: o‘pka, qorin, miya, yurakdagi) yallig‘lanish natijasida yopishib qolishi. 2) ikkita har xil bo‘lgan qattiq va suyuq moddalar bir biriga teginib turgan yuzalarining bir biri bilan bog‘lanishi. Mas.: Trombotsitlar va boshqa qon hujayralarining shikastlanangan (yot bo‘lgan) tomirlarning intinima yuzasida cho‘kishi.

Addison kasalligi — morbus Adissoni — (bronza kasalligi), gipokortitsizm — buyrak usti bezi po‘st qavatining surunkali yetishmovchiligi, endokrin kasallik; asosan bezlar sili oqibatida kelib chiqadi. A. k. kortikosteroidlar sekretsiyasining kamayib ketishi, hamda AKTG va MSG ko‘payishi natijasida paydo bo‘ladi. Kasallikning eng muhim belgilari: kuchsizlik, ozish, teri va shilliq pardalar

giperpigmentatsiyasi, qon bosimining pasayib ketishi, degidratatsiya, ko'ngil aynishi, qabziyat yoki ich ketishi, ruhiy tushkunlik.

Addisonik kriz — Adissoni crisis, is, f (crisis — patologik jarayon kechishining keskin o'zgarishi, lot.) buyrak usti bezi po'st qavatining o'tkir yetishmovchiligi. Bu sindrom buyrak usti bezi po'st qavati faoliyatining keskin susayib ketishi yoki butunlay to'xtashi natijasida kelib chiqadi. Bunga Addison kasalligining og'irlashishi, buyrak usti beziga qon quyilishi yoki uning trombozi, sepsis, zotiljam, og'ir operatsiyalar, jaroxatlanishlar sabab bo'lishi mumkin. Sindromning xarakterli klinik belgilari: ko'ngil aynishi, qayt kilish, qorinda og'riq paydo bo'lishi, muskullar zaiflanishi, gavda haroratining ko'tarilishi, qon bosimining juda pasayib ketishi, sovuq ter chiqishi, ruhiy o'zgarishlar. Bemorni holatidan chiqarish uchun kortikosteroidlar qo'llaniladi, suv-elektrolit, uglevodlar va oqsil almashinuvি rostlanadi.

Adenit — adenitis, itidis, f (aden – bez, itis – yalig'lanish, sin. limfoadenit, gr.) — organizmdagi bezlar va limfa tugunlarining yalliglanishi, aksari qo'shma so'zlar tarkibida keladi, Mas.: gidradenit, limfadenit.

Adenogipofiz — gipofizning old bo'lagi. Bu bo'lakda to'qqiz xil oqsil-peptid tabiatiga ega gormonlar ishlab chiqariladi. Ular qatoriga to'qimalarda kechadigan biokimyoiy jarayonlarni bevosita rostlab turadigan somatotrop gormon (o'sish gormoni) va tanadagi boshqa ichki sekretsiya bezlari faoliyatiga ta'sir etadigan trop (ma'lum bezlarga yo'ladigan) gormonlar, buyrak usti bezining po'st qavatini stimullaydigan adrenokortikotrop gormon, tireotrop, follikulstimullovchi, lyuteinlovchi gormonlar, prolaktin va b. kiradi.

Adenozin — adenin va ribozadan iborat kimyoviy birikma; fermentlar, nuklein va adenozininfosfat kislotalar tarkibiga kiradi; tomir kengaytiruvchi xususiyatga ega; ba'zi dorilarda ham A. bor.

Adenozintrifosfat kislota, adenozintrifosat, ATF — adenozinga uch molekula fosfat kislota qoldiqlari birikishidan hosil bo'lgan nukleotid. Hujayrada energiya almashinuvida markaziy o'rinni egallaydi; energiya ajratilishi bilan boradigan reaksiyalar (oksidlanish, achish)da ADF ga bir molekula ortofosfat kislota ko'chirilishi orqali sintezlanadi ATF ning fosfat kislota qoldiqlari orasidagi ikkita bog' — energiyaga boy fosfat bog'lardir, energiya mana shu shaklda to'planadi, tashiladi, boshqa molekulalarga ko'chiriladi va energiya sarf qilinishi bilan kechadigan jarayonlar (muskul qisqarishi, hujayrada sintez reaksiyalar) da energiya ajratib uziladi.

Adenozininfosfat kislotalar — adenozinmonofosfat (adenilat kislota), adenozindifosfat (ADF), adenozintrifosfat (ATF), adenin nukleotidlari. Adenozinmonofosfat qoldig'i shaklida nuklein kislotalar tarkibida bo'ladi. Adenin nukleotidlari bir qancha kofermentlar (NAD, NADF, FAD, Koenzim A) shaklida

oksidoreduktazalar, sintetazalarning faol turkumini tashqil qiladi, fosfokinazalar tarkibida energiyaga boy fosfat turkumini tashiydi.

Adenokarsinoma — adenocarcinoma, -atis, n (aden — bez + karkinos — rak + -oma o'sma, gr.) — bez epiteliysidan kelib chiqqan xavfli o'sma, shilliq qavatlar va bezlarning tsilindrsimon epiteliysidan rivojlanadi. Hamma o'smalarga xos bo'lganday, qon tomirlar va sust rivojlangan nerv tolalaridan iborat, biriktiruvchi to'qimaga ega.

Adenolimfoma — so'lak bezlarining chiqaruv yo'li epiteliysi va limfold to'qimalaridan o'sadigan xavfsiz o'sma. A. biopsiya va mikroskopda tekshirish yo'li bilan aniqlanadi.

Adenoma — adenoma (aden — bez + -oma o'sma, gr.) — bez epiteliysidan rivojlanadigan xavfsiz o'sma; ko'pincha sut bezi, qalqonsimon bez, ovqat hazm qilish a'zolarining bezlari, gipofiz, buyrak usti va prostata bezlarida uchraydi. A. ning tashqi ko'rinishi dumaloq, yumshoq qobiqqa o'ralgan bo'ladi. A. xavfli o'smaga aylanib ketishi mumkin.

Adenomioma — adenomyoma (aden — bez + myo — mushak + -oma o'sma, gr.) — xavfsiz o'sma; muskul va bez hujayralaridan tuzilgan. Me'da-ichak va jinsiy a'zolarda ko'proq uchraydi, ba'zan bachadonni butunlay egallab olib, xavfli o'smaga aylanishi mumkin.

Adenoflegmona — adenoflegmone (aden — bez + phlegmone — issiqlik, yonish, gr.) — limfa tugunlarini o'rab turadigan kletchatkalarning keng tarqalgan yiringli yallig'lanishi; odatda o'tkir limfadenit asorati sifatida namoyon bo'ladi.

Adinamiya — adynamia, -ae, f (a + dynamis — kuch, gr.) — biron organ yoki butun organizm harakat faoliyatining susayishi yoki butunlay to'xtashi. A. ko'p vaqt harakatsizlikda bo'lganda, ochlikdan keyin, uzoq vaqtli infektsion jarayonda, surunkali intoksikatsiyalarda, kaxeksiyada, og'ir gipertiriozda kuzatiladigan mushaklar atrofiyasida, yoki orqa miyaning patologik jarayonlarida kuzatiladigan mushaklarning struktur o'zgarishlarida, tug'ma miopatiyalarda. A. motor innervatsiyasining markaziy bo'limlaridagi: miyacha, bosh miya yarimsharlarining harakat markazlari, o'tkazuvchan yo'llar jarohatlanlarida. Umumiy A. bilan (infektsion jarayon, intoksikatsiya va och qolish natijasida), bir qatorda funksional zo'riqish, yoki boshqarish mexanizmlarining buzilishi tufayli (mas. yurakda miokardning distrofik o'zgarishlari natijasida) alohida a'zolarning ishdan chiqishi kuzatilishi mumkin.

Adrenogenital sindrom — kortikosteroidlar biosintezi uchun zarur fermentlarning tug'ma nuqsoni oqibatida yuz beradigan klinik simptomlar kompleksi. Unga buyrak usti bezi po'st qavatining tug'ma virilizatsiyalovchi giperplaziyasi sabab bo'ladi. A. s. ning virilizatsiyalovchi xilida qonda kortizol miqdori deyarli kam bo'lib, androgenlar ko'payib ketadi. Bunda qiz homilaning

tashqi jinsiy organlari o‘g‘il homilaga xos belgilarga ega bo‘ladi. Bola tug‘ilganidan keyin virilizatsiya davom etadi, gavda tuzilishi erkaksimon bo‘lib, sut bezlari o‘smanydi va xayz ko‘rish bo‘lmaydi. O‘g‘il homilaning jinsiy organlari tez rivojlanadi va bola tug‘ilganidan keyin barvaqt balog‘atga yetadi. A. s. ning tuz yo‘qotish oqibatidagi xili uchun kortizol va aldosteron metabolizmida kuzatiladigan ancha chuqur o‘zgarishlar xosdir. Bu gormonlar miqdori juda kam bo‘lib, bemorda buyrak usti bezi po‘st qavatining yetishmovchilik klinikasi ro‘y beradi. Chaqaloqda soxta xunasalik belgilari, organizm degidratatsiyasi (natriy yuqotish natijasida), keyinchalik yurak-tomir yetishmovchiligi kuzatiladi va bola yurak to‘satdan to‘xtashi natijasida nobud bo‘lishi mumkin.

Ayollar naslsizligi — balog‘atga yetgan ayollarda nasl qoldirish (homilador bo‘lish) qobiliyati bo‘lmasligi.

Ad’yuvantlar — antigenning immunogenetik ta’sirini oshiruvchi, o‘z tabiatiga ko‘ra kelib chiqishi turlicha bo‘lgan moddalar. Antigenlik xususiyatiga ega bo‘lgan va bunday xususiyatga mutlaqo ega bo‘lmagan A. (Mas.: mineral tuzlar, yog‘lar, achchiqtosh va x. k.) mavjud.

Azoospermiya — urug‘ suyuqligi (shahvat) da spermatozoidlar bo‘lmasligi. Urug‘ bezlarining nuqsonlari, ikki tomonlama kriptorxizm, moyak istisqosi, varikotsele, moyak yallig‘lanishida kuzatiladi. Parotit, so‘zak, sil, surunkali alkogolizm, diabet va b. dan keyin ham bo‘lishi mumkin. Xaqiqiy (urug‘ ishlab chiqarmagandagi) va soxta (spermatozoidlarning o‘tish yo‘li beqilganda) A. farq qilinadi.

Azot muvozanati — organizmga bir kecha-kunduzda ovqat tarkibida kirgan umumiy azot bilan undan tashqariga chiqqan umumiy azot orasidagi farq. O‘sayotgan yosh organizm musbat Az. m. ga ega, ya’ni uning tashqariga chiqarayotgan azoti qabul qilgan azotidan kam. Yetilgan katta organizm to‘la Az. m. da bo‘ladi. Ya’ni bir kecha-kunduzda qabul qilingan azot miqdori tashqariga chiqarilgan azot miqdoriga teng bo‘ladi. Manfiy Az. m. ovqat bilan qabul qilingan azot yetishmaganda, ayniqsa ayrim aminokislotalar ovqatda yetarli bo‘lmaganda, ba’zi kasallikkarda kuzatiladi. Bunda tashqariga chiqarilgan umumiy azot ovqat bilan qabul qilingan azotdan ortiq bo‘ladi.

Azotemiya — azotaemia, -ae, f (azote — azot + gr. haima — qon, frans.) — oqsil almashinuvi natijasida hosil bo‘ladigan azotli mahsulotlarning (siydkhil, siydk kislotasi, kreatin, indikan va b.) qonda ortiqcha ko‘payishi. Buyrak kasalliklarida, to‘qima oqsillari ko‘proq parchalanganda (mas. kuyish, jaroxatlanish, keng yallig‘lanish oqibatida), organizmda oqsil almashinuvi chiqindilari to‘planib qolganda (Mas.: buyrak kasalliklari, siydk yo‘li tiqilib qolishi). Retension va produksion azotemiyalar farqlanadi. Qonga normal miqdorda azotsaqllovchi moddalar tushishiga qaramasdan ularning siydk bilan

yeterli miqdorda chiqarilmasligi natijasida retension azotemiya hosil bo‘ladi. Oqsillarning ko‘p miqdorda parchalanishi natijasida, qonga azot saqlovchi moddalarning oshishi produksion azotemiyaga deb ataladi.

Akineziya — aknesia, -ae-, f (a + kinesis — harakat; sin. akinezis, gr.) — faol harakatlar bo‘lmashigi; bunda bemorning harakatlanish jarayoni susayshi — gipokinez — harakatlarning kuchi, tezligi pasayishi kuzatiladi. Shuning uchun ham u kamharakat bo‘lib qoladi. Bosh miya to‘qimalarining yallig‘lanishi, tushkunlik holatlari, ayrim dorilarni suiiste’mol qilish va b. sabab bo‘ladi. A. da giperkinez holati — kuchaytirilgan, oshgan harakatlari muskullar taranglashadi, titrash-qaltirash alomatlari paydo bo‘ladi, yuz muskullarining qotib qolishi natijasida bemorning yuzidagi imo-ishora tuyg‘ulari sezilmaydi, u yurib ketayotganida qo‘llari mutanosib harakat qilmay, xuddi qamchiday osilib qoladi, tupuk yutish qiyinlashadi, og‘izdan so‘lak oqadi va b.

Akroalgiya — vegetativ nerv sistemasining periferik qismi zararlanishi tufayli qo‘l-oyoq barmoqlarining tutib-tutib og‘rishi.

Akromegaliya — acromegalia, -ae, f (akron — qirra, qo‘l, oyoqlar + megas, megale — katta, gr.) gipofiz o‘sish gormonini ortiqcha ishlab chiqarishi natijasida kelib chiqadigan endokrin kasallik. Xarakterli belgilari: bosh og‘rig‘i, jinsiy bezlar faoliyatining buzilishi, darmonsizlik, tashqi qiyofaning o‘zgarishi (burun, jag‘ suyaklari, qosh usti ravog‘i va qo‘l-oyoq panjalarining haddan tashqari o‘sib ketishi), ichki organlarning kattalashishi, moddalar almashinuvining buzilishi.

Akrotizm — qon tomirini paypaslab tekshirganda pulsning yuqligi yoki sezilmashigi. Qon tomir kasalliklarida kuzatiladi.

Akrotsianoz — yurak yetishmovchiligi, venada qon dimlanishi, qon aylanishining buzilishi va b. natijasida qo‘l-oyoq barmoqlari terisining ko‘karishi.

Aksirish — murakkab ximoyaviy reflektor harakat. Burun shilliq pardasining turli hidli moddalar ta’sirida, shuningdek boshqa sabablarga ko‘ra qitiqlanishidan kelib chiqadi.

Akuzalgiya qulodagi sanchiqsimon og‘riq.

Algeziya — og‘riq sezuvchanlik; bu teri og‘riq sezuvchanligining yo‘qolishi (analgeziya), kamayishi (gipoalgeziya), g‘ayritabiiy sezgi paydo bo‘lishi (dizalgeziya) ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Alimfiya — aslida organizmda mutloq limfa bo‘lmashigi; lekin A. deganda organizmning biror organi yoki to‘qimasida limfa miqdorining nihoyatda kamayib ketishi tushuniladi.

Alimfotsitoz — alymphocytosis, -is, f (a + lymphocytus — limfotsit, gr.) — Kasallik autosom-retsessiv turda nasldan naslga o‘tadi. A. qonda immunglobulinlar miqdori me’yorda bo‘lganligiga qaramasdan limfotsitlarning son va sifat jihatidan yetishmovchiliklari kuzatiladi. Timusning funksiyasi yetishmovchiligi tufayli

timusga tobe bo‘lgan limfotsitlar shikastlanadilar. Suyak ko‘migida limofitsitlar hosil bo‘lishi o‘zgarmaydi.

Aleykiya — aleukia, -ae, f (a + leukos — oq, gr.) — qondagi trombotsitlar sonining kamayishi va eritrotsitlar yaratilishining qiyinlashuvi bilan birqalikda donador leykotsitlarning kamayishi yoki umuman yo‘qolishi. Gemorragik, har xil kimyoviy zaharlar ta’sirida va alimentar-toksic A. aynigan (o‘zgargan) boshoqlilar edirilganda hosil bo‘ladigan A. lar farqlanadilar.

Alkaloz — alkalosis, -is, f (alkali — ishqor + -osis — me’yordan tashqari oshib ketishi, lot.) — organizmda kislota-ishqor muvozanati buzilib, qonning ishqoriylik xossasi ortishi (qonda vodorod ionlari konsentratsiyasining kamayishi). Gazli yoki nafas (respirator) A. karboangidrid ko‘p miqdorda chiqarilganda, gazziz modda almashinushi (metabolik) A. uchmaydigan kislotalar yoki ishqorlarning almashinushi buzilganda (kislotalarning kamayishi yoki ishqorlarning oshib ketishi), Qon rNning ikki turdagи alkalozga ta’siriga qarab kompensatsiyalangan, kompensatsiyalanganmagan A. farq qilinadi.

Alkaptonuriya — autosom-retsessiv yo‘l bilan nasldan-nasnga o‘tadigan irsiy kasallik; unga gomogentizinaza fermenti faolligining susayishi tufayli tirozin almashinuvining buzilishi sabab bo‘ladi. Kasallikda katta yoshdagи odamlar organizmi to‘qimalarida gomogentizat kislota to‘planib, siyidik bilan ko‘plab ajraladi, to‘qimalar pigmentlanadi va artroz paydo bo‘ladi. Bolalarda esa asosan siyidik, ba’zan qo‘loq kiri qora rangga kiradi.

Alkogolizm — ashaddiy ichkilikbozlik; muntazam ravishda me’yordan ortiq spirtli ichimliklar ichaverish (alkogolomaniya). Alkogolga jismoniy va ruhiy jihatdan tobe bo‘lish, ruhiy va ijtimoiy jihatdan tubanlashish, ichki organlar, markaziy va periferik nerv sistemasining kasallanishi, moddalar almashinuvining izdan chiqishi bilan kechadi. Mudom ichib yurish (surunkali alkogolizm) inson organizmining hamma sistemalari va organlari faoliyatiga putur etkazadi.

Allergen — allergenum, -i, n (allos — o‘zga, boshqacha + ergon — ta’sir + genesis — kelib chiqishi, gr.) 1) allergiyaga sabab bo‘ladigan *antigen* yoki *gapten* modda. Ekzoallergenlar (mikroblar, gul changlari, oziq-ovqat mahsulotlari, dorilar va b.) organizmga tashqi muhitdan kiradi; *autoallergenlar* muayyan sharoitlar (lat yeyish, kuyish, infektsion jarayon va b.) da organizmning o‘zida hosil bo‘ladi; 2) allergik kasalliklarni aniqlash va davolash uchun qo‘llaniladigan mahsus preparat.

Allergiya — allergia, -ae, f (gr. allos + ergon) — atrof muhitning *allergenlar* (kimyoviy moddalar, mikroblar va ularning hayot faoliyatida hosil bo‘ladigan mahsulotlar, oziq-ovqatlar) ta’sirida organizmning o‘ta sezgir bo‘lishi. Tajribaviy hayvonlarda allergenning birinchi ta’siridagi hosil bo‘lgan allergik reaksiya nospetsifik reaksiyalardir. Allergenga nisbatan javob reaksiyasi darhol yoki asta-

sekin o'ta sezuvchanlik ko'rsatish orqali sodir bo'ladi. Darhol hosil bo'ladigan allergik reaksiyalar (teridagi va tizimli) organizmga spetsifik allergen ta'siridan keyin 15-20 minutda paydo bo'ladilar, ular ko'pincha organizmning suyuq muhitlarida allergen – antitana qatnashgan reaksiyasida paydo bo'ladilar. Teri A. teriga allergen kiritilgandan so'ng bir necha daqiqada paydo bo'ladilar. Darhol kechadigan A. reaksiyalarga anafilaksiya, zardob kasalligi misol bo'lishi mumkin. Sekin kechuvchi A. reaksiyalar bir necha soat, sutkalardan keyin paydo bo'lib, ular hujayraviy darajada asosan T-limfotsitlar orqali amalga oshadilar. Sekin kechuvchi A. reaksiyalarga tuberkulin reaksiyasi (bakterial allergiya), kontakt turi (kontakt ta'sirida hosil bo'ladigan dermatit), ayrim doridarmonlar ta'sirida hosil bo'ladigan allergiya (medikamentoz allergiya), transplantatning ko'chib tushishi reaksiyasi.

Alopetsiya — alopecia, -ae, f (gr. alopechia — sochlар to'kilishi, alopecia — tulki) — kallik, sochlар yoki junning to'kilishi, tulki kasalligi. Tug'ma A. — juda kam uchraydi, vaqtidan ilgari A. — yosh xayvonlarda kuzatilib sekin rivojlanadi; simptomatik A. — organizmdagi umumiy yoki mahalliy rivojlangan patologik jarayonlarda (o'tkir infektsion kasallik, gipovitaminozlar, endokrin buzilishlar, anemiyalar, tuberkulyoz, kaxeksiya va b.) kuzatiladi.

Albinizm — albinismus, -i, m (lat. albus — oq + gr. ismus — normadan tashqari holat) — odam va xayvonlar terisida, tuklarida, ko'zining rangdor pardasida tug'ilishdan pigment bo'lmasligi, odamning soch-tirnoqlaridan tortib, butun badani oppoq (*to 'la* A.) yoki badanning bir qismi oq (*chala* A.) bo'lishi. Albinoslar tanalari sust rivojlanganligi, infeksiyalarga nisbatan rezistentligi pastligi, terisi ultrabinafsha nurlarga juda sezgirligi, kunduzi yaxshi ko'rmasdan kechqurun yashiroq ko'rishlari bilan ajralib turadilar.

Alveola — 1) bezning kataksimon oxirgi qismi; 2) o'pkadagi pufakcha; kapillyarlar bilan qoplangan. A. orqali gazlar almashinushi sodir bo'ladi; 3) tish katakchasi — jag'ning tish ildizi joylashadigan chuqurchasi.

Alveolotsit — o'pka alveolalari devorini qoplovchi epiteliy hujayrasi. O'pka alveolalarida **I**, **II** va **III** tip A. hujayralari farq qilinadi. **I** tip A. yassi shaklda bo'lib, apikal yuzasida mikrovorsinkalar to'tadi, o'pka alveolalarida gaz almashinuvini boshqaradi. **II** tip A. kattaligi 8—12 mkm ovalsimon yoki ko'p burchakli hujayralar bo'lib, ular *surfaktant* ishlab chiqaradi. **III** tip A. birmuncha kam miqdorda bo'lib, turli nerv oxirlariga ega, serotonin va b. biologik faol moddalar ishlab chiqaradi.

Aldosteron — buyrak usti bezi po'st qavatining yuqori faoliyatga ega mineralkortikoid gormoni. Boshqa adrenokortikal gormonlardan molekulasida aldegid turkum tutishi bilan farqlanadi. Eng muhim mineralkortikoid, NaS1 so'rilishini va kaliyiing siydir bilan ajralishini rostlab turadi.

Aldosteronizm, giperaldosteronizm — aldosteron ko‘p ishlab chiqarilishi natijasida paydo bo‘ladigan kasallik. Birlamchi (Konn sindromi) va ikkilamchi A. farq qilinadi. Birlamchi A. ga buyrak usti bezi po‘st qavatining giperplaziysi yoki adenomasi sabab bo‘ladi. Ikkilamchi A. buyrak usti bezining shikastlanishi bilan bog‘liq bo‘lmay, angiotenzin II uzoq muddat davomida aldosteron sekretsiyasini kuchaytirishi natijasida kelib chiqadi. Bunday holat nefrotik sindrom, jigar sirrozi va b. kasalliklarda kuzatiladi.

Alterativ yallig‘lanish — (lot. altero — o‘zgartirish, shikastlash + inflamatio, onis, f.; syn. phlogosis, is, f., gr.) — kompleks yallig‘lanish reaksiyasida qon tomir – mezenximal o‘zgarishlar (ekssudatsiya, hujayra elementlarining proliferatsiyasi) sust rivojlanib destruktiv komponentlar (distrofik, nekrotik, atrofik) ustun keladigan murakkab patologik jarayon. Ko‘pincha ichki a’zolarda (jigar, buyrak, yurak mushaklarida) intoksikatsiya, nerv sistemasining trofik funksiyasining buzilishlari va giperergik yallig‘lanishda kuzatiladi.

Alteratsiya — alteratio, -orris, f (alterare — o‘zgartirish, shikastlash, lat.) — hujayra, to‘qima va organlarning shikastlovchi ta’sirlar (mexanik, kimyoviy, elektr va b.) oqibatida tuzilishining destruktiv (distrofik, nekrotik, atrofik) o‘zgarishi va faoliyatining buzilishi. A. barcha patologik jarayonlar va kasalliklarning boshlang‘ich davrini belgilaydi. Shikastlovchi agentning bevosita ta’siri bilan bog‘liq bo‘lgan birlamchi A. va shikastlangan joyga bog‘liq bo‘lgan nerv reflektor va gumoral ta’sirotlardan yuzaga keladigan ikkilamchi A., shuningdek to‘qimalarga allergik antitelolar, antigen-antitelo birikmasi yoki sezuvchanligi ortgan limfotsitlar ta’siridan yuzaga keladigan allergik A. farqlanadi.

Amiloidoz — amyloidosis, -is, f (amylon — kraxmal + eidoss — turi, gr.), hujayradan tashqarida oqsillar almashinuvining chuqur buzilishi natijasida mononuklear makrofagal tizimi hujayralari tomonidan fibrillyar oqsil (preamiloid), keyinchalik oraliq to‘qimalarda hujayralar orasida, qon tomirlar bo‘ylab va devorlarida, undan tashqari taloq, jigar, buyraklar, buyrak usti bezi va ichaklarda anomal fibrillali murakkab oqsillar — amiloid hosil bo‘lishi va to‘planib qolishi. Surunkali yallig‘lanish jarayonlarida kuzatiladigan to‘qima oqsillari parchalanishida, undan tashqari immunokompetent hujayralarining irsiy yetishmovchiligi yoki genetik apparatidagi anomaliyalarida (mutatsiya) kuzatiladi. A. parenxima atrofiyasi, skleroz va organlarning funksional yetishmovchiligiga olib keladi.

Amiloreya — o‘zlashtirilmagan kraxmalning axlat bilan ko‘p miqdorda chiqarilishi. U ichak qisqarishlarining kuchayishi to‘xtovsiz yuz berishi natijasida ovqat ichakdan tez o‘tib kyetganda yoki me’da osti bezining faoliyati buzilganda, xususan kraxmalni parchalovchi ferment yetishmaganda kuzatiladi.

Aminoatsidemiya — qonda aminokislolar miqdorining ortishi; irsiyat bilan bog‘liq bo‘lgan aminokislolar almashinuvining izdan chiqishi yoki jigarning dezaminlanish faoliyati buzilishi oqibatida vujudga keladi.

Aminoatsiduriya — siydik bilan aminokislolarlarning ko‘p ajralishi. Moddalar almashinuv jarayonida fermentlar yetishmasligi ba’zi aminokislolarlarning buyrak qil naychalaridan qayta so‘rilishining buzilishi sabab bo‘ladi. Irsiy, xavfsiz va boshqa A. farqlanadi.

Amneziya — amnesia, ae, (gr.) — es aynishi, xotira susayishi. Anteretrograd amneziya — odamnmng ruhiy kasallikka uchragandan yoki jarohat olgandan keyin hodisalarni esda saqlay olmasligi. Retrograd amneziya odamning kasal bo‘lishdan ilgari o‘tgan hodisalarni unutishi.

Anabioz — anabiosis, -is, f (ana — yana + bios — hayat, gr.) — organizm hayot funksiyalarining deyarli to‘liq, lekin qaytarib bo‘ladigan darajada to‘xtab qolish holati. A. — tashqi muhitning salbiy ta’sirotlariga qarshi moslashish reaksiyalaridan biri. Harorat yoki namlik o‘zgarishiga gipoiboz shaklidagi himoya reaksiyasi hosil bo‘lishi mumkin. A. da organizmning noqulay omillarga (kislород yetishmovchiligi, och qolish, intoksikatsiyalar va b.) qarshi organizmning chidamliligi oshishi, mas. ion hosil qiluvchi nurlanish ta’siriga qarshi.

Analgeziya, analgesia, -ae, f; analgia, ae, f (a — inkor qilish + algos — og‘riq, gr.), analgiya — og‘riq sezgisi yo‘qligi. Analgeziyalovchi moddalar tanlab ta’sir qilganida markaziy nerv sistemasiga ta’sir qilib og‘riqni pasaytiradi yoki bartaraf qiladi. Ta’sir qilish mexanizmiga va o‘ziga xos xususiyatlari ko‘ra analgeziyalovchi vositalar narkotik va narkotik ta’sir ko‘rsatmaydiganlarga bo‘linadilar.

Anaplaziya, anaplasia, -ae, f (ana — qaerda, ostida, ustida + plasco — hosil bo‘laman, gr.), aplaziya — organ kurtagining, undan tashqari o‘sma to‘qimasini ta’riflaydigan xusiyatlari yig‘indisining tug‘ma mavjud bo‘lmashigi (yo‘qligi) – morfologik (to‘qima, hujayra va subhujayra), gistokimyoviy va biokimyoviy anaplaziya, yoki atipizm.

Anasarka, anasarca, -ae, f (ana + sarx, sarcos — go‘sht, gr.) — teri va teri osti kletchatkasining umumiyligi yoki juda tarqalgan shishining hosil bo‘lishi.

Anafilaksiya, anaphylaxia, -ae, f (ana + aphylahis — himoyasizlik, gr.) — Allergen parenteral yo‘l bilan yuborilganida, uning ta’siriga javoban darhol kechadigan allergik reaksiya hosil bo‘lishi. A. passiv va aktiv bo‘lishi mumkin; birinchisi parenteral antigen qaytadan yuborilganda, ikkinchisi – allergen allergik antitanalar bilan birikkanda hosil bo‘ladi.

Anafilaktik shok (scok — zarba, turtish, larzaga keltirish, frans.) — Qo‘zg‘alish va tormozlanish reaksiyalarining fazali o‘zgarishlariga olib keladigan MNS faoliyati buzilishi bilan kechadigan anafilaksiyaning bir og‘ir ko‘rinishi.

Qo‘zg‘alish bosqichi talvasa ko‘rinishlarida (sensomotor analizatorlarining qo‘zg‘alishi) kuzatiladi. Qon tomirlar nafas markazlarining qo‘zg‘alishi hansirash va qon bosimining ko‘tarilishiga olib keladi. Qo‘zg‘alishdan keyin tormozlanish bosqichi rivojlanib, bu paytda harakatlanish qo‘zg‘alishlari, nafas olish harakatlari siyrak va chuqur bo‘ladi. Dori vositalari, zardob, vaksina, oziq-ovqat, hasharotlar chaqqani, teri diagnostik sinamalari o‘tkazilgani va spetsifik giposensibilizatsiya o‘tkazilgani bilan bog‘liq bo‘lgan A. sh. turlari ajratiladilar.

Anevrizma, aneurysma, -atis, n (gr. aneuryno — kengaytirish) — arteriyaning chegaralangan yoki diffuz kengayishi. Ko‘pincha otlarda va itlarda aorta, charvi, tashqi ichak tutiqichi, boldir, tizza osti, yelka arteriyalari jarohatlanadi.

Anemiya, anaemia, -ae, f (an — inkor qilish + haima — qon, gr.) — kamqonlik — qonning hajm birligida eritrotsitlar va gemoglobinning kamayishi bilan kechadigan patologik holat. A. qon yo‘qotishdan, qon hosil bo‘lish (gemopoetik) funksiya pasayishida, eritrotsitlarning toksik gemolizida, qonga zaharlar ta’siridan, infeksiya va invaziyalardan, to‘la qimmatga ega bo‘lmagan oziqlanishdan keyin hosil bo‘ladi. A. undan tashqari tananing biron qismi yoki biror a’zoda oqib keladigan qon miqdori kamaygan lekin chiqariladigan qon hajmi o‘zgarmaganida kuzatilishi mumkin. To‘liq qonsizlanish *ishemiya* (gr. ischo — to‘xtatmoq, to‘xtatib qolmoq). Anemiyalar tasnifi bo‘yicha: 1) eritrotsitlar gemoglobin bilan to‘yinganiga ko‘ra — giperxrom, normoxrom, gipoxromlarga; 2) eritrotsitlarning o‘rtacha diametri bo‘yicha — mikrotsitar, normotsitar, makrotsitarga; 3) suyak ko‘migining regenerator funksiyasining xususiyatiga qarab — regenerativ, giporegenerativ, aregenerativlarga (aplastik anemiyalarga) bo‘linadilar;

Anesteziya, anaesthesia, -ae, f (an — inkor qilish + aisthesis — sezish, his qilish, gr.) — sezgirlikning yo‘qotilishi. Sun’iy anesteziya — umumiylar va mahalliy, to‘liq va nerv sistemasining turli qismlarida patologik jarayonlar natijasida kuzatiladigan qisman anesteziyalar farqlanadi. A. asosida — Bosh miya pusloq moddasining teri analizatorlari bo‘limiga periferiyadagi retseptorlardan boradigan impulslarining blokadalinishi (to‘xtab qolishi) yotadi.

Anizotsitoz, anisocytosis, -is, f (anisos — teng emas + kytos — hujayra, gr.) — periferik qonda katta-kichik qon shaklli elementlari — eritrotsitlarning paydo bo‘lishi. A. anemiyalarning eng birinchi belgilardan biri hisoblanadi. Makro- yoki mikrotsilar ko‘pligiga qarab makro- va mikroanizotsitoz farqlanadi. Anemianing yengil shakllarida (eritrotsitlarning boshqa o‘zgarishlari kuzatilmaydi) ko‘pincha alohida A. uchraydi. Temirtanqisligi va gemolitik anemiyalarda ko‘pincha mikrotsitoz holatida mikrotsitarlar va mikrosferotsitarlar uchraydilar. Antigenlik holati moddalarning kimyoviy tuzilishi va immunizirlangan hayvonning turi va genetik konstitutsiyasiga bog‘liq bo‘ladi.

Anoreksiya, anorexia, -ae, f (an + arehis — ishtaha, gr.) — gipotalamus yoki bosh miya po'stloq moddasi analizatorlar darajasida ta'm bilish (ishtaha) markazining organik buzilishlari natijasida, ko'pincha endokrin bezlar organik kasalliklarida kuzatiladigan, ovqat qabul qilish ehtiyoji (ishtahaning) yo'qolishi. Patogenezini inobatga olganda intoksikatsion, dispepsik, neyrodinamik, nevrotik va psixogen dispepsiyalarga bo'linaidilar.

Anorxiya, anorhidiya, anorxizm — anarchismus, anorchidismus, i, t.(lot.) — butunlay moyak bo'lmasligi natijasida gormonal disfunksiya va evnuxoidizm (axtalik) yuz berishi. Bunda moyak ortig'i va urug' yo'li ham bo'lmasligi mumkin.

Anosmiya — anosmia seu anospresia, ae, f. — hid bilmalik; ko'pincha burun bo'shlig'i to'qimalarining o'tkir va surunkali yallig'lanishi, shuningdek hid bilish nervining zararlanishi, MNS faoliyatining buzilishi va b. sabab bo'ladi.

Antatsid moddalar — antacidi is, f. (an- ant- inkor qilish acidi – kislota),— ishqoriy xossaga ega bo'lgan va me'da shirasi tarkibidagi xlorid kislotani neytrallash (bartaraf yetish) uchun qo'llaniladigan dorilar. An. m. dan natriy gidrokarbonat, magniy oksid va b. me'da shirasida kislota ko'payib kyetgan gastritlarda, me'da va o'n ikki barmoq ichak yaralarida qo'llaniladi.

Antigenlar — antigena, orum, n., pl. (gr.) — organizmga tushib, immunologik javob reaksiyasi paydo qiladigan har qanday moddalar o'ziga xos maxsus zidjismlar hosil qilish bilan ifodalanadi.

Antioksidant moddalar — molekulyar kislorod bilan oksidlanish jarayonining oldini oluvchi yoki sekinlashtiruvchi moddalar (tokoferol atsetat, retinol atsetat va b.). Ular lipidlarning erkin radikal oksidlanishini tormozlaydi. Asosan aterosklerozni davolashda ishlataladi.

Antitelolar anticogrora, -urn, n., pl. (gr. anti + lat. cogrus — jism) — (zidjismlar) — odam va issiq qonli hayvonlar qoni zardobidagi immunoglobulinlar, antigenlar bilan o'ziga xos tarzda birikadi. Mikroorganizmlar bilan o'zaro ta'sir etib, ularning ko'payishiga to'sqinlik qiladi yoki ular ajratgan zaharli moddalar (toksinlar)ni zararsizlantiradi. Ayrim patologik holatlarda organizmda o'z antigeniga nisbatan A. paydo bo'lib, ular turli organlarning zararlanishiga olib keladi. A. ning antigenlar bilan bo'ladigan reaksiyalaridan turli kasalliklarni aniqlashda, mikroorganizmlarni bir-biridan ajratib olishda, sud tibbiyotida foydalilanadi.

Antitoksinlar — antitoxinum, i, n. (gr. anti + lot. toxinum - zahar) organizmga tushgan bakteriyalar, o'simliklar va hayvonlar toksinini zararsizlantiradigan o'ziga xos oqsillar (antitelolar).

Antrakoz — anthracosis, is, f. (gr.) 1) toshko'mir changi bilan mutazam nafas olish natijasida paydo bo'ladigan pnevmokonioz; 2) toshko'mir changining organ va to'qimalarda o'tirib qolishi.

Anuriya — anuria, -ae, f (gr. an — inkor yetish + uron — siyidik) – siyidik tutilishi; bunda buyrakda hosil bo‘lgan siyidik qovuqqa tushmaydi. Prerenal (buyrakoldi) A. yurak yetishmovchiligi, kollaps, ko‘p qon yo‘qotish, shok, qattiq shikastlanish, o‘tkir zaharlanishlardan keyin, renal (buyrak) A. buyrak kasalliklari, organik moddalar bilan zaharlanishlarda, o‘tkir buyrak yetishmovchiligining asorati sifatida, postrenal (buyrakorti, ekskretor, obturatsion) A. esa yuqori siyidik yo‘llarida siyidik oqimini to‘suvchi biror illat bo‘lishi oqibatida (ikki tomonlama buyrak toshi kasalligi, siyidik chiqaruvchi naylarning o‘sma tomonidan ezilib qolishi). Reflektor–periferik A. sog‘lom buyrakka organizmning turli tizimlarining ta’sir qilishi (siyidik chiqarish yo‘llarini keygaytirish (bujirovanie) muolajasi, sovuq suvga kirganda) natijasida vujudga keladi; reflektor–buyrak A. kasallangan buyrakning siyidik chiqarish yo‘li obturatsiyasi natijasida sog‘lom buyrakka ta’sir qilishi (reno–renal refleks) natijasida hosil bo‘ladi. Intoksikatsion A. umumi og‘ir intoksikatsiya (sepsis, ichak o‘tzazuvchanligining buzilishi) va travmatik A. mas. ezilish sindromi natijasida hosil bo‘ladi.

Aneozinofiliya — qonda eozinofillar bo‘lmasligi; sepsis, ich terlama (qorun tifi) va b. kasalliklarda uchraydi.

Aorta — aorta, ae, f.; ((gr.); aorte – shotomir) — odam organizmidagi eng katta va uzun yagona qon tomiri; yurakning chap qorinchasidan chiqib, tananing hamma qismlariga tarmoqlanadi. Binobarin, katta qon aylanish doirasining bosh arteriyasi hisoblanadi. Joylashgan o‘rniga qarab yuqoriga ko‘tariluvchi, aorta ravog‘i va pastga tushuvchi qismlarga bo‘linadi.

Aortit — aortitis, itidis, f. (gr.) — aorta devorining yallig‘lanishi. A. infektsion va allergik bo‘ladi, kasallik o‘tkir va surunkali kechadi. Mikroblar qon, limfa orqali va qo‘shni organlardan o‘tishi mumkin. A. ko‘pincha zaxm natijasida kelib chiqadi. Kasallikda to‘shning orqasi og‘rib, aorta bir oz kengayadi.

Apatiya — apathia, ae, f. (gr.) — ishtiyorning yo‘qolishi; beparvo, loqayd bo‘lib qolish. A. ko‘pincha *abuliya* holati bilan birga uchraganligi tufayli *apato-abulik sindrom* deb ataladi. Bunda bemorlar tashqi muhitga qiziqmay, hamma narsaga — o‘qish, ish, hatto suygan kishilariga ham butunlay beparvo bo‘lib qolishadi. A. shizofreniya, bosh miyaning og‘ir zararlanishlari bilan kechadigan xastaliklarda uchraydi.

Apepsiya — 1 — me’daning pepsin fermentini biror sababga (tug‘ma hamda irsiy) ko‘ra ajratmasligi; 2 — q. Me’da ahiliyasi.

Apireksiya — pyrexia, ae, f. (an + pyrexia isitma, gr.) aslida isitma bilan kechadigan kasalliklarda gavda haroratining ko‘tarilmasligi; ayrim kasalliklar, Mas.: bezgak, qaytalama terlama va h. k. ni farqlash diagnostikasida ahamiyatga ega.

Aplaziya — q. Anaplaziya.

Apnoe — apnoe, -es, f (a — inkor yetish + rnoe — nafas olish, gr.) nafas olishning vaqtincha to‘xtab qolishi yoki chaqaloqlarda uzoq vaqt to‘xtab qolishi, undan tashqari tez-tez va chuqur nafas olish natijasidagi o‘pkalarning kuchli giperventilyasiyasi — giperpnoedan keyin.

Apopleksiya — apoplexia, ae, f. (gr.) — biror a’zoga to‘satdan qon quyilishi.

Apoptoz — apoptosis (barglar so‘nishi, gr.) — programmalashtirilgan hujayra o‘limi – hujayraning genetik programmasi amalga oshirilishining natijasi bo‘lgan, yoki tashqi kuchlar ta’siriga javob sifatida, energiya sarflanishi va makromolekulalar (endonukleazalar, kaspazalar yoki yangi proteinazalar) sintezini talab qiladigan hujayraning o‘zini o‘zi qismlarga bo‘lib buzish natijasida hujayra ichi moddalarini saqlaydigan membrana vezikulalari shaklidagi hosil bo‘lgan apoptoz tanachalarni, nekrozdan farqli ravishda, yallig‘lanish reaksiyasisiz, fagotsitoz qilinishi.

Appendiks — appendix, icis, f. (lot.) — ko‘richakning chuvalchangsimon o‘sintiasi. o‘rtacha uzunligi 8—15 sm. Ko‘richakdan A. ga o‘tadigan teshik diametri 5 mm. A. shilliq, shilliq osti, ikki qator muskul qavat, seroz osti va seroz qavatlardan iborat.

Appenditsit — appendicitis, itidis, f. (lot.) — ko‘richak chuvalchangsimon o‘sintasining yallig‘lanishi. A. o‘tkir va surunkali bo‘ladi. O‘tkir A. patologoanatomik o‘zgarishlarga ko‘ra Ashof birlamchi affekti A-simon yallig‘lanishidan boshlanib, destruktiv va nodestruktiv xillarga bo‘linadi. Nodestruktiv xiliga oddiy A. va appendikulyar sanchiq; destruktiv xiliga esa flegmonoz, gangrenoz (birlamchi va ikkilamchi), teshikli (perforativ) A. kiradi. Klinik belgilari: kasallik boshlanishida qorin bo‘shlig‘ining to‘sh osti sohasi, keyin o‘ng biqin to‘satdan sanchib og‘riydi, bemorning ko‘ngli ayniydi, 1—2 marta qayt qiladi, tomiri tez ura boshlaydi, harorati ko‘tariladi. Qonini tekshirib ko‘rilganda oq qon tanachalari ko‘payib kyetganligi ma’lum bo‘ladi. Leykotsitlar intoksikatsiyasi indeksi oshadi. Appenditsitda, appendikulyar infiltrat (madda) xilidan tashqari hollarda bemor albatta operatsiya qilinadi.

Araxnidizm — odamni zaharli o‘rgimchaklar chaqqanda yuzaga keladigan dermatoz; o‘rgimchak chaqqan joy qizaradi, shishadi, pufak-pufak bo‘lib chiqadi, badanga turli toshmalar toshadi, ba’zan ich ketishi, tirishish hollari kuzatiladi.

Araxnoidit — arachnoiditis, arachnitis, itidis, f. (gr.), leptomenitis externa. — bosh yoki orqa miyadagi o‘rgimchak to‘risimon pardanering yallig‘lanishi; miyaning yumshoq pardasi yonma-yon joylashganligi uchun ular odatda birga yallig‘lanadi. O‘tkir va surunkali yuqumli kasalliklar, Mas.: gripp, tumov, nafas yo‘llarining yallig‘lanishi, kalla suyagi va umurtqa pog‘onasi jarohatlaridan so‘ng, har xil zaharlanishlar oqibatida kelib chiqishi mumkin. A. da o‘rgimchak to‘risimon va yumshoq pardalar qalinlashadi, bosh va orqa miya suyuqligining aylanishi 20

buziladi, bu esa miya ichki bosimini oshirib, uzoq vaqt bosh og‘rishiga sabab bo‘ladi.

Argiroz — argyrosis seu argyriasis, is, f. (gr.); argyrismus, i, m. (gr.); argyria, ae, f. (gr.) — teri, shilliq qavatlar, ichki a‘zolar, ko‘zda ko‘ng‘ir yoki qoramtilr kulrang dog‘ bo‘lishi. To‘qimalarda kumush to‘planishidan yuzaga keladi. Kasbga oid va doridan bo‘ladigan A. farq qilinadi.

Arefleksiya — areflexia, ae f. — bir yoki bir necha refleksning yo‘qolishi . Reflektor yoyning butun emasligi yoki bosh miya faoliyatining susayishi sabab bo‘ladi. A. muskullarning ozishi, tonusining pasayishi kabi bir qancha o‘zgarishlar ko‘rinishida ro‘y beradi.

Aritmiya — arrhythmia (gr. a + rhythmos — ritm, lat. cor, cordis — serdse) arrhythmia cordis — yurak aritmiysi, yurak muskullarining qo‘zg‘aluvchanlik, o‘tkazuvchanlik va qisqaruvchanliklari buzilishi natijasida yurak qisqarishlari normal maromining (chastotasi, ritmi va ketma-ketligining) buzilishi. A. turli miopatiyalarda (miokardit, miokardiodistrofiya, kardioskleroz), asosan o‘tqazuvchan sistemaning shikastlanishi, turli infeksiya va intoksikatsiyalarda kuzatiladi. Yuqorida keltirilgan o‘zgarishlar bradikardiya, taxikardiya, sinusli A. yoki ekstrasistoliyaga sababchi bo‘lishi mumkin. Qo‘sishimcha impuls hosil bo‘ladigan joyga qarab bo‘limachalar, atrioventrikulyar va qorinchalar ekstrasistolasi farqlanadi. Chuqur nafas olganda yurak qisqarishining tezlashishi, nafas chiqarilganda kamayishi (nafasga aloqador A.) ko‘proq, bolalar va o‘smlarda kuzatiladi, yurakning navbatdan tashqari oldinroq qisqarib qolishi (ekstrasistolik A.), maromli faoliyatning izdan chiqishi (hilpillovchi A.) va b. A.ga yurak muskullarining kasalliklari, nevrozlar, alkogol va nikotindan zaharlanish sabab bo‘lishi mumkin.

Arteriit — arteriitis, -tidis, f (gr. arteria — arteriya + -itis — yallig‘lanish) — arteriya devorining yallig‘lanishi. Allergenlar ta’sirida yuzaga keladigan allergik A., infeksiya ko‘zg‘atuvchisining tomirlar devoriga bevosita ta’siri bilan bog‘liq bo‘lmagan zaharli allergik ko‘rinishdagi aseptik A., yuqumli kasalliklar (revmatizm, skarlatina, gripp va b.) oqibatida kelib chiqadigan yuqumli A. farqlanadi.

Arterioskleroz — arteriosclerosis, -is, f (arteria + skleros — quruq, qattiq, gr.) — arteriya devorining qalinlashishi va qattiqlanishidan iborat surunkali kasallik. Tomir devorida fibroz to‘qima o‘sib ketishi oqibatida u qattiqlashib, elastikligini yo‘qotadi. Natijada qon tomir bo‘shlig‘i torayadi va shu tomirdan qon oladigan to‘qima faoliyati pasayadi. A. qariyalarda, yuqumli-allergik kasalliklar va b. da kuzatiladi.

Arroziya — 1) qon tomirlari devorining yemirilishi. Bu ko‘pincha me’da va ichakning yara kasalligida, yaralar yiringlab o‘sha joydagi qon tomirlari devorining

butunligi buzilganda kuzatiladi; 2) bo‘g‘imlar yallig‘langanda yoki o‘sma paydo bo‘lganda ularni tashqil qiluvchi suyak boshidagi tog‘ayning yemirilishi.

Arterial bosim — arteriya tomirlari ichidagi bosim. A. b. ning yuqori yoki past bo‘lishi asosan yurak qisqarishlarining kuchi va yurakning har qisqarganda tomirlarga haydaydigan qon miqdori, periferik tomirlar devorining qon oqimiga ko‘rsatadigan qarshiligi va qisqa vaqt birligida yurak qisqarishlarining soni bilan belgilanadi. Diastolik minimal bosim — diastolik arterial bosim. Yirik arteriyalarda diastolaning oxirida paydo bo‘ladigan bosim. Odamda normada 60—90 mm simob ustuniga teng. Sistolik maksimal bosim — sistolik arterial bosim. Sistola boshlangandan so‘ng arteriyalarda qisqa muddat davomida paydo bo‘ladi. Uning normal miqdori 100—140 mm simob ustuniga teng.

Arteriomalyasiya — arteriya devori to‘qimasining yumshashi.

Arteriospazm — arterial qon tomiri devoridagi muskullarning kuchli qisqarishi natijasida ularning qisilib torayishi. Ko‘pincha qon tomir kasalliklarida kuzatiladi.

Arteriyalar — arteriae, arum, f., pl. (gr.) — yurakdan chiqib, gavdaning barcha organlari va to‘qimalariga tarqaluvchi tomirlar. Ulardan kislород bilan to‘yingan qon oqadi. Har bir organning oziq moddalar va kislород bilan ta’minlaydigan o‘z arteriyasi bor. U aksariyat shu organ yoki yo‘naladigan joyining nomi bilan ataladi. Mas. songa — son arteriyasi, buyrakka — buyrak arteriyasi boradi va h. k.

Artralgiya — (gr. arthron – bo‘g‘im + algon) — bo‘g‘imlar og‘rig‘i; asosan artrit va artroz, shuningdek brutsellyoz, angina, gripp va b. ko‘pgina yuqumli kasalliklarda kuzatiladi. A. da bemor darmonsizlanadi, isitmasi ko‘tariladi, o‘z vaqtida davolanilmasa, zo‘rayib, qayta tiklab bo‘lmaydigan o‘zgarishlarga olib keladi.

Artrit — arthritis, -tidis, f (arthron — bo‘g‘im + -itis — yallig‘lanishi, gr.) — bo‘g‘imlarning yallig‘lanishi. Asosiy kasallik (Mas.: spondiloartrit) yoki boshqa kasallik (Mas.: revmatizm) belgisi bo‘lishi mumkin; bir (monoartrit) yoki bir necha bo‘g‘im (poliartrit) zararlanadi. Infeksiya (tif, paratif, sil, brutsellyoz va b.), moddalar almashinuvining buzilishi (Mas.: podagrada), lat yyeyish va b. sabab bo‘ladi. A. da bo‘g‘imlar og‘riydi, qizarib shishadi, shakli o‘zgaradi va harakati cheklanadi. O‘tkir, surunkali, allergik, yuqumli, revmatik (poliartrit), ekssudatli va b. A. farq qilinadi.

Artroz — arthrosis, is, f. (gr.) — bo‘g‘imlarning distrofik surunkali kasalligi. Moddalar almashinuvining buzilishi, bo‘g‘imlarning yallig‘lanishi, shikastlanishi, yuqumli kasalliklar oqibatida kelib chiqadi. Ko‘pincha 40—60 yoshli ayollar o‘rtasida uchraydi. A. da yirik (tizza, chanoq-son, boldir-oyoq panjası, bilak) hamda mayda bo‘g‘imlar, xususan umurtqa pog‘onasi bo‘g‘imlari (spondiloartroz)

zararlanadi. Suyaklar birikkan joylar shishadi, og‘riq seziladi, bo‘g‘imlar harakati cheklanadi va shakli o‘zgaradi.

Artroskleroz — arthrosclerosis, -is, f (arthro — bo‘g‘im + skleros — quruq, qattiq, gr.) bo‘g‘im kapsulasi to‘qimalari sklerozi. Yallig‘lanish jarayonlarida yuzaga keladi.

Artropatiya (pathos — qyynoq, azob, gr.) — surunkali deformatsiyalovchi artrozning turi, o‘tkir va surunkali bo‘g‘imlar shishlari oqibati.

Asistoliya — asystolia, ae, f. (gr.) — yurak barcha bo‘limlari yoki ulardan biri faoliyatining butunlay to‘xtab, bioelektrik faolligi belgilarining yo‘qolishi.

Askorbat Kislota — S vitamin (q. Vitaminlar).

Aspermazizm — aspermatismus, i, m.; aspermia, ae, f. — organizmda urug‘ suyuqlig‘i me’yorda hosil bo‘lib, jinsiy mayl va erekсия saqlansada, jinsiy aloqa vaqtida shahvat otilib chiqmasligi; jinsiy organlar va nerv sistemasi ba’zi kasalliklarining belgisi hisoblanadi. Erkaklarda bepushtlikning sabablaridan biri.

Aspermiya — aspermia, ae, f. — urug‘ suyuqlig‘i (shahvat) bo‘lmashligi.

Aspiratsiya — 1) nafas olish paytida nafas yo‘llariga turli yot jismlar tushib qolishi; 2) maxsus asboblar yordamida tananing biror bo‘shlig‘idan suyuklik yoki havo tortib olish.

Assimilyasiya, anabolizm — tirik organizmlarning tashqi muhitdan kiruvchi moddalarni o‘zlashtirishi, buning natijasida shu moddalar biologik tuzilmalarning tarkibiy qismi bo‘lib qoladi yoki organizmda zahira holida to‘planadi.

Asteniya — asthenia, -ae, f (asthenia — madorsizlik, kuchsizlik, gr.) — asabiy-ruhiy zaiflik; bunday bemorning kayfiyati o‘zgaruvchan bo‘lib, tez toliqadi, ozib ketadi, uyqusi buziladi, yig‘loqi bo‘lib qoladi. A. ruhiy kasalliklar, ichki a’zolar xastaligi, miya shikastlanishi va h. k. da uchraydi.

Astma — asthma (asthma — odышka, udushe, gr.) —birdan bo‘g‘ilish, nafas siqilib qolishi, bronxlar teshigining birdan torayib qolishiga (bronxial o‘tkazuvchanligining birdan buzilish sindromi) yoki o‘tkir yurak, asosan chap qorincha yetishmovchiligidagi bog‘liq bo‘ladi (yurak astmasi).

Astmatik holat — status asthmaticus — astma xurujining bir necha soat, hatto kunlarga cho‘zilishi. Bronx bo‘shlig‘ida yopishkoq balg‘am to‘planishi, shuningdek bronx shilliq qavatining shishishi oqibatida yuzaga keladi.

Asfiksiya — asphyxia, -ae, f (a — inkor yetish + sphyhis — puls, gr.), bo‘g‘ilish — organizmda kislorod yetishmay, karbonat angidrid ko‘payib ketishi natijasida yuzaga keladigan patologik holat; nafas, qon aylanishi va nerv sistemasi faoliyatida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Organizm hayoti uchun zarur bo‘lgan funksiyalarning buzilishi (nerv, nafas olish, qon aylanish tizimlarining faoliyati). Ko‘pincha A. tashqi nafas yetishmovchiligi natijasida hosil bo‘ladi. Bunga sabab nafas yo‘llarida havo kirishiga mexanik to‘silalar bo‘lishi, ular siqilganida

(bo‘g‘ishda) yoki torayganida (yallig‘lanish jarayonida); nafas bilan kirgan havoda kislorod yetishmovchiligi, tizimi bo‘lgan og‘ir simptomokompleks shaklida namoyon bo‘ladi.

Assit (qorin istisqosi) — qorin bo‘shlig‘ida suv yig‘ilishi. A. ga yurak xastaligi, jigar sirrozi, *peritonit*, alimentar distrofiya va b. sabab bo‘ladi.

Ataksiya — ataxsia, -ae, f (ataxia — tartibsizlik, gr.) — motorika (harakatlanish funksiyasi)ning buzilishi, harakatlarning beo‘xshov, poymapoy bo‘lib qolishi. Statistik A. da muvazonatni ushlab bo‘lmaydigan bo‘lib qoladi, dinamik A. da harakatda. Orqa miya A. — orqa miyaning mushak sezgirligini bajaradigan tolalar o‘tadigan orqa ustunlari yoki orqa ildizlari shikastlanganda kuzatiladi. Miyacha A. — miyachaning yarimsharlari yoki chuvolchang qismlari shikastlanganda kuzatiladi. Labirintli A. — labirint va vestibulyar nerv shikastlanganda kuzatiladi. Miya (serebellyar) A. — bosh miyaning peshana va chakka bo‘laklari shikastlanganda kuzatiladi.

Atelektaz — atelectasis, -is, f (ateles — to‘liq emas + ektasis — cho‘zilishi, kengayishi, gr.) o‘pkaning biror bo‘lagi, segmentlar va bo‘lak alveolalari (o‘pka pufakchalari) ning havosizlanishi yoki deyarli havo qolmasligi natijasida burishishi (puchqayishi). A. bronxlar teshigining har xil narsalar (nekroz natijasida ko‘chib tushgan epiteliylar, kazeoz massalar, qog‘anok suvi va h. k.) bilan tiqilib qolishi (obturatsion A.) (lat. obturatio — tiqilib qolish) yoki bronxlarning tashqi tomondan siqilishi (plevrada transsudat yoki ekssudat yig‘ilganda, aorta anevrizmasida, o‘simalarda) oqibatida ro‘y beradi (kompression A. (lat.) compressio — bosim). Bulardan tashqari, tug‘ma A. ham bo‘ladi — nafas olmaslik natijasida chaqaloq o‘pkasining yozilmay qolgan qismi.

Atreziya — atresia, -ae, f (a + tresis — otverstie, gr.) — biror tabiiy yo‘l yoki teshikning tug‘ma bo‘lmasligi; Mas.: ba’zan bolaning orqa teshiksiz va jinsiy qinsiz tug‘ilishi.

Atrofiya — atrophy, -ae, f (a + trophe — oziqlanish, gr.) — tirik organizm hujayralari, to‘qimalari va organlarining kichrayib, funksiyasining susayishi yoki butunlay to‘xtab qolishi. A. umumiy (kaxeksiya) va mahalliy, fiziologik va patologik bo‘ladi. Fiziologik A. odam tug‘ilganidan to qariguncha kuzatiladi. Mas.: odam tug‘ilganidan keyin kindik arteriyalari, arterial yo‘l (Botallo yo‘li), balog‘atga yetish davrida qalqonsimon bez, keksalarda jinsiy bezlar, suyaklar, umurtqalar orasidagi tog‘aylar atrofiyalanadi va h. k. Patologik A. har qanday yoshda yetarlicha ovqatlanmaslik, endokrin bezlar, markaziy va periferik nerv sistemasi faoliyatining buzilishi natijasida kelib chiqadi.

Autoallergiya — autoallergia, -ae, f (autos — o‘zim + allos — o‘zgacha, boshqa + ergon — ta’sir, gr.) organizm reaktivligining o‘zgargan holati. Bunda organizm o‘zining to‘qima komponentlari tarkibiy qismlarndan birortasiga ortiqcha

sezuvchanlik bilan javob beradi. A. asosida sezuvchanligi ortgan limfotsitlar va autoantitelolarning o‘z autoantigenlari bilan takroriy qayta reaksiyaga kirishishi yotadi. A. holati glomerulonefritning ayrim shakllarida, kollagenozlarda, allergik ensefalitda, allergik nevritlar va b. uchraydi.

Autoantigenlar — autoantigena, n., pl. (autos + antigen, gr.) — organizm o‘z hujayra va to‘qimalarining shu organizmga qisman yot bo‘lib qolgan tarkibiy qismalari; zarar etkazadigan har xil omillar va infektsion agentlar, shuningdek immunologik tolerantlikning izdan chiqishi sabab bo‘ladi. A. sifatida hujayra sitoplazma va yadrosining mukopolisaxaridlari, proteolipidlari, nukleoproteinlari, hujayraga tegishli bo‘lmagan — bazal membranalar, hujayralararo moddaning oqsillari, gormonlar (tireoglobulin) va hatto kimyoviy toza nuklein kislotalar (DNK) xizmat qilishi mumkin. Oqsil moddalar fizikaviy omillar (sovutq harorat, nurlanish), dori vositalari, virusli infeksiyalar (virusli pnevmoniya), bakteriyalar oqsillari va toksinlar ta’sirida autoantigenlik xususiyatlarga ega bo‘ladilar.

Autoantitelolar — autoanticogrora, n., pl (autos — o‘zi, o‘ziga + anti — qarshi + lat. cogrus, -oris (pl. cogrora) — tana, gr.) — autoantigenlarga qarshi hosil bo‘luvchi antitelolar. To‘qimalarni shikastlovchi aggressiv A. antigenlar bilan 37° temperatura-da o‘zaro ta’sirga kirishuvchi A., hamda antigenlar bilan 37° dan past temperaturada o‘zaro ta’sirga kirishuvchi A. farqlanadi.

Autoimmunn jarayonlar — q. Immunopatologik jarayonlar.

Autoimmun reaksiya — organizmning o‘zida biror ta’sirot natijasida hosil bo‘lgan autoantigenga nisbatan ro‘y beradigan immun reaksiya.

Autointoksikatsiya — autointoxication, -onis, f. (autos — o‘zini, + lat. intoxication — zaharlash, gr.) — normal hayot faoliyatida, shuningdek turli kasallikkarda organizmning o‘zida ishlab chiqariladigan zaharli moddalar bilan o‘z-o‘zini zaharlashi. A.ga asosan moddalar almashinushi jarayonida yoki to‘qimalar yemirilishida vujudga kelgan zaharli moddalar sabab bo‘ladi. Ichakda hosil bo‘lgan zaharli moddalarining qonga shamilishi oqibatida ichak A.si kelib chiqadi.

Autoliz — autolysis, is, f. (gr.); syn. autocytolysis, is, f. — organizm hujayra va to‘qimalarining ular tarkibidagi gidrolitik fermentlar (Mas.: katepsinlar) ta’sirida yemirilishi, parchalanishi.

Autosoma — jinsiy xromosomadan tashqari hamma xromosomalar.

Autotransplantatsiya — autotransplantatio, -onis, f (autos + lat. transplantatio — ko‘chirish, gr.) — bemorning yoki bir turdag'i jonivorning organi yoki to‘qimasini o‘ziga ko‘chirib o‘tkazish operatsiyasi. Mas.: rak kasalligiga duchor bo‘lgan bemorning qizilo‘ngachi o‘rniga ingichka ichagini ko‘chirib o‘tkazish.

Afagiya — mutlaq yuta olmaslik; halqum muskullarining falajlanib qolishi sabab bo‘ladi.

Afaziya — aphasia, ae, f. (gr.) — gapira olmaslik, so‘zlash qobiliyatining buzilishi. A. ga bosh miya po‘stloq qavatidagi so‘zlash markazining o‘zgarishi sabab bo‘ladi. Motor (harakat) va sensor (sezish) A. farq qilinadi. Motor A. da bemor so‘zlarni ifodalay olmasa, sensor A. da so‘zlar ma’nosini anglab yetmaganligi sababli so‘zlay olmaydi. A. bosh miyaning og‘ir kasalliklari, rivojlanuvchi falajlik va h. k. da uchraydi.

Afibrinogenemiya — qonda fibrinogen bo‘lmasligi; gemorragik diatez paydo bo‘lishi, qon ivishining buzilishi bilan ifodalanadigan irsiy kasallik. Autosom-retsessiv yo‘l bilan nasldan-naslga o‘tadi.

Afoniya — aphonia, ae, f. — (gr.) pichirlab gapirish saqlangani holda jarangli tovush bilan gapira olmaslik. Hiqildoq kasalligi, isteriya va b.da kuzatiladi.

Aftalar — aphtae, -arum, f., pl (gr. aphthai — yarachalar) — og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavati kasalligi. Bunda til uchi yoki lunj va milkarda sarg‘ish-kulrang dumaloq eroziya yoki to‘q qizil kichik yarachalar paydo bo‘ladi. A.ning kelib chiqishi, kechishi va b. xususiyatlariga ko‘ra bir necha turlari farq qilinadi.

Affekt — affectus, us, m. (lot.) — his-hayajonning kuchli ko‘zg‘alishi, emotsiyonal holat; A. da arzimagan sabablarga ko‘ra hissiyot keskin o‘zgaradi. Fiziologik va patologik A. farq qilinadi. Fiziologik A. da kishi o‘z xatti-harakatini idora eta olishi, keyinchalik barcha voqealarni xotirasida saqlab qolishi mumkin. Patologik A. bosh miyaning turli xil xastaliklarida (shikastshanishi, tomir kasalliklari, yallig‘lanishi oqibatlari va h. k.), shuningdek alkogoldan mast bo‘lish holatida kuzatiladi. Bunda barcha xatti-harakatlar bemor xotirasida saqlanmaydi, chunki patologik A. da ong xiralashadi. G‘azab va tajavvuzkorlik birga kechib, og‘ir oqibatlarga sabab bo‘ladi.

Axiliya — achylia, -ae, f, (a — inkor yetish + chylos — shira, gr.) — ovqat hazm qilish suyuqliklari bo‘lmasligi; Mas.: me’da A. si — me’da shirasining yo‘q bo‘lishi, me’dada xlorid kislota va fermentlar ishlab chiqarilmasligi; Funksional A. — reflektor tormozlanish, infektsion jarayonlarda me’daning nerv-sekretor apparatiga toksik moddalar ta’sir qilganda kuzatiladi. Organik A. — to‘liq sekretor yetishmovchilik (birlamchi A.) me’da va (ikkilamchi A.) boshqa organ va tizimlar kasalliklarida (o‘smlarida, surunkali infeksiyalarda, ichaklar, jigar, o‘t yo‘llaridagi yallig‘lanish jarayonlarida kuzatiladi. Pankreatik A.— me’da osti bezi tashqi sekretsiyasining hosil bo‘lmasligi.

Axlorgidriya — achlorhydria (a + chloros — yashil, xlor + hydor — suv, gr.) — me’da shirasida erkin (bog‘lanmagan) xlorid kislota bo‘lmasligi. A. ning bir necha — «mutloq», «nisbiy», «Chin», «kimyoviy», «funksional» va h. k. turlari farq qilinadi. A. (anatsiditas) kelib chiqishiga qarab — reflektor sekretor innervatsiyaning buzilishi, yoki asab-ruhiy buzilishlarida va me’da kasalliklarida (surunkali gastrit, rak, sil kasalligi). Undan tashqari ichaklar, jigar, buyraklarning

surunkali yallig‘lanishida, og‘iz bo‘shlig‘i, nafas yo‘llari yallig‘lanishida, endokrin tizimi buzilishlarida, surunkali infeksiyalarda kuzatilishi mumkin.

Axoliya — acholia, ae, f. (gr.) — umumiy o‘t yo‘lining bekilib qolishi (obturatsiya), o‘t yo‘llari faolligining susayishi (diskineziya), jigar parenximasining shikastlanishi va h. k. da ichakka mutlaqo o‘t tushmasligi yoki juda kam tushishi.

Atsetonemiya — acetonaemia, -ae, f (acetonus — atseton + gr. haima — qon, lot.) — qonda keton tanachalarining (atseton, sirka atsetat kislota, β -oksimoy kislota) normadan (atseton bo‘yicha 1—2 mg %) ortib ketishi. Bunda o‘z-o‘zidan zaharlanish (autointoksikatsiya, komatoz holat) kuzatiladi. Atseton (keton) tanachalar jigarda yog‘ kislotalaridan va kamroq miqdorda ayrim aminokislotalardan hosil bo‘ladilar. Odatda keton tanalar mushaklar, buyraklar va boshqa a’zolarda parchanishga uchraydilar. Oddiy ozuqlananadigan sog‘lom keton tanalar hosil bo‘lish tezligi ularning parchalanish tezligiga teng bo‘lganligi sababli qonda va organizm to‘qimalarida ularning oshishi kuzatilmaydi. Atsetonemiya hayvonlar ratsionida karbonsuvlar yetishmovchiligidagi, och qolishida, qandli diabetda, ichak tutilishida, efir narkozidan keyin, og‘ir insulinga bog‘liq bo‘lgan gipoglikemiyadan keyin kuzatiladi.

Atseton tanalar (lot. acetonus) — yog‘ kislotalar almashinuvining oraliq moddalari bo‘lib ularga β -oksimoy kislota va atseton kiradi. β -oksimoy kislotaning oksidlanishi natijasida uning ikkilamchi spirt-guruhi keton guruhiga o‘tib atsetosirka kislotasi hosil bo‘ladi. Atsetosirka kislotasi dekarboksillanish reaksiyasi ta’sirida atseton va ugleykislotaga parchalandi.

Atsetonuriya — acetonuria, ae, f. (lot.) — ketonuriya – keton birikmalarining siydiq bilan chiqishi. A. ko‘pincha atsetonemiyadan oldin kuzatiladi. Oqsillar va yog‘lar parchalanishida hosil bo‘ladigan aromatik aminokislotalar va kichik zanjirli yog‘ kislotalarining jigarda to‘liq oksidlanishi glikogenning yetarli darajagacha bo‘lganligiga bog‘liq. Uning yetishmovchiligi bu moddalar oksidlanishi oksimoy, atsetosirka va atseton darajasida to‘xtab qolib, ularning siydiq bilan chiqarilishiga sababchi bo‘ladi. Atseton o‘pkalar orqali ham chiqariladi va u doimo siydiqda atsetosirka kislotasi bilan birga aniqlanadi. A. qandli diabetda, atsetondan zaharlanganda, och qolganda va b. hollarda kuzatiladi.

Atsidemiya — qonda odatda bo‘lmaydigan yoki nihoyatda kam bo‘ladigan kislotalarning dissotsiatsiyalanmagan anion holida mavjud bo‘lishi; bunda qon reaksiyasi o‘z-o‘zidan kislota tomonga keskin siljiysi.

Atsidoz — acidosis, -is, f (acidus — kislotali + gr. -osis — miqdori patologik ko‘payishi, lot.) — organizmda (qon va suyuqliklarda) kislota-ishqor muvozanatining buzilishi; bunda ishqoriy kationlar bilan kislota anionlari o‘rtasidagi nisbat o‘zgarib, anionlarning ko‘payib ketishi tomonga siljish ro‘y

beradi. A. ning kelib chiqish sababiga ko‘ra gazli, gagsiz, moddalar almashinuviga bilan bog‘liqva b. xillari farq qilinadi.

Atsistiya — rivojlanish nuqsoni; tug‘ma qovuq bo‘lmasligi.

Achish, bijg‘ish — organik moddalar, asosan uglevodlarning fermentativ parchalanishi; A. ning asosiy tiplari havosiz (anaerob) sharoitda o‘tadi va natijada bir necha xil oxirgi mahsulotlar paydo bo‘ladi, ularga qarab spirt achishi, sut kislota achishi, moy kislota achishi sirkalashishiga qarab ichki va tashqi bo‘ladi. A. barcha hujayralarda kechadigan jarayon; energiya ajratish bilan boradi, hosil bo‘ladigan energiya hujayraning hayotiy faoliyati (bakteriyalar, achitqilarning o‘sishi, ko‘payishi) uchun sarf bo‘ladi.

— B —

Bavosir — haemorrhoid, idis, f. (gr.); haemorrhoides, pl.; syn. phlebectasia haemorrhoidalis — to‘g‘ri ichak pastki qismi vena qon tomirining tugun-tugun bo‘lib kengayishi. Ko‘pincha yo‘g‘on ichak, jigar kasalliklarida, ko‘p o‘tirib ishlaydigan kishilarda uchraydi. O‘tkir va surunkali kechadi. Tugunlar orqa chiqaruv teshigida joylashishiga qarab ichki va tashqi bo‘ladi. Ular ba’zan qonashi, yallig‘lanishi, orqa chiqaruv teshigini qisib qo‘yishi mumkin. Bu xastalikka birinchi bo‘lib Gippokrat «gemorroy» deb nom bergan.

Bazedor kasalligi — q., *Diffuz toksik buqok*.

Bazofil — protoplazmasida faqat ishqoriy bo‘yoqlar bilan to‘q binafsha rangga bo‘yaladigan donachalar tutuvchi leykotsit. B. qonda leykotsitlarning 1% ini tashqil qiladi.

Bazofiliya — basophilia (gr. vasis — asos + philia — sevish, moyillik): 1) periferik qonda bazofil granulotsitlar sonining ko‘payishi shaklidagi *leykotsitoz*; 2) hujayra strukturasining ishqoriy bo‘yoqlar bilan bo‘yalish xususiyati; Bazofil bo‘yalovchi moddalarga yadro xromatini, ko‘p yadrochalarining moddasi, qon bazofil leykotsitlarning va biriktiruvchi to‘qima semiz hujayralirining granulalari, nerv to‘qimalaridagi Nissl substansiyasi, ko‘p sekretor hujayralarining granulalari, kam differensiallashgan tez o‘sadigan embrio va yetuk odamdar hujayralarining sitoplazmasi. Oqsil sekret hosil qiluvchi limfotsitlar, plazmatik hujayralar sitoplazmasi va ko‘pchilik o‘sma hujayralari sitoplazmasi.

Bakteriemiya — bacteriemia, ae, f., syn. bacillaemia, ae,f. (gr.) — qonda bakteriyalar bo‘lishi. Teri va shilliq pardalar shikastlanganda, limfa tugunlari, tomirlar patologik o‘zgarganda bakteriyalar qonga o‘tadi; ko‘pgina yuqumli

kasalliklar — leptospirozlar, tepkili va qaytalama terlamalar, tulyaremiya, ayniqsa ich terlama, paratif, brutsellyoz va b. da kuzatiladi. B. Kasallikning keng yoyilishi va og‘ir kechishiga sabab bo‘ladi.

Bakteriuriya — bacteriuria, -ae, f (gr. Eacterio — palochka + uron — mocha) — yangi olingan siydikda mikroorganizmlarning bo‘lishi. Chin B. da bakteriyalar siydikda ko‘payib, rivojlanadilar, sohta B. da, ko‘pincha infektsion kasalliklarda, mikroorganizmlar qondan buyraklar orqali siydikka (u erda ko‘paymasdan) tushadilar. Ayrim hollarda siydikda har xil mikroorganizmlar (ichak tayoqchasi, stafilokokklar, mikrokokklar, streptokokklar, diplokokklar) yoki bir necha bakterial formalarining kombinatsiya (aralash infeksiya) uchraydi. Bakteriyalar o‘tish yo‘li xilma xil bo‘lishi mumkin: tushuvchi, ko‘tariluvchi, gematogen va limfogen.

Bakterioliz — bacteriolysis, is, f. (gr.) — bakteriyalar qobig‘ining erishi, parchalanishi, yemirilishi; bakteriyalarning dastavval ularning hujayra yuzasi buziladi, keyin esa ichidagi borliq atrof-muhitga chiqadi. Bakteriofaglar, bakteriolizinlar, ba’zi fermentlar (mas. lizotsim) paydo qilishi mumkin.

Bakteriolizinlar — bakteriyalar yemirilishi va erib ketishiga olib keladigan antitelolar.

Bakteriofag — bacteriophagum, i., (gr.) ; syn. phagum, i, n. (gr.); virus bacteriale — bakteriofagiya — bakteriyalarni yutib, emirib, yo‘q qilib yuboradigan juda mayda viruslar. Ular bakteriyalarning hujayralarida yashab ko‘payadi va ularni eritib yuboradi. Keyin yana etilayotgan yosh hujayralarga o‘tib, ularni ham yemiradi. Bu xodisaga bakteriofagiya deynladi. B. ning xillari ko‘p; deyarli har bir tur bakteriya uchun faqat o‘sha turni eritadigan va yemiradigan B. topilgan.

Barootit— o‘rta quloqning o‘tkir yallig‘lanishi; havo bosimining keskin o‘zgarishi (o‘q uzilishi, portlash, samolyot ko‘tarilishi yoki pastlashi) sabab bo‘ladi. B. da quloqda shovqin, og‘riq bo‘lib, shang‘illaydi, ba’zan nog‘ora bo‘shlig‘iga qon quyilishi, pardasi yirtilishi mumkin.

Baroretseptorlar — qon tomirlardagi sezuv nervi oxirlari yoki hujayra to‘plamlari. Tomirlar devori cho‘zilganda B. qo‘zg‘aladi va qon bosimi, xajmi o‘zgarishlarini sezib, ularni refleks yo‘li bilan boshqaradi.

Barotrauma — barotrauma, atis, n. (gr.) — o‘zida xavo saqlaydigan organlar (quloq, burunning yondosh bo‘shlig‘i, o‘pka) ning atmosfera bosimining oshishi yoki kamayishi va ayniqsa tez o‘zgarishi natijasida shikastlanishi. To‘satdan burun va halqumdan qon kelishi bunga misol bo‘la oladi. Ko‘pincha uchuvchilarda, parashyutdan sakrovchilarda va suv osti kemasi dengizchilarida uchraydi.

Bahor katari — cafarrhus vernalis; syn. conjunctivitis vernalis — qon'yunktivitning o‘ziga xos bir turi. Bunda erta bahorda quyosh nuri, ko‘kat va gullar hidi ta’sirida ikkala ko‘z qizaradi, achishib qichishadi, qovoqlar qirrasi

shishib, yuqori qovoq bir oz salqibroq turadi. Surunkali kechadi. Asosan 12—14 yashar o‘g‘il bolalarda uchraydi. Allergiya sabab bo‘ladi.

Bezlar — aden, um, m., pl. (gr.); glandulae, arum, f., pl. — organizmda turli fiziologik funksiyalar bajarilishida va biokimyoviy jarayonlarda ishtirok etadigan o‘ziga xos moddalar (gormonlar, shilliq, so‘lak va b.) ishlab chiqaradigan va ajratadigan organlar. Ichki sekretsiya bezlari (endokrin B.), tashqi sekretsiya bezlari (ekzokrin B.) va aralash B. farq qilinadi. Ichki sekretsiya bezlari (gipofiz, buyrak usti bezi va b.) ishlab chiqargan mahsuloti — gormonlarni bevosita qonga va limfaga, tashqi sekretsiya bezlari (ter, so‘lak, sut B.) esa o‘z shirasini maxsus naylar orqali tana bo‘shliqlariga, shilliq pardalar yuzasiga chiqaradi. Aralash bez (me‘da osti bezi) shirasining bir qismi nay orqali o‘n ikki barmoq ichakka quylisa, maxsus bez xaltachasidan ajralgan gormon qonga so‘riladi. B. faoliyatini nerv sistemasi va gumoral omillar boshqaradi.

Bezoar — bezoar, -is, n (pers, badzar — zaharga qarshi) me‘dadagi yot jismlar. Me‘daga tushgan yot narsalar (ipak, jun, soch va b.) hamda ovqatning hazm bo‘lmagan zarrachalaridan paydo bo‘ladi. Trixo- yoki pilobezoar (jun yoki soch), shellak-bezoar (smola va bo‘yoq moddalari), fitobezoar (mevalar zarrachalari, o‘simliklar), sebobezoar (yog‘ zarrachalari) farq qilinadi.

Bepushtlik — infecunditas, atis, f. — voyaga yetgan organizmning avlod qoldirishga ojizligi. Normal jinsiy hayot kechirib, bo‘yida bo‘lishdan saqlanish vositalari (qonratsepsiya) dan foydalanmay, kamida 2 yil birga turib farzand ko‘rmaslik B. hisoblanadi. B. erkaklarda ham, ayollarda ham uchraydi. Erkaklardagi B. — tug‘dira olmaslikka urug‘da tirik spermatozoidlar bo‘lmasligi, jinsiy a‘zolarning tug‘ma nuqsoni, yallig‘lanish kasalliklari yoki ularning shikastlanishi, jinsiy maylning susayishi, endokrin sistema faoliyatining o‘zgarishi sabab bo‘ladi. Ayollardagi B.— tug‘maslikka bachardon, tuxum yo‘llari, tuxumdon va naylarning yallig‘lanishi, ichki sekretsiya bezlari faoliyatining buzilishi, organizmni holdan toydiradigan kasalliklar (qandli diabet, sil), jinsiy organlarning yetilmay qolishi (infantilizm) sabab bo‘lishi mumkin.

Beri-Beri — ovqatda V₁ vitamin (tiamin) yetishmasligi yoki uning organizmda o‘zlashtirilishi buzilishidan paydo bo‘ladigan kasallik; asta-sekin rivojlanib boradi. Dastlab ishtaha yo‘qolib, so‘ngra me‘da-ichak faoliyatining buzilishi bilan bog‘liqhar xil belgilar tobora ko‘payadi va kuchayadi. Keyinchalik quvvatsizlik, tinka qurishi, bosh aylanishi, sezgi yo‘qolishi, hatto oyoq-qo‘llarning falajlanishi kabi o‘zgarishlar yuzaga kelishi mumkin.

Bijg‘ish — q. Achish.

Bilirubin — bilirubinum, i, n.; syn. cholepyrrhinum; cholerythrinum; biliphaeinum h, o, n. — o‘t (safro)ning qizil-sarg‘ish pigmenti; gemoglobinning parchalanishidan vujudga keladi. Asosan jigarda hosil bo‘lib, o‘t bilan ichakka, bir

oz miqdorda qonga o'tib turadi. Ba'zi jigar kasalliklarida qon va siydkdagi B. ni aniqlash diagnostik jihatdan ahamiyatga ega.

Bilirubinemiya — bilirubinoemia, -ae, f (lat. bills — o't + rubber — qizil + gr. haima — qon) qon zardobida bilirubin miqdorining ko'payishi. Eritrotsitlarning ko'p miqdorda shikastlanishi, jigarning bilirubin ajratadigan funksiyasi yoki o't chiqaruv yo'llarida mexanik to'siq bo'lgani natijasida hosil bo'ladi. B. sariqliklarda kuzatiladi. Bilirubinning eng yuqori miqdori mexanik sariqlikda kuzatiladi. Gemolitik sariqlik paytida qondagi bilirubin miqdori eng yuqori bo'ladi. Jigar hujayralariga bog'liq bo'lgan sariqlik oraliq joyni egallaydi.

Bilirubinuriya — siydikda bilirubin bo'lishi; qon zardobida glyukuronlashgan bilirubin miqdori ko'payib kyetganida kuzatiladi.

Biogen aminlar — aminoturkumga ega bo'lgan biologik va farmakologik muhim birikmalar sinfi. O'simliklar va hayvonlarda keng tarqalgan, B. a. qatoriga etanolaminlar (xolin, atsetilxolin, muskarin), polimetilendiaminlar (putressin va kadaverin), halqali aminokislotalar mahsulotlari (gistamin, katekolaminlar, triptamin, serotonin va b.) kiradi. B. a. turli biologik ta'sirga ega, ba'zilari zaharli.

Biologik faol moddalar — organizmdagi biologik jarayonlarga ta'sir etib, organ va sistemalar faoliyatini o'zgartiruvchi moddalar. Ularga odam, hayvon, o'simlik to'qimalaridagi moddalar (fermentlar, gormonlar, vitaminlar, biogen aminlar, prostaglandinlar va b.) yoki sintez qilingan kimyoviy birikmalar (fenotiazin, pirazol, nitrofuran unumlari, sulfanilamid preparatlar va b.) kiradi. Tibbiyot amaliyotida turli kasalliklar va patologik holatlarning oldini olish yoki davolashda ishlatiladi.

Biotin, N vitamini — suvda eriydigan oltingugurt tutuvchi vitamin; organizmda bir qator biosintezlarda koferment sifatida qatnashadi. Karboksillovchi fermentlar tarkibiga kiradi. B. tuxum sarig'i, achitqi va gulkaramda juda ko'p bo'ladi. Hayvonlar va odam organizmida B. ni ichak mikroflorasi hosil qiladi. B. yetishmaganda asosan teri zararlanadi, kamqonlik kelib chiqadi.

Bioelementlar — tirik organizmlar tarkibiga kiradigan kimyoviy elementlar. Tabiatda uchraydigan 90 elementdan faqat 40 tasi tirik organizmda uchraydi, ulardan oltiasi: S, O, N, N, S, R birgalikda unit 90 foizini tashqil qiladi.

Bichish, kastratsiya — castratio, onis, f. — axta — qilish; turli usullar bilan jinsiy bezlar (moyak, tuxumdon) ishini butunlay to'xtatish. B. jarrohlik usullari bilan yoki gormonlar yordamida, nurlantirish bilan bajariladi.

Botkin kasalligi — q. *Virusli hepatit*.

Botulizm — botulismus, i, m. (lot.) — botulinus nomli tayoqcha sporasi bilan ifloslangan ovqatlar iste'mol qilish natijasida qattiq, zaharlanish. O'tkir yuqumli kasallik. Butun yer yuzida uchraydi. B. da MNS zararlanib, bemorning tinkasi quriydi, boshi aylanadi, ko'z oldi jivirlaydi, ichak faoliyati buziladi, ko'ngli aynib,

qayt qiladi, qorni o'qtin-o'ktin og'riydi, og'zi quriydi, tashna bo'ladi, ovqat o'tishi qiyinlashadi, nafas olish buziladi. Ko'z, til, yumshoq tang'lay, yuz, me'da va ichak muskullari falajlanishi mumkin.

Bosh aylanishi — dinus, i, m.; vertigo, inis, f. — gavdaning fazoda harakatlanayotgandek yoki fazodagi narsalarning gavda atrofida aylanayotgandek bo'lib tuyulishi. Muayyan (Mas.: baland) sharoitda sog'lom odamda ham ro'y berishi mumkin. Ichki quloq, nerv sistemasi va b. a'zolar shikastlanishi oqibatida kasallik sifatida avj oladi.

Bosh qorong'ilik, homiladorlik toksikozi — bo'yida bo'lish munosabati bilan ayol organizmida ro'y bergan o'zgarishlar ifodasi: achchiq, nordon, sho'r narsalarni ko'ngil tusashi, ko'ngil aynishi, quish, so'lak oqishi, piyozdog' hidini yoqtirmaslik, gap ko'tara olmaslik, tez toliqish, bosh aylanishi, uyquchanlik, kayfiyatning o'zgarib turishi va b.

Bradikardiya — bradicardia, -ae, f (gr. bradys — sekin + cardia — yurak) — yurakning sekin (1 minutda 60 marta dan kam) urishi. Sog'lom kishilarda ham kuzatiladi. Asosan sinus tugunidan chiqadigan impulslar soni kamaygani hisobiga hosil bo'ladi. Ko'pincha sinusli B. asosida yurakka parasimpatik bo'lim ta'siri oshgani yotadi. Bu holat bosh miya po'stloq qismining ayrim bo'limlari, sayyor (adashgan) nerv markazlari, tanasi va periferik oxirlari qo'zg'alanida kuzatiladi. Sinusli B. meningitlarda va miya o'smalarida kuzatiladi. M'daning ayrim kasalliklarida, jigar kasalliklarida, va, ehtimoldan xoli emaski, gipertoniya kasligida kuzatiladigan sinus B. sayyor nervga reflektor ta'siri bilan tushuntirish mumkin. Undan tashqari patologik agentning (o'tkir gepatitda o't kislotalari, ayrim toksinlar), yurakning sklerotik shikastlanishlarida.

Bradipnoe — bradypnoea, -ae, f; bradypnoe, -es, f (gr. bradys + pne — nafas) — beixtiyorsiz nafas olishning sekinlashishi (minutiga 12 va undan ham kam bo'lishi); ko'pincha turli sabablarga ko'ra nafas markazining qo'zg'aluvchanlik xususiyati susayganda kuzatiladi.

Bradipepsiya — bradipepsia ae, f. (gr.) — me'da-ichak shiralarining kam ishlab chiqarilishi, ajralishi va h.k. jarayonlarning buzilishi tufayli ovqat hazmining susayishi.

Bradisfigmiya — tomir urishi — pulsning u yoki bu sabablarga ko'ra (Mas.: yurak poroklari, vegetativ nerv sistemasi faoliyatining tug'ma, irsiy buzilishi va x.k.) susayishi.

Bradifagiya — bradyhagia, ae, f. (gr.) — yutishning qiyinlashuvi; til-halqum nervi va adashgan nervning bir tomonlama harakatlanish tolasi yallig'langanda va isteriyada kuzatiladi.

Braxialgiya — brachialgia, ae, f. (gr.) — yelkada paydo bo'ladigan og'riq. Aksariyat umurtqa pog'onasidagi har xil distrofik o'zgarishlar sabab bo'ladi.

Og'riq ko'pincha bo'yin va yelkada boshlanib, qo'lning old yoki orqa tomoniga tarqaladi va barmoqlargacha zirqirab, uvishib og'riydi, natijada qo'lni yuqoriga va orqaga ko'tarib bo'lmaydi.

Bronxial astma — bronxlar qisqaruvchanligining buzilishi natijasida nafas qisishi va bo'g'ilish xurujlari bilan o'tadigan allergik kasallik. Yuqumli allergenlar qo'zg'atadigan yuqumli-allergik B.a., yuqumsiz allergenlar keltirib chiqaradigan B.a. hamda ishlab chiqarish sharoitida odamga allergenlar ta'sir yetishi oqibatida kelib chiqadigan kasbga oid B.a. farqlanadi.

Bronxadenit — (broncho+adenitis, itidis, f. (gr.) — limfa bezlarining yallig'lanishi — bronxlar, traxeya atrofidagi hamda ko'ks oralig'inining orqa va oldida joylashgan limfa bezlarining yallig'lanishi. Ko'pincha sil, zotiljam, ko'kyo'tal, qizamiq, bronxopnevmoniyada uchraydi.

Bronxit — bronchitis, -tidis, f (gr. bronchos — bronx + -itis — yallig'lanish) — bronxlarning yallig'lanishi; mustaqil kasallik va turli kasalliklarning ikkilamchi belgisi sifatida uchraydi. Gemorragik B. bronxlar shilliq qavatiga qon quyilishi va ekssudatda eritrotsitlar sonining oshishi bilan ifodalanadi. Yiringli B. uzoq davom etuvchi sassiq balg'am ajralishi bilan kechadi. O'tkir B. bronxlarning mikrob yoki zaharli modda ta'sirida o'tkir yallig'lanishidan paydo bo'ladi. Surunkali B. o'tkir bronxit uzoq cho'zilganda yoki ketma-ket qaytalaganda ro'y beradi.

Bronxopnevmoniya — bronchopneumonia, -ae, f (gr. bronchos + lot. pneumonia — o'pkaning yallig'lanishi) — o'pkaning bir yoki bir necha bo'lagidagi ingichka, mayda bronxlarning yallig'lanishi, yana q. Zotiljam.

Bronxostenoz — bronchostenosis, -is, f (gr. bronchos + stenosis — torayishi) — bronx devoridagi patologik o'zgarishlar yoki bronx teshigiga yot jismlarning tushishi oqibatida bronx teshigining torayishi.

Bronxoektaziya — bronchoectasia, -ae, f (gr. bronchos + ektasis — kengayishi) — bronxlarning kengayishi va o'zgarishi bilan kechadigan kasallik. B. da bronxlarda balg'am to'planib, bronxlar devori va o'pka to'qimasi yallig'lanadi. Bir necha turi farqlanadi. Atrofik B. kengaygan bronx devorining atrofiyaga uchrashi bilan kechadi. Tug'ma B. ona qornida yoki bola hayotining birinchi kunlarida paydo bo'ladi. Orttirilgan B. gripp, bronxit, zotiljam, qizamiq, ko'kyo'taldan keyin ro'y beradi. Quruq B. o'zida shilliq yoki yiring saqlamay, yo'tal yoki ba'zan qon tuflash bilan kechadi.

Bronxiolit, kapillyar bronxit — mayda bronxlar devorining yallig'lanishi. Virus yoki bakteriyalar ko'zg'atadi; bir yosha gacha bo'lgan bolalarda uchraydi. Gripp viruslari qo'zg'atadigan gripli B., mayda bronxlar shilliq qavatining kataral yallig'lanishi bilan ifodalanadigan kataral B., bronxlar teshigicha granulyasion to'qima o'sib kirishi bilan kechadigan obliteratsiyalovchi B. va b. farq qilinadi.

Bronxit — bronchitis, itidis, f. (gr.) — bronxlarning yallig‘lanishi; mustaqil kasallik va turli kasalliklarning ikkilamchi belgisi sifatida uchraydi. Gemorragik B. bronxlar shilliq qavatiga qon quyilishi va ekssudatda eritrotsitlar sonining oshishi bilan ifodalanadi. Yiringli B. uzoq davom etuvchi sassiq balg‘am ajralishi bilan kechadi. o‘tkir B. bronxlarning mikrob yoki zaharli modda ta’sirida o‘tkir yallig‘lanishidan paydo bo‘ladi. Surunkali B. o‘tkir bronxit uzoq cho‘zilganda yoki ketma-ket qaytalaganda ro‘y beradi.

Bronxopnevmoniya — bronchopneumonia, -ae, f (gr. bronchos + lat. pneumonia — o‘pka yallig‘lanishi) — o‘pkaning bir yoki bir necha bo‘lagidagi ingichka, mayda bronxlarning yallig‘lanishi, yana q. Zotiljam.

Bronxoreya — yo‘talganda ko‘p miqdorda ko‘pikli tupuk ajralishi; ko‘pincha bronx bezlaridan shilliq ko‘p ajralganda kuzatiladi.

Bronxospazm — bronx devori muskullarining qisqarishi natijasida mayda bronxlar va bronxiolalar teshigining torayishi.

Bronxostenoz — bronchostenosis, -is, f (gr. bronchos + stenosis — qisilish) — bronx devoridagi patologik o‘zgarishlar yoki bronx teshigiga yot jismlarning tushishi oqibatida bronx teshigining torayishi.

Bronxotetaniya — bronxial muskullarning uzoq vaqt spastik qisqarishi; bolalarda spazmofiliya og‘ir kechganda kuzatiladi.

Bruksizm — uqlab yotganda tishni gjirlatish. Odatda ko‘pincha yosh bolalarda kuzatilib, gjija kasalligining belgilaridan biri bo‘lishi mumkin.

Brutsellez — brucellosis, is, f.; syn. febris melitensis, febris indulans; morbus bang-i (lot.) — bakterial zoonozlar guruhiga kiradigan yuqumli kasallik. Odam va hayvonlarda uchraydi. Brutsella mikroorganizmi qo‘zg‘atadi. Kasallik odamga shu dardga chalingan hayvonlar, ayniqsa qo‘y, echki, sigir, ot, tuya, cho‘chqalardan, ular sutini pishirmay ichganda va go‘shtini chala qovurib iste’mol qilinganda yuqadi. Belgilari: bemor tez-tez sovuq qotadi, harorati ko‘tariladi, terlaydi, oyoq-qo‘l, ayniqsa barmoq bo‘g‘imlari yallig‘lanib, og‘riydi. O‘tkir va surunkali kechadi, qaytalanishi (retsidiq berishi) mumkin.

Bulimiya — bulimia, ae, f. (gr.); syn. hyperegragia, ae, f. — ovqatga ruju qilish, to‘yanlikni his etmaslik, “moldek ovqat yeish”, “bo‘ri ishtahasi”. Me’yordan ortiq ovqat iste’mol qilish (polifagiya) bilan birga kechadi. B. da ko‘pincha qorin sohasida og‘riq va quşish holatlari kuzatiladi. B. modda almashinuv o‘zgarganda (semirish, diabet, gipoglikemik sindrom). MNS ning organik kasalliklari hamda ruhiy xastaliklarda uchraydi. Ayrim kasalliklarda va modda almashinuv jarayonlari o‘zgargani ta’m bilishni buzilishi natijasida ishtaha buzilishi natijasida hayvonlar odatda emaydigan narsalarni (bo‘r, oxak, ko‘mir va b.) yeishga intilish paydo bo‘ladi. Ishtaha buzilishi har xil kasalliklarni davolashda muhim ahamiyatga ega klinik, diagnostik simptom hisoblanadi.

Bursit — bursitis, -tidis, f (gr. bursa — sumka + gr. -itis — yallig‘lanish) — bo‘g‘im shilliq xaltachasining o‘tkir yoki surunkali yallig‘glanishi; xaltachada suyuqlik (ekssudat) to‘planishi bilan kechadi. Bunga o‘tkir yoki surunkali yallig‘lanishlar (tomoq og‘rig‘i, tumov, so‘zak, sil, oqsim kasalligi, revmatizm), har xil shikastlanishlar (lat yeyish, shilinish, chaqalanish va b.) sabab bo‘ladi. Bug‘im shishadi va bilqillab turadi, harakati cheklandi. Ko‘pincha tirsak va tizza bo‘g‘imida uchraydi.

Buqoq — struma, ae, f. — qalqonsimon bezning patologik (I dan V darajagacha) kattalashuvi. **De Kerven buqog‘i** — q., Tireoidit. **Diffuz toksik buqoq** (Bazedov kasalligi, Greyvs kasalligi, Parri kasalligi) — bir tekis katalashgan qalqonsimon bezda tireoid gormonlar ortiqcha ishlab chiqarilishi bilan bog‘iq kasallik. Kelib chiqishida irsiy moyillik, immun sistemadagi o‘zgarishlar, ruhiy iztirob, turli viruslar katta o‘rin tutadi. Qalqonsimon bez funksiyasi kuchayishi (tireotoksikoz) natijasida muskullar zaiflashib, bemor serzarda, yig‘loqi bo‘lib qoladi, ozib ketadi, ko‘zi chaqchayadi (ekzoftalm, oftalmopatiya), ko‘p terlaydi, oyoq-qo‘li, ba’zan butun tanasi titraydi, yuragi tez uradi (taxikardiya), uyqusi buziladi, kuchsiz isitma chiqadi, tez charchaydi va ishga yaroqsiz bo‘lib qoladi. Kasallikning og‘ir hili ba’zi sabablarga ko‘ra tireotoksik krizga olib borishi mumkin. Bunda asosiy sistema va organlar faoliyati keskin buziladi, tireotoksik koma yuz beradi. **Ko‘p tugunli toksik buqoq** ko‘pincha bir necha yil davomida ko‘p tugunli eutireoid buqoq bilan og‘rib kelayotgan 50—60 yashar ayollarda uchraydi. Kasallik belgilari diffuz toksik buqoq klinikasiga o‘xshash, ammo bunda oftalmopatiya va pretibial miksedema bo‘lmaydi. Ridel buqog‘i — q. Tireoidit (surunkali fibrozli tireoidit). Xashimoto buqog‘i — q. Tireoidit (Autoimmunli tireoidit). **Endemik buqoq** — ma’lum jugrofiy cheklangan joylarda (mae., Uzbekistonning Farg‘ona vodisida) uchraydigan buqoq. Kasallikda qalqonsimon bez progressiv tarzda kattalashadi. Unga oziq-ovqatlar, er va suvda yod yetishmasligi (normadagi 200— 220 mkg o‘rniga 20—80 mkg), ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning yomonligi va notug‘ri ovqatlanish sabab bo‘ladi.

Bubon — yallig‘langan limfa tugunlarining kattalashuvi («bez kelishi»). Tanosil (Mas.: zaxm) va boshqa ba’zn yuqumli kasalliklar (Mas.: o‘lat) da kuzatiladi.

Buyrak — renes, um, t ., pl. nephros (gr.) — qorin bo‘shlig‘ining orqasida, I—II bel umurtqalarining ikki yonida joylashgan, loviya shaklidagi, to‘q qizil rangli juft organ. Undagi 2 mln. ga yaqin mayda qilnaycha (nefron)larda qon plazmasi filtralanadi va siydik hosil bo‘ladi. har bir B. ning og‘irligi 140— 150 g, bo‘yi 10—12 sm, eni 5,5—6 sm, qalinligi 3 sm cha. B. ni fibroz parda, yog‘ kapsulasi va biriktiruvchi to‘qimadan iborat fassiyalar o‘rab, ushlab turadi. B. po‘st va mag‘iz qavatdan iborat. Uning qabariq (tashqi) va botiq (ichki) yuzasi bor. Botiq yuzadan B. arteriyalari kirib, B. venalari, limfa tomirlari va siydik yo‘li chiqadi. Bu yuzaga

B. jomi taqalib turadi. B. ustida buyrak usti bezi joylashgan. B. organizmdagi moddalar almashinuvining oxirgi mahsulotlari, ortiqcha tuzlar, suv, yot va zaharli birikmalarni chiqarib tashlaydi. Qon tarkibini tartibga soladi va organizm ichki muhitining doimiyligini ta'minlaydi.

Buyrak ageneziyasi — buyrakning tug‘ma bo‘lmasligi. Ikkala buyrak bo‘lmasa, homila deyarli o‘lik tug‘iladi. Faqat bitta buyrak bo‘lganda, u kattalashgan bo‘ladi. Bu hol kishi sog‘lig‘iga ta’sir qilmasligi ham mumkin, faqat buyrak kasallanishiga yo‘l ko‘ymaslik zarur.

Buyrak aplaziyasi — buyrak o‘lchamlarining juda ham kichik bo‘lishi. B. a. da ko‘pincha siydik ajralmaydi. Agar bel qattiq og‘risa, aplaziyaga uchragan buyrak olib tashlanadi.

Buyrak gipoplaziyasi buyrakning normaga nisbatan kichik bo‘lishi. B. g. da siydik ajralishiga putur yetmaydi; bunda ba’zan bel sohasi og‘riydi, qon bosimi oshadi.

Buyrak distopiyasi — buyrakning o‘z o‘rnida emas, balki qorin pardaning yonbosh sohasida, chanoq bo‘shlig‘ida, hatto ko‘krak qafasida bo‘lishi. Buyrak qaerda joylashgan bo‘lsa, o‘sha soha vaqtı-vaqtı bilan simillab og‘rib turadi, gidronefroz rivojlanadi va shu kasallikka xos belgilar vujudga keladi. B. d. ni tasviriy va qiyosiy urografiya hamda angiografiya qilib aniqlanadi.

Buyrak yetishmovchiligi — buyrakning barcha xususiyatlari, jumladan organizmning ichki muhit turg‘unligini saqlash va qonni azot qoldiqlaridan tozalash faoliyatining buzilishi. O‘tkir va surunkali B. e. farq qilinadi. O‘tkir B. e. da buyrak funksiyasining buzilishi to‘satdan ro‘y beradi, bunda siydik kam ajraladi, og‘ir hollarda esa butunlay ajralmay qoladi, qonda siydikchil (mochevina) miqdori ko‘payadi; teri osti, qorin va ko‘krak qafasida suyuqlik to‘planadi (suvdan semirish). Surunkali B. e. asosan buyrak va siydik yo‘lining surunkali kechadigan kasalliklari oqibati bo‘lib, buyrak to‘qimasining bujmayishi (nefroskleroz) bilan tugaydi. Bemorning terisi quruqlashib yallig‘lanadi. Salga shikastlanaveradi. Chanqash, quisish, bosh og‘rig‘i, ich ketishi, qorin dam bo‘lishi, xiqichoq tutishi va b. alomatlar paydo bo‘ladi. Qonda siydikchil miqdori tobora orta borib, uremiya boshlanadi.

Buyrak karbunkuli — buyrak tomirlariga tromboz yoki bakteriyalar tushib tiqilib qolishi natijasida paydo bo‘ladigan o‘tkir yiringli pielonefrit; bunda buyrakning po‘st va mag‘iz qavatida bir yoki bir nechta yiringli yallig‘lanish o‘choqlari yuzaga kelib, ular bir-biri bilan qo‘shilib ketadi va buyrak to‘qimasining hiylagina qismini egallaydi.

Buyrak kistasi — buyrak parenximasidagi yumaloq bo‘shliq; u odatda irsiy, tug‘ma yoki orttirilgan kasalliklar oqibatida vujudga kelib, seroz va gemorragik suyuqlik bilan to‘la bo‘ladi.

Buyrak toshi kasalligi, nefrolitiaz nephrolithiasis, is, f. (gr.) — siyidik organlarida, aksariyat buyrakda tuz moddalari — urat, oksalat, fosfat toshlari hosil bo‘lishi bilan bog‘liq kasallik. Bolalarda ko‘p uchraydi. Kasallik moddalar almashinuvining buzilishi, ayiruv organlarining infektsion va b. kasalliklari oqibatida yuzaga keladi. Toshlar siljib, siyidik yo‘liga o‘tib qolganda og‘riq xuruji (buyrak sanchig‘i) ro‘y beradi, bunda bemor bezovtalanadi, sanchiq qorinning old tomoniga, chov, qov sohasiga, oraliqqa, jinsiy organlarga tarqaladi; harorat ko‘tariladi, ko‘ngil aynishi, qayt qilish hollari kuzatiladi, siyidik qizg‘ish tus oladi.

Buyrak usti bezi gormonlari — buyrak usti bezi po‘st qavatining uchta zonasida ishlanib, qonga chiqariladigan *kortikosteroidlar* (glikokortikoid — kortizol, mineralkortikoid — aldosteron), jinsiy steroidlar—adrenosteron.

Buyrak usti bezi po‘st qavatining o‘tkir yetishmovchiligi — kortikosteroidlar sekretsiyasi keskin kamayib ketishi natijasida kelib chiqqan va bemor hayoti uchun juda xavfli holat. Kasallik birdaniga paydo bo‘lib, ko‘pincha birinchi kuniyoq kollaps va koma natijasida o‘limga olib borishi mumkin. Kasallikka buyrak usti bezi po‘st qavatining nekrozi, unga qon quyilishi, travmatik operatsiyalar, adrenalektomiya va b. sabab bo‘ladi.

Bulbit — o‘n ikki barmoq ichak piyozchasining yallig‘lanishi; duodenitning bir turi.

Bursit — bo‘g‘im shilliq, xaltachasining o‘tkir yoki surunkali yallig‘lanishi; xaltachada suykliq (ekssudat) to‘planishi bilan kechadi. Bunga o‘tkir yoki surunkali yallig‘lanishlar (tomoq og‘rig‘i, tumov, so‘zak, sil, oqsim kasalligi, revmatizm), har xil shikastlanishlar (lat yenish, shilinish, chaqlanish va b.) sabab bo‘ladi. Bo‘g‘im shishadi va bilqillab turadi, harakati cheklanadi. Ko‘pincha tirsak va tizza bo‘g‘imida uchraydi.

Burun va uning yondosh bo‘shliqlari — yuqori nafas yo‘llarining boshlang‘ich qismi; tashqi burun, burun bo‘shlig‘i va burunning yondosh bo‘shliqlariga bo‘linib, yondosh bo‘shliqlar burun bo‘shlig‘iga tor teshiklar orqali ochiladi. Tashqi burun suyak-tog‘ay skeletidan tuzilgan, u egiluvchan. Burun bo‘shlig‘i yupqa to‘sik bilan ikki bo‘lakka ajralgan bo‘lib, kataklar orqali tashqi muhit bilan, xoana orqali esa burun-halqum bilan tutashadi. Burun bo‘shlig‘i devorini hilpillovchi epiteliyli shilliq parda qoplab olgan. Uning tuklari bir maromda tebranib turadi. Burun bo‘shlig‘ini ikkiga (o‘ng va chapga) bo‘lib turgan to‘sinqning orqa qismi suyak to‘qima, old qismi tog‘aydan iborat bo‘lib, burun bo‘shlig‘ining ichki devorini hosil qiladi. Burunning yondosh bushliqlari 4 juft — yuqori jag‘, peshona, asosiy va g‘alvirsimon bo‘shliq. B. va uning yo. b. nafas olish, muhofaza, hid bilish va rezonans funksiyalarini bajaradi.

Burun to‘sig‘ining qiyshayishi asosan to‘sinqning oldingi tog‘aydan iborat qismining tug‘ma yoki orttirilgan qiyshayishi. Bunda burundan nafas olish qiyinlashadi va hid bilish buziladi.

Burun qonashi — burun bo‘shilig‘idan qon kelishi. B. q. ga burunning lat yeishi yoki shilliq pardasining zararlanishi (tirnalish, shilinish, burunni kovlash), organizmning umumiy, asosan, yuqumli kasalliklari (Mas.: gripp), yurak, buyrak, jigar, qon yaratuvchi organlar kasalliklari, qon bosimi ortib ketishi, ba’zan atmosfera bosimi, havo temperaturasi va namligi o‘zgarishi sabab bo‘ladi; shilliq pardaga uzoq, vaqt kimyoviy moddalar ta’sir yetganda, shuningdek jazirama issiqda ham B.q. mumkin.

Bo‘yida bo‘lish, homiladorlik — ayol organizmida oy sayin (har 28 kunda) yetiladigan tuhum hujayraning erkak jinsiy hujayrasi (spermatozoid) bilan qo‘silishi, urug‘lanish.

Bo‘g‘ilish — qon va to‘qimalarda kislorod tanqisligi hamda karbonat angidrid gazining ko‘payib ketishi oqibatida yuzaga keladigan holat, yana k. Asfiksiya.

Bo‘g‘ma, krup — hiqildoq va traxeya (kekirdak)ning yallig‘lanishi natijasida nafas olishning qiyinlashuvi, xirillab yo‘talish va ovoz bo‘g‘ilib qolishi. Chin va sohta B. bo‘ladi. Chin B. aksari 1—4 yashar bolalarda uchraydi, hiqildoq yallig‘lanib, parda bilan qoplanishi va muskullar qisqarishi natijasida bola bo‘g‘ilib qolishi mumkin. Soxta B. gripp, qizamiq, qizilcha, yuqori nafas yo‘llarining yallig‘lanishi va b. kasallikkarda kuzatiladi.

— V —

Vabo — cholera, ae, f. (gr.); syn. cholera asiaticum — qadimdan ma’lum bo‘lgan o‘tkir yuqumli va o‘ta xavfli ichak kasalligi. V. vibroni keltirib chiqaradi. Kasallik bemor (vibron tashuvchi) dan suv, ovqat, iflos qo‘l orqali yuqadi. Kasallikda bemor to‘satdan ko‘p qayt qilishi va ich ketishi natijasida organizm suvsizlanadi. Ko‘p suyuqlik. yo‘qotishi oqibatida teri burishib, qurib qoladi. Oyoq-qo‘l tirishishi, tovush bo‘g‘ilib qolishi, nafas qisishi mumkin. Bemor holsizlanib, qattiq tashna bo‘ladi. V. karantin kasallik hisoblanadi.

Vaginizm — vaginismus, i, m.; syn. coleospastia, ae, f. (lot.) — erzadalik, chanoqtubi va qin dahlizi muskullarining tortishib qisqarishi. V. jinsiy aloqaga, ginekologik tekshirishga halal beradi.

Vagotoniya — adashgan nerv faoliyatining oshib ketishi. Bunda vagus reflekslari, ya’ni qon bosimi, yurak urishi, tomir urishi, nafas olish susayib ketadi. Bemor lanj, behol bo‘lib qolishi mumkin. Bu holatning aksi, ya’ni vagus faoliyati normallashib, simpatik nerv sistemasi ustunroq kelsa, simpatikotonik reflekslar kuchayadi.

Vagus-pnevmoniya — (vagus + pneumonia, lot.) — adashgan (sayyor) nervning shikastlanishi natijasida o‘pka ventilyasiyasining buzilishidan kelib chiqadigan pnevmoniya (zotiljam) kasalligi.

Vazopressin, antidiuretik gormon (ADG) — gipotalamusning supraoptik nerv yadrolarida sintezlanib, gipofizning orqa bo‘lagiga tashiladigan neyrogipofizial peptid gormon, 9 ta aminokislotadan tuzilgan. V. buyrakka bevosita antidiuretik ta’sir qiladi, periferik tomirlarni qisqartirib, yurak urishini sekinlashtiradi, qon bosimini oshiradi. Siydik-ajralishini kamaytiradi. V. hosil bo‘lishining buzilishi qandsiz diabet kasalligiga sabab bo‘ladi.

Vakuola — vacuola, ae, f. (lot.) — o‘simlik va hayvon hujayralari sitoplazmasidagi pufakchalar. Turli kimyoviy tarkibga ega bo‘lgan suyuqlik bilan to‘la bo‘ladi.

Vaksina — vaccinum, i, n., (lot.) — virulentligi (shikastlash kuchi) kamaytirilgan tirik yoki o‘ldirilgan patogen mikrorganizmlardan (shuningdek mikrob hujayrasining antigen xususiyatiga ega ayrim komponentlardan) va ularning hayot faoliyati natijasida hosil bo‘ladigan moddalardan tayyorlanadigan preparat. Davolash va kasalliklarning oldini olish maqsadida ishlatiladi.

Vaksinatsiya, vaksinalash — vaccinatio, onis, f.; (lot) — odam yoki hayvon organizmiga vaksinalar yuborib yuqumli kasallikka qarshi faol immunitet hosil qilish usuli. Vaksinalar organizmga bir necha xil yo‘l bilan (muskul orasiga, teri osti yoki ustiga, og‘iz bo‘shlig‘iga, nafas yo‘llariga) yuboriladi.

Varikotsele — varicocele, es, f; (lot.) — urug‘ tizimchasi venalarining kengayishi. Asosan urug‘ tizimchasining chap tomoni kasallanadi. Yorg‘oq sohasi vaqtiga vaqt bilan og‘rib turadi. Moyak ustida chuvalchangsimon ko‘kimir tuzilmalar paydo bo‘lib, u yurganda, yugurganda ko‘zga yaqqol tashlanadi.

Vaskulyoz — organ yoki to‘qimada mayda qon tomirlarning odatdagidan qo‘ra ko‘proq bo‘lishi.

Vaskulit — vasculitides, um, f., pl.; (lot.) — qon tomiri devorining yallig‘lanishi. Yuqumli va yuqumli-allergik kasalliklar (revmatizm, sepsis, tepkili terlama va b.) da kuzatiladi.

Vezikula — vesicular, -ae, f, (lot). — (kichraytirilgan, vesica — puffak lot.) — ichi suyukliq bilan to‘la pufakcha. Noinfektsion (termik, kimyoviy) seroz yallig‘lanish yoki infektsion yallig‘lanish (ekzantemaning biron bir bosqiChini elementi bo‘lishi mumkin) natijasida hosil bo‘ladi.

Vezikulit — vesiculit (lot). — erkaklar urug‘ pufakchalarining yallig‘lanishi (spermatotsistit). Urug‘ pufakchalariga kasallik qo‘zg‘atuvchi mikroblar kirishi, pufakchadan suyuqlik chiqishining uzoq vaqt buzilishi va chanoq venalarida qon dimlanishi sabab bo‘ladi. Asosan, so‘zak yoki siydik-tanosil a’zolari silining asorati hisoblanadi.

Vena sinusi — sinus venosus — yurakdagi vena egatlarinnng orqa bo‘limida joylashgan qon tomir; yurakning o‘ng bo‘lmasiga quyiladi. V. s. kalla bo‘shlig‘ida vena qonining bemalol oqishini ta’minkaydi. V. s. ga yurakning katta, o‘rta va kichik venalari, chap qorinchaning orqa venasi, chap bo‘lmaning o‘ng venasi quyiladi.

Vena to‘ri — rete venosum — vena tomirlarining o‘zaro qo‘shilishidan hosil bo‘lgan to‘r. Ko‘proq kovak organlar atrofida joylashgan bo‘lib, qonning normal oqishida ahamiyati bor. Asosiy venadan qon oqishi qiyinlashganda V. t. yordam beradi.

Vena chigali — plexus venosus — vena qon tomirlarining o‘zaro qo‘shilishi (anastomozi) tufayli vujudga keladigan chigal. Ko‘pincha kovak organlar va orqa miya atrofida bo‘ladi. V. ch. qonning doim normal oqishini ta’minalashdan tashqari, organlarni tashqi muhit ta’siridan saqlab (amortizator), ularning vazifalarini normal bajarishiga imkon beradi.

Venalar — venae (lot.) — karbonat angidrid bilan to‘yingan qonni organlar va to‘qimalardan yurakka olib keluvchi tomirlar. Kapillyarlar yig‘ilib venulaga, venulalar yig‘ilib venaga o‘tib, oxiri yurakka quyiladi. Odamda yuqori kovak V., pastki kovak V. va darvoza V. bo‘ladi. V. yuza (teri ostida) va chuqur (argeriyalar bilan birga) joylashadi. Ko‘pchilik V. dagi qopqok (klapan)lar yurakka kelayotgan qonning teskari oqishiga (ayniqsa ko‘l-oyoqda) yo‘l qo‘yilmaydi. V. da qonning yurishida muskullarning qisqarishi, ko‘krak qafasidagi manfiy bosim va yurakning qisqarib-kengayishi katta ahamiyatga ega.

Venalarning varikoz kengayishi — varix, icis, m.f., varices, pl. (lot.) — turli kattalikdagi yuza yoki chuqur yotgan venalarning tugun-tugun bo‘lib, notekis kengayishi. Kasallikka venada qon oqishiga to‘sinqinlik qiluvchi omillar paydo bo‘lishi va vena ichidagi qopqoq (klapan) lar faoliyatining buzilishi sabab bo‘ladi. Ko‘pincha oyoqning yuza venalari, qizilo‘ngachning shilliq pardasi tagidagi venalar (jigar sirrozida), to‘g‘ri ichak venalari (bavosir), urug‘ tizimchasi atrofidagi venalar (varikotsele) kengayadi.

Venerik kasalliklar — morbid venerei — tanosil kasalliklari — jinsiy yo‘l bilan yuqadigan *zaxm*, *so‘zak*, yumshoq shankr, chov limfogranulematozi va granulyomaning umumiyligi nomi. V. k. jinsiy aloqadan boshqa yo‘llar (idish-tovoq, kiyim-kechak, o‘pishib ko‘rishish) orqali kamdan-kam yuqadi.

Venoz giperemiya — q., Giperemiya.

Venoz bosim, venoz qon bosimi — vena qon tomiridagi qondan shu venalar devoriga tushadigan bosim; balandligi venalar kalibriga, devorlarining tonusiga, qon oqimining hajm tezligiga bog‘liq.

Venulalar — venula (lot.) — qon tomirlar sistemasi mikrotsirkulyar qismining bir bo‘lagi. Eng mayda venalar, postkapillyarlardan boshlanadi. V. ko‘shilishidan venalar vujudga keladi.

Vestibulopatiya — (vestibula + pathya) — vestibulyar apparat, ya’ni muvozanat saqlash a’zosi faoliyatining buzilishi; bunda bosh aylanadi, ko‘ngil aynishi, quşish, muvozanatning buzilishi va b. kuzatiladi.

Virilizatsiya, maskulinizatsiya — androgenlar ta’sirida ayollarda erkaklarga xos belgilar paydo bo‘lishi.

Virilizm, maskulinizm — ba’zi endokrin kasalliklar va o‘smlar natijasida ayollarda uchraydigan hamda virilizatsiya bilan ifodalanadigan bir guruh sindromlarning umumiyligi nomi.

Virulentlik — (virulentia, ae, f. lot.) — odamga hamda hayvonlarning ma’lum turlariga nisbatan mikroorganizmlarning patogenlik darajasi; yuqumlilik, organizmga kira olmasligi, zaharliligi kabi xususiyatlari bilan belgilanadi.

Virus tashuvchanlik — k. *Bakteriya va virus tashuvchanlik*.

Virusemiya — (virus + haemiya, lot.) — viruslar ko‘zg‘atadigan ko‘pgina yuqumli kasalliklar (chechak, sariq kasalligining V turi va b.) da qonda viruslar bo‘lishi.

Viruslarga qarshi moddalar — viruslarni o‘ldirish yoki ularning rivojlanishini susaytirish maqsadida ishlatiladigan moddalar (oksolin, metisazon, idoksuridin, interferon va b.).

Virusli hepatit — hepatitis, itidis, f. (gr.) + viridae — epidemik hepatit, infektsion hepatit. Botkin kasalligi — jigar zararlanishi bilan kechadigan o‘tkir yuqumli kasallik. V. g. ning yuqumli ekanligini birinchi marta S. P. Botkin (1888) aniqlagan. 2 turi bor. Infektsion G. da kasallik bemor yoki virus tashuvchidan asosan og‘izdan (suv, taom va b. orqali) yuqadi. Zardobli G. da infeksiya tibbiy asbob-uskunalardan yoki virus tashuvchi bemor qonini quyganda yuqadi. Kasallik aksariyat sekin boshlanadi: bemorning darmoni quriydi, ishtahasi yo‘qoladi, ko‘ngli ayniydi, qayt qiladi, oyoq-qo‘l muskullari zirkirab og‘riydi. Bemorning temperaturasi ko‘tariladi. Siydk qizarib, pivo yoki achchiq choy rangida bo‘ladi, najas oqimtir tusga kiradi. Bemor kasalxonada davolanadi.

Virusuriya — virus + uria — viruslar qo‘zg‘atadigan ko‘pgina kasalliklarda bemor siydigida virus bo‘lishi.

Visserit — ichki a’zolarning yallig‘lanishi.

Visseroptoz — q., Splanxnoptoz.

Vitamin bilan davolash — kasalliklarni vitaminlar bilan davolash; mustaqil davo usuli sifatida (biror vitamin yetishmaganda) va b. davolash usullari bilan birga qo‘llaniladi.

Vitamin yetishmovchiligi — odam iste’mol qiladigan ovqat tarkibida vitaminlarning yetarli bo‘lmasligi, ichak mikroorganizmlari tomonidan vitaminlar sintez qilinishining pasayiishi yoki o‘zlashtirilishining buzilishi sababli kelib chiqadigan kasallik holati.

Vitaminga o‘xshash moddalar — biologik ta’siri va ishlatilishiga ko‘ra vitaminlarga yaqin moddalar.

Vitaminlar — vitamina, orum, n., pl. — odam organizmining faoliyati va normal moddalar almashinushi uchun zarur, ovqat bilan juda kam miqdorda kiritilib turiladigan organik birikmalar turkumi. Organizmda V. sintez qilinmaydi, ular yetishmaganda gipovitaminoz, ovqatda butunlay bo‘lmaganda avitaminoz kelib chiqadi. V. organizmda kofermentlar hosil qilib, katalitik funksiyani bajaradi. V. ning kimyoviy tabiatni har xil, ularni erish xususiyatiga qarab ikki turkumga bo‘linadi: suvda eriydigan V., yog‘da eriydigan V. Yog‘da eriydigan V. ga aosan A, D, E, K vitaminlar kiradi. Suvda eriydigan V. ga V₁, V₂ kompleksi, folat kislota, niatsin va nikatinamid, pantotenat kislota, V₆, V₁₂, C, R, N va b. V. kiradi.

A vitamin (retinol) — antikseroftalmik V. ko‘rish jarayonida ishtiroy etadi, ko‘z to‘r pardasidagi yorug‘likka sezgir pigment — rodopsin tarkibida nur ta’sirida turli o‘zgarishlarga uchraydi. Bu vitamin yetishmaganda xarakterli ko‘z kasalligi — kseroftalmiya, keratomalyasiya, shapko‘rlik (g‘ira-shirada yaxshi ko‘ra olmaslik) yuz beradi. A vitamindan tashqari uning analogi A₂ vitamin ham mavjud. Kimyoviy jihatdan u degidroretinol bo‘lib, tuzi kam suvlardagi baliq jigaridan olinadi.

V₁ vitamin (tiamin, anevrin) — antinevretik V₁ tabiatda keng tarqalgan, ayniqsa achitqida, o‘sayotgan donda, oqlanmagan guruchda, unda, no‘xatda bo‘ladi. Bu vitamin yetishmaganda polinevrit (beri-beri kasalligi) kelib chiqadi. V₁ vitamin tiaminpirofosfat shaklida karboksilaza, transketolaza fermentlarining kofermentini hosil qilib, pirouzum kislota oksidlanishida, monosaxaridlarning qayta sintezlanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

V₂ vitamin (riboflavin) — sariq rangli flavin mahsuloti, asosan bog‘langan shaklda flavinnukleotid va flavoproteidlar tarkibida achitqilar, jigar va no‘xatda bo‘ladi. hujayrada oksidlanish zanjirida vodorod tashuvchi sifatida qatnashadi. V₂

vitamin yetishmaganda (ariboflavinoz) o'sish susayadi, ko'z, burun, qulq atrofida dermatit rivojlanadi, soch to'qilib ketadi.

V₆ vitamin (pirodoksin) jigar, buyrak, achitqi, donlarda bo'ladi. hayvonlarda bu vitamin yetishmaganda terida o'ziga xos dermatit vujudga keladi. Odamda V₆ avitaminoz uncha spetsifik o'zgarishlar bermaydi. V₆ vitamin aminokislotalar almashinuvida qatnashadigan bir qator fermentlar tarkibiga kiradi.

V₁₂ vitamin (kobalamin) — kamqonlikka qarshi vitamin. Tarkibida 4% kobalt bor. Juda kuchli biologik ta'sirga ega; izomerlanish, metillanish reaksiyalarida, koferment sifatida, qon yaratilishida ishtirok etadi. V₁₂ vitamin yetishmaganida xavfli kamqonlik kelib chikadi. Bu vitamin me'da-ichakdan qonga so'riliishi uchun normal me'da shirasida mavjud ichki omil — glikoprotein bo'lishi shart. Kamqonlik ko'pincha mana shu omil yetishmasligi tufayli V₁₂ vitamin so'rilihining pasayishi natijasida kelib chiqadi. Bu vitamin hayvon to'qimalari va mahsulotlarida, tuxumda va sutda bo'ladi.

N vitamin — *biotin*.

C vitamin (askorbat kislota) — skorbutga qarshi vitamin. Ayniqsa ho'l meva va sabzavotlarda, igna bargli daraxt yaproqlarida ko'p bo'ladi. Bu vitamin issiqqa chidamsiz, yuqori temperaturada buziladi. Uning ovqatda yetishmasligi qon tomirlarining shikastlanishi, qon oqishi bilan ifodalanadigan lavsha (skorbut) kasalligiga sabab bo'ladi. C vitamin molekulasiida ikkita ko'sh bog' tutganligi uchun oson qaytariladi. U kuchli qaytaruvchi omildir. Tibbiyotda keng qo'llaniladi. Sintetik yo'l bilan glyukozadan olinadi.

D vitamin (*kalsiferol*) — raxitga qarshi vitamin. Kimyoviy tuzilishi bo'yicha steroidlar qatoriga kiradigan, yog'da eriydigan V. turkumi. Hayvon mahsulotlarida, baliq moyida ayniqsa ko'p bo'ladi. Provitamin — to'ymagan sterollardan sintezlanadi. D vitamining asosiy vakili D₂ vitamin (ergokalsiferol) ergosterindan,

D₃ vitamin (xolekalsiferol) 7-degidroxolesterindan ultrabinafsha nur bilan shu'lalantirilganda hosil bo'ladi. D₃ vitamin jigar va buyrakda 12, 25-digidroksixolesterolga o'tadi. U odamda D₃ vitamining aktiv shakli bo'lib, o'z tabiatiga ko'ra gormonlarga yaqin. D₁ vitamin organizmda kalsiy va fosfor almashinuviga va b. bir qator jarayonlarga ta'sir etadi. D₂ vitamin raxit kasalligining oldini olish va davolashda ishlataladi.

E vitamin (α , β , γ -tokoferollar) — ko'payish vitamini, antisterol. Yog'da eriydigan, xroman halqasini saqlaydigan V. turkumi. V. faolligiga ega 8 ta birikmadan biologik eng faoli α -tokoferoldir. E vitamin yetishmaganda bo'g'oz hayvonlarda bolasi nobud bo'ladi, erkak hayvonlarda urug'donlar va muskul atrofiyasi kuzatiladi. Bu vitamin yog', jigar, tuxum sarig'ida bo'ladi.

F vitamin — organizmdagi yog'larning juda zarur tarkibiy qismi; organizmda sintez qilinmaydigan to'ymagan yog' kislotalar (linolat, linolenat, arahidonat

kislolar). Ular asosan o'simlik moylarida uchraydi. F vitamin yetishmasligini tajribada kalamushda kuzatish mumkin.

K vitamin (filloxinon) — antigemorragik V. Eg'da eriydigan, turli uzunlikdagi izoprenoid zanjirga ega naftaxinon halqali birikmalar tarkumi. K₁ vitamin ayniqsa yashil o'simliklarda bo'ladi. K₂ vitamin (filloxinon) ba'zi bakteriyalardan olingan, K₃ vitamin (menadion) provitamindir. K vitamin o'simliklarda nafas olish zanjirining komponenti, Mas.: ubixinon. Bu vitamin yetishmaganda qon ivishi omillari, xususan protrombin hosil bo'lishi kamayadi, natijada qon ivishi vaqtি cho'ziladi, qon oqishiga moyillik bo'ladi. K vitamin preparatlari qon oqishini to'xtatish uchun buyuriladi.

P vitamin — o'tkazuvchanlik omili, o'simlik flavonlari turkumiga kiradigan bir guruh moddalar (gesperidin, eriodiktin, xususan kversitin)ni o'z ichiga oladi. Bu flavonlar qon tomiri o'tkazuvchanligini kamaytirish xususiyatiga ega. Ular limon, na'matak, choyning yashil yaprog'i, xom yong'okda glikozid shaklida uchraydi. Gemorrag'ik diatezda, ko'zning to'r pardasiga qon quyilganda, gipertoniya kasalligida qo'llaniladi.

PP vitamin (nikotinamid) — nikotin kislota amidi; achitqi, kepak, go'sht va jigarda ko'p bo'ladi. Bu vitamin yetishmasligi *pellagra* kasalligiga olib keladi. Pellagradan tashqari, tomirlar siqilishi, surunkali yaralarni davolashda ham qo'llaniladi. RR vitamin nikotinamid nukleotidlari shaklida asosiy degidrogenazalarning kofermenti NAD, NADF holida hujayra metabolizmida keng qatnashadi.

Vitaminlash — 1) ma'lum aholi guruhlari (Mas.: bolalar, ishchilar va b.) ning vitamin iste'mol qilishlarini kuchaytirishga qaratilgan tadbirlar sistemasi; 2) ovqat mahsulotlari va tayyor ovqatlarning biologik qiymatini oshirish maqsadida ularni vitaminlar bilan boyitish.

Vodorod peroksid — (sin. : pergidrol, giperol va b.) — antiseptiklarning oksidlovchi guruhiga mansub dori; shilliq qavatlarning yallig'lanishi bilan kechadigan kasalliklar (stomatit, angina), shuningdek yiringli yaralarni davolashda ishlatiladi.

Vulva — vulva, ae, f.; syn. pudendum femininum seu muliebre (lot.) — ayollarining tashqi jinsiy a'zolari; bunga qov, katta va kichik jinsiy lablar, klitor, qin dahlizi va Bartolin bezi kiradi.

Vulvit — vulvitis, itidis, f.; syn. episitiis, itidis, f. (lot.) — ayollar tashqi jinsiy a'zolarining yallig'lanishi; odatda qin yallig'lanishi bilan birga kechadi.

Vulvovaginit — vulvovaginitis, itidis, f. (lot.) — ayollar tashqi jinsiy a'zolari va qinning yallig'lanishi. V. ni turli mikroblar (ko'pincha stafilokokk, streptokokk, ichak tayoqchasi, trixomonadalar, ba'zan difteriya tayoqchasi, gonokokk) va zamburug'lar ko'zg'atadi. Shaxsiy gigiena qoidalarining buzilishi, vulva terisi va

qin shilliq, pardasining shikastlanishi, organizmning himoya funksiyasini susaytiradigan turli surunkali kasalliklar (Mas.: tonsillit, pielonefrit) va moddalar almashinuvining buzilishi bilan bog‘liq bo‘lgan kasalliklar (semirish, qandli diabet) ham sabab bo‘lishi mumkin. V. da qindan ko‘p chiqindi ajrala boshlaydi, vulva sohasi qichishib, og‘riydi, yurganda og‘riq zo‘rayadi, tashqi jinsiy a’zolar terisi, ba’zan son va dumbanining ichki yuzasi qizaradi.

— G —

Gaymorit — sinusitis maxillaris; syn. genyantrilis, highmoritis, itidis, f. (gr.) — yuqori jag‘ suyagi bo‘shlig‘ining shilliq pardasi va shilliq osti qavatining yalligianishi, bunga ba’zan suyak ust pardasi va suyak devori yalligianishi qo‘shiladi.

Gangrena, qorason — gangraena, -ae, f (gr. gangraina — yong‘in, o‘yadigan yara, keyinchalik — gangrena) — tana, organ yoki to‘qima bir qismining irishi, nekrozning bir turi. To‘qimaning ezilishi, sovuq urishi yoki kuyishi, radioaktiv nurlar, kislota va ishqorlar, mikroblarning toksinlari ta’sirida to‘qimaning o‘lishi va b. sabab bo‘ladi. Klinik kechishi bo‘yicha birlamchi, ikkilamchi, quruq, ho‘l va *gazli* G, farq qilinadi.

Gallyusinatsiya — hallutinatio, onis, f. — ayni vaqtida yo‘q narsalarni bordek idrok qilish; idrok yetishning aldanishi. G. nerv sistemasi kasalliklari yoki gipnoz vaqtida ro‘y beradi. Odatda bir necha turga, Mas.: ko‘rish (odam, narsa, hasharotlarni ko‘rish), eshitish (tovush, shovqinni eshitish), hid bilish, ta’m bilish va teri sezgisi G. lariga bo‘linadi. Har xil kasalliklarda G. ning biror turi ko‘proq uchraydi. Mas.: ko‘rish G. si ko‘pincha infektsion kasalliklar va turli zaharlanishlar oqibatida yuz beruvchi ruhiy xastaliklarda kuzatilsa, eshitish G. si shizofreniyaning ba’zi turlari va nerv sistemasining spirtli ichimliklardan zaharlanishi natijasida yuzaga keladi. G. qarilik ruhiy kasalliklarida ham sodir bo‘ladi.

Gambrinizm — alkogolizmning bir turi; pivo ichishga ruju qilish.

Gamma-globulinlar — qon plazmasidagi immunoglobulinlar fraksiyasi; tarkibida bakteriyalar va viruslarga qarshi antitelolar bor. Yuqumli kasalliklar (qizamiq, poliomielit, gepatit) ning oldini olish va davolash maqsadida qo‘llaniladi.

Gapten — antigenlik xususiyatiga to‘la ega bo‘lmagan modda; biopolimer molekulalari fragmenti yoki sun’iy sintez qilingan kimyoviy birikma.

Gaptoglobin — kislota tabiatli α_2 -plazma glikoproteini. Spetsifik tarzda plazma oksigemoglobiniga birikib, buyrakdan filtrlanmaydigan yuqori molekulyar kompleks hosil qiladi. G. gemoglobinga qarshi tabiiy, oldindan tayyor antitelo deb faraz qilinadi.

Gastralgiya — qorin og‘rig‘i. Organik o‘zgarishlar bo‘lmay turib, qorinda qattiq og‘riqpaydo bo‘lishi. Asosan me’da kasalligida kuzatiladi.

Gastrit — gastritis, -tidis, f. (gr. gaster, gastros — me’da + -itis — yallig‘lanish) — me’da shilliq pardasining yallig‘lanishi. Noto‘g‘ri ovqatlanish, alkogol, nikotin ta’siri, ovqatdan zaharlanish va b. sabab bo‘ladi. O‘tkir va surunkali kechadi. Utkir G. da ko‘ngil aynishi, quşish, to‘sh ostida kuchli og‘riq turishi, gavda haroratining ko‘tarilishi, og‘izdan yoqimsiz hid kelishi kuzatiladi. Me’daga kislota yoki ishqor tushishi natijasida shilliq pardaning yemirilishidan o‘tkir G. ning korroziv xili paydo bo‘ladi. Me’da shilliq pardasi ba’zan yiringlab, o‘tkir G. ning flegmonali xili vujudga keladi. Surunkali G. da ishtaha yo‘qolishi, kekirish, ko‘ngil aynishi, qorin dam bo‘lishi, ich qotishi yoki ketishi belgilari paydo bo‘ladi. Ovqat hazm qilish buzilib, to‘sh osti og‘rib turadi.

Gastroenterit — gastroenteritis, -tidis, f (gr. gaster, gastros + enteron — ichak + -itis) — me’da va ingichka ichak shilliq qavatining yallig‘lanishi. Organizmni zaharlab, umumiy yuqumli kasallikni vujudga keltiradigan mikroblarning ovqat bilan me’da-ichakka kirib ko‘payishi sabab bo‘ladi.

Gastroduodenit — gastroduodenitis -tidis, f (gr. gaster, gastros + duodenum — o‘n ikki barmoqli ichak + -itis) — me’da va o‘n ikki barmoq ichak shilliq pardasining yallig‘lanishi. G. ko‘pincha gastrit, me’da yarasi, pankreatit kabi kasalliklar bilan og‘rigan, shuningdek har xil turdagijijjalari (lyambliya, askarida va b.) bor kishilarda uchraydi. O‘tkir va surunkali G. farqlanadi. O‘tkir G. da bemorning ko‘ngli ayniydi, quşadi, ichi ketadi, to‘sh sohasida og‘riq bo‘ladi. Surunkali G. da me’da yarasi yoki xoletsistit kabi kasalliklarning belgilari kuzatiladi.

Gastroptoz — gastrophtosis, is, f. (gr.); syn. descensus ventriculi; ptosis ventriculi — me’daning kengayib, o‘z o‘rnidan pastga osilib tushishi. qorin devori tonusining pasayishi (ko‘p tuqqan ayollarda, ozib kyetgan kishilarda), diafragmaning ba’zi kasalliklari, o‘pka emfizemasi, ekssudativ plevrit sabab bo‘ladi. G. da bemorning ishtahasi yo‘qolib, to‘sh ostida og‘riq paydo bo‘ladi, qorin muskullari bo‘shashib, pastki qismi osilib ketadi, me’dada suv borligi seziladi.

Gastrorragiya — me’da tomirlari devorining yorilishi natijasida uning bo‘shlig‘iga qon oqishi. Ko‘pincha me’da yarasi, raki, gemorragik gastritda kuzatiladi.

Gastropazm — me’da silliq muskullarining qisqarishi natijasida harakat faoliyatining buzilishi. G. da me’dada kuchli og‘riq paydo bo‘lib, bir necha soat

davom etadi. U bel, qovuq va orqaga tarqaladi. Bemor bezovtalanib qusadi, qorni dam bo‘ladi, ko‘ngli ayniydi.

Gastroenterokolit — gastroenterocolitis, itidis, f. (gr.) — me’da va ichak (xususan, ingichka va yo‘g‘on ichak) ning o‘tkir yallig‘lanishi.

Gemangioma, — haemangioma, atis, n. (gr.); syn. naevus vasculosus — tomir nevusi — qon tomirlaridan rivojlangan xavfsiz o‘sma. Arteriya (arteriya tomirlaridan), vena (vena tomirlaridan), kavernali (to‘siqlar bilan ajratilgan kengaygan tomir bo‘shliqlaridan), kapillyarli (qil tomirlardan rivojlanadigan) va b. G. lar farq qilinadi.

Gemangiosarkoma — haemangiosarcoma — qon tomir devori elementlaridan rivojlanadigan xavfli o‘sma.

Gemartroz — haemarthrosis — bo‘g‘im shikastlanishi oqibatida uning ichiga qon quyilishi.

Gematokista — haematocysta — ichida qon bo‘lgan kista, qonli kista.

Gematoma — haematoma, atis, n. (gr.); syn. tumor sanguineus — to‘qimalar, organlar, tana bo‘shliqlarida qon to‘planishi. Qon tomirlar shikastlanganda, qonning ivuchanligi buzilganda ichki qon ketishi sabab bo‘ladi. Bunda qon to‘qimalarga singishi yoki bir joyda to‘planib, to‘qimalarni chetga surib qo‘yishi mumkin. G. to‘qimalarda yallig‘lanish reaksiyasini hosil qiladi, ularni qon bilan ta’minlovchi mayda qon tomirlarini bosib qo‘yadi, natijada og‘riq paydo bo‘ladi.

Gematuriya — haematuria, ae, f. (gr.); haematuresis, is, f. (gr.) — siydikda qon bo‘lishi, buyrak va siydik yo‘li kasalliklarida kuzatiladi. Makrogematuriya (siydik qizg‘ish, ba’zan go‘sht seliga o‘xhash bo‘ladi), mikrogematuriya (mikroskop ostida eritrotsitlar borligi aniqlanadi) farq qilinadi.

Gemikraniya — hemicrania, ae, f. (gr.) — boshning ko‘proq bir yarmida bo‘ladigan og‘riq (migren).

Gemiparez — hemiparesis, is, f. (gr.) — gavda yarmining yengil falajlanishi; erkin harakatlarning susayishi.

Gemiplegiya — hemiplegia ae, f. (gr.) — kortiko-spinal yo‘llarning markaziy neyroni o‘tkazuvchanligi izdan chiqishi oqibatida gavda yarim mushaklarining falajlanishi.

Gemoblastozlar — haemoblastoses, um, f. pl. (rp.); — qon hosil qiluvchi a’zolar o‘smalarining umumlashtiruvchi nomi. Uch guruhi farq qilinadi: qon hosil qiluvchi to‘qimaning sistemali o‘sma kasalliklari — leykozlar (q.); Qon hosil qiluvchi to‘qimaning sistemali shikastlantirish ehtimoli bo‘lgan regionar o‘sma kasalliklari — xavfli limfomalar; qon hosil qiluvchi to‘qimaning chegarali proliferativ kasalliklari — gistiotsitzlar.

Gemosiderin — haemosiderinum, i, n. (lot.) — yemirilgan gemoglobinning temir tutuvchi mahsuloti.

Gemosideroz — haemosiderosis, is, f. — gemosiderinning ortiqcha hosil bo‘lishi, jigar va boshqa a’zolarda to‘planishi.

Gemobiliya — haemobiliae — o‘t yo‘llaridan o‘t bilan birga qon chiqib ichakka tushishi. Ko‘proq jigar shikastlanganida kuzatiladi.

Gemoblastozlar — haemoblastosum, um, f. pl. (gr.) — qon yaratuvchi hujayralardan rivojlanadigan xavfli o‘smalarning umumiyligi nomi. G. ga *leykoz* va *gematosarkomalar* kiradi.

Gemoglobin, Nb — haemoglobinum, i, n. (gr.) — umurtqalilarning eng muhim nafas oqsili, qonning rangli komponenti. Qizil qon hujayralarida 34% li eritma holida bo‘ladi va havo kislorodini o‘pkalardan to‘qimalarga tashib turadi. G. ikki komponentli xromoproteid bo‘lib, oqsil qismi globin, to‘rt polipeptid zanjirli tetramer, prostatik turkumi har biri temir atomi tutuvchi to‘rtta gem, molekulalaridir. Odam G. ining globin qismi to‘rt polipeptid zanjirdan tashqil topgan bo‘lib, ularning har ikkitasi bir xil tuzilishga ega va $\alpha_2\beta_2$ formulasi bilan ifodalananadi. Bu polipeptid zanjiriga kiradigan aminokislotalar o‘zgarishi tufayli G. ning turli variantlari paydo bo‘lgan. Homila G. i katta kishilar G. idan farq qilib, u $\alpha_2\gamma_2$ formulasi bilan yoziladi. G. ning mutatsiya tufayli kelib chiqqan bir nechta variantlari barvaqd o‘limga sabab bo‘ladi. O‘zgargan G. kislorod bog‘lash xususiyatini yo‘qotadi (o‘roqsimon hujayrali kamqonlik, *talassemiya*).

Gemoglobinemiya — haemoglobinaemia, ae, f. (gr) — qon plazmasida erkin gemoglobinning haddan ziyod ko‘p bo‘lishi. Turli qon kasalliklarida kuzatiladi.

Gemoglobinuriya — haemoglobinuria, ae, f. (gr) — siydikda gemoglobin bo‘lishi. Bunda siydik qizil, ammo tiniq bo‘ladi. Kuyish, zaharlanish, mos kelmaydigan qon quyish asorati sifatida va b. hollarda kuzatiladi.

Gemoliz — haemolysis, haemolysis, is, f. (gr.) — eritrotsitlar (qizil qon tanachalari) ning parchalanib, qon plazmasiga gemoglobin o‘tishi. Normada G. eritrotsitlarning hayotiy siklini yakunlaydi. U odam va hayvonlar organizmnda uzlucksiz ravishda bo‘lib turadi. Patologik G. gemolitik zaharlar, sovuq, ba’zi dorilar ta’sirida (ularga o‘ta sezgir odamlarda) va b. omillar oqibatida ro‘y beradi; gemolitik anemiyaga xos belgilardan biri.

Gematuriya — haematuria, -ae, f (gr. haima, -atos + uron — siydik) — siydikda qon bo‘lishi, buyrak va siydik yuli kasalliklarida kuzatiladi. Makrogematuriya (siydik qizgish, ba’zan go‘sht seliga o‘xhash bo‘ladi), mikrogematuriya (mikroskop ostida eritrotsitlar borligi aniqlanadi) farq qilinadi.

Gemolizinlar — haemolysinum, orum, n., pl. (gr.) — gemolizga sabab bo‘ladigan antitelolar.

Gemoperitoneum — qorin bo‘shlig‘ida qon to‘planib qolishi. qorin va b. ichki organlar (ichak tutg‘ich, jigar, taloq va b.), shuningdek ularning tomirlari zararlanganida kuzatiladi.

Gemopnevmotoraks — plevra bo'shlig'ida qon va havo to'planib qolishi.

Gemorragiya — haemorrhagia, -ae, f (gr. haima + rhagnymi — shiksatlash, iyrtish) — qon tomir devorining butunligiga putur yetganda (kesilganida, yorilganda), o'tkazuvchanligi buzilganda qonning tomir tashqarisiga chiqishi. Qon tomirlar shikastlanishiga ko'ra G. yorilishidan (h. per rhexin), yemirilishidan (h. Per diabrosin) va diapedez orqali sizib kirishidan (h. per diapedesin).

Gemotoksinlar — haemotoxinum, — eritrotsitlarni zararlab, ularning yemirilishi (gemoliz) ga sabab bo'ladigan zaharli moddalar; mikroblarning toksinlari, o'simlik va hayvonlarning zaharli moddalari va b.

Gemotoraks — haemothorax, -acis, m (gr. haima + thorax — ko'krak qafasi) — plevra bo'shlig'ida qon yig'ilishi; shikastlanish, ba'zan o'pka raki yoki sil va b. kasallikkarda ichki qon ketishi sabab bo'ladi. Uncha katta bo'lмаган G. ko'krak og'rig'i, yo'tal bilan kechadi, u zo'rayib borgan sari, nafas qisishi, hansirash, sianoz (ko'karib ketish), yurak faoliyatining izdan chiqishi ro'y beradi.

Gemofiliya — haemophilia — ko'p qon oqishi bilan kechadigan irsiy kasallik; qon plazmasida qonning ivishi uchun zarur bo'lган VIII va IX qon ivish omillarining yetishmasligi sabab bo'ladi. G. kelib chiqish sabablariga ko'ra gemofiliya A. gemofiliya V, ingibitorli G., qon tomirli G., faktorli G. va trombdevorli G. deb farqlanadi.

Gemoxromatoz — haemochrosis — temir almashinuvining buzilishi, uning ichaklarda ko'plab so'riliishi hamda to'qima va organlarda to'planishi bilan ifodalanadigan kasallik. Jigar sirrozi, qandli diabet, terining pigmentatsiyasi kabi belgilar namoyon bo'ladi; dominant hamda retsessiv yo'l orqali nasldan-naslga o'tadi.

Gen, irsiy omil — genum, i, n., gena, pl.; gennan (gr.) — irsiyatning funksional birligi; dezoksiribonuklein kislota (ba'zi viruslarda esa ribonuklein kislota) molekulasing bir qismi. Organizmning barcha G. lari majmui uning genetik qonstitutsiyasi — genotipni tashqil etadi. Irsiy omillarning nasldan-naslga o'tishi 1865 y. Mendel tomonidan kashf qilingan bo'lib, 1909 y. V. Iogansen ularni G. deb atagan. Molekulyar genetika rivoji genetik materialning kimyoviy tabiatini aniqlashga va G. ni DNK (ba'zi viruslarda RNK) molekulasing o'ziga xos nukleotidlar to'plamidan iborat bir qismi deb tasavvur qilishga olib keldi. Har bir G. ma'lum oqsil (ferment) hosil bo'lishi uchun zarur axborotni ta'minlaydi va shu yo'l bilan organizmdagi barcha kimyoviy reaksiyalarni boshqaradi. G. larning noyob xususiyati ularning g'oyatda barqarorligi (bir qancha nasllar davomida o'zgarmasligi) va boshqa tomonidan, ularda ayrim turg'un o'zgarishlar, mutatsiyalar yuz berishidir.

Generalizatsiya — generalisatio, onis, f. (lot.) — patologik jarayonning cheklangan o'choqdan organ, to'qima va h. k. bo'ylab butun organizmga keng

tarqalishi; bunda jarayon qon (gematogen), limfa (limfogen), kanalchalar, bevosita munosabat orqali tarqalib, kasallik keng avj olishi va bemor hayoti xavf ostida qolishi mumkin.

Genotip — genotypus, i. m. (lot.) — organizmning genetik (irsiy) qonstitutsiyasi, uning barcha genlari majmui.

Geparin — heparinum — odam va hayvonlar organizmida semiz hujayralarda hosil bo‘ladigan modda; kimyoviy tuzilishiga ko‘ra mukopolisaxaridlar guruhiba kiradi. U bilvosita ta’sir qiluvchi tabiiy antikoagulyant bo‘lib, protrombinning trombinga, fibrinogenning fibringga aylanishiga to‘sinqinlik qilganligi uchun qon ivuchanligini pasaytiradi. Tibbiyotda G. ning natriyli tuzi tromblar hosil bo‘lishining oldini olish uchun ishlataladi.

Gepatit — hepatitis, itidis, f. (gr.) — jigarning har xil o‘tkir va surunkali yalligianish kasallikkari etiologiyasining umumiy nomi. Ko‘pincha virusli yoki har xil kelib chiqishiga ko‘ra o‘simlik, qo‘ziqorin va mineral zaharlar ta’sirridagi intoksikatsiyalardan keyin, infektsion (gastroenteritlar) va invazion (gelmintlar) kasallikklardan keyin hosil bo‘ladi. Ko‘pincha seroz, parenximatoz, yiringli va proliferativ G. Uchraydi. Kechishiga o‘tkir va surunkali.

Gepatozlar — hepatoses, f., pl (gr. hepar, atos + -oses — kasalliklar) — to‘la qiymmatga ega bo‘lmagan oziqlanish va organizmning intoksikatsiyalari (alkogol, nikotin, qo‘rg‘oshin tuzlari, narkotiklar) ta’sirida organning distrofik o‘zgarishlari (parenximatoz G., yog‘li va b.) bilan kechadigan jigar kasalliklarining guruhi.

Gepatoma — hepatoma, atis, n. (gr.) — (jigarning parenximatoz saratoni, xavfli adenoma) jigar hujayralaridan rivojlanadigan jigarning birlamchi saratoni.

Gepatomegaliya — hepatomegalia, ae, f. (gr.) — jigarning kattalashuvi.

Gepatotoksemiya — hepatotoxaemia — jigar antitoksik faoliyatining buzilishi sababli periferik qonda har xil toksik (zaharli) moddalar bo‘lishi.

Gepatoxolangit — hepatocholangitis — jigar va o‘t yo‘llarining bir vaqtida yallig‘lanishi. O‘t yo‘llarida o‘tning dimlanib qolishi va o‘t yo‘llarining surunkali yallig‘lanishi sabab bo‘ladi. Jigar kattalashib, teri sarg‘ayadi. Kasallik surunkali davom etib, jigar sirroziga aylanishn mumkin.

Gepatoxoletsistit — hepatocholecystitis — jigar va o‘t pufagining birgalikda yallig‘lanishi. O‘tkir gepatit, toksiko-allergik sabablar (simob, ko‘rg‘oshin, mishyak, benzol, antibiotiklar, gormonlar va silga qarshi dorilar), alkogol, me’dai-chak kasalliklaridan so‘ng kelib chiqadi. o‘ng kovurg‘a ostida og‘riq paydo bo‘lib, teri sarg‘ayadi, ko‘ngil ayniydi, ich qotadi. qorin dam bo‘ladi, jigar kattalashadi, bemor ozib ketadi. O‘z vaqtida davolanmasa, jigar sirroziga olib kelishi mumkin.

Gepatoensefalomieliopatiya — hepatonecephalomyelopathiae — jigarning bosh va orqa miya bilan birga zararlanishi. Og‘ir kechadigan jigar kasalliklarida qonda zaharli moddalarning ko‘payib ketishi tufayli bosh va orqa miya faoliyati buziladi.

Bunda jigarning o'tkir va surunkali yetishmovchiligi bilan birga miyada (endotoksin moddalar ta'sirida) shish va meningial belgilar paydo bo'ladi.

Germafrodit — hermaphroditus, i, m. — xunasa — har ikkala jinsga xos ikkilamchi jinsiy belgilarga ega bo'lgan shaxs.

Germafroditizm — hermaphroditism — biseksualizm hunasalik — bir organizmda ham erkak, ham ayolga xos jinsiy belgilar bo'lishi. Chin soxta G. farq qilinadi. Chin G. da bir shaxsda, ham tuxumdon, ham moyak bo'ladi. Jinsiy rivojlanish nuqsonlari (Mas.: mozaitsizm) natijasida kelib chiqadi. Soxta G. da organizmda faqat erkaklar yoki faqat ayollar bezlari bo'ladi. Ayollarda ko'proq buyrak usti bezi tug'ma disfunksiyasi va kamroq tuxumdon o'smalari natijasida kelib chiqadi. Erkaklarda faqat moyak bo'lib, jinsiy organlar interseksual tipda shakllanadi, jinsiy xromatin bo'lmaydi va h. k.

Gestoz — graviditatis seu gestationis — q., Homiladorlik toksikozlari.

Gialuronidaza — tarqalish omili — gialuronat kislotadagi bog'larni uzib, uni parchalaydigan fermentlar turkumi. Gialuronat kislota yemirilishi natijasida to'qimalar ichida turli agentlar (mikroblar)ning tarqalishi osonlashadi.

Gialinoz — hyalinosis, is, f. (gr.) — oqsilli hujayrasiz distrofiya xillaridan birining morfologik ifodasi, bunda to'qimada bir xil, yarim tiniq, gialin (shishasimon) tog'ayni eslatuvchi zikh konsistensiyali massa hosil boladi.

Gigantizm — gigantismus, i, m. (gr.) — o'sish gormonining ortiqcha ishlab chiqarilishi natijasida skelet va b. organlar hamda to'qimalarning yoshga nomuvofiq, lekin proporsional tarzda tez o'sib ketishi (erkaklarda 200 sm dan, ayollarda 190 sm dan baland bo'lishi). G. ga bosh shikastlanishi, turli kasalliklar, ruhiy travmalar, gipotalamusning yallig'lanishi, genetik omillar sabab bo'lishi mumkin. Ko'pincha o'smirlik davrida uchraydi.

Gidr..., gidro... — hydr, hydro, hydor (gr.) — suvga oid tushunchani ifodalovchi qo'shma so'zning tarkibiy qismi.

Gidradenit — hydadenitis, itidis, f. (gr.) — ter bezlari, ko'proq qo'ltiq osti bezlarining yiringli yallig'lanishi; terida tuguncha paydo bo'lib, usti qizaradi, og'riydi; stafilokokklar ko'zg'atadi.

Gidradenoma — hidradenoma, hidroadenoma, atis, n. (gr.) — ter bezlaridan rivojlanadigan xavfsiz o'sma. Ko'proq xotin-qizlarda uchraydi. Qovoqda, bo'yinda, ko'krak qafasining yon va old tomonida paydo bo'ladi. Kichik, ba'zan no'xatdek, tuxumsimon yoki dumaloq, qizg'ish-sariqdan sariq-ko'ng'ir ranggacha, qattiqroq bo'ladi, normal teri damidan deyarli ko'tarilmaydi, so'rilib ketmaydi, xavfli o'smaga ham aylanmaydi.

Gidrartroz — hydrarthrosis — (bo'g'imlar istisqosi) — ko'proq yirik bo'gimlar bo'shlig'iga suyuqlik yig'ilishi, bunda bo'g'imlar atrofidagi to'qimalarda

yalligianish alomatlari ko‘rinmaydi. Bo‘g‘imlar ko‘rinishi o‘zgarib, harakat doirasi cheklanashi kuzatiladi.

Gidremiya — hydraemia, ae, f. (gr.) — qonda suv miqdorining ko‘payishi; biror sababga ko‘ra suv-tuz almashinuvining o‘zgarishi yoki buzilishi natijasida yuzaga keladigan holat. Kompensator, patologik hamda fiziologik turlari tafovut qilinadi.

Gidroz — hydrosis — ter bezlari faoliyatining buzilishi.

Gidrolazalar — enzim katalogining 3-sinf fermentlar turkumi; substratni suv biriktirish bilan parchalaydi, gidrolizlaydi. G. ning asosiy past sinflari: proteazalar, karbogidrazalar, lipazalar va b. esterazalar.

Gidronefroz — hydronephrosis, is, f. (gr.) — buyrak istisqosi — buyrak kasalligi; bunda buyrak jomi va kosachalari kengaya borib, uning to‘qimalari yupqalashib qoladi. Buyrak toshi kasalligi, o‘smasi, siylik yo‘llarining chandiqlanishi sabab bo‘ladi. Belgilari: belda sim-sim og‘riq bo‘lib, u vaqtı-vaqtı bilan zo‘rayib turadi, paypaslab ko‘rliganda buyrak qo‘lga unnaydi. Mikrogematuriya, leykotsituriya kuzatiladi. G. ni aniqlash uchun tasviriy va kontrastli urografiya qilinadi.

Gidroperikard — hydropericardium, ii, n. (gr.) — yurak xaltasi bo‘shlig‘ida suyuqlik yig‘ilishi.

Gidropnevmotoraks — hydropneumothorax, acis, m. (gr.) — gaz (havo) va sariq (seroz) suyuqlikning bir vaqtida plevra bo‘shlig‘iga yigelishi.

Gidrotoraks — hydrothorax, acis, m. (gr.) — yallig‘lanishsiz plevra bo‘shlig‘ida suyuqlik (transsudat) yig‘ilishi.

Gingivit — gingivitis, itidis, f. — milk shilliq pardasining yallig‘lanishi; me‘da-ichak, nafas organlari, yurak-tomir, nerv sistemasi, qon kasalliklari, infeksnon kasalliklar, avitaminozlar, og‘ir metall (simob, qo‘rg‘oshin va b.) tuzlaridan zaharlanish sabab bo‘ladi. Homiladorlikda, hayz sikli buzilganda, balog‘atga yetish davrida ko‘p uchraydi. Kataral, yarali, gipertrofik, atrofik G. farq qilinadi.

Giper... — hyper (gr.) — odatdagidan ortiq degan manoni anglatuvchi old qo‘shimcha.

Giperazoturiya — hyperazoturia — siydikda ko‘p miqdorda azot bo‘lishi; asosan oqsilga boy ovqatlar iste’mol qilinganda va ayrim kasalliklarda kuzatiladi.

Giperalgeziya — hyperalgesia — og‘riq sezishning kuchayishi; ayrim nerv tolalari yoki orqa miya ildizlari zararlanganda («chala kesilib», ortiqcha qo‘zg‘alganda) kuzatiladi. Mas.: uch tarmoqli nervning turli sabablarga ko‘ra sezuvchanligi oshib, ko‘zg‘aluvchan bo‘lib, bemorning yuzida kuchli og‘riq xurujlarini berishi (q. Nevralgiya).

Giperaldosteronizm — q. Aldosteronizm.

Giperbilirubinemiya — hyperbilirubinmia, ae, f. (gr.) — qon zardobida bilirubin miqdorining ko‘payib ketishi. G. irsiy, tug‘ma va orttirilgan bo‘lishi mumkin. Gemolitik yoki gemolitik bo‘lmagan, qaysi organga (Mas.: jigarga) taalluqligiga ko‘ra bir qancha turlari tafovut etiladi.

Giperbarik oksigenatsiya — oxygenatio hyperbarica — yuqori bosim ostida kislorod bilan davolash.

Giperventilyasiya — hyperventilatio — nafas olishning tezlashishi natijasida o‘pkaga ko‘p miqdorda havo kirishi. Chuqur va tez-tez nafas olish hamda qonda kislorodning keskin ko‘payishi va karbonat angidridning keskin kamayishi bilan belgilanadi.

Gipervitamioz — hypervitaminosis — vitaminlarni xaddan tashqari ko‘p qabul qilish natijasida organizmda paydo bo‘ladigan kasallik holati. Ko‘pincha A gipervitaminoz va D gipervitaminoz kuzatiladi. A gipervitaminozning o‘tkir xilida bosh og‘riydi, ko‘ngil ayniydi, bemor qusadi, terisida qizil dog‘lar paydo bo‘ladi. Surunkali xilida bemorning terisi quruq, kipiqlanuvchan, sochi nozik, quruq, mo‘rt bo‘lib qoladi, milk va lab yallig‘lanib, taram-taram bo‘lib yorilib ketadi. D gipervitaminozda kattalarda quvvatsizlik, chanqash, suyaklarda og‘riq, qonyunktivit kuzatiladi, bolalarda esa bo‘y yaxshi o‘smanydi va gavda og‘irligining ortishi kamayadi, ishtaqa yo‘qoladi, teri oqaradi, ular ozib ketadi.

Gipergedoniya — hypergedonia — kayf-safo va aysh-ishrat, rohatlanish, xuzurhalovat va h. k. ga ruju qilish.

Giperglikemiya — hyperglycaemia, ae, f. (gr.) — qonda qand miqdorining ko‘payishi, 120 mg o‘ dan ortiq bo‘lishi. Adrenal, alimentar, diabetik, tranzitor va b. xil G. farq qilinadi. Adrenal G. qonda adrenalin ko‘payishi, alimentar G. uglevodlarga boy oziq-ovqat iste’mol qilinishi, diabetik G. qandli diabet, tranzitor G. esa qonda adrenalin ko‘payishi yoki uglevodlar iste’mol qilinishi natijasida, vaqtincha kuzatiladigan G. dir.

Gipergiya — hypergia — organizm reaktivligining susayishi (yana q. Anergiya).

Gipergevziya — hypergeusia, ae, f. (gr.) — ta’m sezgisining ortib ketishi.

Giperemiya — hyperaemia, ae, f. (gr.) — mikrotsirkulyator sistemaga qon oqib kelishi kuchayishi tufayli periferik tomirlar sistemasining biror hududida qon to‘liqligining oshishi, qizarish.

Giperergiya — hyperergia, ae, f. (gr.) — organizm yoki a’zo reaktivligining me’yordan ortiq zo‘rayib ketishi.

Giperesteziya — hyperesthesia ae, f. (lot.) — har xil qo‘zg‘ovchilar (taktil, og‘riq) ta’siriga nisbatan terida sezuvchanlikning ortiq bo‘lishi.

Giperinoz — hyperinosis — qon ivish xususiyatining kuchayishi; qonda fibrinogen miqdorining ortib ketishi.

Giperinsulinemiya — hyperinsulinemia — qonda insulin miqdorining ko‘payishi.

Giperinsulinizm — giperinsulinemiya natijasida qonda qand miqdorining keskin kamayib ketishi bilan ifodalanadigan kasallik; ko‘pincha insulinoma sabab bo‘ladi, o‘sma avtonom ravishda ko‘p miqdorda insulin ishlab chiqaradi va gipoglikemiya xurujiga olib keladi. Birinchi galda MNS faoliyatining buzilish belgilari (neyroglikopeniya sindromi) paydo bo‘ladi. Gipoglikemik koma oqibatida bemor halok bo‘lishi mumkin yoki uning MNS da qayta tiklab bo‘lmaydigan o‘zgarishlar ro‘y beradi.

Giperkalsiemik kriz — yuqori giperkalsiemya bilan kechadigan giperparatioreozda organizmning kalsiyidan zaharlanishi natijasida qorin, bo‘g‘im, muskullar og‘rig‘i, ko‘ngil aynishi, to‘xtovsiz qayt qilish, tomir tortishishi bilan ifodalanuvchi va komaga olib kelishi mumkin bo‘lgan holat.

Giperkalsiemiya — hypercalcemia — qonda kalsiy miqdorining ko‘payishi.

Giperkapniya — qon va to‘qimalarda karbonat angidrid miqdori (parsial bosimi) ning ortib ketishi.

Giperkeratoz — odam terisi muguz qavatining haddan tashqari qalnlashuvi; uzoq, vaqt qisilish, ishqalanish va b. sabab bo‘ladi.

Giperkeratoz — hyperkeratosis, is, f. (gr.) — epidermis hujayralarining haddan ortiq shox (keratin) moddalarga aylanishi.

Giperkinezlar — hyperkinesis, is, f. (gr.) — beixtiyor ortiqcha harakatlar, ko‘proq yuz, tana yoki oyoq-qo‘llar mushaklarida bo‘ladi.

Gipernatriemiya — qon plazmasida natriy miqdorining ortib ketishi. Osh tuzini ko‘p iste’mol qilishga odatlangan kishilarda, aldosteronizm, buyrak yetishmovchiligi, gipertoniya kasalligining ba’zi turlari va h. k. da kuzatiladi.

Giperoksemiya — qonda kislород (uning parsial bosimi) ning ko‘payib ketishi.

Giperosmiya — hyperosmia, ae, f. (lot.) — hid sezishning o‘tkirlashuvi, kasallik belgilaridan biri. Bunga burun bo‘shlig‘i shilliq pardasidagi har xil hidlarni aniqlovchi va «tutib oluvchi» nerv tolalari retseptor nuqtalarining ortiqcha qo‘zg‘alishi sabab bo‘ladi.

Giperparatioreoz — hyperparathyreosis, is, f., hyperparathyreoidismus, i, m. (gr.) — Reklingauzen kasalligi — qalqonsimon bez oldi bezi adenomasi yoki giperplaziysi oqibatida kelib chiqadigan endokrin kasallik. Bunda paratgormonning ko‘p ishlab chiqarilishi kalsiy va fosfor almashinuvining keskin buzilishiga sabab bo‘ladi. Natijada fosfor va kalsiy birikmali suyaklardan yuvilib, suyaklar yumshashi, qiyshayishi va sinishi, muskullar zaiflashishi, fibroz osteit, umurtqalar osteoporoz, nefrokalkulyoz, giperkalsiemiya va giperkalsiuriya, ruhiy o‘zgarishlar ro‘y beradi.

Giperplaziya — hipegrasia, ae, f. — hujayralarning bo‘linib ko‘payishidan tashqari, ular tuzilish elementlari sonining ham ko‘payishi; G. hujayra ichidagi ultratuzilmalar (yadro, yadrocha, mitoxondriya, ribosoma, lizosoma, endoplazmatik to‘r va h. k.) sonining ortishi hisobiga ro‘y berishi aniqlandi. G. ba’zan to‘qimalarning aynib, atipik ravishda o‘sishga va o‘sma hosil bo‘lishiga olib kelishi mumkin.

Giperproteinemiya — qonda oqsil miqdorining ortib ketishi; asosan sistemali kasalliklar (Mas.: mieloma, leyshmanioz, shizofreniya va h. k.) da kuzatilib, odatda uchramaydigan yoki nihoyatda kam uchraydigan ba’zi g‘ayritabiyy oqsillar (Mas.: krioglobulin, makroglobulin va b.) paydo bo‘lishi bilan ifodalanadi.

Giperosmiya — hyperosmia, ae, f. — hid bilish sezgisining haddan tashqari ortib ketishi.

Giperpnoe — hypopnoe, es, f. — nafas olishning tezlashuvi va odatdagidan ko‘ra chuqurroq bo‘lish holati.

Gipertenziya — hypertension, onis, f. — aslida qon tomirlari, kovak organlar, bo‘shliqlar va h. k. da gidrostatik bosimning ortishini anglatuvchi umumiy tushuncha. So‘nggi vaqtida bu atama faqat qon tomirlarida (arterial yoki venoz) bosimning ortishini ifodalash uchun ishlatilmoqda, xolos (gipertoniya kasalligi bundan mustasno).

Gipertermiya — hyperthermia, ae, f. (gr.) — organizmning qizishi issiq “urishi” — organizmning biror sabab (Mas.: harorati nihoyatda yuqori bo‘lgan ishlab chiqarish korxonalari, tashqi muhit sharoitlari va h. k.) ga ko‘ra qizib ketishi, haroratining juda yuqori bo‘lishi. Davolash yoki tajriba maqsadida odam va hayvonlar haroratini sun’iy ravishda ko‘tarish usuli.

Gipertimiya — ko‘tarinki kayfiyat; harakatchanlik hamda ruhiy faoliyatning oshishi bilan ifodalanadi.

Gipertireoz — hyperthyreosis, is, f. (gr.) — qalqonsimon bez faolligining ortishi tufayli kuzatiladigan sindrom; qalqonsimon bezning kattalanishi, asosiy almashinuvning kuchayishi va taxikardiya belgilari bilan kuzatiladi.

Gipertireoidlash — qalqonsimon bez funksiyasi susaygan bemorga qalqonsimon bez gormonlari ortiqcha tayinlanganda paydo bo‘ladigan gipertireoz holati.

Gipertoniya — hypertension, ae, f. (gr.) — organ, to‘qimalar tonusi (tarangligi)ning oshishi; mayda arteriyalar tonusining ortishi va ularning torayishi natijasida qon bosimining ko‘tarilishi ko‘pincha G. deb ataladi. G. gipertoniya kasalligi, nefrit va buyrakning boshqa kasalliklari, aorta aterosklerozi va shu kabi kasalliklar belgisi hisoblanadi.

Gipertoniya kasalligi — morbus hypertonicus; syn. hypertensio essentialis — arterial qon bosimining ko‘tarilishi shaklida namoyon bo‘ladigan yurak-tomir

kasalligi; MNS ning ruhiy zARBaga uchrashi va uning o'ta zo'riqishi natijasida paydo bo'ladi; irsiyat ham rol o'ynaydi. Kasallikning kechishi ko'proq bosh miya tomirlari (bosh og'rig'i, bosh aylanishi, tajanglik), yurak, buyrak va ko'z tubining qay darajada zararlanishiga bog'liq. G. k. miokard infarkti, yurak faoliyatining yetishmovchiligi, insult, nefroskleroz va b. ga olib kelishi mumkin.

Giperetrofiya — hypertrophia, ae, f. (gr.) — birorta to'qima yoki organ hajmining kattalashishi; giperplaziya asosida vujudga keladi. Ba'zi hollarda G. organning zo'r berib ishlashiga sabab bo'lsa, boshqa hollarda hech bir funksional zaruratsiz vujudga keladi. Chin va soxta G. farq qilinadi. Chin G. organ parenximasi hisobiga ro'y bersa, soxta G. organda oraliq to'qima vujudga kelishiga bog'liq. Soxta G.da organ funksiyasi kuchaymay, balki susayadi.

Giperfunksiya — organizm sistemalari yoki biror organ faoligining kuchayishi; G. fiziologik ta'sirlovChining ta'siriga javob reaksiyasi yoki patologik ta'sirlovchiga nisbatan himoyaviy moslanish reaksiyasi sifatida yuzaga keladi.

Giperxlorgidriya — hyperchlorhydria — me'da shirasi tarkibida xlorid kislota miqdorining ko'payib ketishi.

Giperxloremiya — hyperchloremia — qonda (zardobi va plazmasida) xloridlar miqdorining ortib ketishi.

Giperxloruriya — hyperchloruria, ae, f. — siydik bilan ko'p miqdorda xloridlar ajralishi.

Giperxolesterinemiya — hypercholesterinaemia, ae, f. (gr.), f. — qonda xolesterin miqdorining ortiqcha bo'lishi. G. ning kelib chiqishi sabablariga ko'ra bir necha turi (Mas.: oilaviy, oilaviy essensial va h. k.) tafovut qilinadi. Ular ko'p uchraydigan yurak-tomir sistemasi kasallikkari asosida yotuvchi ateroskleroz kabi patologik jarayonlarni o'rganish, oldini olish va davolashda muhim o'rinn tutadi.

Gipo... — hyp, hypo (gr.) — odatdagi miqdorning kamayishit, pasayishi degan ma'noni bildiradi.

Gipesteziya — hypestesia — sezuvchanlikning susayishi; harorat, og'riq kabi ta'sirotlarni yaxshi sezmaslik.

Gipoaldosteronizm — hypoaldosteronismus — aldosteron yetishmasligi sindromi; qayt qilish, degidratatsiya, tez o'zgarib turadigan isitma, metabolik atsidoz, giperkaliemiya, giponatriemiya, gipotoniya va siydikda aldosteron bo'lmasligi bilan ifodalanadi ferment yetishmovchiligi, aldosteromani olib tashlash, ko'p miqdorda heparin qo'llanishi, qandli diabet va surunkali buyrak yetishmovchiligi natijasida kelib chiqadi.

Gipovitaminoz — hypovitaminoses — organizmda vitaminlar yetishmasligi sababli kelib chiqadigan kasallik holati.

Gipogevziya — hypogesia — ta'm bilishning pasayishi. Tilning ustki qavatidagi sezuvchan «nuqtalar» faoliyatshing ayrim sabablarga ko'ra susayishidan kelib chiqadi (yana q. Gipergevziya).

Gipokalsiemiya — hypocalciemia — qon zardobida kalsiy miqdorining kam bo'lishi; G. ayniqsa qalqonsimon bez oldi bezining faoliyati pasayganda hayot uchun xavfli turli o'zgarishlar bilan yaqqol namoyon bo'ladi.

Gipokapniya — hypocapnia — qonda karbonat angidridning kamayishi. Mas.: giperventilyasiya tufayli yuz berishi mumkin. Bunda qonda kislorod yetishmasligi karotid sinus xemoretseptorlarini ta'sirlab, nafas olishni tezlatadi, natijada SO₂ alveolyar havodan va qondan chiqib ketadi.

Gipokortitsizm - q. Addison kasalligi.

Gipoksantin — 6-gidroksipurin; purinlarning aerob oksidlanishida paydo bo'ladi. To'qimalarda keng tarqalgan.

Gipoksemiya — hypoksemia — anoksemeiya — qonda kislorod miqdori (parsial bosimi) ning kam bo'lishi. Keltirib chiqargan sabablariga ko'ra arterial, venoz va b. turlari farq qilinadi.

Gipoksiya — hypoxia — kislorod tanqisligi — organizmda yoki ayrim organ va to'qimalarda kislorod kamligi. G. nafas bilan olinayotgan havoda kislorod yetishmaganda (Mas.: balandlikka ko'tarilganda), shaxtalar, quduqlar, suv osti kemalarida ishlaganda, nafas yo'llariga yot jismlar tiqilib qolganda, bronxlar spazmida va b. hollarda ro'y berishi mumkin. o'tkir, surunkali, shuningdek anemik va gistotoksik G. farq qilinadi.

Gipoparatireoz — hypoparathyreosis, is, f., hypoparathyreoidismus, i, m. (gr.) — qalqonsimon bez oldi bezlarining faoliyati yetishchovchiligi oqibatida kelib chiqadigan kasallik. G. ga qalqonsimon bez oldi bezlarining tug'ma yetishmovchiligi, autoimmun jarayonlar, qalqonsimon bezda operatsiya o'tkazilayotganda tasodifan old bezlarning olib, tashlanishi yoki qon quyilishi sabab bo'ladi. Paratgormon yetishmasligi, gipokalsiemiya va giperfosfatemiya qoladi. Natijada tomir tortishi (tetaniya, talvasa xuruji), asabiy va ruhiy buzilishlar ro'y beradi.

Gipoplaziya — hypoplasia, ae, f. (gr.) — rivojlanish nuqsoni; bunda biror organ, gavdaning bir qismi yoki butun organizm normal rivojlanmay qoladi.

Gipoproteinemiya — qon zardobida oqsil miqdorining kamayishi; organizmning oqsilga tuzuk yolchimasligi yoki siydik bilan ko'p oqsil yo'qotish (albuminuriya) sabab bo'ladi.

Gipoprotrombinemiya — qonda protrombin miqdorining kamayishi; qon ketib turishi, qonash, Mas.: K vitamin yetishmasligi, sil, gipertireoz va b.da kuzatiladi.

Giposalivatsiya — so'lakning kam ajralishi.

Giposensibilizatsiya — organizmning allergenga nisbatan sezuvchanligini kamaytirish (immunologik mexanizmlarni tormozlash yoki rivojlanishining oldini olish) maqsadida o'tkaziladigan davolash-profilaktika tadbirlari majmui. G. ning yil bo'yi, fasllarning boshlanishi oldidan qilinadigan, spetsifik va b. turlari bo'ladi.

Gipospleniya — hyposplenia, ae, f. (lot.) — taloq, funksiyasining susayishi; eritrotsitoz, aksari leykotsitoz va trombotsitoz ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Gipostenuriya — hyposthenuria, ae, f. (lot.) — solishtirma og'irligi past siyidik ajralishi; buyrak faoliyati (konsentratsion qobiliyati) ning buzilganligi, uning jiddiy zararlanganligidan dalolat beradi.

Gipotalamik neyrogormonlar — adenogipofizning markaziy tomirlariga gipofizdan sekretsiya qilinadigan va gipofizning tropgormonlari chiqarilishini kuchaytiradigan yoki susaytiradigan peptid tabiatiga ega gormonlar turkumi. G. n. organizm hayotining barcha funksiyalarini rostlab turishda qatnashidi va MNS ning oliv bo'limlari bilan endokrin sistema orasidagi aloqalarni ta'minlab turadi. G. n. rilizing gormonlar deb ham ataladi.

Gipotalamus — hypothalamus, i, m. (gr.) — miyadagi ko'rvu bo'rtig'ining ostki qismi. Miyaning o'rtasida joylashib, kishining hayoti uchun eng muhim jarayonlarni ta'minlaydi va boshqaradi. G. gipofiz va vegetativ nerv sistemasi orqali jinsiy bezlar bilan uzviy bog'langan bo'lib, bir butun gipotalamik-gipofizar-endokrin sistemani tashqil qiladi. U ajratib chiqaradigan maxsus gormonlar — neyrogormonlar boshqa bezlarga ta'sir etib, ularni bir tartibda ishlashga undaydi. Odamning ichki muhitida sodir bo'ladigan barcha jarayonlarning bir me'yorda borishini ta'minlaydi. Moddalar almashinushi, yurak-tomir, ovqat hazm qilish, ajratish sistemalari va ichki sekretsiya bezlari faoliyatini, uyqu, sergaklik, hayajonlanish mexanizmlarini hamda tashqi muhitga moslashtirish kabi ko'pdan-ko'p hayotiy jarayonlarni boshqaradi.

Gipotensiya — hypotensio, onis, f. (lot.) — gipotoniya qon tomirlari, kovak organlar yoki organizm bo'shliqlarida gidrostatik bosimning past bo'lishi. Kelib chiqish sabablari va rivojlanish mexanizmiga ko'ra bir necha turi farq qilinadi.

Gipotermiya — hypothermia, ae, f. (gr.) — issiqlik muvozanatining buzilishi tufayli gavda haroratining pasayishi. G. ning sun'iy (jarrohlik operatsiyalarida organizmni sun'iy yo'l bilan sovutish), kraniotserebral (bosh miyani muzlatish) kabi davolash maqsadida qo'llaniladigan turlari ma'lum.

Gipotireoz — hypothyreosis, is, f., hypothyreoidismus, i, m. (gr.) — qalqonsimon bez faoliyatining susayishi yoki butunlay yo'qolishi. Bez kasalligi, gipofizning zararlanishi va b. sabab bo'ladi. Birlamchi G. tireoid gormonlar biosintezining irsiy nuqsonlari, qalqonsimon bez gipoplaziyasi va aplaziyasi, tireoidit yoki ostrumit, tireoidektomiya, radioaktiv yod bilan davolash natijasida yuz beradi. Ikkilamchi G. gipofizning shikastlanishidan kelib chiqadi. Tug'ma G. (kretinizm)

tireoid gormonlar yetishmovchiligi, moddalar almashinuvining buzilishiga olib keladi. Bradikardiya, qon bosimining pasayishi, qabziyat, paradontoz, ruhiy o‘zgarishlar kasallikning muhim belgilaridir. Bolalar jismoniy, jinsiy va aqliy rivojlanishda orqada qoladi.

Gipotrofiya — hypotrophy, ae, f. (gr.) — yosh bolalar (ayniqsa go‘daklar) ovqatlanishining surunkasiga buzilishi tufayli ularning asta-sekin ozib ketishi. Bolani noto‘g‘ri yoki kam har xil ovqatlar bilan ovqatlantirish, rejimga amal qilmaslik va toza havoda kam bo‘lish, me‘da-ichak yo‘lining irsiy yoki orttirilgan kasalliklari, takror shamollahash G. ga sabab bo‘ladi.

Gipofibrinogenemiya — qon zardobida fibrinogen miqdorining kamayishi.

Gipofiz — hypophysis, is, f. (gr.) — bosh miyaning pastki ortig‘i; organizmdagi eng muhim ichki sekretsiya bezlaridan biri. Kalla ichidagi turk egarida joylashgan bo‘lib, murakkab vazifani bajaradi va barcha ichki sekretsiya bezlari faoliyatini boshqaradigan bir qancha peptid gormonlar ishlab chiqaradi.

Gipofiz gormonlari — gipofizning old bo‘lagi — adenogipofiz, orqa bo‘lagi — neyrogipofiz va o‘rta qismida ishlab chiqariladigan yoki gipotalamusning nerv yadrolarida ishlanib, gipofizda saqlanadigan (neyrogipofizal) va qonga sekretsiya qilinadigan turli oqsilpeptid gormonlar turkumi. Gipofizning old bo‘lagida gipotalamusning rilizing gormonlari — atsidofil (α -) hujayralarda somatotropin va prolaktin, bazofil (β -) hujayralarda follikul stimullovchi gormon, lyuteinlovchi gormon va tireotropin hamda xromofob (γ -) hujayralarda kortikotropin hosil bo‘lishini kuchaytiradi. Melanotropin gipofizning oraliq qismida sintezlanadi. Neyrogormonlar — oksitotsin va vazopressin gipofizning orqa bo‘lagida saqlanadi va ehtiyojga qarab qonga chiqariladi.

Gipofizar kaxeksiya, Simmonds kasalligi — gipotalamus yadrolarining shikastlanishi va gipofiz old bo‘lagi trop gormonlarining ishlab chiqarilishi kamayib ketishi natijasida paydo bo‘ladigan kasallik. Asosan jinsiy bezlar va qalqonsimon bez hamda buyrak usti bezi po‘st qavati faoliyatining yetishmaslik belgilari bilan ifodalanadi. Bemor tez orada cho‘p-ustixon bo‘lib ozib, tashqi jinsiy belgilari yo‘qolib, soch-kipriklari, hatto tishlari ham tushib ketadi, umuman moddalar almashinuvi izdan chiqadi va kaxeksiya belgilari namoyon bo‘ladi.

Gipoxlorgidriya — me‘da shirasida xlorid kislota miqdorining kam bo‘lishi.

Gipoxolesterinemiya — hypocholesterinaemia, ae, f. (gr.) — qonda xolesterin miqdorining normadagidan kam (katta yoshdagilarda 120 mg% dan kam) bo‘lishi; jigarning ba’zi kasalliklari, ochlik, anemiya, shok va h. k. da kuzatiladi.

Gipoxromiya — eritrotsitlarning gemoglobiniga kam to‘yinishi; anemiyaga xos holat. Bunda to‘yinganligini ifodalovchi rang ko‘rsatkich 0,8 dan kam bo‘ladi.

Gistamin — biogen amin; gistidinning enzimatik dekarboksillanishidan hosil bo‘ladi. Me‘da shilliq pardasidagi bezlarni qo‘zg‘atib, shira ajralishini

kuchaytiradi; mayda qon tomirlarni kentaytirib, qon oqishini tezlatadi. G. qon tomirlarning spastik qisqarishiga qarshi dori. To‘qima gormoni sifatida jigar, o‘pka, taloq, me’da va ingichka ichakning shilliq pardasi, semiz hujayralarda saqlanadi.

Gistaminga qarshi moddalar — gistaminning fiziologik ta’sirini vaqtincha yoki butunlay to‘xtatib qo‘yadigan moddalar. Gistamin organizmda uchraydigan biologik faol moddalardan bo‘lib, me’da shirasining ajralishi hamda alergiya holatining kelib chiqishida muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli G. q. m. asosan allergik holatlar hamda me’da va o‘n ikki barmoq, ichak yaralarini davolashda ishlatiladi.

Glikemiya — glycaemia, ae, f. (gr.) — qondagi glyukoza miqdori; mmol/l da ifodalanadi.

Glikogen — glycogen — hayvonlar polisaxaridi. D-glyukoza birliklaridan tuzilgan tarmoqlangan molekula. Asosiy bog‘lari 1:4, yon shoxlari 1:6 bog‘lar bilan qo‘shilgan 6-12 glyukoza qoldiqlaridan tashqil topgan. Yengil sarflanadigan ehtiyyot uglevod sifatida jigarda 3–5% gacha, muskullarda 0,2–0,5% gacha saqlanadi. Odam va hayvon organizmining muhim energiya manbai.

Glikogenez — glycogenesis, is, f. (rp) — glikogenning organizmda. ayniqsa jigarda monosaxaridlardan sintez qilinishi.

Glikogenoz — glycogenosis, is, f. (rp.) — glikogenning turli organ va to‘qimalarda haddan tashqari ko‘plab to‘planishi bilan ifodalanadigan irsiy kasalliklarning umumiy nomi. G. ning kelib chiqish mexanizmi (asosan qaysi ferment faolligining buzilishiga bog‘liq bo‘lishi), tarqalish joyi va kengligiga ko‘ra bir necha turi farq qilinadi.

Glikogenoliz — glycogenolysis, is, f. (gr.) — glikogenning glyukoza molekulalarigacha va anaerob sharoitda (kislород исхтирокисиз) sut kislota hosil qilib parchalanishi. G. asosan muskullarda kechadi.

Glikozuriya — glycosuria, glucosuria, ae, f. (gr.) — siydikda yuqori konsentratsiyada qand paydo bo‘lishi. Uglevodlar almashinushi buzilganda (qandli diabetda), uglevodli taomlar ko‘p iste’mol qilinganda, buyrak kasalliklarida, ba’zan homilador ayollarda kuzatiladi.

Glikoliz — glycolysis, is, f. (rp.) — glyukozaning anaerob sharoitda parchalanishi. Bakteriyalar faoliyati tufayli o‘tadigan bunday jarayon achish deb atalib, spirt yoki sut kislota hosil bo‘lishi bilan yakunlanadi va ularni energiya bilan ta’minlashga xizmat qiladi. Muskullarda G. glikogen parchalanishidan boshlanib, faqat kislород yetishmagan sharoitda to‘qimada, qonda laktat kislota to‘planadi. Aerob sharoitda G. natijasida hosil bo‘lgan pirouzum kislota laktat kislotaga qaytarilmay, uch karbon kislotalar siklida to‘la oksidlanadi. Bu jarayon hujayraning energiyaga bo‘lgan talabining asosiy qismini qoplaydi.

Gliqolipidlar — bir yoki bir nechta monosaxarid qoldig‘ining glikozid bog‘ hosil qilib lipid qismiga, mono- yoki diatsilglitserol va sfingozin kabi uzun zanjnrlı asosga bog‘lanishidan hosil bo‘lgan murakkab lipid. G. ga serebrozidlar, sulfatidlar, glikosfingolipidlar, gangliozidlar yaqin. Nerv to‘qimasida, miyada ko‘proq uchraydi.

Glikoneogenez — glycogenesis, is, f. (rp) — glikogenning organizmda uglevodlardan boshqa manbalar (yog‘ kinslotalar, aminokislotalar) dan sintezlanishi. Hujayralarda sintezlanib, qon orqali butun organizmga tarqaladi va boshqa to‘qimalarga o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatadi.

Glikoproteinlar — qand molekulasi bilan kovalent bog‘langan proteinlar. G. o‘simlik va hayvonlarda uchraydi, bakteriyalarda bo‘lmaydi. Tipik G. tana suyuqliklari yoki membranada mavjud. Ular qatoriga juda ko‘p fermentlar, oqsil gormonlar, plazma oqsillari, barcha antitelolar (zid jismlar), komplement va juda ko‘p membrana oqsillari kiradi. G. hujayralar yopishishida, hujayralar aloqasida, boshqa molekulalarning tashilshida muhim rol o‘ynaydi.

Glitsin — q. Aminokislotalar.

Glitsinuriya — siydik bilan normadan ortiq (bir kecha-kunduzda 200 mg dan ko‘p miqdorda glitsin ajralishi. G. ko‘pincha irsiy, tug‘ma, ba’zan orttirilgan buyrak kasalliklari, ayniqsa aminokislotalar almashinuvining buzilishi bilan bog‘liq kasalliklarda kuzatiladi.

Globulinlar — globulina, orum, n., pl. — neytral tuzlar, kuchsiz kislota hamda ishqorlar eritmalarida eriydigan, lekin suvda erimaydigan oqsillar; 50% li ammoniy sulfat eritmasida cho‘kadi. G. sog‘lom odam qon zardobi oqsillarining 40% ni tashqil etadi. G. ning fizik-kimyoviy, immunologik xususiyatlari, qon ivishiga ta’siri va b. xususiyatlariga ko‘ra bir necha turlari mavjud.

Globulinuriya — globulinuria — proteinuriya turlaridan biri; bunda siydik bilan globulinlar ajraladi. Amiloid nefroz, o‘tkir nefrit, moddalar almashinuvining buzilishi va buyrak kasalliklarida kuzatiladi.

Glomerula — glomerulus, i , m.(lot.) — buyrak tanachasidagi tomirli koptokcha. G. qon kapillyarlari ustidan kapsula bilan o‘ralib turadi. G. ning asosiy vazifasi birlamchi siydik ajratish.

Glomerulit — glomerulitis, itidis, f. — buyrak koptokchalarining yallig‘lanishi.

Glomerulonefrit — glomerulonephritis, itidis, f. — buyrak koptokchalari va to‘qimasining yallig‘lanishi; angina, tish kariesi yoki shamollashdan keyin rivojlanadi. Belgilari: belda og‘riq bo‘lib, harorat ko‘tariladi, siydik kam ajralib, rangi o‘zgaradi. Badanga shish kelishi ham mumkin.

Glutation — γ -peptid bog‘iga ega tabiiy tripeptid, biologik oksidlovchi va qaytaruvchi agent. G. koferment sifatida metabolizmda ishtirok etadi. Tarkibidagi sulfgidril turkum oksidlanganda disulfid bog‘ga, qaytarilganda ikkita

sulfgidril turkumga qaytadan aylanadi. Shuning uchun G. ning oksidlangan va qaytarilgan shakllari mavjud.

Glyukagon — giperglykemik (qonda qand miqdorini oshiruvchi) va glikogenolitik (jigarda glikogenni parchalovchi) omil. Me'da osti bezining α -hujayralarida ishlab chiqariladigan 29 ta aminokislota qoldig'idan tuzilgan polipeptid gormon. G. qonda insulin ta'sirida glyukoza miqdorining kamayib ketishiga qarshi ta'sir ko'rsatadi va shu yo'l bilan qonda qand miqdorini rostlab turishda qatnashadi.

Glyukozidazalar, karbogidrazalar — glyukozidlarni gidrolizlovchi fermentlar turkumi. α -G. va β -G. shaklida bo'ladi. Achchiq bodomdag'i glyukozid emulsiyani parchalovchi ferment — emulsin β -G qatoriga kiradi.

Glyukozidlar, glikozidlar — ko'proq o'simliklarda uchraydigan, qand molekulasi qoldig'iga O, S, N atomlari orqali aglyukon (qand tabiatli bo'lmasan bo'lagi) qo'shilishidan hosil bo'lgan birikma. G. qatoriga yurak G. i, nukleozidlar va b. kiradi.

Glyukokortikoidlar — q. Kortikosteroidlar.

Glyukuronat kislota — glyukozaning oksidlanish mahsuloti. Gialuronat kislota va xondroitinsulfat kabi mukopolisaxaridlar tarkibiga kiradi. hayvonlarda tashqaridan kirgan va organizmning o'zida hosil bo'lgan zararli moddalar, xususan fenollarni bog'lab, qo'sh kislotalar shaklida zararsizlantirib chiqarilishida qatnashadigan komponent.

Gomoseksualizm — jinsiy g'ayritabiyy maylning bir turi, o'z jinsidagi kishilar bilan jinsiy aloqa qilish; besoqolbozlik — erkakning erkak bilan jinsiy aloqa qilishi (erkaklar G. i) dir.

Gonadotropinlar, gonodotrop gormonlar — gipofizning old bo'lagida hosil bo'ladigan, jinsiy bezlar funksiyasini ko'paytiradigan gormonlar. G. ayollarda follikullar yetilishi, ovulyatsiyani, sariq tananing rivojlanishi va funksiyasini, erkaklarda jinsiy bezlar rivojlanishini ta'minlaydi, jinsiy gormonlar — estrogenlar, progesteronlar, androgenlar sintezlanishi va sekretsiyasini stimullaydi. Bu biologik effekt G. qatoriga kiradigan follikullarni stimullovchi gormon (FSG), lyuteinlovchi gormon (LG), lyuteotrop gormon (LTG) larning alohida-alohida va birgalikda ta'sir ko'rsatish natijasidir. G. ning sintezlanishi va ajralishini gipotalamik neyrogormonlar rostlab turadi.

Gormonlar — hormona, orum, n., pl. — ichki sekretsiya bezlari ishlab chiqaradigan biologik faol moddalar. Organizmda moddalar almashinuvini va hayotiy funksiyalarni idora qiladi. G. maxsus bezlarda yoki hujayralarda sintezlanib, qon orqali butun organizmga tarqaladi va boshqa to'qimalarga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi. G. kam miqdorda ishlab chiqariladi, ularning qon va to'qimalardagi konsentratsiyasi past, lekin ta'siri kuchli. G. nerv sistemasi bilan birga hujayralararo axborotni o'tkazish funksiyasini bajaradi. Kimyoviy tabiatiga

qarab G. uch turkumga bo‘linadi. 1. Steroid G., xolesterin unumlari, ular qatoriga jinsiy bez G. i va buyrak usti bezi G. i kiradi. 2. Polipeptid va oqsil G., ularga insulin, paratgormon, gipofiz va gipotalamus G. i hamda neyropeptidlар kiradi. 3. Aminokislota — tirozin unumlari, ularga qalqonsimon bez G. i: tiroksin, triyodtironin, buyrak usti bezi mag‘iz qavati G. i.— katekolaminlar (adrenalin, noradrenalin) kiradi. G. organizmda to‘xtovsiz ishlab chiqariladi, almashinadi, o‘z ta’sirini ko‘rsatadi, parchalanadi, tashqariga chiqariladi. G. yetishmasligi yoki ortiqcha ishlab chiqarilishi moddalar almashinuvida chuqur o‘zgarishlarga va turli kasalliklar (qandli diabet, Bazedov kasalligi va b.) ga sabab bo‘ladi. G. ning qon va siydikdagi miqdorini aniqlash kasalliklarga diagnoz qo‘yish, organizmning fiziologik holatini belgilashda muhim ahamiyatga ega. G. biokimyoviy va ayniqsa radioimmunologik metod bilan tekshiriladi.

Gormonlar bilan davolash — gormonal preparatlarni davolash maqsadlarida ishlatish. Gormonoterapiya biror bir ichki sekretsiya bezining ishi izdan chiqqanda uning o‘rnini bosadigan, faoliyati susayganda kuchaytiradigan, ortiqcha gormon ishlab chiqarganda bez ishini pasaytiradigan yoki bloklaydigan turlarga ajratiladi.

Granulema — granuloma, atis, n.yosh biriktiruvchi to‘qima hujayralaridan iborat, chegaralangan, maxsus tuzilgan, zinch tuguncha ko‘rinishidagi yallig‘lanish o‘chog‘i.

Granulematozlar — granulomatoses, um, f , pl. — sababi va kelib chiqishi har xil bulgan, morfologik ko‘rinishi granulyomalar rivojlanishi bilan ifodalanadigan bir guruh kasalliklar.

Granulotsitlar — granulocyt, orum, m., pl. — sitoplazmasida donacha (granula) bo‘lgan oq qon hujayralari (leykotsitlar). G. donalarining shakli va bo‘yalishiga qarab bir necha guruhga bo‘linadi: I. Neyrofil G. da donachalar qizg‘ish-binafsha rangga bo‘yaladi. Leykotsitlarning 65—75% ni tashqil etadi. II. Eozinofil (atsidofil) G. da kattaligi 0,5—1,5 mkm keladigan oksifil donachalar bo‘ladi. III. Bazofil G. juda ko‘p biologik faol moddalar saqlaydi.

Granulotsitoz — granulocytosis — periferik qonda *granulotsitlar* sonining ortishi.

Granulotsopeniya — granulocytopenia, ae, f.; syn. granulopenia, ae, f. — periferik qonda *granulotsitlar* sonining kamayishi.

Granulyasiyalar — (granulyasion to‘qima, donali to‘qima) — jarohat va yaralarning bitishida ikkilamchi bitish yo‘li bilan hosil bo‘ladigan yosh, hali yetilmagan biriktiruvchi to‘qima.

Granulyasionn to‘qima — granulationes, um, f., pl. yara bitishining birinchi bosqichida, yuzasi donador ko‘rinishga ega bo‘lgan bitmaydigan yaralarning, kirgan yod moddalarning inkapsulyasiya jarayonida hosil bo‘ladigan yosh yetilmagan polimorf hujayralar va yangi kapillyarlardan tashqil topgan to‘qima.

Gumoral regulyatsiya — organizmda fiziologik va biokimyoviy jarayonlarning boshqarilishi; suyuq muhit qon, limfa, to‘qima suyuqlig‘i orqali, moddalar almashinuvining turli mahsulotlari yordamida sodir bo‘ladi. Odam va hayvonlarda nerv-gormonal regulyatsiyasiga bog‘liq, bo‘lib, u bilan birgalikda yagona neyrogumoral regulyatsiyani tashqil etadi.

— D —

Debillik — debilitas, atis, f. — aqli norasolikning yengil xili; ruhiy jixatdan yaxshi rivojlanmay qolish. Bunda nutq, ancha rivojlangan, biroq so‘z boyligi kam bo‘ladi, bemor hadeb bir qolipdagi gaplarni gapiraveradi, bunga ko‘pincha mexanik xotiraning yaxshiligi va taqlid qilish kobiliyati imkon beradi. D. da bemorni o‘qitish, ba’zi yengil-yelpi ishlarni o‘rgatish, ijtimoiy hayotga moslashtirish mumkin.

Degeneratsiya — degeneratio, onis, f. — aynish, asli buzilgan holat. hujayra, to‘qima, organ va asab-ruhiy faoli-yatning buzilishi kabi ma’nolarni ifodalaydi-gan termin D. ilgari to‘qimalarning har qanday buzilishini anglatish uchun qo‘llanilgan bo‘lsa, hozir uning o‘rniga *distrofiya* atamasini qo‘llash tavsiya etilmoqda.

Degidratatsion moddalar — qon plazma sining osmotik bosimini oshirib, to‘qimalar va organlardan konga suyuqlik o‘tishini tezlashtiruvchi moddalar; asosan siydikchil, mannit va b. kiradi Siydik ajralishini kuchaytirish maqsadida ishlatiladi.

Degidrirlanish — qaytariladigan birikmadan vodorod yo‘qotilib, uning oksidlanishi. Reaksiya degidrogenazalar ishtirokida o‘tadi. **Degidrogenazalar** — birikmalardan vodorodni ajratish yo‘li bilan oksidlovchi fermentlar. Ajralgan vodorod ikkinchi substratga ko‘chirila-di. D. ning ikki asosiy turkumi bor: biri vodorodni piridin nukleotidlarga, ikkinchisi flavinnukleotidlarga uzatadi. qondagi ba’zi D. (Mas.: laktadegidrogenazalar)ni tekshi-rishning diagnostikada ahamiyati bor. **Degidroz** — kam terlash.

Dezaminirlanish — kimyoviy birikmadan aminoturkum — MNz ning yo‘qotilishi. Aminokislolar almashinuvida asosiy reaksiya. Oksidlanish yo‘li bilan D. da aminokislota oksidlanib, ketokislotaga aylanadi. Pereaminirlanishda aminoturkum ketokislotaga ko‘chirilib, yangi aminokislota hosil bo‘ladi, aminokislotaning o‘zi esa ketokislotaga o‘tadi.

Dezoksiribonuklein kislota, DNK tirik organizmlar va ba’zi viruslarda bo‘ladi-gan dezoksiribonukleotidlar polimeri. DNK genetik axborotni avloddan avlodga o‘tkazishni o‘zining aniq nusxasini yaratish (replikatsiya) orqali bajaradi. DNK molekulasi adenin, guanin, sitozin, timin tutuvchi mononukleotidlarning 3', 5' fosfat diefir ko‘prik hosil qilib bog‘lanishidan tuzilgan. Uotson-Krik variantiga muvofiq DNK, molekulasi ikkita bir-biriga mos (komplementar) polinukleotid zan-jiridan tashqil topgan. Ular faraz qilinadigan o‘q atrofida bir-biriga o‘ralgan bo‘ladi. DNK asosan hujayra yadrosida joylashib, maxsus oqsil molekulalari bilan birga uning xromosomalarini tashqil qiladi.

Dekarboksilazalar — α -ketokislotalardan SO_2 ajratuvchi ferment. Eng muhim D. dan biri piruvat D. pirouzum kislotani sirka aldegidiga aylantiradi. Fermentning faol turkumi tiamin pirofosfatdir. Organizmda moddalar almashinuvida ishtirok etadi.

Dekarboksillanish organik kislotalar, jumladan aminokislotalar molekulasidan karboksil guruhining ajralishi. Moddalar almashinuvida, ayniqsa aminokislotalarning o‘zgarish mexanizmida muhim o‘rin tutadi.

Dekompensatsiya — decompensatio, onis, f. — organizmning funksiyasi va tuzilishidagi buzilishlar yoki nuqsonlar tiklanish mexanizmining susayishi yoki izdan chiqishi.

Dekompressiya — odamni o‘rab turgan atrof muhitda barometrik bosim keskin kamaygan (Mas.: kessondan chiqish, juda baland parvoz qilish va h. k.) vaqtida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan patologik holat. D. portlashday birdan o‘tkir bo‘lishi mumkin (Mas.: uchish apparati kabinasida germetik butunlik buzilganda, jarrohlik usuli bilan a’zoni, uni bosib turgan to‘qimalardan bo‘shatganda).

Dentin — dentinum, i, n. — suyak to‘qimasining bir turi; tishlarning asosiy qismini tashqil etadi; tish koronkasida D. emal bilan, ildizida sement bilan qoplangan. D. ning 72—75 o‘ ohak tuzlaridan, qolgan qismi organik moddalardan iborat.

Deponirlash — 1. qanday bo‘lmasin biror moddani (Mas.: qonning shaklli elementlari, gormonlar, yog‘lar, uglevod — glikogenni) vaqtincha qon aylanishidan, moddalar almashinuvidan chetlatib, keyinroq ishlatish uchun saqlash. 2. Turli organ va to‘qimalarda organizmga atrof-muhitdan kirdigan yot moddalar (dori, radioaktiv va zaharli moddalar) to‘planishi.

Derma — cutis, is, f.; derma, atis, n. (rp.) — xususiy teri — umurtqali hayvonlar va odam terisining biriktiruvchi to‘qimali qismi.

Dermatit — dermatitis, dermitis, itidis, f. gr.) — terining yallig‘lanish kasalliklari; tashqi muhit ta’sirotlari (fizik, kimyoviy, biologik) natijasida vujudga keladi.

Dermatozlar — teri va uning hosilalari — tirnoqlar va soch (tuk) kasalliklarining umumiy nomi.

Dermatomiozit — dermatomyositis, itidis, f. (rp.) — ko'ndalang targ'il va qisman silliq muskullarning sistemali zararlanishi tufayli harakat faoliyatining buzilishi, shuningdek badanning ochiq joylari terisida toshmalar va shish paydo bo'lishi bilan kechadigan kollagenoz kasallik.

Dermografizm — teri rangining reflektor o'zgarishi. Mas.: teri yuzasida biror buyum yuritilganda usha erda oq yoki qizil chiziqlar hosil bo'ladi. Vegetativ nerv sistemasi kasalliklariga diagnoz qo'yishda D. dan foydalaniladi.

Desensibilizatsiya — desensebilisatio, desensitisatio, onis, f. — organizmning oqsil yoki oqsilsiz tabiatli allergenlarga nisbatan kuchaygan sezuvchanligini biror vosita yordamida yo'qotish yoki kamaytirish.

Desensibilizirllovchi moddalar, allergiyaga qarshi moddalar — allergik reaksiyalarning oldini olish yoki bartaraf yetish uchun ishlatiladigan moddalar (glyukokortikoidlar, natriy kromolin, dimedrol, suprastin, diprazin, diazolin va b.).

Desmosoma — desmosomae — sitoplazmatik membrananing maxsus tuzilmasi. hujayralarning bir-biriga o'zaro birikishini ta'minlaydi. D. teri epiteliy hujayralarida, ichak hujayralarining birikish joylarida uchrab, ularni mexanik jihatdan bog'lab turadi.

Determinizm — tabiat, jamiyat va ongdagi jarayonlar hamda hodisalarning har tomonlama sababli va ob'ektiv umumiy bog'liqligi xaqidagi falsafiy ta'limot. Tibbiyotda ilmiy dunyoqarashning asosini tashqil etadi.

Defekatsiya — defecatio, onis, f.; sedes, is, f. — murakkab reflektor harakat. Yo'g'on va to'g'ri ichakning peristaltik hara-katlanishi natijasida axlatning orqa chiqaruv teshigidan tashqariga chiqishi.

Defekt — defectus, us, m. — nuqson, kamchilik. Psixiatriyada shaxsiyatning o'zgarish shakli; ruhiy faoliyatning nihoyatda yuzaki, ibridoib holga kelishi; asosan uzoq vaqt davom yetgan ruhiy xastaliklar (Mas.: shizofreniya) oqibatida kelib chiqadi. Ruhiy faoliyat, xususan fikrlash, xotira, aqliy jara-yonlar susayadi, xulqatvor o'zgarib, mehnat faoliyati pasayadi.

Diabet — diabetes, is, m. (gr.) — ko'plab siydik ajralishi bilan davom etadigan kasalliklarning umumiy nomi. Bulardan qandli diabet bilan qandsiz diabet ko'proq uchraydi. qandli diabet (q. d.) — me'da osti bezi gormoni — insulinning mutlaqo yoki nisbiy yetishmasligi va moddalar almashinuvi (birinchi galda uglevodlar almashinuvi) buzilishi nati-jasida kelib chiqadigan kasallik. Irsiy mo-yillik, noqulay mehnat va turmush sharoitlari, og'ir asabiy-ruxiy keChinmalar, noto'g'ri ovqaglanish, virusli va allergik kasalliklar, intoksi-katsiya va b. sabab bo'lishi mumkin. Kasallikda giperglikemiya, glyukozuriya, polidipsiya, poli-uriya, ketoatsidoz, ozib ketish, tinka qurishi, badan qichishishi, furunkulyoz, retinopatiya,

angi-opatiya va b. belgilar yuz beradi. Mutlaqo insulin yetishmasligi bilan bog‘liq bo‘lgan q. d. (I tur q. d.) ko‘proq yoshlarda uchrab, og‘ir kechadi va bemorlar umrbod insulin olib yuradilar. Nisbiy insulin yetishmasligi bilan kechadigan q. d. (II tur q. d.) to‘qimalarning insulinga nisbatan sezgirligi pasayganligi yoki ularning insulinga ehtiyoji oshganligi natijasida kelib chiqadi. Ko‘proq katta yoshdagি va to‘la odamlarda uchrab, I tur q. d. ga nisbatan yengil kechadi. qandsiz diabet—gipotalamus shikastlanishi natijasida antidiuretik gormon (ADG) sekretsi-yasi keskin pasayib ketishi tufayli kelib chiqadigan endokrin kasallik. Chanqash, ko‘p siyish (bir kunda bir necha 1 gacha), jinsiy funksiyaning pasayishi, yosh bolalarda jismoniy va jinsiy rivojlanishning orqada qolishi, siyidik solishtirma og‘irligining past bo‘lishi bilan ifodalanadi.

Diabetik angiopatiya — qandli diabetda qon tomir sistemasining tarqoq shikastlanishi. Moddalar almashinuvi buzilishi natijasida qonda globulinlar ko‘payib, albuminlar kamayadi, yirik glikoproteidlar, mukoproteidlar, mukopolisaxaridlar to‘planadi, xolesterin, triglitserid va b. moddalar ko‘payib, ular qon tomirlar devoriga yig‘iladi. Natijada devor qalinlashib, tomirlar o‘zani torayib boradi. Bular D. a. ga sabab bo‘ladi.

Diabetik retinopatiya qandli diabet bilan og‘rigan bemor ko‘z to‘r pardasining shikastla-nishi. qon tomirlar o‘zgarishi oqibatida ko‘z to‘r pardasi angiopatiyasi sodir bo‘ladi. Keyinchalik proliferativ o‘zgarishlar, to‘r parda va shishasi-mon tanaga qon quyilishi ko‘z o‘tkirligini pasaytira borib, ko‘rlikka olib kelishi mumkin.

Diagnoz — diagnosis, is, f. (rp.) — tashhis — kasallik xarakteri va bemorning ahvoli haqidagi qisqacha tibbiy xulosa, kasallik nomi. Kasallikning kechish xususiyatlarini bemorda! so‘rab bilish, kasallik belgilarini har tomonlama o‘rganish va boshqa kasallik belgilariga taqqoslash asosida D. qo‘yiladi. Klinik D.—klinika sharoitida tekshirishlar asosida qo‘yilgan D. I 1 k D. kasallikning boshlanishida qo‘yiladigan D. Kech D.—kasallikning oxirgi bosqichida qo‘yiladigan D. Retrospektiv D.—uzoq vaqt davomida kasallikni analiz qilish yo‘li bilan D. qo‘yish. Patologoanatomik (o‘limdan keyingi) D.—murdani yorib tekshirilganda belgilangan organlardagi morfologik o‘zgarishlar asosida qo‘yilgan D.

Diagnostika — diagnostica, ae, f.1) — klinik tibbiyotning bir bo‘limi. Kasalliklarni va ayrim fiziologik holatlarni aniqlash va *diagnoz* qo‘yish usullarini o‘rganadi; 2) bemor organizmining individual xususiyatini aniqlash. Biokimiyoviy D.—organizmning suyuq muhiti va uning tashqariga chiqaradigan ajratmalarini biokimiyoviy tekshi-rish asosida o‘tkaziladigan D. Laboratoriya D. si — laboratoriya usullari (mikrosko-pik, fizik, kimyoviy, bakteriologik, serologik) dan foydalanim diagnoz qo‘ynsh. Morfolo-g i k D.—organ, to‘qima va hujayralar tuzili-shini o‘rganish usullaridan foydalanim diagnoz qo‘yish. T o p i k D.—

patologik jarayonning joylashgan yerini aniqlash. **F u n k s i o n a l D.** — organlar funksiyasini tekshirish yo‘li bilan kasalliklarni aniqlash.

Diapedez — shikastlanmagan qil tomir (kapillyar) lar va mayda venalar devoridan qon shaklli elementlarining tashqariga sizib chiqi-shi.

Diatezlar — diatheses, um, f., pl., (gr) — organizm konstitutsiyasidagi nuqsonining o‘ziga xos ko‘rinishlaridan biri. Ba’zi kasalliklarga moyillik yoki odatdagi ta’sirlovchilarga g‘ayritabiyy javob berish bilan ifodalanadi.

Diafragmatit — diaphragmatitis — diafragmaning yallig‘lanishi; *plevrit, peritonit*, o‘pka va jigar assessi kabi kasalliklarning asorati, shuningdek infeksiya qo‘zg‘atuvchilarining gematogen yoki limfogen yo‘l bilan diafragmaga o‘tishi oqibatida yuzaga keladi.

Diatseturiya — siydikda atsetosirka kislota bo‘lishi; qandli diabet, ba’zi jigar kasalliklari, turli xil isitmalarda kuzatiladi.

Dizartriya — dysarthria, ae, f. (rp.) — nutq va so‘zlash faoliyatining aynishi; bunda so‘zlar poyma-poy bo‘lib, talaffuz qilish qiyinlashadi. D.ga tovush muskullarining falaji, siqilishi va b. sabab bo‘ladi.

Dizenteriya — dysenteria, ae, f. (rp.)ichburug‘ — shigella, turiga oid mikroblar qo‘zg‘atadigan o‘tkir yoki surunkali yuqumli kasallik. Asosan yo‘g‘on ichak zararlanib, umumiy zaharlanish bilan kechadi. Kasallik sog‘lom odamga D. bakteriyalari bilan ifloslangan suv, meva, sabzavot, ovqatlar iste’mol qilganda, tozalikka rioya qilinmaganda yuqadi. Bemorning harorati ko‘tariladi, qorni burab-burab og‘riy-di, shilliq. va qon aralash ich ketadi. Kasallikdan turli asoratlar qoladi.

Dizuriya — dysuria, ae, f. (rp.) — siyish buzilishlarining umumi nomi, Mas.: tez-tez, og‘riq bilan qiynalib siyish.

Disgammaglobulinemiya — tug‘ma yoki orttirilgan immun yetishmasligi holati; qonda immunglobulinlarning bir yoki bir necha sinfi kamligi bilan ifodalanadi. D.da gammaglobulinlarning umumi miqdori normal yoki bir oz kam bo‘lganligi sababli ularning barcha sinflarini aniqlashga to‘g‘ri keladi.

Disgevziya — dysgeusia, ae, f. (gr.) — ta’m bilishning buzilishi; ba’zi narsalar ta’mini mutlaqo bilmaslik yoki yaxshi bila olmaslik. Ko‘pincha ruhiy kasallarda kuzatiladi.

Disgenitalizm — jinsiy organlar rivojlanishi davridagi buzilishlarning umumi nomi; D. da bu organlar juda ham katta yoki kichik bo‘ladi.

Dismenoreya — dysmenorrhoea, ae, f (gr.) — og‘riqli hayz kurish.

Dispepsiya — dyspepsia, ae, f. (rp.) — ovqat hazm qilishning buzili-shi. Bolani noto‘g‘ri ovqatlantirish natijasida paydo bo‘lib, ich ketishi, qayt qilish va umumi ahvolning yomonlashishi bilan kechadi. Oddiy D. bolani noto‘gri emizishdan paydo bo‘ladi. Tok-sik D. oddiy D. da suv-choy rejimiga amal qilinmaganda

(bolaga kam suyuqlik berilganda va shifokor tavsiyalari hamda ko'rsatmalari bajarilmaganda) kelib chiqadi. Ko'pincha chala tug'ilgan bolalarda, distrofiya, raxit, ekssuda-tiv diatezga uchragan, holsizlangan yoki turli xil kasalliklarni boshidan kechirgan bolalarda paydo bo'ladi.

Displaziya — dysplasia, ae, f. (rp.) — embriogenetik va tug'ilgandan keyingi davrda organ va to'qimalar rivojlanishining buzilishini ifodalovchi umumiy nom.

Dissimiliyasiya — dissimilatio, disassimilatio, onis, f. — organizm faoliyatini jarayonida murakkab organik muddalarning bo'linishi, o'zgarishi, (assimiliyasiyaga qarama-qarshi jarayon). dissimilatio, disassimilatio, onis, f.

Distrofiya — dystrophy, ae, f. (gr.) — to'qimalarda muddalar almashinuvining buzilishi oqibatida kelib chiqadigan murakkab patologik jarayon. Bunda ham miqdor, ham sifat jihatidan o'zgargan almashinuv mahsulotlari (oqsillar, yog'lar, ug'levodlar, tuzlar), suv hujayra va to'qimalarda to'planib qoladi. qon va limfa aylanishining buzilishi, gipoksiya, infeksiya, intoksikatsiya, gormonlar va fermentlar balansining buzilishi va b. D.ga olib keladi. Infiltratsiya yoki shimilish, oqsillar sintezining buzilishi, yog'lar va uglevodlarning oqsillarga aylanishi yoki oqsillar va uglevodlarning yog'larga aylanishi D.ning rivojlanishiga sabab bo'ladi. Genetik omillar ta'siriga ko'ra hayotda orttirilgan va irsiy; jarayonning tarqalishiga ko'ra umumiy va ma-halliy D. farq qilinadi.

Disfagiya — dysphagia, ae, G. (gr.) — og'riqli yutim; halqum mushaklari falajlanishi natijasida yutimning buzilishi.

Disfunksiya — dysfunctio, onis, f. — organizm sistemalari, organlari yoki to'qimalari vazifasining buzilishi. Bu organizmning turli ta'sirotlarga mos kelmaydigan javob reaksiyasi ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Duodenit — duodenitis, itidis, f.; syn. dodecadactylitis, — o'n ikki barmoq ichak shilliq qavatining yallig'lanishi. Vaqtida ovqatlanmaslik, achchiq taomlarni me'yordan ortiq iste'mol qilish, spirtli ichimliklar ichish, chekish, ba'zi hollarda ichakdagagi parazitlar (lyambliya, gjij-ja) ning bevosita ichak devoriga ta'siri D. ga sabab bo'ladi. D. da och qoringa qorinning yuqori qismida og'riq paydo bo'ladi, to'sh ostida achishish va og'irlilik seziladi, bemorning ko'ngli aynib, ba'zan qusadi, darmoni quriydi.

Duodenostaz — duodenostasis — o'n ikki barmoq ichak harakat faoliyatining buzilishi. Bunda ichakda suyuq bo'tqaga o'xshash ovqat luqmasi (ximus) turib qoladi. Me'da va ichak sohasida og'riq, ayniqsa ovqat iste'mol qilgandan so'ng ko'ngil aynishi, quşish kuzatiladi.

— E —

Evnuxoidizm, hezalaklik — jinsiy organlar va ikkilamchi jinsiy belgilarning rivojlanmay qolishi; gavda tuzilishi nomutanosib (tana kalta, oyok-qo'l, ayniqsa oyoq uzun) bo'ladi va evnuxoid semirib ketadi. Jinsiy bezlarning funksional yetishmovchiligidan kelib chiqadi.

Yog‘ kislotalar — yog‘lar va moylar tarkibiga kiradigan karboksikislotalar. To‘yinmagan yo. k. da bir yoki bir nechta qo‘shbog‘lar bo‘ladi. Yog‘lar tarkibida uchraydigan yo. k. ko‘pincha yuqori molekular bo‘lib, to‘yinganlarga butirat, palmitat, stearat, to‘yinmaganlarga oleat, linolat, linolenat va b. E. k. kiradi.

Yog‘lar — adipose — triglitseridlar — glitserinning to‘yingan va to‘yinmagan yog‘ kislotalar bilan hosil qilgan murakkab efirlari. E. neytral birikmalardir. Tabiiy E. odatda tarkibiga turli yog kislotalar kirgan komponentlar aralashmasidan tashqil topgan. Ular fosfolipidlar, sterollar, erkin yog‘ kislotalar bilan birga uchraydi. Yo. ishqor yoki lipaza fermenti bilan gidroliz qilinganda glitserol va sovun yoki erkin yog‘ kislota ajralib chiqadi. Hayvonlarda Yo. teri ostida, charvida, dumbada to‘planadi. U organizmning asosiy energetik moddasi bo‘lib, oqsidlanganda ko‘p energiya (9,0 kkal/g) ajratadi.

Yog‘li distrofiya — dystrophia adipose (rp. dys — buzilishi + trophe — oziqlanish) — lipidlar almashinushi buzilishi (lipidozlar) bilan kechadigan to‘qimalarning morfologik o‘zgarishlari. Yog‘ depolaridagi lipidlari almashinuvining buzilishlari parenximatoz Yo. d., infiltrativ Yo. d., dekompoziotsion Yo. d., xolesterin va uning esterlarining almashinushi buzilishlari bo‘linadi.

— J —

Jigar — hepar, atis, n. (rp.) — hazm sistemasi bezlarining eng kattasi (o‘rtacha 1500 g); qorin bo‘shlig‘i yuqori qismining o‘ng tomonida joylashgan. Kattaroq o‘ng va kichikroq chap bo‘lagi bor. Moddalar almashinushi, qon aylanishida asosiy o‘rinni tutadi. Organizm ichki muhitining doimiyligini ta’minlab turadi. J. da

ishlangan o‘t ichakda ovqatlarni parchalab, so‘rilishga tayyorlashda qatnashadi. J. turli toksinlar, mikroblar, alkogol kabi organizm uchun zararli moddalarni katta qon aylanish doirasiga o‘tishini cheklaydi, ularni kimyoviy reaksiyalar yo‘li bilan bog‘lab zararsizlantiradi, oqsillar, yog‘lar va uglevodlar almashinuvida faol ishtirok etadi. U qon deposi bo‘lib, organizmdagi jami qonning 1/15 qismi J. tomirlariga sig‘adi. J. faoliyatи buzilganda gepatit, jigar sirrozi kabi kasalliklar paydo bo‘ladi.

Jigar yetishmovchiligi — jigar faoliyatining buzilishi natijasida kelib chiqadigan og‘ir patologik holat. Bunda jigar zararsizlantirish — detoksikatsiya (dezintoksikatsiya), moddalar almashinuvining me’yorda borishi kabi hayot uchun zarur jarayonlarni bajara olmay qoladi, bu sariqlik, gemorragik sindrom, asabiyruhiy buzilishlar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Jigar sirrozi — cirrhosis hepatis — jigarning surunkali rivojlanib boradigan kasalligi. Jigar parenximasining distrofiyasi va nekrozi hamda uning bir qismini biriktiruvchi to‘qimaga almashinishi bilan ifodalanadi. O‘tkir virusli gepatit (jigar yallig‘lanishi), alkogol, turli kimyoviy moddalardan surunkasiga zaharlanish, oziq moddada vitamin va oqsil yetishmasligi, ba’zi dorilarni ko‘p miqdorda iste’mol qilish J. s. ga sabab bo‘ladi. Bemor darmonsizlanib ozib ketadi, ishtahasi yo‘qoladi, ko‘ngli ayniydi, ba’zan quсади, ichi ketadi yoki qotadi, badani qichishadi, ba’zan sarg‘ayadi, kamqonlik avjiga chiqadi.

Jinsiy bez gormonlari — hormone glandule genitale — gonadal gormonlar — erkaklar jinsiy bezlari (urug‘don) va ayollar jinsiy bezlari (tuxumdon) da ishlab chiqariladigan steroid gormonlarning muhim turkumi. J. b. g. organizmning erkaklik yoki urg‘ochilik xarakterini belgilaydi, jinsiy a’zolarning rivojlanishi va ikkilamchi jinsiy belgilarning namoyon bo‘lishini ta’minlaydi. Erkaklar jinsiy gormonlari androgenlar deb ataladi; ayollar jinsiy gormonlari fiziologik ta’siriga ko‘ra estrogenlar va gestagenlarga bo‘linadi.

Jinsiy bezlar — glandule genitale — gonadalar — odam va hayvonlarda jinsiy hujayralar (tuxum va spermatozoidlar) hamda jinsiy gormonlarni hosil qiluvchi organlar. Erkaklarda — urug‘don, ayollarda — tuxumdonlar.

Jinsiy belgilar — organizmning qaysi jinsga mansubligini belgilovchi morfologik va funksional belgilar; ikkilamchi (jinsiy organlardan tashqari barcha organlarning tuzilishi yoki funksiyasiga aloqador) hamda birlamchi (jinsiy organlarning tuzilishiga taalluqli) J. b. farq qilinadi.

Jinsiy mayl, libido — insondagi jinsiy instinktlarning ko‘rinishi, nasldan-naslga o‘tib keladigan tug‘ma mexanizmlar in’iqosi, jinsiy ehtiyoj, rag‘bat, balog‘atga yetish davrida shakllanadi va keyinchalik jinsiy funksiyalar so‘nishi bilan astasekin yo‘qolib ketadi. J. m. endokrin bezlar (gipofiz, moyak — erkaklarda, tuxumdon — ayollarda, buyrak usti bezi, qalqonsimon bez) va bosh miyadagi bir

qancha tuzilmalar, Mas.: ko‘rvuv do‘mboqlarining funksiyasi, shuningdek bosh miyada shakllanib boradigan kompleks shartli reflekslarga aloqador.

Jinsiy rivojlanish — individual rivojlanish jarayonida birlamchi hamda ikkilamchi jinsiy belgilarning shakllanishi: a) kechikkan J. r. — jinsiy rivojlanish jarayonida ikkilamchi jinsiy belgilarning yo‘qligi yoki shu belgilar shakllanishining kechiqishi; b) barvaqt (vaqtdan ilgari) J. r. — ikkilamchi jinsiy belgilarning qizlarda 7 yoshgacha, o‘g‘il bolalarda esa 10 yoshgacha shakllanishi. U Chin va soxta bo‘ladi. Chin barvaqt J. r. MNS o‘smalari, gidrotsefaliya va b. sababli gipotalamus-gipofiz sistemasi faoliyatining vaqtdan ilgari kuchayishi, gonadotrop gormonlar sekretsiyasi oshib, jinsiy bezlarning stimullanishi natijasida ro‘y beradi. Soxta barvaqt J. r. jinsiy bezlar va buyrak usti bezi shikastlanishi (ko‘pincha o‘smalar bilan) natijasida jinsiy gormonlar ko‘payib ketib, kasallik belgilari paydo bo‘lishidir.

Jismoniy rivojlanish — har bir tirik organizmning individual rivojlanish jarayonida morfologik va funksional xususiyatining o‘zgarib borishi. Normal J. r. mustahkam sog‘liq negizi bo‘lib, bo‘y, gavda vazni, ko‘krak qafasi aylanasi, o‘pkaning tiriklik sig‘imi, muskullar kuchi kabi ko‘rsatkichlar bilan ifodalanadi.

Jig‘ildon qaynashi — pyrosis, is, f. (rp.); — to‘sh ostida va qizilo‘ngach bo‘ylab achishish sezgisining paydo bo‘lishi. Me‘da suyuqligi aralashgan ovqat qizilo‘ngachga chiqib, uning shilliq qavatiga ta’sir yetishi, me‘da faoliyatining buzilishi va b. omillar sabab bo‘ladi. Me‘da shirasi kislota ko‘payganda yoki kamayganda va hatto bo‘lmaganda ham kuzatiladi.

— Z —

Zararli moddalar — ma’lum sharoitlarda organizmga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan yoki fiziologik jarayonlarning buzilishiga olib keladigan moddalar; Mas.: pestitsidlar, gerbitsidlar va b.

Zardob — serum, i, n.; oros (rp.) — shifobaxsh suyuqlik. Qon zardobi va immun zardob bor. Qon zardobi 90—92 % suv, 8—10 % organik va anorganik moddalardan tashqil topgan. Immun zardob biror xil antigen bilan immunlangan, shu antigenga xos antitelo (zidjism) lar bo‘lgan odam yoki hayvonning qon zardobidir.

Zardob kasalligi — morbus sen (lat. morbus + serum — zardob) — organizmga parenteral yo‘l bilan davolash maqsadida yod (begona) zardob quyilganda hosil bo‘ladigan patologik holat. Z. k. da tana harorati oshib, toshmalar toshib chiqadi, zardob kiritilgan joyda qizarish, shishish va qichish holati paydo bo‘ladi, bo‘g‘imilar yallig‘lanishi, qovoqlar va lablar shishishi, limfatik tugunlar va buyrak koptokchalarining yallig‘lanishi kuzatiladi. Z. k. mexanizmining asosida kiritilgan organizmga yot oqsilga qarshi pritsipitinlar turiga xos bo‘lgan antitanalarning hosil bo‘lishi yotadi. Allergen antitana bilan birikkanligi natijasida immun komplekslar hosil bo‘ladi. Ular esa o‘z navbatida teri, buyraklar va boshqa organlar kapillyarlarining endoteliylarida cho‘kib qolib, endoliyotsitlarni shikastlab, kapillyarlarning o‘tkazuvchanliklarini oshiradi.

Zaharlanish — intoxicationes, um, f., pl. — turli xil zaharlarning organizmga ta’sir yetishi natijasida vujudga keladigan kasallik holati. O‘tkir, surunkali, shuningdek ishlab chiqarishga aloqador, oziq-ovqat, dori-darmondan bo‘lishi mumkin.

Zaharlar — toxinum, i, n. (gr.) — o‘simlik, hayvonda hosil bo‘ladigan modda, mineral modda yoki kimyoviy sintez mahsuloti (sanoat Z. i, pestitsidlar); ba’zi hayvonlar (ilon va bo‘g‘imoyoqlilar — chayon, qora qurt, ari va b.) Z. ining aksariyati oqsil tuzilishiga ega. o‘simlik Z. iga alkaloidlar (akonitin — parpi, muskarin, nikotin, atropin, anabazin) kiradi. Patogen mikroorganizmlar chiqaradigan va kasallikka sabab bo‘ladigan toksinlar ham Z. hisoblanadi. Z. organizmga ta’sir qilganda o‘tkir va surunkali zaharlanish yuz beradi.

Zoonozlar — zoonoses, -um, f (gr. zoon + nosos) — hayvonlarda uchraydigan yuqumli va invazion kasalliklar (Mas.: o‘lat, tulyaremiya, kuydirgi, qutirish, brutsellyoz, leptospiroz va b.) majmui. Ular odamlarga uy hayvonlari (qoramol, qo‘y, echki, cho‘chqa, shuningdek it, mushuk va b.) orqali yuqishi mumkin.

Zooantropozlar — zooanthroponoses, f/pl (gr. zoon — hayvon + anthropos — odam + nosos — kasallik) — hayvonlarda va odamlarda uchraydigan yuqumli va invazion kasalliklar majmui. Manba ko‘pincha kasal hayvon bo‘ladi.

Zotiljam, pnevmoniya — bronchopneumonia, -ae, f (rp. bronchos + lot. Pneumonia — o‘pkaning yallig‘lanishi) — o‘pka yallig‘lanishi; mustaqil kasallik yoki boshqa kasalliklar asorati sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda alveolalar, o‘pkaning oraliq to‘qimasi va bronxlarning juda mayda tarmoqlari yallig‘lanadi. Z. ni turli bakteriyalar (pnevmodokklar, streptokokklar, stafilokokklar) va viruslar

qo‘zg‘atadi. Kasallikning kechishiga qarab o‘tkir va surunkali, joyiga qarab chegaralangan sohalardagi yoki krupoz Z. (o‘pkaning butun bir bo‘lagi zararlanadi) va o‘choqli yoki bronxopnevmoniya farq qilinadi. O‘tkir Z. to‘satdan boshlanadi, et uvishib isitma ko‘tariladi, nafas olganda, yo‘talganda ko‘krak qafasi og‘riydi (ko‘proq krupoz Z. da). o‘choqli yoki interstsial Z. da yo‘tal tutib, bemor shilliq, yiring aralash balg‘am tashlaydi, harorat 38—40° bo‘ladi. Surunkali Z. da bronxlar, o‘pka tomirlari hamda limfa sistemasi zararlanadi. Kasallikning zo‘rayishi va tez-tez qaytalanishi o‘pka to‘qimasi sklerozi (pnevmoskleroz) hamda bronxoektazlarga sabab bo‘ladi.

— I —

Izoantigenlar — eritrotsitlar, leykotsitlar va b. hujayralar, shuningdek bitta biologik tur individlari qon plazmasidagi oqsillar antigenlarining umumiyligi nomi; gemotransfuziya, to‘qimalarni ko‘chirib o‘tkazish va b. da ko‘riladigan immunologik reaksiyalar shu antigenlarga bog‘liq.

Idiosinkraziya — idiosyncrasia, -ae, f (rp. idios — o‘ziga xos, boshqacha + synkrasis — aralashish, birikish) — nasldan o‘tadigan yoki ortirilgan muayyan ta’sirlarga nisbatan sezuvchanlikning oshib ketishidan kelib chiqadigan patologik holat. Ko‘pincha tug‘ma bo‘ladi (chidab bo‘lmaydigan modda bilan birinchi marta to‘qnashgandan keyin namoyon bo‘ladi); I. ni antigenlik xususiyatlarga ega bo‘lмаган oddiy kimyoviy moddalar ham chaqirishi mumkin; I. da o‘tkazilgan reaksiya desensibilizatsiya holdatiga olib kelmaydi; I. fizikaviy omillarga ham bo‘lishi mumkin — yuqori va past haroratga.

Izoleytsin — q. Aminokislotalar.

Izopnoe — jismoniy ish qilayotgan vaqtida maksimal o‘pka ventilyasiyasining kamayib ketishi bilan bog‘liq, bo‘lgan holat; qon aylanishining yetishmovchiligidagi o‘pka qon tomirlarida qon turib qolishidan vujudga keladi.

Ikterus. q.. Sariqlik.

Ileus — ileus, -i, m (rp. eileo — qulflamoq, burab bog‘lamoq, yig‘ib olmoq, halaqit bermoq) — ichakning tutilib qolishi. I. turlari: obturatsion — ichakda to‘siq bo‘lishi yoki bekilib qolishi; strangulyasion — ichak tortilishida sirtmoq hosil bo‘lishi sababli; dinamik — ichakning paralitik va spastik tutilib qolishi.

Izostenuriya — siydik solishtirma og‘irligining doimo (kun davomida) bir xil bo‘lishi. Zimnitskiy sinamasida aniqlanadi. Buyraklarning konsentratsion funksiyasi buzilganligi tufayli, siydikning nisbiy zichligi koptokchada hosil bo‘lagan filtratining nisbiy zichligiga teng bo‘lishi. I. buyraklarning naylar apparati buzilishi natijasida buyraklarning siydikni konsentirlash va suyultirish qobiliyati yo‘qolishi natijasida, organizmdan mineral moddalarning va azotsaqlovchi mahsulotlarning chiqarilishi o‘zgarib ularning qon va to‘milardagi miqdori oshib ketadi.

Izotransplantatsiya — donor bilan retsipient to‘qimasi biologik jihatdan mos kelgandagina uni ko‘chirib o‘tkazish.

Immun javob — organizmga xos fiziologik taraqqiyotning ma’lum davrida antigen yuborilganda boshlanib, unga nisbatan maxsus reaksiyaning shakllanishi bilan tugallanadigan jarayonlar. I. j. ning anatomik va funksional manbai organizmning immun sistemasi bo‘lib, u antigenga turlicha javob berishi mumkin. Chunonchi: immunitetning shakllanishi, organizmning allergizatsiyasi va umuman allergianing rivojlanishi, immunologik tolerantlik (befarqlik) va h. k.

Immunizatsiya, immunlash — immunisatio, onis, f. — sun’iy yo‘l bilan faol va passiv immunitet vujudga keltirish. Faol immunitet vaksina va anatoksinlar; passiv immunitet esa immunli zardob va gamma-globulin yuborib hosil qilinadi.

Immunitet — immunitas, -atis, f (lat. immunitas — biror narsadan ozod bo‘lish) — organizmning yuqumli va yuqumsiz agentlarga, shuningdek antigenlik xususiyatiga ega moddalar ta’siriga berilmaslik, o‘zini ulardan himoya qilish xususiyati, I. tabiiy (tug‘ma) va orttirilgan (tabiiy kasal bo‘lib sog‘ayish), sun’iy (emlash, vaksinatsiya) immunizatsiya natijasida.

Immunogematologiya — immunologiya bilan gematologiya bo‘limi; qonning tarkibiy elementlari bo‘lgan antigenlar va antitelolarning turlari, kelib chiqishi, organizmning normal va kasallik holatidagi immunologik reaksiyalar bilan bog‘liq tomonlari hamda qon kasalliklarining oldini olish va davolash chora-tadbirlarini o‘rganadi.

Immunoglobulinlar — limfold hujayralarda hosil bo‘lib, odatda antigenga nnsbatan faol oqsillar. I. immunotsitlarda — V- limfotsitlarda gumoral immun javob jarayonida vujudga kelib, ularning asosiy ta’sir etuvchi omili hisoblanadi. I. odam va hayvonlar organizmida antitelolar funksiyasini bajaradi.

Immunodepressantlar, immunoressorlar — terapevtik miqdorda qo‘llanilganda organizmning immun reaksiyasini susaytiruvchi yoki bartaraf etuvchi kimyoviy moddalar. Autoimmun kasalliklar, o‘smalarni davolash, ko‘chirib o‘tqazilgan to‘qima, organlar ko‘chib ketishining oldini olish va b. holatlarda qo‘llaniladi. I. ga glyukokortikoidlar, sitostatiklar va h. k. kiradi.

Immunodiagnostika — asosan antigen bilan antitelolarning maxsus o‘zaro ta’sir ko‘rsatishiga asoslangan metodlardan foydalangan holda organizmning o‘zini himoya qilish kobiliyati buzilishi va kasalliklarini aniqlash (diagnostika) ga qaratilgan chora-tadbirlar majmui.

Immunologiya — immunologia, ae, f — immun sistemaning faoliyati va tuzilishi haqidagi tibbiy-biologik fan. I. organizmning antigenlarga ko‘rsatadigan reaksiyalari, bu reaksiyalarning mexanizmlari, ularning ko‘rinishlari, norma va patologiyada kechishi hamda oqibatlarini o‘rganadi, bu reaksiyalarga asoslangan tadqiqot va davolash usullarini ishlab chiqadi. I. ning immunogenetika, immunokimyo, immunopatologiya kabi sohalari mavjud.

Immunosuppressorlar — q. Immunodepressantlar.

Immunopatologiya — immunologiyaning turli kasalliklarning paydo bo‘lishi, rivojlanishi, kechishi va oqibatida immunologik o‘zgarishlar (asosan antigen-antitelo, ya’ni immun gumoral omillar va hujayralar o‘rtasidagi reaksiyalar) mohiyatini o‘rganadigan sohasi.

Immunoterapiya — immunotherapy, ae, f. — organizmga turli shifobaxsh zardoblar yuborib, immun sistemani tiklash, idora yetish, vaqtincha kuchaytirish yoki aksincha susaytirish orqali kasallikka qarshi immunitet hosil qilib davolash.

Impuls — impulsus, us, m. q. — Nerv ispulsi.

Immunn komplekslar — molekulyar komplekslar antigen + antitelo. Antigenlar bo‘lib oqsillar, viruslar, bakteriyalar, va hujayralar xizmat qilishi mumkin. Eriydigan kompleklar buyraklar orqali filtrланадилар, yirikroq erimaydiganлари — fagotsitozga uchraydilar. Patologiya sharoitida ular immunoglobulinlarning F_s-retseptорлари bo‘lgan mikrotsirkulyator o‘zan qon tomirlar devorida va to‘qimalar membranalarida to‘plananib (deponirlanib) immun yallig‘lanish (“immunokompleks kasalliklari”) hosil bo‘lishiga sababchi bo‘ladilar.

Immunopatologik jarayonlar (lat. immunitas, -atis — immunitet; gr. pathos, + lat. logos) — rivojlanishi immunokompetent (limfold) to‘qima funksiyasining buzilishi bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlar. I. p. j. immunomorfologik (immunomorfologiya) va xususiy immunopatologik (immunopatologiya) reaksiyalari, immunogenezning buzilishlari (antigen stimulyasiya yoki immun defist holati) va sensibilizirlangan (o‘ta sezgir bo‘lgan) organizmda hosil bo‘ladigan mahalliy immun reaksiyalari: o‘tasezgirlik reaksiyalari (allergiya, autoimmun jarayonlar, revmatizm, nefrit va b.), immun komplekslar kasalligi, transplantatsion immunitet, immunologik tolerantiliklarda kuzatiladigan struktur-funksional o‘zgarishlarini immunomorfologiya o‘rganadi.

Immunologik tolerantlik — tolerantia, -ae, f. (bardosh qilish, chidash, lot.) — organizmni o‘zining va yot bo‘lgan antigenlarga nisbatan tabiiy yoki ortirilgan

areaktivligi, aniqrog'i immun sistemaning "o'ziniki" va "yot" bo'lgan antigenlarni aniqlay olmaslik holati, Mas.: o'sma tabiatli kasalliklar rivojlanganida.

Ingibitorlar — kimyoviy yoki biokimyoviy reaksiya sur'atini pasaytiradigan yoki kechishining oldini oladigan moddalar. Konkurent I. ko'pincha ta'sir etuvchi moddaga o'xshash tuzilishga ega bo'lib, retseptorning faol qismiga bog'lanish uchun raqobat qiladi. Ko'pchilik I. maxsus fermentativ reaksiyalarni o'ziga xos susaytiradi.

Indikan — indoqsil sulfat yoki indoqsil glyukuronat kislotaning kaliy tuzi; ichaklarda oqsillar chirishidan hosil bo'ladigan indolning jigarda zararsizlanish mahsuloti. Siydk bilan tashqariga chiqariladi.

Indol — yo'g'on ichakda aminokislota — triptofanning mikroblar ta'sirida parchalanishidan hosil bo'ladigan geterotsiklik zaharli modda. Jigarda oqsidlanib indoqsilga, so'ngra sulfat yoki glyukoronat kislota bilan birikib qo'sh kislotalarga o'tadi (yana k. *Indikan*).

Inkapsulyasiya — encapsulatio, -onis, f (in — v + capsula — obolochka, korobka) — g'iloflanish, g'ilofga o'ralish; organizmga tushgan yot moddalarning atrofdan biriktiruvchi to'qima bilan qoplanishi.

Inkret — incret — organ va to'qimalar tomonidan ishlaniб to'g'ridan-to'g'ri qon va limfaga quyiladigan moddalar, sekret.

Inkretsiya — incretio, onis, f.; secretio interna (lot.) — ichki sekretsiya — ichki sekretsiya bezlari hayotiy faoliyatidan hosil bo'lgan mahsulotlarning bevosita qonga o'tish jarayoni.

Inkubatsion davr — incubatio, onis, f.; periodus latens (lot.) — yashirin davr, latent davr — tibbiyotda odam yukumli kasallik qo'zg'atuvchisi bilan zararlangandan to kasallikning dastlabki belgilari paydo bo'lгungacha o'tgan davr.

Innervatsiya — nerv bilan ta'minlanish; ichki organlar va to'qimalarning nervlar bilan idora etilishi; sohalar va gavda qismlarining MNS bilan bog'lanishi.

Inozit, inozitol — geksagidroksitsiklogeksan, olti atomli spirt. Uning fosfat va yog' kislota bilan hosil qilgan unumlari hujayra metabolizmi regulyasiyasida muhim rol o'ynaydi. I. ning yaqin unumlaridan biri fitin.

Instinkt — instinctus, us, m. (lot.) — hayvon yoki inson organizmining tug'ma mexanizmlar ishtirokida yashash sharoitiga moslashishi. I. I. Sechenov va I. P. Pavlov ta'limotlariga binoan I. asosida murakkab shartli refleks mexanizmlari yotadi. Biologik roli jihatdan I. ovqatlanish, himoyalanish, jinsiy, nasl qoldirish va b. guruhlarga bo'linadi. Odamda I. ong bilan nazorat qilib turiladi.

Insulin — insulinum, i, n. (lot.) — me'da osti bezi Langerans orol-chalarining beta-hujayralarida ishlab chiqariladigan polipeptid gormon. 51 aminokislotadan tashqil topgan. Disulfid bog'lari bilan birikkan ikkita zanjirdan iborat. I. qonda

glyukoza miqdorini tushira olganidan qandli diabetni davolashda qo'llanadigan asosiy dori. I. qoramollarning me'da osti bezidan olinadi. Keyingi yillarda I. kimyoviy yo'l va gen injenerligi yo'li bilan sintez qilingan.

Insulinoterapiya — 1) insulin bilan davolashga asoslangan usullarning umumiy nomi; 2) psixiatriyada ruhiy bemorlarni insulinning katta dozasi bilan davolash usuli.

Insuloma — insuloma, atis, n (lot.) — me'da osti bezining Langergans orolchalarini hujayralardan rivojlanadigan o'sma; ko'p miqdorda insulin hosil bo'lib, gipoglikemiyaga olib keladi, natijada qisqa muddatli tutqanoq tutishi, hushdan ketish, terlash, koma holatlari ro'y beradi.

Insult — insultus, us, m. (lot.) — miyada qon aylanishining to'satdan buzilib, miya to'qimasining zararlanishi va funksiyasining izdan chiqishi. Bir necha xil bo'ladi: gemorragik I., bunda miyaga qon quyiladi; ishemik I. ishemiya (kamqonlik) natijasida ro'y beradi; trombotik I. miya tomirlariga tromb tiqilishidan kelib chiqadi; embolik I. miya tomirlariga embol tiqilishi natijasida sodir bo'ladi.

Interstitsiy — interstitium, ii, n. — biriktiruvchi to'qimaning tarkibiy qismi. Unda kollagen, elastin va retikulyar tola turlari bo'ladi. Ularning ko'p-kamligi biriktiruvchi to'qima qaysi organda joylashganiga bog'liq. Y. dagi asosiy moddalar — sulfatlangan glikozaminglikanlar, proteoglikanlar, albumin, yog'lar, mineral moddalar, gialuronat kislota. Ular tayanch, trofik, himoya, transport vazifalarini o'taydi.

Interferon — organizmda va tashqi muhitda parvarish qilingan hujayralarda, ya'ni ular kulturasida hosil bo'ladigan kichik molekulali oqsil. Tarkibida uglevodlar, jumladan glyukozamin bor. Viruslar va hujayra ichida yashaydigan boshqa parazitlar (rikketsiyalar, bezgak plazmodiyilari va h. k.) ning ko'payishiga yo'l qo'ymaydi.

Intima — intima, ae, f. n (lot.) — qon va limfa tomirlari devorining ichki qavati. Ingichka elastik to'qimalar va endotelial hujayralardan tuzilgan.

Intoksikatsiya — intoxicatio, onis, f. (lot.) — organizmga tashqi yoki ichki manbadagi toksin (zaharli modda) ta'sir yetishi natijasida ro'y bergen patologik holat. Bu umumiylar zaharlanishga olib keladi.

Infarkt — infarctus, us, m. (lot.) — tomirlar spazmi, trombozi, emboliyasida to'qimalarga yetarli qon yetib kelmasligi natijasida ular ayrim qismlarining o'lishi. I. qaysi a'zodligiga qarab buyrak, ichak, miokard, miya, o'pka va h. k. infarkti farq qilinadi.

Infektsion kasalliklar — morbi infectiosi — yuqumli kasalliklar — 1) patogen mikroorganizmlar (bakteriyalar, viruslar va b. ning odam, hayvon organizmiga kirib ko'payib, zararli ta'sir ko'rsatishi natijasida kelib chiqadigan kasalliklar; 2)

klinik tibbiyotning I. k. etiologiyasi, patogenezi va kechishini o‘rganadigan, ularni aniqlash, davolash va oldini olish usullarini ishlab chiqadigan sohasi.

Infiltrat — infiltratus, us, m. — to‘qimaning odatda unga xos bo‘lmagan hujayra elementlari va ekssudat to‘plangan, hajmi kattalashib, qattiqlashgan qismi. I. ning kelib chiqish sabablariga, ayniqsa uni tashqil yetgan hujayralar va h. k. ga ko‘ra bir necha turi tafovut qilinadi.

Infiltratsiya — infiltratio, onis, f. — to‘qimalarga ularga xos bo‘lmagan hujayralar, suyuqliklar yoki kimyoviy moddalar o‘tib, to‘planish jarayoni. Kelib chiqishi, tarkibi va h. k. ga ko‘ra I. ning bir necha turi farq qilinadi.

Ionlashtiruvchi nurlar — elektromagnit nurlar zarralari va kvantlari oqimi, I.n. ga gamma, rentgen nurlari, beta va alfa zarrachalar kiradi. Gamma va rentgen nurlari qisqa to‘lqinli elektromagnit to‘lqinlaridan iborat bo‘lib, beta va alfa zarrachalar esa yadroviy nurlanish turlaridir. Bu nurlar zaryadlangan moddalar bilan o‘zaro munosabatda bo‘lib, manfiy va musbat zarrachalar hosil qilib, ularni ionlashtiradi.

Irsiy kasalliklar, nasl kasalliklari — asosan xromosomalar, gen yoki genom mutatsiyalari tufayli kelib chiqadigan kasalliklar. I. k. ga irsiyatni tashib yuruvchi tuzilmalardagi o‘zgarishlar sabab bo‘ladi. I. k. ning uch xili farq qilinadi: 1) gen irsiy kasalliklari — genlar mutatsiyasi natijasida ro‘y beradi; 2) xromosoma kasalliklari — jinsiy xromosomalar, autosomalarda ro‘y bergen o‘zgarishlar oqibatida kelib chiqadi; 3) irsiyatga moyil kasalliklar — irsiy va tashqi muhit omillari ta’sirida kelib chiqadi. Irsiy kasalliklar jinsga bog‘liq bo‘lishi ham mumkin, Mas.: gemofiliya kasalligi mutant genlarning jinsiy xromosomalarga joylashishi natijasida kelib chiqadi.

Irsiyat — organizmning xususiyati; irsiy axborotning nasldan-naslga o‘tib takrorlanishi. Genlar hujayraning qay qismida joylashishiga qarab yadro va sitoplazma irsiyatlari farq qilinadi. Yadro irsiyatni xromosomalarga joylashgan genlar tomonidan, sitoplazma irsiyatni esa organoidlar (mitochondriyalar, xloroplastlar, sentriolalar)ga joylashgan genlar tomonidan yuzaga chiqariladi.

Irqlar — hozirgi insoniyatni tashqil yetgan gominidlar oilasiga mansub bo‘lgan aqli odam (*Homo sapiens*) turining guruhlari har bir irq nasldan-naslga o‘tuvchi belgilar (teri, ko‘z, soch rangi, yuz, kalla suyaklari tuzilishi va b.) bilan ifodalanadi. Irq 3 asosiy guruhga — negroid-avstraloid, yevropoid va mongoloidlarga bo‘linadi. I. so‘nggi paleolit davrida bundan 40—30 ming yillar avval paydo bo‘la boshlagan deb faraz qilinadi. I. bir-biridan tashqi qiyofasi, teri, ko‘z va soch rangi, badanidagi jun va tuklarining qalin-siyrakligi, bo‘y-basti, yuz tuzilishi va b. belgilari bilan farqlanadi. hozirgi insoniyatning barcha I. i sivilizatsiyaning yuqori darajasiga erishishda bir xil imkoniyatlarga egadir.

Isitma — febris, is, f.; syn. pyrexia, ae, f. (rp.) — kasallik qo‘zg‘atuvchi omillarga javoban organizmning himoya reaksiyasi. Organizmda issiqlik idora etilishining buzilishi va shuning natijasida gavda temperaturasining ko‘tarilishi bilan ifodalanadi. I. ning keltirib chiqargan sabablar, rivojlanish mexanizmlari, kechishi va h. k. xususiyatlariga ko‘ra bir necha turi farq qilinadi.

Isitma tushiruvchi dorilar (antipiretiklar) — isitma chiqqanda gavda temperaturasini tushiruvchi dorilar. I. t. d. idora qilish markazlariga ta’sir etib, ularning qo‘zg‘aluvchanligini susaytirgach, teri tomirlarini kengaytiradi, badan sirtiga ko‘proq qon keltiradi, ter chiqishini oshiradi va shu bilan organizmdan tashqariga issiqlik chiqishini kuchaytiradi (Mas.: fenatsetin, antipirin, amidopirin, analgin, natriy salitsilat va b.). Asal va malina ham terlatib isitmani tushiradi.

Issiq elitishi — q., Gipertermiya.

Issiqlik almashinishi — tashqi muhit bilan organizm orasidagi issiqlik energiyasining almashinuvi. 4 xil bo‘ladi: konduktiv I. a.— issiqliknin o‘tkazish bilan amalga oshadi; konvektiv I. a. — gaz yoki suyuqlik vositasida issiqliknin o‘tkazish; radiatsion I. a.— nurlanish vositasida issiqliknin chiqarish; terlash orqali I. a. — teri, o‘pka va nafas yo‘llari orqali suv bug‘lanishi.

Isteriya — hysteria, ae, f. — (rp.) asab-ruhiy buzilishlarning bir turi; nevrozlar guruhiga kiradi; talvasa tutishi, harakat falajlanishi, ma’lum guruh muskullarning uchishi, sezuvchanlikning buzilishi, tomir tortishishi, ruhiy garanglik va ko‘rlik, es-hush aynishi, ba’zan xushdan ketish: stenokardiya, bronxial astma xurujisimon holatlar, yurak o‘ynashiga o‘xhash belgilar va b. kuzatiladi. Bemorning yuzaki fikr yuritishi, bo‘lar-bo‘lmasga ishonuvchanligi, xayolparastlikka moyilligi, kayfiyatining beqarorligi, boshqalar e’tiborini o‘ziga jalb qilishga urinishi, oliftaligi I. ga xos belgilardir.

Istisqo — hydros, -opis, m (gr. hydor — suv) — organizm bo‘shliqlari, to‘qimalari, xususan teri osti kletchatkasida haddan tashqari ko‘p suyuqlik (transsudat) yig‘ilishi. Suyuqlik qaysi organda yig‘ilganligiga qarab bosh miya, ko‘krak, moyak, perikard, qorin va b. organlar I. si farq qilinadi.

Itsenko — Kushing kasalligi — gipotalamus — gipofiz sistemasi kasalligi. Gipofizda adrenokortikotrop gormon ortiqcha ishlab chiqarilishi natijasida glyukokortikoidlar va androgenlar sekretsiyasi oshib ketadi. Kasallikka bosh miya shikastlari, ruhiy keChinmalar, neyro-infeksiyalar, gipofiz o‘smalari va b. holatlar sabab bo‘lishi mumkin. Qon bosimining ko‘tarilishi, osteoporoz, teri cho‘zilib ketishi tufayli unda xarakterli chiziqlar (striyalar) paydo bo‘lishi, semirish, infeksiyalarga chidamlilikning pasayishi, uglevodlar almashinuvining buzilishi (steroid diabet) va virilizatsiya bilan ifodalanadi.

Itsenko—Kushing sindromi — Itsenko — Kushing kasalligiga o‘xhash klinikaga ega, lekin kelib chiqishi buyrak usti bezi adenomasi yoki

adenokarsinomasi hamda AKTG- simon peptidlar ishlab chiqaruvchi o'smalar (Mas.: bronxogen rak) bilan bog'liq bo'lgan sindrom.

Ich ketishi — diarrhoea, ae, f. (rp.); — ichning suyulib, tez-tez ketishi. I. k. ga me'da-ichak yo'lining yuqori qismida ovqat hazm qilishning buzilishi: me'da shirasining kamayib ketishi (axiliya), ingichka ichakda so'rilih jarayonining buzilishi (enteral I. k.), shuningdek ko'p miqdorda dorilar iste'mol qilish sabab bo'ladi. Ba'zan kishi qattiq ko'rqqanida yoki hayajonlanganida (nevrogen I. k.), oziq-ovqat mahsulotlari yoqmaganida ham I. k. mumkin.

Ichak — intestinum, i, n.; enteron (rp.) — ovqat hazm qilish organlari sistemasining eng zarur va uzun qismi. Me'daning chiqish qismidan boshlanib, orqa chiqaruv teshigida tugaydi. O'rta yashar odamlarda I. ning uzunligi 7—9 m gacha. I. ingichka va yo'g'on ichaklarga bo'linadi. Ingichka ichakda asosan ovqat moddalari hazm bo'ladi va so'riliadi. U quyidagi qismlardan iborat: o'n ikki barmoq ichak-me'daning chiqish qismidan boshlanib, och ichakka o'tib ketadi. Bu ichakka jigar o'ti, me'da osti bezi shirasi quyilib, ovqat moddalarini parchalab, so'rilihiga tayyorlab beradi va so'rilih boshlanadi; och ichak — o'n ikki barmoq ichakdan boshlanib, qorin bo'shlig'ining yuqori qismini ishg'ol qiladi va asta-sekin yonbosh ichakka o'tadi. Och ichakda parchalangan ovqat moddalari qonga so'riliadi. I. ning oxirgi qismi yo'g'on I. bo'lib, ko'ndalang kesimining kattaligi, tuzilishi bilan ingichka ichakdan farq qiladi. Yo'g'on I. ko'richak, yuqoriga ko'tariluvchi, ko'ndalang, pastga tushuvchi, sigmasimon va to'g'ri I. lardan iborat. Yo'g'on I. ning boshlanish qismida faqat suv shimaladi, qolgan qismida esa shimalmagan ovqat moddasi najasga aylanadi. Ko'richak yonbosh I. ning yo'g'on ichakka o'tish joyida bo'lib, uning pastki qismidan 5—11 sm uzunlikdagi chuvalchangsimon o'simta (appendiks) osilib turadi.

Ichak buralishi — volvulus, 1, m — ichak tutilishining bir ko'rinishi. Bunda ichak tutqichi bilan birga buralib qolib, undagi tomir va nervlar qisiladi, natijada ichakning shu qismida qon aylanishi va innervatsiya buziladi.

Ichak invaginatsiyasi — invaginatio, onis, f. — ichaklar tiqilib qolishining bir turi. Ichak bir qismining ikkinchisining ichiga yoki bir ichakning ikkinchisiga (Mas.: ingichka ichakning yo'g'on ichakka) kirib qolishi. Ko'pincha yosh bolalarda uchraydi.

Ichak tutilishi — obstructio, -onis, f; pl. obstructus (oldida turish, to'sish, halaqit berish lot.) — biror sababga ko'ra ichak ma'lum bir qismining bekilib, uning oxirgi qismiga ovqat yoki suyuqlik o'tmay qolishi. I. t. ning dinamik va mexanik xili bor. Dinamik I. t. ichak harakatining buzilishidan kelib chiqadi. Chandiqlar, o'sma, poliplar, ichakning buralishi, bir-biriga kirib qolishi, hosil bo'lgan yoki o't yo'lidan ichakka tushgan toshlar, o'lgan parazitlar (askaridalar), tiqilib qolgan

axlat (yo‘g‘on ichakda), churra xaltasiga buralib kirib qolgan ichaklarning siqilishi, ichakka tushgan yot jismlar, qo‘shni organlardagi o‘smaning ichakni siqib qo‘yishi va b. mexanik I. t. ga sabab bo‘ladi.

Ichak shirasi — succus entericus; syn. s. Intestinalis (lot.) — ichak shilliq pardasining bezlaridan ajralib chiqadigan hazm shirasi; ishqoriy xususiyatga ega rangsiz yoki sarg‘ish suyuqlik. Tarkibida uglevodlar, yog‘lar va oqsillarni parchalovchi fermentlar bor.

Ichki kasalliklar — 1) klinik tibbiyotning bir sohasi. Ichki organlar kasalliklarining klinik kechishi, patogenezi va etiologiyasini o‘rganadi hamda ularning oldini olish, davolash va diagnoz qo‘yish usullarini ishlab chiqadi; 2) ichki organlar kasalliklarini (qon aylanishi, nafas olish, ovqat hazm qilish, buyrak, moddalar almashinuvi organlari, biriktiruvchi to‘qima va qon sistemasi kasalliklari) ning umumiy nomi.

Ichki sekretsiya bezlari, endokrin bezlar — evolyusion rivojlanish jarayonida fiziologik faol moddalar (gormonlar) ishlab chiqarish va o‘z mahsulotini bevosita organizmning ichki muhitiga ajratishga ixtisoslashgan a’zolar. Odamlar va umurtqali hayvonlarda faqat gormonlar ishlab chiqaradigan I. s. b. ga gipofiz, qalqonsimon bez, qalqonsimon bez oldi bezlari, buyrakusti bezi kiradi. Keyingi vaqtida epifiz (g‘uddasimon bez) ning endokrin funksiyasi aniqlangan. I. s. b. ning ikkinchi turkumi gormon ishlab chiqarishdan tashqari, boshqa funksiyani ham bajaradi. Ularga me’da osti bezi, tuxumdon, urug‘don, buqoq bezi (timus), yo‘ldosh kiradi. Boshqa a’zolar yoki ulardagi maxsus hujayralar turkumi (Mas.: me’da-ichak yo‘li a’zolari, buyrak) ham ma’lum miqdorda gormonlar ishlab chiqaradi. I. s. b. ni funksiyasining boshqarilishi asosida bir necha turkumga bo‘lish mumkin. Birinchi turkumga gipotalamo-gipofiz sistemasi boshqarib turadigan adenogipofiz, qalqonsimon bez, tuxumdon va urug‘don (gonadalar) va buyrak usti bezining po‘st qavati kiradi. Ikkinchi turkumga kiradigan qalqonsimon bez oldi bezlari, me’da osti bezi, buqoq bezining faoliyati gipofizdan mustakil ravishda, o‘zлari ishlab chiqaradigan gormonlar konsentratsiyasining o‘zgarishi tufayli boshqariladi (teskari aloqa prinsipi). UChinchi turkumga nerv to‘qimasidan kelib chiqqan gormon ishlab chiqaradigan bezlar va ayrim hujayralar kiradi (neyrosekretsiya). Ular faoliyati ham gipofizdan mustaqil. Bu turkumga neyropeptidlar ishlab chiqaradigan gipotalamus ham kiradi.

Ishemiya — ischaemia, ae, f. (rp.); syn. anaemia localis — to‘qima, organ yoki tana biror qismining qon bilan ta’minlanishining kamayishi; biror sabab (Mas.: tomirlarning qisqarishi, tromb, embol tigilib qolishi, o‘sma yoki b. tuzilma ezib qo‘yishi va h. k.) ga ko‘ra arterial qon oqishining susayishi yoki birato‘la to‘xtab qolishi natijasida yuzaga keladigan mahalliy qon aylanishining buzilishlaridan biri.

Ishtaha — appetitus, us, m.; appetitio, onis, f. — ovqat yeish istagi; I. ning boshqarilishida organizmdagi moddalar almashinuvi ma'lum ahamiyatga ega. I. ning paydo bo'lishi MNS ning faoliyati va ta'sirlanishiga bog'liq. Fiziologik kuzatishlarga qaraganda gipotalamik va limfatik tuzilmalarni ta'sirlash yoki jarohatlash I. ning yo'qolishi yoki aksincha «oshishi»ga sabab bo'ladi. I. ning 3 xil o'zgarishi: susayishi, hatto yo'qolishi (anoreksiya), kupayishi (bulimiya) va buzilishi (paroreksiya) kuzatiladi.

Iqlim omillari — biror joyda bo'ladigan ob-havo sharoitlari (havo temperaturasi va namligi, atmosfera bosimi, yog'in-soChin va b.). I. o. o'simlik, hayvon va odam organizmiga ta'sir etadi.

Yiring — putrefactio, onis, f.; putrescentia, ae, f. (lot.) — madda, fasod — sarg'ish-yashil suyukliq. Asosan jarohat va to'qimalarga tushgan yiringlatuvchi mikroblar hosil qiladi. Bunga ko'pincha ezilgan to'qimalar, qon aylanishining buzilishi, to'qimalardagi yot jismlar sabab bo'ladi. Y. oqsillar, parchalanuvchi leykotsitlar, yallig'langan to'qimalardagi o'lgan hujayralar va patogen mikroorganzmzmlardan tashqil topadi.

Yiringli infeksiya — yiringlatuvchi bakteriyalar (stafilokokk, streptokokk, pnevmokokk, yashil yiring paydo qiluvchi tayoqchalar va b.) qo'zg'atadigan yallig'lanish jarayoni.

Yo'ldosh — placenta, ae, f. syn. deuteria, ae, f. (lot.) — bola — tug'ilgach, ketidan tushadigan homila pardalari, platsenta va kindik tizimchasidan iborat a'zo; homilani ona tanasi bilan bog'lab turadi. Tug'ruqning Y. tushish davrida platssnta va pardalar bachadon devoridan to'la ko'chadi va tug'ruq yo'llari orqali chiqadi.

Yo'tal — tussis, is, f.; syn. bex, bechos, m. (rp.) — reflektor holat; g'ayriixtiyoriy ravishda ovozli tez nafas chiqarish harakati; biror kasalik belgisi bo'lishi mumkin. Y. bir necha xil bo'ladi: ho'l Y.— balg'am ajralishi bilan sodir bo'ladigan Y. Bronxit, zotiljam, o'pka sili kasalligida kuzatish mumkin; hirillagan Y.— quv-quv yo'talish; hiqildoq va traxeya yallig'langanda uchraydi; quruq Y.— balg'amsiz Y. Plevra, tomoq ta'sirlanganda va quruq bronxitda kuzatiladi.

Yo'talga qarshi moddalar — yo'talish refleksini susaytiruvchi moddalar (kodein, libeksin va b.).

Kazeozli — caseosus, -a, -um (caseus — pishloq, lot.) — tuberkulyoz va boshqa kasalliklarda tvorogga o‘xshagan massa hosil bo‘ladi (kazeoz, yoki tvorogga o‘xshagan nekroz).

Kalor, calor, -oris, m (lot.), issiq, harorat — yallig‘lanishning beshta klassik belgilaridan biri.

Kaverna — caverna, ae, f. (lot.) — turli organ (o‘pka, jigar, buyrak, suyak) lar to‘qimasining ko‘pincha sil, ba’zan rak, zahmdan zararlanib irishi natijasida hosil bo‘lgan kovak (bo‘shliq). K. ning diametri 2-7 sm va undan kattarok bo‘lib, o‘pkaning bir bo‘lagini, yoki butunlay hammasini egallab olishi mumkin.

Kal — faeces, ium, f., pl. (lot.) — parsha, favus — terining zamburug‘ kasalligi; asosan boshning sochli qismi, ba’zan tirnoq va ichki organlar zararlanadi. K. zamburug‘lari soch xaltachasiga va sochga zarar etkazadi. Soch rangi xira tortib, kulrang tusga kiradi, mo‘rt bo‘lib qoladi, to‘kila boshlaydi. Bosh terisining kasallangan qismi ma’lum vaqtadan keyin qizarib, shishadi, bir oz qichishadi, yupqalashib ketadi, bosh yaltirab turadi. Keyinchalik oqish, kepakka o‘xshagan po‘stchalar yoki sarg‘ish qobiq bilan qoplanadi, u ko‘paya borib, boshni butunlay qoplاب oladi. Bemor boshini qashiganda K. zamburug‘lari terining boshqa qismlariga ham yuqishi mumkin.

Kalsinoz — calciosis is, f. — organizm to‘qimalarida kalsiy tuzlarining yig‘ilishi. Aterosklerotik, distrofik, mahalliy, metabolik, metastatik va b. xil K. farq qilinadi.

Kalsitonin — calcitonin — kalsiy va fosfor almashinuvini rostlab turadigan peptid gormon. K. qalqonsimon bezning parafollikulyar yoki K hujayralarida sintezlanadi. K. sintez yo‘li bilan ham olingan. K. sekretsiyasi qondagi kalsiy miqdoriga qarab o‘zgaradi: qonda kalsiy miqdori oshganda K. ajralishi kamayadi.

Kalsiuriya — calciuria — siyidik bilan kalsiy tuzlari chiqishi. D-gipervitaminozda, qalkonsimon bez oldi bezlarining funksiyasi buzilganda va b. da kuzatiladi.

Kalsiferol — D-vitamin (k. Vitaminlar).

Kantserogen omillar — (cancer — rak; gr. blastoma — opuxol, lot.) — normal hujayrani o‘sma hujayrasiga aylanishini chaqiradigan turli omillar. Turli kimyoviy birikialar K. o. xususiyalarga ega. Tabiat bo‘yicha ular ko‘proq politsiklik uglevodorodlar (antratsen va fenantren xosilalari) va aminoazobirikmalarga tegishli. Fizikaviy K. o. ga rentgen nurlari, α -, β -, γ -nurlanishlar, neytronlar oqimi, radioaktiv izotoplari ta’siri kiritish mumkin. Oxirgi paytlar kelib chiqishi bo‘yicha biologik kantserogenlar ham aniqlangan. Hayvonlarning o‘z-o‘zidan hosil bo‘lgan o‘smalarning sababi asosan RNK-saqlovchi o‘sma hosil qiladigan viruslar.

Kapillyarlar — capillares, ium, f., pl. (lot.) — qon tomir va qon aylanish sistemasining oxirgi nozik qismi. Barcha organ va to‘qimalardagi eng mayda

tomirlar. K. arteriolalar (arteriyalarning oxirgi eng mayda tarmoqlarini venulalar (mayda venalar) bilan birlashtiradi va qon aylanish doirasini tutashtiradi. K. da moddalar va kislorod almashinushi jarayoni boradi. K. devoridan to‘qimalarga qondagi kislorod va oziq moddalar, to‘qimalardan esa qonga karbonat angidrid va boshqa almashinuv mahsulotlari o‘tadi.

Kapillyar ektaziya — kapillyarlarning biror kasallik sababli kengayishi.

Karbogidrazalar — q. Glyukozidazalar.

Karboksigemoglobin — gemoglobinning is gazi (SO) bilan birikishidan hosil bo‘ladigan birikma. Kislorodning to‘qimalarga normal etib kelishiga to‘sinqilik qiladi, natijada kishi is gazidan zaharlanadi (is tegadi).

Karbunkul — carbunculus, i, m. — q. Ho‘ppoz.

Kuydirgi karbunkuli — carbunculus athracicus (lot.) — terida to‘qimalar nekrozi bilan kechadigan seroz-gemoragik yallig‘lanish o‘chog‘idagi qoramtilr qo‘ng‘irstrup, karbunkulyoz (teri) shaklida esa deyarli qora rangli strapon shaklidagi affekt.

Kardialgiya — cardialgia, ae, f. (rp.); cardiodynbia, ae, f. (rp.) — yurak sohasidagi og‘riq. K. da asosan simillovchi yoki sanchiqli og‘riq paydo bo‘lib, uzoq davom etadi. Yurakning turli kasalliklari (Mas.: miokardit), nevroz va b. kasalliklar belgisi bo‘lishi mumkin.

Kardiovaskulyar — cardiovascular — kasallik belgilarini bir vaqtida ham yurakka, ham qon tomirlariga tegishli bo‘lishi.

Kardiomegaliya — cardiomegalia, -ae, f — yurak massasi va o‘lchamining kattalashib ketishi. Yurak amiloidozi kasalligida kuzatiladigan amiloid K., glikogenoz kasalligida uchraydigan glikogen K. hamda yurak muskulining tug‘ma kattalashishi bilan ifodalanadigan giperplastik idiopatik K. farq qilinadi.

Kardiopatiya — cardiopathia, ae, I. (gr.) — etiologiyasi (kelib chiqishi) noma’lum kasalliklar. Miokardning yallig‘lanmasdan shikastlanishi bilan ifodalanadi. Qon harakatining susayishi oqibatida yuzaga keladigan K. da yurak bo‘shliqlari kengayib, yurak yetishmovchiligi ro‘y beradi. Konstriktiv K. yurak kameralari devori kengayishining buzilishi bilan ifodalanadi.

Kardionevroz — cardioneurosis, f. (gr.); — nevrozning kardialgiya, yurak urishi va yurak sohasida boshsa noxush sezgilar paydo bo‘lishi bilan ifodalanadigan xili.

Kardioskleroz — cardiosclerosis, f. (gr.) — yurak muskullarining qon bilan yetarli ta’minlanmasligi yoki yallig‘lanish sababli unda biriktiruvchi to‘qima (chandiq) hosil bo‘lishi. Asosan vena tomirlari aterosklerozi, revmatizm, miokardit va b. sabab bo‘ladi. Asosiy alomatlari — yurak ishi yetishmovchiligi, yurak aritmiyasi.

Kardiospazm — cardiospasmus, i, m. — qizilo‘ngachning me’daga kiradigan qismi — kardiyaning torayib qolishi. Oqibatda qizilo‘ngachning yuqori bo‘limlari kengayadi. K. da qizilo‘ngachdan me’daga ovqat luqmasining o‘tishi qiyinlashadi.

Kardiostenoz — cardiostenosis — to‘qimalarda hosil bo‘lgan morfologik o‘zgarishlar (o‘smlar, chandiq va b.) oqibatida kardial teshikning torayishi.

Kardit — carditis — yurak ayrim qavatlarining yallig‘lanishi (endokardit, miokardit, endomiokardit, perikardit, pankardit va h. k.). K. asosan keng tarqalgan revmatizm va revmatoidli artrit kasalliklarida kuzatiladi. **Karies**— q. Tish chirishi.

Karotid yetishmovchilik — miyaning ichki uyqu arteriyasidan kon bilan ta’minlanishidagi yetishmovchilik; shu arteriya yoki umumiy uyqu arteriyasining stenozi sabab bo‘ladi. Bunda bir tomondagi qo‘l yoki oyoqda yoki ikkalasida harakat va sezuvchanlik buziladi. Ko‘pincha qarama-qarshi tomondagi ko‘z xiralashib qoladi.

Karotid sinus —umumiy uyku arteriyasining tashqi va ichki arteriyalarga bo‘lingan joyidagi kengaygan qismi. K. s. da baro- va xemoretseptorlar joylashgan bo‘lib, ular qo‘zg‘alganda qon tomirlar kengayadi, qon bosimi tushadi, yurak urishi sekinlashadi.

Karsinemiya— qonda o‘smaning metastaz berishiga sabab bo‘ladigan o‘sma hujayralari bo‘lishi.

Karsinoz, karsinomatoz — rak o‘smlarining organizmga tarkalib, metastaz berib, ancha joyni qamrab olishi.

Karsinoid — carcinoidum, I, n. (rp.) — argentaffinatsitlar va ularga o‘xshash hujayralardan tuzilgan xavfsiz va havfli o‘smalarniig umumiy nomi. Ko‘pincha chuvalchangsimon o‘simta (appendiks)da, ba’zan me’da-ichakda uchraydi.

Karsinoma — q., Rak.

Karsinomatoz — q., Karsinoz.

Karsinosarkoma — epitelial va biriktiruvchi to‘qimalardan vujudga kelgan xavfli o‘sma.

Kasallik — morbus, -i, m (lat. morbus — kasallik) — tashqi va ichki omillar ta’sirida organizm morfo-funksional xususiyatlarining shikastlanishi va ayni vaqtda himoya-moslashuv reaksiyalari rivojlanishi, tashqi muhit bilan muvozanati, faol harakatining buzilishi bilan ifodalanadigan yangi sifatiy holat. Lekin hozirga qadar K. umumiy qabul qilingan ta’rifga ega emas, chunki u nihoyatda murakkab jarayondir, hatto amaliyotda K. ta’rifi to‘g‘risida bir-biriga zid fikrlar mavjud bo‘lib, bunga sabab K. ning kelib chiqishida ba’zi olimlar asosiy o‘rinni, Mas.: nerv yoki endokrin sistemasi va h. k. ga berishsa, boshqalar falsafiy, ijtimoiy va siyosiy tomonlariga ko‘proq e’tibor berishadi. Shu bilan birga har qanday K. sababsiz bo‘lmasligi (k. Etiologiya), organizm birbutunligi va uning saqlanishining buzilishi (q. Gomeostaz, Shikastlanish), sabab bilan organizm o‘rtasida murakkab munosabatlar yuzaga kelishi, K. ning rivojlanish mexanizmlari (k. Patogenez) va

ularga organizmning javob bera olish qobiliyati, imkoniyati va xususiyatlari (q. Reaktivlik, Rezistentlik, Immunitet). K. ning kelib chiqishida hal qiluvchi rol o'ynashi barcha mutaxassislar tomonidan tan olinadi. Hozirgi zamон tasavvuriga ko'ra K. ning kechishida: 1) K. oldi — premorbid holat, 2) latent (yashirin), yuqumli K. da esa inkubatsion, 3) prodromal (K. dan xabar beruvchi dastlabki noxush o'zgarishlar), 4) avjlanish (har bir K. ning o'ziga xos barcha klinik belgilari to'la-to'qis namoyon bo'lgan), 5) oqibat (K. ning qanday natija bilan tugashi) davrlari farq qilinadi.

Kasb Kasalliklari — 1. Muayyan kasbga xos omillar yohud biror ishlab chiqarish turi yoki kasbga xos alohida mehnat sharoitlarining muntazam va uzoq vaqt zararli ta'sir yetishidan paydo bo'ladigan kasalliklar. 2. Klinik tibbiyat bo'limi. K. k. uning vujudga kelishi, rivojlanishi, ko'rinishlarini o'rganadi, ularni aniqlash, davolash va oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi.

Katabolizm, dissimilyasiya — catabolismus, i, m. — barcha murakkab moddalarning organizmda parchalanish majmui. Aminokislotalar, yog' kislotalar, uglevodlar, purin, piramidin asoslari va b. ning moddalar almashinushi jarayonida anorganik moddalar (suv, SO₂, ammoniy) ga aylanishi.

Katalaza — tarkibida gem bo'lgan ferment. Kuchli zaharli modda — vodorod peroksidni suv va kislorodga parchalab yo'qotadi.

Kaxeksiya — cachexia, ae, f. — organizmning umumiyligi atrofiyaga uchrashi; haddan tashqari ozib ketish, cho'p-ustixon bo'lib qolish, butunlay holdan toyish, fiziologik faoliyatning susayishi, astenik, so'ngra apatik sindromlar paydo bo'lishi bilan ifodalanadi. Kelib chiqish sabablari, rivojlanish mexanizmlari va h. k. ga ko'ra K. ning bir necha turi (alimentar, gipofizar, o'sma va x. k.) farq qilinadi.

Kvashiorkor — bolalarda uchraydigan alimentar distrofiyaning og'ir xili; oqsil yetishmasligi natijasida kelib chiqadi. Bolada jismoniy rivojlanish to'xtab qoladi, butun badan shishib ketadi, teri pigmentatsiyasi va ichakda so'rilib jarayoni hamda ruhiy buzilishlar ro'y beradi.

Kvinke shishi — allergik yoki irsiy kasallik. Bunda teri, teri osti kletchatkasi yoki shilliq pardalar to'satdan shishib, bora-bora o'z-o'zidan yo'qolib ketadi, lekin ko'pincha qaytalanib turadi.

Kekirik — regurgitatio, onis, f. (lot.) — me'dadan og'iz orqali havo chiqishi. K. sog'lom odamlarda ovqat ko'p iste'mol qilganda, kuchli jismoniy ish bajarganda kuzatiladi. Tez-tez K. tutishi me'da, jigar, o't pufagi, ko'richak va b. organlar kasalligining belgisi bo'lishi mumkin.

Keksalik, qarilik — senilis, e. — inson hayotining so'nggi davri; organizmning hayotga moslanish imkoniyatlarining kamayishi, shuningdek turli organ va sistemalarda morfologik o'zgarishlar ro'y berishi bilan kechadi.

Keratit — keratitis, itidis, f. (rp.) — ko‘z muguz pardasining yallig‘lanishi. Ko‘pincha shiddatli boshlanadi. Ko‘z qizarib, yoshlanib, yorug‘likka qaray olmaydi. K. ga kon‘yunktivit, muguz pardaga shikast yetishi yoki organizmning umumiylasalliklari (gripp, sil) sabab bo‘ladi. Tashqi ta’sirlar keltirib chiqaradigan K. (ekzogen K.) va umumiylasalliklar paydo qiladigan K. (endogen K.) farq qilinadi. K. ko‘pincha bolalar va o‘smlarda uchrab, aksariyat ko‘zga oq tushadi.

Keratokon'yunktivit — keratoconjunctivitis, -tidis, f (rp. keras + conjunctiva lot.) — ko‘zning biriktiruvchi to‘qimasi +-itis) — muguz parda va konyunktivaning birga yallig‘lanishi. Infektsion (rikketisioz K. va b.) va invazion (telyazioz va b.) kasalliklarda uchraydi.

Ketokislotalar — tarkibida keton turkumi bo‘lgan organik kislotalar. Moddalar almashinuvida hosil bo‘ladigan asosiy vakillari pirouzum kislota, atsetoatsetat kislota, α -ketoglutorat kislota, atsetooksalat kislota. Uglevod, oqsil va yog‘lar almashinuvida muhim rol o‘ynaydi.

Keton tanachalar — (acetonum lot.) — organizmda ketogenez jarayonida hosil bo‘ladigan organik birikmalar. K-t. qatoriga atsetoatsetat, β -oksimoy kislota va atseton kiradi. Ba’zi patologik hollarda, xususan qandli diabetda K. t. ning qonda ortib ketishi atsidozga olib keladi, shuning bilan bir-ga K- t. siyidik tarkibida ajralib, unga kislotalik xususiyatini beradi, nerv sistemasiga zarar etkazadi,

Ketonuriya — q. Atsetonuriya.

17-Ketosteroidlar, ketosteroidlar — steroidlar qatoriga kiradigan, tarkibida 17-o‘rinda ketoturkum bo‘lgan tabiiy moddalar guruhi; kuchsiz androgen ta’sirga ega. 17-K. asosan steroid gormonlar almashinuvida hosil bo‘ladi, odam qonida, siydigida uchraydi; tibbiyotda diagnostik ahamiyatga ega,

Kista, cysta, -ae, f (rp. kystis — puffak, kista) — Har xil a’zolarda va to‘qimalarda vujudga keladigan, devorga ega bulgan va biror modda bilan to‘lgan patologik bo‘shliq.

Klaynfeldter sindromi — gipogonadizmning bir turi. Jinsiy xromosomalar nuqsoni (ortiqcha X-xromosoma, mozaika) bilan bog‘liq bo‘lgan va birlamchi gipogonadizm, oligo-hamda azospermiya, androgenlar yetishmasligi, ginekomastiya, evnuxoidizm va intellekt pastligi bilan ifodalanuvchi kasallik. Sababi noma'lum. Bemorlar bepusht bo‘ladi.

Klapan, qopqoq — valva, ae, f. valvula, ae, f. — kovak organning bir qismi; shu organ ichki pardasining bir yoki bir necha burmalaridan vujudga keladi. Bunday K. lar diametri kichik vena va limfa tomirlarida bo‘ladi. Ular suyuqlikning teskari oqishiga yo‘l ko‘ymaydi. Yurakning chap bo‘lmasi bilan chap qorinchasi oraliq teshigi o‘rtasida ikki tavaqali K., o‘ng bo‘lmasi bilan o‘ng qorinchasi o‘rtasida uch tavakali K. bor. Vena va limfa tomirlarida esa cho‘ntaksimon K. lar joylashgan.

Bulardan tashqari, yonbosh ichakning ko'richakka tutashgan joyida bir juft K. bo'lib, voronkasimon ko'richak tomon ochiladi.

Klapan yetishmovchiligi — yurak klapanlarining birorta nuqson tufayli o'z faoliyatini to'lik bajara olmay qolishi. Aterosklerotik K. e. (ateroskleroz oqibatida klapanlarning deformatsiyaga uchrashi), tug'ma K. e. (yurak nuqsonlari tufayli), revmatik K. e. (revmatik endokarditda), shikastlanishlar oqibatida K. e. va b. farq qilinadi.

Klimakteriya davri — climax, cis, m. (rp.); — klimaks jinsiy faolnyatning susayish pallasi. Organizmning generativ funksiyasi to'xtashi bilan kechadigan fiziologik davr. Ayollarda ham, erkaklarda ham kuzatiladn. Erkaklarda moyakda jinsiy gormonlar ishlab chiqaradigan hujayralar soni kamayadi, yurak-tomir sistemasida o'zgarishlar ro'y beradi. K. d. da ayollarning hayz ko'rishi o'zgaradi, gipotalamus — gipofiz — tuxumdonlarda funksional o'zgarishlar vujudga keladi. hayz qoni to'xtab-to'xtab keladi, ba'zan ko'p va uzoq ketib, bora-bora butunlay to'xtaydi (menopauza). Bu davr, odatda 45—50 yoshlarda boshlanib, 3—5 yil davom etadi. Patologik K. d. endokrin, vegetativ va ruhiy o'zgarishlar bilan kechadi.

Klimatopatologik reaksiya, klimatopatik reaksiya — keskin iqlim o'zgarishidan kelib chiqadigan kasallik alomati; iklim yoki fasl o'zgarishiga o'ta sezuvchan kishilarda kuzatiladi.

Koagulopatiya — coagulpathia — qon ivishining aynib, o'zgarib qolishidan iborat kasallik holati.

Koagulyasiya — coagulatio, onis, f. (lot.) — kolloid zarralar Broun harakati tufayli o'zaro to'qnashganda, kuch (Mas.: elektr) maydonida aralashganda yoki biror yo'nalishda siljiganda bir-biriga ilashishi. K. tabiiy va oqova suvlarni tozalash, ishlab chiqarish chiqindilaridan qimmatli mahsulotlarii ajratib olish, oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

Koagulyasion nekroz, coagulation, -onis (lat. — ivish, zichlashish + rp. nekrosis — jonsizlanish, o'lish) — to'qimalar yoki organlarning o'lган qismlari ivib zichlashishi bilan kechadigan nekroznning turi.

Kollikvatsion nekroz (lat. colliquatio, -onis — suytirish, eritish + nekrosis, — jonsizlanish, o'lish, gr.) — to'qimalar yoki organlarning o'lган qismlari gidrolitik parchalanishga uchrab suyilib, bo'tqasimon yoki yarimsuyuq massaga aylanishi bilan kechadigan nekroznning turi, Mas.: o'lган homilaning bachadondagi matseratsiyasi.

Kollagen — hujayra tashqarisidagi oqsil; biriktiruvchi to'qimaning mustahkamligi va egiluvchanligini ta'minlaydi. Hayvonlar oqsilining 25—30 foizini tashqil etadi. K. fibroblastlarda sintez qilinadi. K. biosintezining buzilishi bilan bog'liqbir nechta irsiy va tashqi muhitga bog'liq kasalliklar uchraydi.

Kollagenaza — tabiiy kollagenni eriydigan, past molekulyar og‘irlikka ega peptidlarga parchalovchi yagona proteolitik ferment.

Kollagenozlar, kollagen kasalliklar — biriktiruvchi to‘qima (kollagen tolalar) va tomirlarning sistemali zararlanishi bilan kechadigan kasallik. K. ga sistemali qizil volchanka, sklerodermiya, dermatomiozit, tugunchali periarteriit, revmatoidli poliartrit va revmatizm kasalliklari kiradi. K. ning kelib chiqishida organizmda immun sistemalar muvozanatining buzilishi natijasida hujayra va to‘qimalarga qarshi immun tanachalar hosil bo‘lishi asosiy rol o‘ynaydi. Asosan bo‘g‘im, teri, yurak, buyrak va b. organlar zararlanadi.

Kolit — colitis, itidis, f. (gr.) — yug‘on ichak shilliq pardasining yallig‘lanishi.

Kollaps — collapsus, us, m. — to‘satdan keskin ro‘y beradigan qon tomirlar yetishmovchiligi; tomirlar tonusining susayishi, harakatdagi qon miqdori (massasi) ning kamayishi, arteriya va venalarda qon bosimining pasayishi, bosh miya gipoksiyasi, organizm muhim hayotiy funksiyalarining izdan chiqishi bilan ifodalanadi. K. ning keltirib chiqaradigan sabablariga ko‘ra gemorragik, gipoksemik, infektsion, kardiogen, ortostatik, pankreatik, toksik va b. turlari farq qilinadi.

Koma — coma, atis, n. (gr.) — MNS funksiyasining keskin susayishi. Butunlay hushdan ketish, tashqi ta’sirotlarga javob bermaslik va organizmning hayot uchun muhim funksiyalari boshqarilishining buzilishi bilan ifodalanadi. Insult, qandli diabet, gepatit, uremiya, epilepsiya, zaharlanish va b. hollarda kuzatiladi.

Gipotireoid K. — tireoid gormonlar keskin kamayib ketishi oqibatida paydo bo‘lgan gipotireozda kuzatiladigan K. Ko‘proq katta yoshdagi kishilarda uchraydi va uyqudan bosh ko‘tara olmaslik, hushdan ketish, gavda harorati va qon bosimining tushib ketishi, bradikardiya avj olishi bilan ifodalanadi. **Diabetik K.** — qandli diabetda insulinning keskin yetishmovchiligi oqibatida kelib chiqadigan giperglikemiya, plazma giperosmasi va ketoatsidoz natijasida sodir bo‘lgan K. U giperlaktatsidemik, giperosmolyar, gipoglikemik va ketoatsidotik komalarga bo‘linadi. **Diabetik giperlaktatsidemik K.** — qandli diabet bilan og‘rigan bemorlarda gipoksiya (yurak kasalliklari, shok va b. sabablarga ko‘ra) paydo bo‘lishi yoki ortiqcha miqdorda biguanidlar berilishi natijasida qonda sut kislota oshib ketishi bilan kechadigan K. Birdaniga paydo bo‘lib, bir necha soatda bemor nobud bo‘lishi mumkin. **Diabetik giperosmolyar K.**, odatda 50 yoshdan oshgan kishilarda, o‘z vaqtida aniqlanmagan yoki yaxshi davolanmagan diabetda yoki organizmning keskin degidratatsiyasi yuz berganda (qusish, ich ketishi va b.) hosil bo‘ladi. **Diabetik gipoglikemik K.** — qandli diabetni davolashda insulin yoki sulfanilamidlar miqdorini oshirib yuborish yoki insulinni adekvat dozada yuborib turib uglevodlar berilmaganda yoki insulinga sezgirlik oshib kyetganda

kuzatiladigan K. **Diabetik ketoatsidotik** K. — qandli diabetni kech aniqlash, noto‘g‘ri davolash (insulinni yetarli miqdorda yoki butunlay bermaslik), operatsiyalar, homiladorlik va shikastlanishlar natijasida kelib chiqadigan K. Unga organizmning, birinchi galda MNSning keton tanalar bilan zaharlanishi, suvsizlanishi va ketoatsidoz sabab bo‘ladi.

Kompensatsiya — compensatio, onis, f. (lot.) — shikastlangan sistema, organ va to‘qimalar faoliyatini ma’lum jarayonlar, o‘zgarishlar va nihoyat moslanishlar evaziga to‘la yoki qisman o‘rmini qoplash, kamchiligini bartaraf yetish.

Kompensator jarayon — processus compensatio (lat. processus — oldinga yurish; compensatio, -onis, f — zarar o‘rmini to‘ldirish, tenglashtirish) — kasallantiradigan agent ta’sirida bevosita shikastlanmagan organ va sistemalar o‘zlarining funksiyalarini kuchaytirishi hisobiga shikastlangan organlar funksiyalarini tiklashi shaklidagi organizmning shikastlanish ta’siriga o‘ziga xos reaksiyasi (mas. taloq shikastlanganida limfa tugunlarida qon yaratish funksiyasini oshadi). K. j. rivojlanishi natijasida qaysidir miqdorda shikastlangan funksiyalar tiklanadi.

Komplement — antigen — antitelo kompleksi bilan faollanib, o‘z navbatida hujayra membranalarini kayta tiklanmaydigan darajada shikastlaydigan faol moddalar hosil qiluvchi zardob oqsillari sistemasi. K. tabiiy immunitet omillaridan biri bo‘lib, diagnostik immun reaksiyalarda keng qo‘llaniladi. K. ning kimyoviy tuzilishi va ta’sir mexanizmiga ko‘ra bir necha fraksiyalari farq qilinadi.

Komplementarlik — kimyoviy xususiyatlari bilan belgilanadigan tuzilmalar (makromolekulalar, radikallar) ning bir-birini to‘ldiradigan o‘zaro muvofiqligi; Mas.: antigen va antitelo molekulalari, purin va pirimidin asoslarining nuklein kislotalarda mos kelishi.

Konditsionalizm, condicio, -onis, f (conditio (condicio) — holat, sharoit lot.) — XIX asrda Germaniyada paydo bo‘lgan patologiyadagi oqim. Konditsionalistlar qarashining mohiyati: kasallikni sharoitlar kompleksi chaqiradi, kasallikning sababi yo‘q, odatda sabab deb aytiluvchi narsa sharoitdan biri bo‘lib hisoblanadi. Konditsionalizm variantlaridan biri — «omillar nazariyasi». Kasallik har xil omillarning bir vaqtida ta’siri natijasida kelib chiqadi (infeksiya, yomon ovqatlanish, qoniqarli bo‘lmagan uy sharoitlari va b.).

Konkrement — qattiq, asosan, toshga o‘xshagan patologik tuzilma. Kovak organlarda yoki bezlarning chiqarish yo‘lida joylashadi; ko‘pincha tuzlarning yig‘ilishidan hosil bo‘ladi. Amorf, bakterial, oqsilli K. lar, shuningdek buyrak, vena, o‘t, siydik, najas K. lari farq qilinadi.

Kontuziya — contusio, onis, f. lot. lat. yeishi, — zarba natijasida shikastlanish. Kuchli portlash natijasida ro‘y beradigan zarba to‘lqini ta’sirida shikzstlanish,

atmosfera bosimi va vibratsiyaning keskin o‘zgarishlari oqibatida kelib chiqadigan patologik holat. K. ning asosiy belgisi es-hushning buzilishidir. K. yengil kechganda odam sal karaxt bo‘lib, qisqa muddatga (bir necha minutga) hushini yo‘qotishi mumkin. Og‘ir K. da es-hush tamomila va uzoq vaqtga (soatlab va hatto sutkalab) yo‘qoladi, aksari yurak va nafas faoliyati buziladi.

Kon‘yugantlar — conjugata, ae, f. — kon‘yugatsiyada ishtirok etadigan ikki bakterial hujayra.

Koprostaz — m’eda-ichak traktining tonusi va funksiyalari buzilganda najasning yo‘g‘on ichakda nisbatan katta, qattiq va dumaloq shaklli tuzilmalar (skibulalar, scybula) shaklida o‘tmay qolishi.

Koronar yetishmovchilik — toj (koronar) tomirlar zararlanishi natijasida yurakning qon bilan ta’minlanishi buzilishi. Odatda yurak toj tomirlari aterosklerozida yuzaga keladi. K. e. ning o‘tkir va surunkali turlari farq qilinadi. o‘tkir K. e. da yurak qon tomirlari spazmi natijasida toj tomirlar o‘tkazuvchanligi buziladi. Surunkali K. e. toj tomirlarda qon oqimining asta-sekin kamayishi bilan kechadi. K. e. yurakning ishemik kasalligiga sabab bo‘ladi.

Koronarit — yurak toj tomirlarining yallig‘lanishi.

Koronaroskleroz — yurakning toj tomirlari sklerozi. Qarilik tufayli vujudga keladigan tarqoq arterioskleroz ko‘rinishidagi K. va toj tomirlarning tez hamda ortiqcha darajada torayishi bilan ifodalanadigan, stenozlashtiruvchi K. farqlanadi.

Koronarospazm — arteriya devori silliq muskullarining tonik qisqarishi natijasida yurak toj tomirlarining vaqtincha torayishi; stenokardiya huruji bilan kechadi.

Koronarotromboz — yurak toj tomirlari trombozi. Bunda toj tomirlar bo‘shlig‘ida tromb hosil bo‘ladi.

Kortizol — buyrak usti bezi po‘st qavatining glyukokortikoid gormoni (q. *Kortikosteroidlar*).

Kortizon — buyrak usti bezi po‘st qavatining glyukokortikoid gormoni — kortizoldan 11-o‘rnida bitta ketaturkum saqlashi bilan farqlanadi. Kortizol kabi oqsillardan uglevodlar hosil bo‘lishini stimullaydi. Ehtiyyot modda sifatida saqlanadigan glikogen miqdorini ko‘paytiradi, qon qandini oshiradi. K. atsetat revmatik artritni va terining allergik kasalliklarini davolashda qo‘llaniladi. Ammo bu xususiyatlari bo‘yicha sintetik mahsulotlari — prednizon va triamsinolondan keyinda turadi (q. *Kortikosteroidlar*).

Kortikosteroidlar, adrenokortikoidlar — corticosteroids, orum, n. (lot.) — buyrak usti bezining po‘st qavatida adrenokortikotrop gormon ta’siriga javoban sintez qilinadigan gormonlarning muhim bir turkumi. Bu bez 30 dan ortiq K. ishlab chiqarsa ham, ular orasida eng kuchli ta’sir ko‘rsatadiganlari quyidagilar: kortizon, kortizol, 11-degidrokortikosteron, kortikosteron va aldosteron. Bu K. bir kecha-kunduzda 15,0 mg dan 30,0 mg gacha tana suyuqliklariga ajraladi. K-yetishmasligi

Addison kasalligiga sabab bo‘ladi. K. organizmda mineral moddalar va uglevod almashinuvini boshqarib turadi. Ular ikki sinfga bo‘linadi: mineral kortikoidlar (aldosteron, dezoksikortikosteron) va glyukokortikoidlar (kortizon, gidrokortizon, kortikosteron, 11-degidrokortikosteron).

Kortikosteroma — buyrak usti bezi po‘st qavatidan rivojlanadigan gormonal-faol o‘sma; bunda juda ko‘p miqdorda glyukokortikoid gormonlar hosil bo‘ladi.

Kortikosteron — q. Kortikosteroidlar.

Kortikotropin — adrenokortikotropin, adrenokortikotrop gormon, AKTG — gipofizdan ajraladigan polipeptid gormon. K. gipofiz old bo‘lagida ishlanib chiqadigan gormonlarning eng kichigi. K. buyrak usti bezi po‘st qavatining funksiyasini va unda glyukokortikoilar sintezini stimullaydi.

Kortikotropin rilizing gormon — q. Rilizing gormonlar.

Kortikoesteroma — erkaklar buyrak usti bezi po‘st qavatidan rivojlanadigan gormonal-faol o‘sma; bunda juda ko‘p miqdorda ayollar jinsiy gormoni-estrogenlar hosil bo‘ladi.

Koferment, koenzim — tor ma’noda fermentning kimyoviy turkumlarni yoki vodorod va elementlar turkumlarini tashuvchi dissotsirylanadigan, past molekulyar og‘irlikka ega faol guruhi. Deyarli hamma K. tarkibida fosfat turkumi bo‘ladi. K. metabolik funksiyasiga qarab 3 turkumga bo‘linadi: 1) oksidlanish-qaytarilish K-lari. Ularga vodorod va elektron tashuvchi NAD, NADF, FMN, FAD, ubixinon (koenzim r), lipoat kislota, gem K. (sitoxromlar) va b. kiradi; 2) turkumlarni tashuvchi K-lar. Ular turli nukleotid, V₆ vitamin, folat kislota, biotin, tiamin, pantotenat kislota yoki ularning unumlaridan tuzilgan; 3) izomerizatsiya K. lari tarkibiga V₁₂ vitamin kiradi. K. fermentning oqsil bo‘lagi — apoferment bilan birikib, to‘la faol fermentni tashqil etadi.

Kraxmal — amyum, i, n. (lot.) — yuqori molekulyar polisaxarid, yuksak o’simliklarning asosiy ehtiyoj uglevodi. K. taxminan 80% issiq suvda shishadigan amilopektin va 20% suvda eriydigan amiloza fraksiyalaridan tuzilgan. Odam ovqatida juda muhim o‘rinni egallaydi, ovqatda uglevodlarga bo‘lgan ehtiyojning asosiy qismini qoplaydi. Don va kartoshkada ko‘p miqdorda bo‘ladi. Yod bilan tiniq ko‘k rang hosil qiladi. 1 g K. to‘la parchalanganda 4 kkal energiya beradi.

Kreatin — biokimyoviy muhim azotli birikma; aminokislotalardan hosil bo‘ladi. K. organizmda ATF ning oxirgi fosfat turkumi akseptori vazifasini bajaradi, u ATF ishtirokida *kreatinkinaza* fermenti ta’sirida fosforlanib, K. fosfat (fosfogen) hosil qiladi. K. fosfat ehtiyoj bo‘lganda ATF hosil qilib, K. ga o’tadi. 90% o‘ dan ortiq K. muskullarda bo‘ladi. Muskullar distrofiyasida u siydik bilan ajratiladi.

Kreatinemiya — odatda qonda 4 mg/100 ml gacha bo‘ladigan kreatin miqdorining biror sababga ko‘ra ortishi.

Kreatinin — *kreatin* angidrid. Kreatindan bir molekula suv ajralishidan hosil bo‘ladn. Qon va tana suyuqliklarida K. miqdori juda kam, faqat buyrak shikastlaganda uning miqdori ortadi. K. azot almashinuvining oxirgi mahsulotlaridan biri bo‘lib, siydikning doimiy tarkibiy qismlaridan hisoblanadi.

Kreatinkinaza, kreatinfosfokinaza, ADF va kreatin fosfatdan ATF hosil bo‘lishini va qaytalama reaksiyasini katalizlovchi ferment. Faqat yurakda va skelet muskullarida bo‘ladi. ATF ortiqcha miqdorda bo‘lganda K. kimyoviy energiyani kreatinfosfatning energiyaga boy fosfat bog‘ida saqlash imkoniyatini beradi. Yurak va skelet muskullari kasallanganda qonda K. miqdori ortib ketadi. Shu tufayli qonda K. bor-yo‘qligini tekshirish miokard infarktini barvaqt aniqlashda foydali sinamadir.

Kreatinuriya — siydik bilan kreatin ajralishi. Muskullardagi distrofik o‘zgarishlar, Mas.: organizmda E vitamin yetishmasligi, miasteniya, shuningdek homiladorlikda kuzatiladi.

Kretinizm — cretinismus, i, m. (lot.) — tug‘ma gipotireozning eng yuqori darjasи. Tug‘ma gipotireoz o‘z vaqtida aniqlanib, davo qilinmaganida tireoid gormonlarning uzoq muddat davomida va keskin yetishmasligi natijasida jismoniy hamda aqliy takomillanish juda orqada qoladi. K. jismoniy yetishmovchilik va og‘ir gipotireoz belgilaridan tashqari, o‘ta aqliy zaiflik bilan ifodalanadi. Endemik buqoq tarqalmagan joylarda alohida shaxslarda uchraydigan sporadik K. hamda endemik buqoq tarqalgan geografik zonalarda yashaydigan aholida uchraydigan endemik K. farq qilinadi.

Kriz — bemor ahvolining to‘satdan og‘irlashib qolishi; mavjud kasallik zaminida vujudga keladi. K. ga ruhiy keChinmalar, xafa bo‘lish, nerv sistemasining charchashi, mehnat va dam olishning noto‘g‘ri tashqil etilishi, ob-havoning o‘zgarishi, yog‘lik va sho‘r taomlarni suiiste’mol qilish, me’yordan ortiq ichish va chekish sabab bo‘ladi. Gipertonik, gipotonik va b. xil K. farqlanadi.

Krizis — crisis, is, f. (lot.) — (kasallik krizisi) — kasallikning kechishida birdan (odatda sog‘ayish tomonga) yuz beradigan o‘zgarish; Mas.: yuqumli kasallikkarda K. haroratning birdan normallashib, g‘ark-g‘ark terlash, darmonsizlanish, uyquchanlik va h. k. ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Krupoz yallig‘lanish — inflammatio cruposa (lat. inflammatio — yallig‘lanish; srour — plenka shotl.) — tabiiy bo‘shliqlaridagi to‘qimalarning chuqur bo‘lmagan nekrozi bilan kechadigan yallig‘lanishda, yengil ajraladigan pylonka yoki massa hosil qiladigan fibrinning bir turi.

Ksantin — 2,6-dioksipurin. Purin parchalanishi jarayonida hosil bo‘ladigan dastlabki mahsulot. U keyinchalik siydik kislotaga oksidланади.

Ksantinuriya — ksantinoksidaza fermentining yetishmasligi va purin almashinuvining buzilishi tufayli kelib chiqadigan irsiy kasallik; siydikda qon

(gematuriya) va belda og‘riq bo‘lishi, shuningdek qon plazmasi va siydkda ksantin miqdorining ortib ketishi bilan kechadi.

Ksantoma — teri yoki boshqa to‘qimalarda yog‘ almashinuvining buzilishida hosil bo‘ladigan patologik tuzilma (mayda toshma); tarkibida xolesterin va triglitseridlar bo‘lgan fagotsitlar to‘plamidan tashqil topadi. Kelib chiqishi, tashqi ko‘rinishi, shakllariga ko‘ra K. ning bir necha turi farq qilinadi. Aksariyat ko‘z qovoqlarida uchraydi.

Ksantomatoz — yog‘ almashinuvining buzilishi natijasida teri yoki boshqa organ va to‘qimalarda xolesterii yoki triglitserid to‘planishi bilan davom etadigan patologik holat. Odatda bunda ksantoma va ksantelazmalar hosil bo‘ladi. K. ning kelib chiqish mexanizmi va joylashishiga ko‘ra bir necha turi farq qilinadi.

Kuyish — combustio, -onis, f (lat. comburere — kuyish) — yuqori temperatura, kimyoviy moddalar, elektr toki va radioaktiv nurlar ta’sirida to‘qimalarning shikastlanishi. Shunga ko‘ra termik K., kimyoviy moddalar va nurlar ta’sirida K. farq qilinadi. Turmush va ishlab chiqarishda termik K. ko‘p uchraydi. To‘qimalarning shikastlanishiga qarab K. 4 darajaga bo‘linadi: I darajali K. da teri qizarib, bir oz shishadi, 4—5 kundan so‘ng tuzala boshlaydi. II darajali K. da qizargan teri yuzasida tiniq, sarg‘ish suyuqlik bilan to‘la pufakchalar paydo bo‘ladi, ular yorilganda terining yuza qavati ochilib, bezillab turadi. Yaraga infeksiya tushmasa, 10—15 kunda chandiqsiz tuzaladi. III darajali K. da terining hamma qavati o‘ladi (teri usti korayib qoladi). IV darajali K. da teri osti to‘qimalari (pay, muskullar va hatto suyaklar) kuyib, ko‘mirga aylanadi. O‘lik to‘qimalar bir necha xtaftadan keyin erib tushadi. K. juda sekin tuzaladi, ko‘pincha kuygan joyda chuqur chandiqlar paydo bo‘ladi.

Ko‘ksuv — q. Glaukoma.

Ko‘mik — suyaklarning ichki g‘ovak qismi; bu qism ingichka kovaklar to‘ridan iborat bo‘lib, ular bir-biri bilan chalkashib joylashadi. Hovonlar orasidagi bo‘shliqlar ilik bilan to‘lib turadi. Unda qon elementlari — eritrotsitlar, leykotsitlar va trombotsitlar hosil bo‘ladi.

Ko‘ngil aynishi — nausea, ae, f. — ko‘krak osti va halqumda og‘irlilik his yetish; ko‘pincha quşish bilan tugaydi. Ovqatdan zaharlanganda, qorin bo‘shlig‘i organlari, MNS kasalliklari, homiladorlik davrida, xoletsistit, moddalar almashinuvi buzilganda va b. hollarda kuzatiladi.

Ko‘richak — appendicitis, itidis, f. (gr.) — yo‘g‘on ichakning boshlang‘ich qismi; uzunligi o‘rtacha 6 sm, kengligi 7—8 sm. o‘ng yonbosh chuqurchasida joylashgan bo‘lib, uning yonbosh ichakka qo‘shilish joyida shilliq qavatning yarimoysimon burmalari — qopkog‘i bor. K. qiskarganda qopkoq, yopilib, yo‘g‘on ichakdagi massa ingichka ichakka qaytib chiqmaydi. K. ning pastki yuzasidan chuvalchangsimon o‘simta (*appendiks*) o‘sib chiqadi.

— L —

Labirint — labyrinthus, i, m. (rp.) — qulinqing ichki qismi. Suyak va ichki qulinqing nog‘ora pardasidan tuzilgan.

Labirintit — labyrinthitis, itidis, f. (rp.); otitis interna — labirintning yallig‘lanishi. Kasallik o‘tkir va surunkali, seroz va yiringli, nekrozli turlarga bo‘linadi; yallig‘lanish jarayo-ni cheklangan yoki tarkok bo‘lishi ham mumkin. L. da bosh aylanishi, og‘rishi, quish, eshitishning pasayishi, muvozanat buzilishi va b. kuzati-ladi.

Labirintopatiya — labyrinthopathia — ichki qulq kasalliklarini umumlashtirilgan holda ifodalovchi atama. L. da bosh aylanish, quish, eshitish va muvozanat buzilishi kabi alomatlar kuzatiladi.

Lavsha, singa, skorbut — scorbutus, i, m. — odam organizmida S vitamin (askorbat kislota) yetishmaslidan kelib chiqadigan kasallik. Bunda darmonsizlik, muskul, bo‘g‘imlarda og‘riq, milkning qonab turishi, tishlarning liqillab tushib ketishi, teri osti, muskullar orasi, bo‘g‘imlmr, ichki organlarga qon quyilishi va b. kuzatiladi. L. ning oldini olish uchun S vitaminga boy sabzavot (kashnich, karam, bolgar garimdorisi) va mevalar (limon, smorodina, malina, na’matak va h. k.) iste’mol qilish kerak.

Lazer — optik nurlanish manbai; energiyani katta zichlikda o‘tkir yo‘naltiradi. Gazli, suyuqlikli va qattiq jismli L. lar bor. L. da har xil energiyalar L. nurlanishi energiyasiga aylanadi.

Laktat-atsidoz — qonda sut kislota to‘planib qolishi bilan ifodalanadigan patologik holat.

Laktat kislota — uch uglerodli optik va faol oksikislota. O‘simliklarda, xususan urug‘da keng tarqalgan. L va D shakllari mavjud. Anaerob glikolizning oxirgi mahsuloti va glikoneogenez substrati.

Laktatdegidrogenaza, LDG — oksidoreduktaza; yaxshi o‘rganilgan izofermentlari mavjud muhim ferment. NAD va NADF ishtirotida laktat kislotani degidrirlab pirouzum kislotaga o‘tishini va teskari reaksiyalarni katalizlaydi. LDG to‘rt birlikdan tuzilgan oligomer (tetramer) oqsil. Uning a’zolarga nisbatan spetsifik ikki tipi: yurak muskul (N) va muskul (M) tiplari bor. LDG ning beshta izomer shaklida bo‘lishi ikkita subbirlikning tetramer tuzilishda hosil qilishi

mumkin bo‘lgan kombinatsiyalari: N₄, N₃M₂, N₂M₂, NM₃ va M₄ dan kelib chiqadi. Bu izomerlar kraxmaldagi gel elektroforez yo‘li bilan ajratiladi. LDG ni tekshirish miokard infarkti va gepatit diagnostikasi uchun qo‘llanadi, chunki bu kasalliklarda LDG izo akllari turli miqdorda ortib ketadi.

Laktatsiduriya — siydk bilan sut kislotasi ajralishi. Jismoniy zo‘riqqanda kuzatiladi.

Laringit — laryngitis, itidis, f. (rp.) — hiqildoqning yallig‘lanishi. O‘tkir va surunkali L. farq qilinadi. Asosan gripp va yuqori nafas yo‘lining yallig‘lanish kasalliklari, shuningdek butun organizmning sovqotishi, chekish, ichkilik ichish, qattiq baqirish, qizamiq, qizilcha, ich terlama, ko‘kyo‘tal kabi yuqumli kasalliklar va b. sabab bo‘ladi. L. da ovoz do‘rillashi, bo‘g‘ilish, tovushning pasayishi, xatto yo‘qolishi, yo‘tal, og‘riq, harorat ko‘tarilishi va b. kuzatiladi.

Laringospazm — laryngospasmus — hiqildoq muskullarining to‘satdan (ba’zi kasalliklarda vaqt-vaqt bilan huruj qilib turadigan) tortishishi natijasida tovush yo‘lining torayib qolishi, ovoz chiqarishning keskin o‘zgarishi, nafas olishning buzilishi va h. k.

Laringostenoz — laryngo stenosis, is, f. (rp.) — hiqildoqning torayishi; hikildoqning shikastlanishi yoki uni harakatlantiruvchi muskullarning falajlanishi sabab bo‘ladi.

Lat yeish — contusiones, um, f., pl. — teri yuzasining butunligiga zarar etmasdan turib, yumshoq to‘qimalarning mexanik shikastlanishi. Kishini zARB bilan urganda yoki u qattiq joyga yiqilganda lat eydi. L. e. ko‘pincha teri va teri osti yog‘ qatlami, muskullar, suyak usti pardasi, boldirning oldingi qismi, kalla suyagi gumbazida uchraydi. Shikastlangan joyda og‘riq va shish paydo bo‘lishi L. e. ning asosiy belgisidir.

Leykemoid reaksiya — qon tarkibining aynishi; bunda qondagi o‘zgarishlar xuddi leykozga o‘xshasa ham, lekin kasallik boshqacharoq kechadi.

Leykoderma, leykopatiya — teri pigmenti (melanin) ning kamayishi yohud butunlay yo‘qolishi tufayli terining ayrim joylarida oq mayda dog‘lar paydo bo‘lishi. Chin va soxta L. farq qilinadi.

Leykozlar — leucoses, um, f., pi. (rp.) — leykemiya, oq qon, qon raki — qon yaratuvchi to‘qimalarning o‘sma kasalligi; bunda ko‘mik zararlanadi va normal qon hosil bo‘lish jarayoni buziladi yoki butunlay izdan chiqadi; limfa tugunlari va taloq kattalashadi, qon tarkibi o‘zgaradi va b. kasallik alomatlari paydo bo‘ladi. L. ning o‘tkir, L. surunkali mieloleykoz, surunkali limfoleykoz va b. xillari farq qilinadi.

Leykoliz — leucolysis, is, f. (rp.); leucocytolysis, is, f. (rp.) — leykodierez, leykotsitoliz — leykotsitlarning yemirilish jarayoni.

Leykopeniya — leucopenia, ae, f. (rp.) — periferik qonda leykotsitlar miqdorining kamayishi (1 mkl da 4000 dan kam bo‘lishi); L. ning xavfsiz, radiatsion, autoimmun, taloqqa tegishli va b. hillari farq qilinadi.

Leykoplakiya — leucoplakia, ae, f. (rp.) — shilliq qavatning distrofik o‘zgarishi; har xil kattalikdagi oq dog‘ ko‘rinishida bo‘ladi; og‘iz bo‘shlig‘i, qizilo‘ngach va b. organlar shilliq pardasida uchraydi. Oddiy va so‘galsimon L. farq. qilinadi. O‘sma oldi kasalliklariga kiradi.

Leykopoez — Leucopoesis, is, f. (rp.) —leykotsitlarning ko‘mik, limfa tugunlari va taloqda hosil bo‘lish jarayoni.

Leykotoksinlar — odam va hayvonlar organizmida hosil bo‘ladigan yoki mikroorganizmlar tomonidan ishlab chiqarilib, leykotsitlarga zaharli ta’sir ko‘rsatadigan moddalar.

Leykotsitoz — Leucocytosis — periferik qonda leykotsitlar sonining (1 mkl. da 10000 dan) ortib ketishi; L. ning fiziologik, patologik, toksik, monotsitar, neytrofilli va b. xillari farq qilinadi.

Leykotsitlar — leucocyti, orum, m., pi. (rp.) — oq qon tanachalari — qonning yadroli shaklli elementlari. Yadrosining shakli har xil, shunga ko‘ra tayoqcha yadroli, segment yadroli va monotsitlarga ajratiladi. L. ko‘mik va taloqda, shuningdek limfa tugunlarida hosil bo‘ladi. Donali L. (granulotsitlar) va donasiz L. (agranulotsitlar) farq qilinadi. Qonni tekshirganda L. ning bo‘yalish xususiyatiga qarab, ularni bazofillar (asosli bo‘yoq — metilen ko‘ki bilan bo‘yaladi), eozinofillar (kislotali bo‘yoq bilan bo‘yaladi) va neytrofilarga (neytral bo‘yoqlar bilan bo‘yaladi) bo‘linadi, ularning har biri ma’lum bir funksiyani bajaradi.

Leykotsitar formula — formula leucocytaria — qondagi oq qon tanachalari (neytrofil, eozinofil, bazofil, limfotsitlar, monotsitlar) ning foizlardagi miqdori. Katta yoshli sog‘lom kishilar qonida bazofillar 0—1%, eozinofillar 0,5—5%, neytrofil o‘rtacha 70%, limfotsitlar 19—37% va monotsitlar 3—11% miqdorda bo‘ladi.

Leykotsituriya — Leucocyturia — siydik bilan leykotsitlarning normadan ortiq, ajralib chiqishi; mikroskopik ko‘rish maydonida 20 dan ko‘p leykotsitlar bo‘lishi.

Leytsin — q. Aminokislotalar.

Liazalar — enzim katalogida asosiy 4 sinfga kiradigan fermentlar. L. birikmalardan ayrim turkumlar (N_2O , NN_3 va b.) ning suv qo‘shilmasdan ajralish reaksiyalarini kataliz qiladi.

Liberinlar — Rilizing gormonlar nomiga ko‘shiladigan suffiks.

Ligazalar, sintetazalar — ATP energiyasi hisobiga o‘tadigan sintez reaksiyalarini kataliz qiluvchi fermentlar. Mas.: ular DNK va RNK fragmentlarining bir-biri bilan bog‘lanishini, polipeptid zanjirning ikki uChini bog‘lab, halqali shakl hosil qilishini ta’minlaydi.

Lizin — q. Aminokislotalar.

Lizosoma — o‘zida gidrolitik fermentlar tutuvchi hujayra sitoplazmasidagi organoid. L. da hujayra ichidagi moddalarning parchalanish jarayoni kechadi, u himoya funksiyasini bajaradi. Birlamchi va ikkilamchi L. farqlanadi. Birlamchi L. ga Golji kompleksi atrofida joylashuvchi va kislotali gidrolazalarga boy kichik vezikulalar kiradi. Ikkilamchi L. ga fagotsitoz va pinotsitoz jarayonida hujayraga tushgan moddalarning birlamchi lizosomalar bilan qo‘shilishidan hosil bo‘lgan fagolizasoma misol bo‘ladi.

Lizotsim — lysozyme, es, f. (rp.) — gidrolaza sinfiga mansub ferment, bakteriya hujayrasi devorini emiradi, natijada bakteriya erib ketadi.

Limfa — lympha, ae, f. — hujayralar orasidagi bo‘shliqlar va limfa tomirlarini to‘ldirib turuvchi, rangsiz tiniq suyuqlik. L. oqsillarning ikki baravar kamligi bilan qon plazmasidan farq qiladi. Ishqoriy reaksiyali L. da eritrotsitlar juda kam, faqat donali leykotsitlar va limfotsitlar bo‘ladi. Organizmda qon bilan to‘qimalar o‘rtasida moddalar almashinuvini ta’sirlaydi. Odamning limfa sistemasida 1—2 1 L. bo‘ladi.

Limfa sistemasi — s. lymphaticum; syn. vasa lymphacea — limfa tomirlari, limfa tugunlari va limfa to‘qimalari majmui. Bu sistema tuzilishi va vazifasiga ko‘ra vena sistemasiga yaqinroqdir. L. s. hujayra va to‘qima oralig‘idan boshlanuvchi boshi berk xaltachalardan chiqib, limfa kapillyarlari va limfa tomirlariga o‘tadi. L. s. ga limfa bezlari va limfa yo‘llari ham kiradi.

Limfa tomirlari — vasa lymphatica — limfa sistemasining suyuqlik o‘tkazuvchi yo‘llari; hujayra va to‘qimalardagi boshi berk yo‘llardan boshlanib, kapillyarlarga, keyin mayda limfa tomirchalariga, so‘ngra tomirlarga o‘tib, oxiri eng katta ko‘krak limfa yo‘lini hosil qiladi. Limfa tomirlarida oqib yurgan limfa tarkibida limfotsitlar, monotsitlar kabi qon shaklli elementlari bo‘ladi. Bular organizmdagi yot zarrachalar va mikroblarni yutib, organizmni muhofaza qilishda qatnashadi.

Limfa tugunlari — nodi lymphatici; lymphonodi, oprum, m., pl. (lot.) — limfa bezlari — limfa tomirlari yo‘lida joylashgan organlar, immun sistemaning morfologik tuzilmalari. Antitelolar va limfotsitlar ishlab chiqaradi, bakteriyalar va toksinlarni tutib qoladi va zararsizlantiradi. Shu tariqa limfaning biologik filtri hisoblanadi.

Limfagranulematoz — lymphogranulomatosis, is, f. (lot.) — limfa sistemasining o‘sma kasalligi; bunda limfa tugunlari va taloq kattalashadi, bemor isitmatalaydi, ko‘p terlaydi, terisi qichishadi, u ozib ketadi (*kaxeksiya avj oladi*).

Limfadenit — lymphadenit (lot.) — limfa tugunlarining yallig‘lanishi. Qon yoki limfa oqimi orqali limfa tugunlariga kasallik qo‘zg‘atuvchisi tushganda yoki yuqumli kasalliklar asorati sifatida ro‘y beradi. Ko‘pincha qo‘ltiq, bo‘yin,

quloq, ko'krak, chov limfa tugunlari yallig'lanadi. O'tkir, surunkali, yiringli, kataral va b. xil L. lar farq qilinadi.

Limfadenoma — lymphadenoma, atis, n.; syn. adenolymphoma, atis, n. (gr.) — limfa tugunlaridan rivojlanadigan xavfsiz o'smalarning umumiy nomi.

Limfangit — lymphangitis, lymphangitis, lymphangeitis, lymphangoitis, itidis, f, (lot.) — limfa tomirlarining yallig'lanishi; odatda limfadenit bilan birga kechadi. Yiringli, o'tkir va surunkali L. farqlanadi.

Limangioma — lymphangioma, atis, n. (gr.) — limfa tomirlaridan rivojlanadigan xavfsiz o'sma. So'galsimon, kistasimon, gipertrofik, kavernali, kapillyarli va b. xillari bor.

Limfoblast — lymphoblastus — limfotsitlarning filogenetik taraqqiyot bosqichidagi dastlabki qon hujayra; kattaligi 13—18 mkm, yadrosi dumaloq, sitoplazmasi bazofilli.

Limfoblastoz — lymphoblastosis — periferik qonda limfoblastlar bo'lishi.

Limfogranulyoma — lymphogranulomatis — limfa sistemasidagi polimorf hujayrali granulyoma; limfotsitlar, retikulyar va plazmatik hujayralar, shuningdek granulotsitlardan vujudga keladi va o'zida gigant hujayralar tutadi. Limfogranulematoz kasalligida paydo bo'ladi.

Limfogranulitlar — limfogranulematoz kasalligiga xos qichiydigan mayda toshmalar.

Limfoleykoz — lympholeukosis — limfa yaratuvchi hujayralar zamirida vujudga keladigan leykoz.

Limfoma — lymphoma — limfa to'qimalaridan rivojlanadigan o'smalarning umumiy nomi; limfosarkoma, zamburug'simon mikoz, plazmatsitoma, retikulosarkoma, turlarga ajratilmagan xavfli limfogranulematoz, eozinofil granulyoma va mastotsitomalar kiradi.

Limfopeniya — lymphopenia — periferik qonda limfotsitlar sonining kamayishi.

Limfosarkoma — yetilmagan limfa to'qimalaridan rivojlanadigan xavfli o'sma.

Limfosarkomatoz — limfa tugunlari, jigar va taloqning shikastlanishi bilan kechadigan limfosarkomaning keng tarqalgan xili.

Limfostaz — interstisial to'qimalarda limfa suyuklig'i to'planishi va oqimining butunlay to'xtashi. Bunda limfa tomirlarining kengayishi, shishishi va b. kuzatiladi.

Limfotsit — lymphocyti, orum, t., pl. (gr.) — donasiz leykotsitlarning bir turi. L. kichik (4,5—6,5 mkm), o'rta va yirik diametrli (10—18 mkm) xillarga bo'linadi. Katta yoshli kishilar qonidagi leykotsitlarning 19—37 % ini L. tashqil etadi. Ular ayrisimon bez, limfa tugunlari, taloq va ko'mikda ishlanib chiqadi va immunologik reaksiyalarda ishtirok etadi.

Limfotsitoz — lymphocytosis, is, f. (rp.) — periferik qonda limfotsit-lar miqdorining ko‘payishi. Absolyut (qonning hajm birligida limfotsitlar soni ko‘paygan), nisbiy (boshqa leykotsitlarga nisbatan limfo-sitlar soni ko‘paygan), shuningdek o‘tkir infeksion L. tafovut qilinadi.

Limfotsitopeniya — lymphocytopenia, ae, f. — qonning hajm birligida biror sababga ko‘ra limfotsitlar sonining kam bo‘lishi. Kelib chiqishi, sabablari, kechishi va h. k. xususiyatlariga ko‘ra murakkab o‘zgarishlardan biri hisoblanadi.

Linolenat kislota — uchta ko‘shbog‘ tutadigan yuqori molekulyar, to‘yinmagan yog‘ kislota. O‘simlik moyi va hayvonlar yog‘i tarkibida tabiatda keng tarkalgan (q., Vitaminlar, G‘ vitamin).

Lipemiya — lipaemia, lipidaemia, lipohaemia, lipoidaomia, ae, f. (rp.) — qondagi mavjud neytral yog‘lar, uchglitseridlar miqdorining ko‘payib ketishi. L. ning kelib chiqish sabablari va rivojlanish mexanizmlariga ko‘ra bir necha turi (Mas.: alimentar, birlamchi va ikkilamchi, fiziologik, patologik va h. k.) farq qilinadi.

Lipidemiya — lipidaemia — qonda lipidlar miqdorining normadagidan ortiq bo‘lishi.

Lipidlar — lipida, lipoida, orum, n., pl. — suvda deyarli eriymaydigan, lekin lipofil erituvchilarda yaxshi eriydigan biologik moddalarning geterogen turkumi. Ular hayvon va o‘simlik to‘qimalaridan turli organik erituvchilar: benzol, xloroform, trixloretan yordamida eritib ajratib olinadi. L. sinfiga faqat erish xususiyati bilan kimyoviy jihatdan o‘xhash bo‘lmagan bir qator birikmalar: neytral yog‘lar (triglitseridlar), mumlar, terpenlar, karotinoidlar, steroidlar va b. kiradi. Tarkibida qo‘srimcha fosfat kislota, uglevod komponentlari tutadigan murakkab L. fosfolipidlar, glikolipidlar, lipoidlar deb ham ataladi. L. organizmda energetik substrat bo‘lishidan tashqari, hujayra strukturalari, asosan, biologik membranalar tuzilishida muhim rol o‘ynaydi. L. ning ayrim sinflari organizmda moddalar almashinuvida alohida o‘rin tutadi.

Lipidoz, lipoidoz — 1) hujayra sitoplazmasida to‘planib qolishi; 2) parenximatoz organlar va aortaning aterosklerozga olib kelishi mumkin bo‘lgan yog‘li distrofiyasi.

Lipogenez — yog‘ va yog‘simon moddalar biosintezi.

Lipodistrofiya — yog‘ almashinuvining buzilishi natijasida teri osti yog‘ kletchatkasida yog‘ to‘qimasining mahalliy kamayib yoki ko‘payib ketishi.

Lipoidemiya — qonda lipoidlar miqdorining normadagiga nisbatan ortiqcha bo‘lishi.

Lipoidlar — lipoida, orum, n., pl. — yog‘snmon moddalar. Tarkibida yog‘ kislotalar, glitserin yoki boshqa organik spirt, fosfat kislota, uglevod komponentlari bo‘ladigan murakkab lipidlar. L. qatoriga fosfatidlar, serebrozidlar,

galaktozidlar va lipid xarakterli boshqa birikmalar kiradi. L. ning yana bir muhim turkumi sterollar va steridlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Lipokain — qoramollar me'da osti bezidan olinadigan preparat. Jigar kasalliklarida ishlatiladi.

Lipopolisaxaridlar — glikolipid va polisaxaridlardan tashqil topgan biopolimerlar, gram manfiy bakteriyalar tashqi membranalari sirtqi qatlaming tuzilish komponentlari. Endotoksinlar, somatik antigenlar, bakteriofagning o'ziga xos retseptorlari sifatida biologik faol modda hisoblanadi.

Lipoproteidlar — prostetik turkumi lipid bo'lgan murakkab oqsillar. L. qon plazmasida, sitoplazma, hujayra organoidlari va membranasi, tuxum sarig'ida bo'ladi. Qon plazmasi L. i lipidlar, ularda eriydigan gormonlar va vitaminlar, neytral lipidlar, fosfolipidlar, erkin va esterifitsirlangan xolesterin, erkin yog' kislotalarning qon va limfa orqali jigar va b. a'zolarga tashilishi hamda tarqalishini ta'minlaydi. Kraxmal bloklaridagi elektroforezda L. β , α va α_2 -globulin fraksiyalari bilan birga siljiydi. Lipid komponentlarining xossalariiga qarab L. ultratsentrifugalanganda suspenziyada turli tekislikda suzib yuradi. L. suzish koeffitsientiga muvofiq bir nechta fraksiyaga bo'linadi: past zichlikdagi L., yuqori zichlikdagi L. va juda yuqori zichlikdagi L. L. ga nisbatan biokimyoiy qiziqish ularning, xususan triglitserid va xolesteringa boy past zichlikdagi L. ning qondagi miqdori bilan yurak tomir kasalliklari (ateroskleroz, ayniqla yurak, qon tomirlar sklerozi) ning paydo bo'lish xavfi orasida to'g'ri mutanosiblik kuzatilishidan kelib chiqdi.

Liposarkoma — yog' to'qimasidan vujudga kelgan xavfli o'sma. Barcha yoshdag'i erkak va ayollarda, tananing turli qismida, xususan yog' to'qimasi bor joylarda, asosan oyoq va qorin sohalarida uchraydi. L. yumshoq elastik, donachasimon o'sma bo'lib, metastaz va retsidiiv berishga moyil.

Lipotrop gormon — q. Lipotropin.

Lipotropin, lipotrop gormon, adipokinetik gormon, LTG — gipofizning polipeptid gormoni; peptid gormonlarning AKTG oilasiga kiradi, lipolizni kuchaytiradi.

Lipofussin, qo'ng'ir pigment, sariq pigment, qarish pigmenti — glikolipoproteid. Organ va to'qima hujayralari sitoplazmasida mayda sariq-qo'ng'ir palaksalar ko'rinishida uchraydi. Qarish jarayonida, organizmning holdan toyishi bilan kechadigan kasalliklarda L. miqdori ortadi.

Lipoxromatoz — teri, yog' kletchatkasi va suyaklarda karotinoidlar to'planishi tufayli ular rangining sarg'ayishi (Mas.: qandli diabetda).

Lipuriya — lipuria — siydikda yog' moddalari (lipidlar) bo'lishi. Eg'lik ovqatlar ko'p eyilganda, qandli diabetda, yirik suyaklar singanda va b. hollarda kuzatiladi.

Lyuteinlovchi gormon, lyutropin — har ikkala jinsda ham jinsiy bez hujayralari rivojlanishini, jinsiy gormonlar biosintezini, ayollarda ovulyasiyani kuchaytiruvchi gipofizning gonadotrop gormoni. Kimyoviy tabiatiga ko'ra oqsil-peptid

gormonlarga kiradi; glikoproteid. L. g. yetishmaganda hayz ko‘rish buziladi, ovulyasiya bo‘lmaydi.

Lyuteotsit — tuxumdon hujayralarining umumiyligi nomi. Sariq tananing hosil bo‘lishida sariqlik pigmenti (lyutein) ni to‘playdi. Lyutein hujayralarning gipertrofiyasi va giperplaziyasi tufayli yangi hosil bo‘layotgan sariq, tananing hajmi oshib, sariq tus oladi.

Lyutropin — q. Lyuteinlovchi gormon.

— M —

Maza bilish, ta’m bilish — geusia, ae, f. (gr.) — og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavatida, shuningdek tilda joylashgan ta’m sezish retseptorlariga turli eriydigan moddalar ta’siridan vujudga keladigan sezgi. Maza sezgilarini achchiq, shirin, nordon va sho‘rni sezadigan xillarga ajratish mumkin.

Makrotrombotsit — yirik (normadan 2–3 baravar katta) trombotsitlar. Turli qon kasalliklarida uchraydi.

Makrofag — macrophagus, -i, m (gr. makros + phago — hazm qilish) — biriktiruvchi to‘qima hujayralari. Organizmdagi zararli bakteriyalar va mikroblar, turli xil yot jinslarni hamda to‘qimada hosil bo‘lgan degenerativ elementlarni tutish va hazm qilishga layoqatli hujayralar (q. *Fagotsitoz*). Shuning uchun ularni biriktiruvchi to‘qimaning «sanitarlari» deb ataladi. Siyrak biriktiruvchi to‘qimada joylashgan erkin M. va o‘troq M. farq qilinadi. O‘troq M. jigar, taloq, ko‘mik, limfa tugunlari, MNS va yo‘ldoshda uchraydi. M. ga monotsitlar, gistotsitlar va b. kiradi. Ularning hammasi odam va xayvonlarda mavjud bo‘lgan alohida himoya tizimi – mononuklear fagotsitlar tizimining ijrochi bo‘g‘imini tashqil qiladilar. M.-da odatda allaqanday maxsus hujayra organellalari bo‘lmasdan, o‘zining biologik vazifalarini ko‘pincha ummumiyligi organellar yordamida amalga oshiradilar. M. atrofdagi muhitning ko‘pgina boshqaruv signallarga sezgir bo‘lib, sitokinlar, gormonlar, neyromediator, prostaglandinlar va boshqa modulyasiyalash stimullariga javob qaytarib, endotsitoz ob’ektlarini aniqlab antigenni GBK (“MNS” – Gistomutanosiblikning bosh kompleksi) molekulalari bilan bog‘lash va antigen peptidlarni T-xelperlaraga (antigentaqdimgiluvchi hujayralarga) prezentatsiyalash uchun zarur bo‘lgan interleykin 1 va boshqa biologik faol moddalarni ishlab chiqaradi. M. termini 1883 yilda I.I.Mechnikov tomonidan kiritilgan.

Marginal — marginalis, -e, n (lat. margo — chet) — chetida joylashgan.

Mannozidoz — lizosomada α -mannozidaza yetishmasligi natijasida kelib chiqadigan, glikoproteidozlar guruhiga kiruvchi irsiy kasallik; nerv va muskul sistemalarini shikastlaydi. Nasldan-naslga autosom-retsessiv tipda o‘tadi.

Maskulinizatsiya — k, Virilizatsiya.

Maskulinizm — q. Virilizm.

Megakolon — megacolon, i, n. (rp.); — yo‘g‘on ichak yoki uning bir qismining keng bo‘lishi. Rivojlanish nuqsoni yoki turli patologik jarayonlar oqibatida yuzaga keladi.

Megaloblast — megaloblasti, m., pl (lot.) — yetilmagan yadrosi bor qizil qon hujayralari. (q. Eritrotsitlar); morfologik xususiyatlari ko‘ra embrional hujayralarga o‘xshash. Ancha yirik (15—25 mkm) bo‘lib, dumaloq yoki ovalsimon shaklga ega.

Megalotsit — megalocytus, i, m. (lot.) — pushtning rivojlanish davrida magaloblastik eritropoez jarayonida paydo bo‘ladigan birlamchi yirik eritrotsit. M. yumaloq va ovalsimon, yadrosiz, diametri 10—12 mkm, sitoplazma, oksifil, ba’zan polixromatofil bo‘ladi.

Medulloblastoma — embrional hujayralar (medulloblastlar) dan rivojlanadigan xavfli o‘sma; bosh miyada uchraydi. Asosan yosh bolalar va o‘smirlarda kuzatiladi.

Mez (o) — mes, meso, mesos (rp.) — qo‘shma so‘zlar tarkibiy qismi bo‘lib, orasida, orlig‘ida degan ma’noni ifodalaydi.

Mezaaortit — mesaortitis, mesoaortitis, itidis, f. (rp.) — aorta devori o‘rta muskul qavatining yallig‘lanishi. Aorta kengayib, anevrizmaning rivojlanishi bilan ifodalanadi. Revmatizm kasalligida uchraydigan surunkali M. hamda zahm kasalligida ro‘y beradigan M. farq qilinadi.

Melaninlar — melaninum — indol xinolarning yuqori molekulyar amorf polimerlari; teri, soch, ko‘z to‘r pardasida bo‘lib, shu to‘qimalar rangini beradigan qora pigment. M. melanosom deb ataladigan hujayralarda aminokislota — tirozindan sintezlanadi. Quyosh nuri M. sintezini kuchaytiradi. M. gavda yuzasini ortiqcha ultrabinafsha nurlar ta’siridan saqlaydi. M. sintezlanishida dioksifenilalanin (DOFA) tirozinaza fermenti ta’sirida oksidlanadi. Bu fermentning irsiy yetishmasligida M. sintez qilinmay, odamning terisi, ko‘zi va sochida pigment mutlaqo yo‘qolib, albinizm holati kelib chiqadi.

Melanoma — melanoma, atis, n.(rp.) — asosan teri, ba’zan ko‘z to‘r pardasi, miya, shilliq qavatlardagi xavfli o‘sma; qora pigmentlar — melaninlarni ishlab chiqaradigan hujayralar (odatda tug‘ma dog‘lar) dan paydo bo‘ladi. Pigmentli va pigmentsiz M. farq. qilinadi. M. lar metastaz va retsidiiv berishga moyil.

Melanotsit — melanocyte —epitelial hujayra. Epidermisning bazal qavatida joylashgan. Teri pigmenti — melaninni sintez qiladi. M. o'simtalari va hujayra tanasida ko'pgina melanin donachalari joylashadi.

Melanotsit stimullovchi gormonlar, α -MSG, β -MSG — gipofizning oraliq bo'lagida sintez qilinadigan polipeptid gormonlar. Sovuq qonli hayvonlarda α -MSG va β -MSG terida melanoforlar tomonidan melanin sintezlanishiga bevosita ta'sir etadi. M. s. g. melanoforlar yoyilishini va shu tariqa terining qorayishini ta'minlaydi. Odam qonida juda kam miqdorda M. s. g. bo'ladi.

Melatonin — melatoninum — epifiz bezida ishlab chiqariladigan biologik amin, gormon. M. yosh organizmda jinsiy bezlar funksiyasini, kattalarda gonadotropinlar ta'sirini susaytiradi. Yorug'lik M. sintezini kamaytiradi, qorong'uda uning sintezi zo'rayadi.

Membrana — membrana, ae, f. — maxsus tuzilishga ega bo'lgan biologik tuzilma. hujayralar (plazmatik M.) va hujayra ichidagi organoidlar (yadrolar, mitoxondriyalar va b.) yuzasini qoplab turadi. M. ma'lum tartibda joylashgan lipid, oqsil va suv molekulalaridan iborat. U moddalar almashinuvni (metabolizm) ni boshqaradi va hujayralarni tashqi muhitdan ajratib (chegaralab) turadi.

Menopauza — menopausa, ae, f. (rp.) —ayollarda hayz ko'rishning to'xtashi. Ko'proq 45—50 yoshlarda kuzatiladi.

Metaplastma — menopausa, ae, f. (rp.) — hujayra sitoplazmasida joylashgan moddalar (kraxmal donachalari, yog' tomchilari)ning umumiyligi nomi.

Metaplaziya — metaplasia, -ae, f (rp. meta — boshqa, almashish (joyini) + plasis — paydo bo'lgan, mahsulot + metaplasso — aylantirish) — to'qimalar bir turining o'ziga o'xshash yoki boshqa to'qimaga aylanishi; normal sharoitda boshqa to'qimaga xos bo'lgan to'qimaning yosh hujayralaridan boshqa tur to'qimaning hosil bo'lishi. Anaplastik va hosil bo'lgan to'qimaga nisbatan diferensiatsiya jarayoni oshgan yoki pasaygan prozoplastik M. farqlanadi.

Metastaz — metastasis, -is, f (rp. meta + stasis — boshqa, almashish (joyini) holati) —ikkilamchi patologik manba; kasallik qo'zg'atuvchisi (o'sma hujayralari, mikroorganizmlar)ning boshlang'ich o'choqdan organizmdagi boshqa organlarga qon yoki limfa oqimi bilan o'tishi natijasida hosil bo'ladi. Hozirgi tushuncha bo'yicha odatda «M.» so'zi xavfli o'sma hujayralari tarqalishini ifodalaydi.

Metgemoglobin — methaemoglobinum — oksidlangan gemoglobin; bunda kislород gemoglobin tarkibidagi temir bilan mustahkam birikib, o'zidagi kislородни to'qimalarga ajratib chiqara olmaydi. Kishi nitratlar, anilin bo'yoqlari bilan zaharlanganda organizmda M. hosil bo'lib, kislородга yolchimaslik holati yuzaga keladi.

Metgemoglobinemiya — methaemoglobinaemia —eritrotsitlarga yuqori faollikga ega bo'lgan oksidlantiruvchilar ta'sirida, oksigemoglobinning ikkivalentli temir

moddasi uchvalentliga o‘tishi natijasida qonda metgemoglobin miqdorining ko‘payib ketishi. Bu holatda oksigemoglobin metgemoglobinga aylanib organizmda M. rivojlanadi. Metgemoglobinda kislorod juda mustahkam boylanganligi tufayli unga xos bo‘lgan gazlar almashinuvida qatnasholmaydi. Metgemoglobin bertolet tuzi, nitrobenzol, nitratlar, nitritlar, pirogalol, sulfanilamidlar, mlish’yak tuzlari va boshq. zaharlanganda hosil bo‘ladi. Bu molddalarning organizmga asosiy kirish yo‘li – o‘pkalar va teri. Agar metgemoglobin miqdori juda oshib ketsa, bu keskin sianoz, xushdan ketish va komatoz holatga tushishi bilan davom etadigan og‘ir holatga tushishi mumkin.

Metgemoglobinuriya — methaemoglobinuria — toksik moddalar (bertolet tuzi, xloring nordon tuzlari, nitrobenzol, nitratlar, nitritlar, nitrobenzol, anilin va b.) bilan zaharlanish oqibatida gemoliz natijasida kuzatiladigan metgemoglobiemiya holatida siydikda metgemoglobin bo‘lishi. M. Siydik rangi qonga o‘xhash qizil rangda bo‘lib, oqsil, qon pigmenti, metgemoglobin va gematinlar uchraydi. Shu bilan bir qatorda qonda bog‘langan (bilvosita) bilirubin miqdori oshganligida sariqlik rivojlanadi va siydikda urobilin va urobilinogen miqdori oshadi.

Meteorizm — meteorismus, -i, m (rp.) meteorismus — qo‘tarilish, shishish, qappayish) gazlar to‘planishi natijasida oshqozon yoki ichaklarning shishishi, ich dam bo‘lishi — ichakda ko‘p yel to‘planishi natijasida qorinning taranglashishi. Gaz hosil qiladigan ovqat mahsulotlari (qora non, dukkanlilar, sabzavotlar), pivo va b. ni ko‘p iste’mol qilish natijasida hosil bo‘ladigan alimentar M.; ichak harakat faoliyatining buzilishi bilan bog‘liq bo‘lgan dinamik M.; ichak o‘tkazuvchanligining buzilishi tufayli yuzaga keladigan mexanik M.; isteriyada kuzatiladigan psixogen M. va b. farq qilinadi.

Metionin — q. Aminokislotalar.

Me’dal axiliyasi — patologik holat. Bunda me’dada erkin xlorid kislota va fermentlar ishlab chiqarilmaydi. M. a. me’dal o’smasida va me’dal shilliq pardasining yallig‘lanishida kuzatiladi.

Me’dal osti bezi — murakkab tuzilgan, ko‘p katakli eng yirik bez; me’daning orqasida ko‘ndalang joylashgan. M. o. b. chiqaradigan mahsuloti jihatidan aralash bezlarga kiradi. Chunonchi, uning shirasi shira yo‘li orqali o‘n ikki barmoq ichakka quyiladi va oqsil, yog‘ hamda uglevodlarni parchalab, ichakka so‘rilishida qatnashadi. Bezning ichki sekretsiya gormoni — insulin va glyukagon esa maxsus hujayralarda ajralib, qonga shimaladi.

Metrit — metritis, -tidis, f (rp. metra — matka + itis - yallig‘lanish) — bachadon yallig‘lanishi. M. lar etiologiyasi, turi va yallig‘lanish turiga qarab bo‘linadilar. Endometrit (shilliq qavatining yallig‘lanishi), miometrit (mushak qavatining yallig‘lanishi), perimetrit (seroz qavatining yallig‘lanishi), parametrit (bachadon

paylarining yallig‘lanishi). M. lar naslsizlikning asosiy sabablaridan biri hisoblanadilar.

Metrorragiya — metrorrhagia, -ae, f (rp. metra + rhagos — yirtilgan) — bachadondan qon ketish holati.

Mehnat qobiliyati odamning mehnat bilan shug‘ullanishiga imkon beradigan jismoniy va ma’naviy imkoniyatlari (uning sog‘lig‘iga bog‘liq holda) majmui.

Mehnatga qobiliyatsizliq — kasallik, baxtsiz hodisa yoki b. sabablarga ko‘ra ish qobiliyatini vaqtincha yoki doimiy yo‘qotish. Davlat ijtimoiy sug‘urta qonunchiligiga muvofiq shifokor (shifokorlar komissiyasi) tomonidan belgilanadi. Darajasiga ko‘ra to‘liq yoki qisman, mehnat qobiliyatining tiklanishiga ko‘ra vaqtincha yoki doimiy, mehnat xiliga ko‘ra umumiy yoki kasbga aloqador M. q. bo‘ladi.

Migratsiya — migratio, onis, f. (lat. migrare — kezib chiqish, ko‘chish, adashib yurmoq) 1) hayvonlarning yashash joyida sharoitning o‘zgarishi sababli yoki rivojlanish sikli bilan bog‘liq ravishda bir muhitdan boshqa muhitga ko‘chishi; 2) organizmnning o‘z taraqqiyot bosqichida migratsiyalanishi (ontogenetik M.); 3) hujayra elementlarining to‘qimalarda harakatlanishi yoki yot moddalarning qon yoki limfada harakatlanishi, shuningdek patologik jarayonning bir joydan ikkinchi joyga siljishi (mas. Metastaz).

Migren, — migraine (frans.); syn. hemicrania, ae, f. gemikraniya — kallaning yarmida paydo bo‘ladigan og‘riq huruji. Kasallik ba’zan oilaviy tus oladi. Unga serotonin va prostoglandin moddalari almashinuvining buzilishi sabab bo‘ladi. huruj boshlanishida boshning tashqi qismidagi qon tomirlari keskin torayib, bosh miya qon tomirlari esa kengayishi natijasida bosh qattiq og‘riydi. Bemorning ko‘z oldi qorong‘ulashadi, ko‘ngli aynib, og‘riq kuchayganda qayt qiladi. Ba’zan ko‘z xiralashib, quloq shang‘illab, oyoq-qo‘l uvishib, jonsizlanib, bosh aylanishi mumkin.

Mielotsit — myelocytus, i, m. (rp.) — ko‘mikdagi yosh donachali leykotsit. Dumaloq, yirik xromatinli, turli shakldagi yadroga ega. Donachalarning tuzilishi, ishqoriy hamda kislotali bo‘yoqlar bilan bo‘yalish xususiyatlariga qarab neytrofil, bazofil va eozinofil M. larga bo‘linadi.

Mikroglossiya — rivojlanish nuqsoni; tilning tug‘ma kichik bo‘lishi.

Mikroinsult — miyaning kichik o‘choqli infarkti yoki qon quyilishi sababli bo‘ladigan insult; unchalik og‘ir bo‘lmanan nevrologik simptomatika ko‘rinishida namoyon bo‘lib, bir kundan ortiqroq davom etadi.

Mikrotsefaliya — rivojlanish nuqsoni; bosh miya va kalla suyagining odatdagidan kichik bo‘lishi.

Mikrotsit — microcytos — diametri 7 mkm dan kichik bo‘lgan eritrotsit; anemiya kasalligida qon tarkibida uchraydi.

Mikrotsitemiya — microcythaemia, ae, f. (rp.) — qonda mayda qon tanachalari bo‘lishi.

Miksedema — gipotireozning eng yuqori darajasida namoyon bo‘ladigan turi. Teri osti kletchatkasining shishishi, unga va tana bo‘shliqlariga tarkibida mutsinga o‘xhash moddalar bo‘lgan shilliqsimon suyuqlik yig‘ilishi bilan ifodalanadi.

Mineral kortikoidlar — q., Kortikosteroidlar.

Miogen leykotsitoz — jismoniy ish yoki shiddatli sport mashqlarini bajarganda qondagi leykotsitlar sonining vaqtincha ko‘payib ketishi. M. l. ning (bajarilgan ishning xarakteri va og‘ir-yengilligiga qarab) uch fazasi mavjud.

Mioglobin — skelet muskullarining bir zanjirli gemproteidi. Oqsilli qism — globin va oqsilsiz guruh — gemdan tashqil topgan. Kislorodni saqlash va uzatish vazifasini bajaradi.

Mioglobinuriya — siydkda *mioglobin* bo‘lishi; bunda siydik qizil-qo‘ng‘ir tusga kiradi. Muskul oqsillarining noto‘g‘ri parchalanishi oqibatida ro‘y beradi.

Miozin — myoglobinum, i, n.; myohaemoglobinum, i, n. — muskul qisqarishida qatnashadigan tolalar (miofibrillar) tarkibiga kiradigan, globulin tipidagi oqsil. Muskul qisqarish oqsillarining $\frac{2}{3}$ qismini tashqil etadi.

Miozit — myositis, -tidis, f (rp. mys, myos + -itis) — muskullarning yallig‘lanishi; bunda muskullar sanchib og‘riydi, ba’zan zararlangan muskullar atrofiyalanadi.

Miokard — myocard — yurakning o‘rta muskul qavati; maxsus ko‘ndalangtarg‘il muskul tolalaridan tuzilgan; yurak devorining asosiy qismi. Organizmning butun hayoti davomida o‘z-o‘zidan bir maromda qisqarib-bo‘shashib turadi.

Miokardioskleroz — myocardiosclerosis, -is, f (rp. mys + kardia + sclerosis — qotib qolish) — koronar qon tomirlarning orasida yetuk biriktiruvchi to‘qima rivojlanib chandiq to‘qimasiga aylanishi natijasida miokard zichligining oshishi.

Miokardiofibroz — myocardiofibrosis, -is, f (rp. mys + kardia + fibra — tola) — mushaklarorasidagi biriktiruvchi (fibroz) to‘qimaning o‘sib ketishi natijasida miokard zichligining oshishi.

Miokardit — myocarditis, -tidis, f (rp. mys + kardia + -itis) — yurak muskullari (miokard) ning yallig‘lanishi. Tabiatli jihatidan o‘tkir yoki surunkali, yuqumli-allergik (Mas.: revmatizmda, skarlatinada) bo‘ladi. M. da yurak muskullarining tuzilishi o‘zgaradi. Kasallik og‘ir kechganda muskul tolalari yemirilib, ular o‘rni chandiqlanadi. M. da muskul tolalarining o‘zi (parenximatoz M.), ba’zan biriktiruvchi to‘qimalar (interstitcial M.) yallig‘lanishi mumkin. M. da nafas qisadi, yurak urishi tezlashadi, yurakda og‘riq, aritmiya paydo bo‘ladi. Revmatizm oqibatida kelib chiqqan M. (revmokardit) ko‘pincha bolalarda uchrab, odatda endokardit bilan birga o‘tadi.

Miokardoz — myocardosis, -is, f (rp. mys + kardia + -osis) — yurak oziqlanishining buzilishi natijasida hosil bo‘ladigan miokardiodistrofiya. Kasallikning kelib chiqishi yallig‘lanishga bog‘liq emas.

Mumifikatsiya — mumincatio, -onis, f (arab. mumifa — mumiya + lat. Facio — qilaman) — o‘lgan to‘qimalarning qurib ketishi va qorayishi bilan quruq gangrena, Homila M. — bachadonda o‘lib qolib kyetgan homilaning mumiyaga aylanishi. (q.) Gangrena.

Mutilyasiya — mutilacio, -onis, f (lat. mutilo — kesaman, kaltalashtiraman) — tananing o‘lgan tashqi qismlarining (teri qismlari, qulq suprasi, dum va b.) o‘z-o‘zidan ajralib tushib ketishi.

Mioqard infarkti — (infarctus, us, m. + myocard) — yurak-tomir kasalligi; koronar qon aylanishining buzilishi (ateroskleroz, tromboz, spazm) natijasida yurak muskulida hosil bo‘ladi. M. i. ning rivojlanishiga gipertoniya kasalligi, qandli diabet, semirib ketish, kashandalik, kam harakat qilish, ruhiy keChinmalar sabab bo‘ladi. M. i. tahminan yarmi stenokardiya zaminida ro‘y beradi. Asosiy belgilari: ko‘krak qafasining markazi yoki chap yarmi kuyib-achishib, qisib og‘riydi, havo yetishmaydi, qonda va elektrokardiogrammada o‘zgarishlar ro‘y beradi.

Miokardiodistrofiya, miokard distrofiyasi — myocardiostrophyia, ae, f. (rp.) — yurak muskuli (miokard) ning yallig‘lanmasdan, balki moddalar almashinuvining buzilishi (biokimyoviy o‘zgarishlar) tufayli zararlanishi. M. yurak yetishmovchiliga olib keladi.

Mioma— (myo+oma) muskul to‘qimasidan rivojlanadigan xavfsiz o‘sma; tarkibida muskul elementlari bor, turli a’zolar (ko‘proq bachadon, teri va me’da-ichak yo‘llari)da uchraydi.

Miopatiya — (myo+pathia) – muskullar irsiy kasalliklarining umumiy nomi. Dastavval muskullarda distrofik o‘zgarishlar kuzatiladi, muskul tolalarining qisqarish xususiyati buziladi, muskullar kuchsizlanib kichrayadi. Natijada bemor zo‘rg‘a harakat qiladi, bora-bora tura olmay qoladi.

Miotoniya — (myo+tonia) – muskullarning oilaviy irsiy kasalligi. Kasallikda muskullarda moddalar almashinuvida kalsiy-troponin-aktomiozin-larning o‘zaro bog‘lanish jarayoni o‘zgaradi. Muskullarning tarang holatdan bo‘shashgan holatga o‘tish xususiyati buziladi. Taranglashgan muskul juda sekin bo‘shashadi. Mas.: musht qilinganda uni yozish, ushlagan buyumni qo‘yib yuborish qiyin bo‘ladi. Kasallik o‘smirlik davridan namoyon bo‘la boshlaydi.

Mioendokardit — myoendocarditis, itidis, f. (rp.) — yurak endokardi (ichki qavat) bilan miokardi (muskul qavat) ning bir vaqtda yallig‘lanishi. Ko‘pincha

revmatizm oqibatida, shuningdek *difteriya*, *angina*, *sepsis*, *skarlatina* va b. kasalliklar tufayli yuzaga keladi.

Mioepitelioma — epiteliy shilliq qavatining muskul tolalaridan rivojlanadigan xavfsiz o'sma.

Modifikatsiya — tashqi muhit omillari ta'sirida organizm belgilari (fenotipi) ning noirsiy o'zgarishi. M. organizmlarning ontogenezi davomida atrof muhit o'zgarishlariga moslashish imkonini beradi.

Mononuklear — donachasiz bir yadroli qon hujayralari; limfold xossasiga ega dumaloq yoki oval shakldagi hujayralar.

Mononukleoz, Filatov kasalligi — o'tkir yuqumli kasallik; isitma, angina paydo bo'lishi, limfa tugunlarining kattalashuvi, qon tarkibining o'zgarishi va h. k. bilan ifodalanadi.

Mononukleotidlar — azot asosi, uglevod va fosfat kislotadan iborat birikma. Nuklein kislotalarning struktura elementlari. Erkin holda kofermentlar hosil qiladi.

Monosomiya — diploid organizmning xromosomalar to'plamida gomologik xromosomalardan birining bo'lmasligi; aneuploidiya ko'rinishlaridan biri, Mas.: Shereshevskiy — Terner kasalligida jinsiy xromosomalardan biri bo'lmaydi (44 autosoma va X0).

Monotsit — donachasiz bir yadroli oq qon tanachalari. Katta hajmli (12—20 mkm), sitoplazmasi ishqoriy bo'yoqlar bilan bo'yaluvchi, yadrosi ko'pchilik hollarda loviyasimon yoki taqasimon shaklga ega bo'lgan hujayra. Periferik qonda fagotsitlik vazifasini bajaradi (yallig'lanish reaksiyalarida qondan to'qimalarga o'tib, *makrofaglar* funksiyasini o'taydi).

Monotsitoz — periferik qonda monotsitlarnig ko'payishi; ko'pgina yuqumli kasallikkarda kuzatiladi.

Monotsitopeniya — periferik qonda monotsitlar sonining kamayishi.

Moyak, urug'don — didymis, i, rn. (rp.); orchis, is, f. (rp.); testis, is, m.; testiculus, i, m. — erkak jinsiy bezi. Bir juft bo'lib, yorg'ok ichida joylashgan. Jinsiy hujayra — spermatozoid va erkaklar jinsiy gormoni ishlab chiqaradi.

Moyak istisqosi, gidrotsele — moyak pardalari orasida suyuklik yig'ilishi. M. i. tug'ma bo'lishi yoki turli yallig'lanish kasalliklarida, shuningdek moyakka shikast yetganida vujudga kelishi mumkin. Yorg'ok kattalashib og'riydi, yurish qiyinlashadi. O'tkir va surunkali turi farq qilinadi. O'z vaqtida oldi olinmasa, bepushtlikka olib keladi.

Mutagenez — mutagenesis, is, f — fizik yoki kimyoviy mutagenlar ta'sirida organizmda irsiy o'zgarishlar — mutatsiyalarning vujudga kelish jarayoni. M. asosida irsiy informatsiyani saqlovchi va naslga o'tkazuvchi nuklein kislotalari molekulalarining o'zgarishi yotadi.

Mutagenlar — mutagenes — tirik organizmga ta'sir qilib irsiy o'zgarishlar — mutatsiyalar hosil qiluvchi fizik va kimyoviy omillar. Fizik M. ga ionlashtiruvchi (gamma, rentgen nurlari, proton va neytronlar) hamda ultrabinafsha nurlar, shuningdek yuqori va past temperatura, kimyoviy M. ga turli kimyoviy birikmalar, ba'zi biopolimerlar (organizmga yot bo'lgan DNK va RNK), alkaloidlar kiradi. Biologik ob'ektlar (viruslar, sodda hayvonlar va gjijalar) ham odamda mutatsiya hosil qilishi mumkin. M. mutatsiyalar tezligini 100, hatto undan ham ko'p marta kuchaytirishi (supermutagenlar), xavfli o'sma keltirib chiqarishi (kantserogenlar), mayib-majruhlikka sabab bo'lishi (teratogen) mumkin.

Mutantlar — dastlabki (yovvoyi) tipidan birorta irsiy belgisi bilan farq qiladigan organizmlar. O'z-o'zidan (spontan) yoki mutagenlar ta'sirida yuzaga keladi. Ko'pgina M. yovvoyi formalariga (dastlabki organizmlarga) qaraganda sust, ba'zan dastlabki shakllariga qaraganda ustun bo'ladi, bundan hayvonlarning yangi zotlarini, o'simliklarning yangi navlarini, mikrorganizmlarning yangi shtammlarini yaratishda foydalilanildi.

Mutatsiya — mutatio, onis, f. — organizm irsiy xususiyatlarining tabiiy holda vujudga keladigan yoki sun'iy yo'l bilan hosil qilinadigan o'zgarishlari; organizmning genetik materiali — xromosomalar va genlarda qayta tuzilish va buzilish natijasida sodir bo'ladi. M. jonli tabiatdagi irsiy o'zgaruvchanlik asosidir. Genomli, xromosomali va genli (yoki nuqtali) M. farq qilinadi.

— N —

Nazla — effusio, -onis, f (lat. effusus — izliyanie, istechenie) — seroz bo'shliqda suyuqlining (ekssudat yoki transsudning) to'planishi skoplenie jidkosti v seroznoy polosti.

Najas — facces, iumf., pl.; syn. excrements, orum, n., pl; — defikatsiyada yo'g'on ichakdan chiqadigan massa. Hazm bo'lmay qolgan ovqat moddalari ingichka ichakdan yo'g'on ichakka o'tib, mikroorganizmlar ishtirokida bijg'iydi va qisman hazm bo'ladi. Qolgan qismi yo'g'on ichak bezlari ishlab chiqargan shilliq, ta'sirida hazm bo'lмаган ovqat qoldiqlariga yopishib zinchashadi va N. ga aylanadi.

Natriyurez — siydk bilan natriy ionlarining ortiqcha ajralishi.

Nafas — pneumatic — murakkab uzlusiz biologik jarayon; tirik organizmning tashqi muhitdan kislorod qabul qilib, karbonat angidrid ajratib chiqarishi. Odam va umurtqali hayvonlarda N. quyidagi bosqichlardan: 1) tashqi nafas; 2) gazlarning

qon bilan tashilishi; 3) qon va to‘qimalar o‘rtasidagi gaz almashinuvi; 4) organik moddalarning hujayralarda oksidlanishi (ichki yoki to‘qima nafasi) dan iborat.

Nafas yetishmovchiligi — insufficien tia res pirate ria seu pneumatic — qonning normal gaz tarkibi ta’minlanmasligi yoki u tashqi nafas kompensator mexanizmlarining zo‘rayishi hisobigagina amalga oshishi oqibatida yuzaga keladigan organizmning patologik holati. N. e. ning kelib chiqish sabablari, mexanizmlari va h. k. ga ko‘ra bir necha xili (Mas.: bronx-o‘pka, diffuz, hujayra, markaziy N. e. va b.) farq qilinadi.

Nafas sistemasi — sistema pneumatic — organizm bilan tashqi muhit o‘rtasida gaz almashinuvi jarayonida xizmat qiladigan organlar sistemasi. N. s. havo o‘tkazuvchi yo‘llar (burun bo‘shtlig‘i, halqum, hiqildoq, kekirdak va bronxlar) va nafas qismi (o‘pka va undagi alveolalar) dan iborat. O‘pka nafasi atrof muhit bilan o‘pka orasida havo almashinuvini va alveolalar havosi bilan qon o‘rtasida gazlar almashinuvini amalga oshirib, nafas olish va nafas chiqarishdan iborat.

Nafas qisishi — dyspnoe, es, f.; dyspnoea, ae, f. (rp.) — hansirash — havo yetishmaslik hissi; nafas chastotasi, maromi va chuqurligining buzilishi bilan kechadi. Fiziologik (Mas.: zo‘r berib jismoniy harakat qilganda, yuqoriga ko‘tarilganda) yoki patologik (yurak, o‘pka kasalliklari, anemiya, gemoglobinopatiya va b. da) bo‘lishi mumkin.

Nevr..., Nevri..., Nevro... — neur, neuri, neuro (rp.) — qo‘shma suz bo‘lagi; nerv sistemasiga tegishli degan ma’noni anglatadi.

Nevralgiya — neuralgia — nerv tolalari bo‘ylab tarqaladigan intensiv og‘riq. Uch shoxli nerv, bo‘yin-yelka nervi chigali, kuymich nervi, ensa nervi N. si ko‘proq uchraydi. Gripp, revmatizm, brutsellyoz, tonsillit kabi kasalliklar sabab bo‘ladi.

Nevrasteniya — neurasthenia — asab ojizligi, asab toliqishi — nevroz turi; bunda bemor salbiy ta’sirotlarga oson beriluvchan, jahldor, tez charchaydigan va «madori quriydigan» bo‘lib qoladi; yotganida tez uxbab qolib, salgina shovqinga uyg‘onib ketadi, bot-bot boshi og‘rib turadi. Ba’zi kishilarda oliy nerv faoliyatiga ta’sir qiluvchi omillar kuchli bo‘lishi tufayli aqliy charchash (darmonsizlik nevrozi) kuzatiladi. Ayrim kishilar esa birdan xafa bo‘lib, qattiq hayajonlanadi (reakтив nevrasteniya). N. ga bulardan tashqari, tez-tez asabga tegadigan va darmonni quritadigan vaziyatlar, qattiq charchash, kechasi kam uqlash va b. sabab bo‘ladi.

Nevrit — neuritis, -tidis, f (gr. neuron — nerv+-itis) (lot.) — nerv tuguni, ildizi va undan tarqalgan nerv tolasining o‘tkir yallig‘lanishi yoki boshqa sabablarga ko‘ra (zaxarlanish, jarohat) yallig‘lanishsimon o‘zgarishlar ro‘y berishi. Difteriya, terlama, gripp kabi kasalliklar, shikastlanish, zaharlanish, shamollash oqibatida kelib chiqadi. Nerv idora qilayotgan muskullarda falajlik, terida sezuvchanlikning pasayishi, pay reflekslarining susayishi, muskullarning bir oz ozishi kabi o‘zgarishlar kuzatiladi (yana q. *Mononevrit*).

Nevroblastoma — neuroblastoma, atis, (rp.) — nevroblastlardan iborat yetilmagan o'sma; yosh bolalarda ko'p, kattalarda kam uchraydi.

Nevrozlar — neuroses, ium, f., pi. (rp.) — uzoq davom yetgan ruhiy iztiroblar natijasida nerv sistemasi faoliyatining buzilishidan kelib chiqadigan asabiy-ruhiy kasalliklar. N. ancha keng tarqalgan kasallik bo'lib, asosan nerv sistemasi tug'ma yoki hayotda orttirilgan zaif kishilarda kuzatiladi. Ichki a'zolarning surunkali kasalliklari, ba'zi infeksiyalar va zaharlanishlar (xususan, tamaki va spirtli ichimlikdan zaharlanish), bosh miyaning jarohatlanishi, ichki sekretsiya bezlari faoliyatining buzilishi va b. N. ni avj oldiruvchi sabablardir. N. ning nevrasteniya, isteriya va psixasteniya turi farq qilinadi.

Neytropeniya — periferik qonda neytrofillar miqdorining kamayishi, ko'pgina kasalliklarning asosiy belgisi.

Neytrophil — neutrophili, orum, m., pl. — leykotsitlarning bir turi. N. mayda yot zarrachalar, jumladan bakteriyalarni yutib, hazm qilish (fagotsitoz), o'lik to'qimalarni eritish xususiyatiga ega.

Neytrophilyoz — neutrophilia, neutrocytophilia, ae, f. — neytrophil leykotsitoz; qon tarkibida neytrofillar sonining ortib ketishi.

Nekrobioz — necrobiosis, -is, f (rp. nekros — halok (nobud) bo'lmoq, o'lib qolmoq, + bios — hayot) — hujayra sitoplazmasida ro'y beradigan chuqur distrofik o'zgarish; katabolik reaksiyaning anabolik reaksiyadan ustun turishi bilan ifodalanadi. N. da to'qimalar hayot faoliyati izdan chiqib, bu jarayon ularning nobud bo'lishi (nekroz)ga olib keladi.

Nekrogormon — (nekros+hormona, orum, n., pl.) — hujayralar yemirilishida hosil bo'ladigan moddalar; to'qimalar hujayralarining ko'payish va tiklanish jarayonini faollashtiradi.

Nekroz — necrosis, -is, f (rp. nekros + -osis) — yirik organizmdagi hujayra, to'qima, organ va organlar sistemasining mahalliy o'lishi, ular hayot faoliyatining butunlay to'xtab qolishi. Lat yeyish, kuyish, sovuq olishi, kislota yoki ishqorlar, nur energiyasi, patogen mikroblar va b. ta'siri N. ga sabab bo'ladi.

Nekronefroz — nekros+nephrosis, -is, f (rp. nephros + -osis) — buyrak kasalligi; buyrak qon tomirlarida tromboz hosil bo'lib chirishi (nekroz), shuningdek buyrak koptokchalarida chirishga xos o'zgarishlar paydo bo'lishi va buyraklar orasidagi to'qimalarning shishib, yallig'lanishi bilan kechadi. Buyrakda qon aylanishi buzilganda, zaharlanganda kuzatiladi.

Nerv tolalari — neurofibrae, arum f. (gr.) — nerv hujayralarining o'siqchalari; neyrofibrillardan tuzilgan o'q tsilindr dan iborat. N. t. MNSdan organ va to'qimalarga hamda ulardan markazga impuls o'tkazib beradi.

Nevrit — neuritis, -tidis, f (gr. neuron — nerv + -itis) — nervning yalig'lanishi.

Nefrit — nephritis, -tidis, f (rp. nephros + -itis) — buyrakning yallig‘lanish kasalligi; bunda asosan buyrak koptokchalar zararlanadi. O‘tkir va surunkali N. farq qilinadi. o‘tkir N. anginadan so‘ng, saramas va yana bir qancha sabablar, shuningdek streptokokklar ko‘zg‘atadigan yuqori nafas yo‘llari kasalliklaridan keyin vujudga keladi. Organizm sezuvchanligining oshishi (sensibilizatsiya), allergik holat, o‘pka yallig‘lanishi, turli yuqumli kasalliklar, organizmnинг o‘ta sovqotishi va h. k. omillar ham N. ga sabab bo‘ladi. N. da badanga shish keladi, qon bosimi ko‘tariladi, siylik kamayadi, unda oqsil va qon tanachalari paydo bo‘ladi. Surunkali N. vaqtı-vaqtı bilan zo‘rayib, bunda o‘tkir N. ning hamma belgilari kuzatilsa ham, u qadar ro‘y-rost namoyon bo‘lmaydi.

Nefroz — nephrosis, -is, f (rp. nephros + -osis) (lot.) — buyrak qil naychalari epiteliysining degenerativ o‘zgarishi va chirishi bilan o‘tadigan buyrak kasalligi; kelib chiqish sabablari xilma-xil. N. da asosan badanga shish keladi.

Nefrozonefrit — nephrosonephritis — buyrak koptokchalarini va qil naychalarining bir vaqtida yallig‘laanishi. N. da badanga shish keladi, proteinuriya kuzatiladi, qonda oqsil kamayib, yog‘ moddalari ko‘payadi.

Nefroskleroz — nephrosclerosis, -is, f (rp. nephros + sclerosis) — biriktiruvchi to‘qima o‘sib ketishi tufayli buyraklar to‘qimasining zichlashib bujmayib qolishi (burushib qolishi).

Nefrokalsinoz — nephrocalcinosis — buyrakning distrofik yallig‘lanishi; bunda buyrak to‘qimalarida erimaydigan kalsiy tuzlari yig‘ilib, nefroskleroz va buyrak yetishmovchiligining rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Organizmda D vitamin miqdori oshib kyetganda, fosfor-kalsiy almashinuvi va ishqor-kislota muvozanati buzilganda kuzatiladi. N. da buyrakda tosh paydo bo‘ladi yoki suyakda Ca^{2+} kamayishidan uning qattiqligi o‘zgarib, har tomonga qiyshayadi.

Nefrolitiaz — nephrolithiasis, is, f. (rp.) — q. *Buyrak tosh kasalligi*.

Nefron — nefron (lot.) — buyrak qil naychalari. Buyrak koptokchalaridagi Shumlanskiy — Bauman pardasi bo‘shlig‘idan qil naychaning yuqori (proksimal) qismi boshlanib, Genli halqasiga o‘tadi. So‘ngra burama qilnaychalar ko‘rinishida davom etib, yig‘uvchi naychalarga qo‘shiladi. N. lar birlamchi siylik tarkibidan suvning qonga qayta so‘rilishini ta’minlaydi: oqsil, suv-tuz, ishqoriy-kislotali muhitni idora qiladi. Ikkala buyrakda taxminan 4 mln. N. bor.

Nefropatiya — nephropathia, ae, f. (gr.) — buyrak funksiyasining susayishi bilan kechadigan kasalliklarning umumiyy nomi. Tug‘ma va orttirilgan xillari farq qilinadi. Kollagen N. (amiloidoz va b.), moddalar almashinuvi N. si (metabolistik), tug‘ma genetik N., to‘sqli N., zaharlanishdan bo‘lgan N. va b. bor; o‘z vaqtida oldi olinmasa, surunkali buyrak yetishmovchiliga olib keladi.

Nefroskleroz — nephrosclerosis, is, f. (rp.); — buyrak to‘qimasini biriktiruvchi to‘qima koplab ketishi va uning‘ qattiqlashib, bujmayib qolishi. Asosan 114

yallig‘lanish jarayonlaridan keyin rivojlanadi. N. da buyrak yetishmovchiligi vujudga kelib, uning funksiyasi buziladi. O‘tkir, surunkali va revmatik N. farq qilinadi.

Nefrotik sindrom — syndromum nephroticum — buyrakning anchagina proteinuriyaga (siydik bilan sutkada 5 g dan ko‘proq oqsil yo‘qolishi), oqsil-yog‘ almashinuvining buzilishi va shish paydo bo‘lishiga olib keladigan shikastlanishi guruhining ifodasi.

Nefrotsirroz — nephrocirrhosis, is, f. (rp.) — biriktiruvchi to‘qima o‘sib, buyrakni butunlay qoplab olishi; bunda nefronlar nobud bo‘lib, buyrak o‘z funksiyasini bajara olmay qoladi. Surunkali pielonefrit, sil, ishemik infarkt va b. sabab bo‘ladi.

Nikturiya — nycturia, nocturia, ae, f. (rp.) — kunduziga nisbatan kechasi ko‘p siyish; ko‘proq yurak yetishmovchiligidagi, ruhiy zo‘riqish va b. hollarda kuzatiladi.

Nimfomaniya — ayollarda jinsiy maylning kuchayishi, duch kelgan kishi bilan jinsiy aloqa qilishga intilish kasalligi.

Nistagm — nystagmus, i, p., seu nystahis, is, f. (rp.) — ko‘z tashqi muskullarining tinmay beixtiyor bir xilda qisqarishi natijasida ko‘z soqqasining doim harakat qilib turishi. Bu jarayon yuqoridan pastga, pastdan yuqoriga yoki bir aylanish tarzida ro‘y beradi. Tug‘ma bo‘ladi yoki MNS, kasb kasalliklari (konchilarda) sabab bo‘lishi mumkin.

Nozologiya — nosologia, -ae, f (rp. nosos — kasallik + logos — ta’limot) — kasallik va uning tasnifi haqidagi fan. Kasalliklar diagnozi, patogenezi to‘g‘risidagi ta’limotni, kasalliklarni davolash va oldini olish masalalarini o‘rganadi. Aniq bir kasallik (Mas.: zotiljam, sil va b.) ni tavsiflash N. ning asosiy vazifasidir.

Normergiya — normerergia, ae, f. (gr.) — organizmning reaktivlik holati; bunda organizm unga ta’sir yetgan omillarning tabiatи, xarakteri, kuchi va h. k. xususiyatlariga mos holda javob beradi.

Normovolemiya — organizmda qon hajmining normal bo‘lishi.

Normotsit — normocytus (lot.) — yetuk eritrotsit; chetlari tekis, ikki tomoni botik, diametri 7—8 mkm, oksifil sitoplazmasi bor. Yadrosi, kiritmalari va b. donalari bo‘lmaydi.

Nur bilan davolash, radioterapiya — ionlovchi nurlardan davo maqsadida foydalanish; o‘smalarni davolashda keng qo‘llaniladi. Nurlanishni yuzaga keltiruvchi moslamalar va radioaktiv preparatlar qo‘llaniladi. Alfa-terapiya, beta-terapiya, gamma-terapiya, rentgen terapiya va b. ni o‘z ichiga oladi. N. b. d. mustaqil yoki boshqa davo usullari bilan birga olib boriladi.

Nur kasalligi — morbus raditionalis (lot.) — ionlovchi nurlarning or-ganizmga ta’sir yetishidan yuzaga keladigan kasallik. N. k. butun gavda yoki uning kattagina qismi tashqaridan nurlanganda, shuningdek orga-nizmga nafas, me’da-ichak yo‘li

va teri orqali radioaktiv moddalar kirishi natijasida u ichka-ridan nurlanganda, asosan nurlanish normal miqdordan ortganda ro'y beradi. Ionlovchi nur-larning qisqa vaqt (bir necha minut, soat) ta'sir yetishi natijasida paydo bo'ladigan o'tkir va kamroq dozadagi nur uzoq vaqt (bir necha oy va yillar) ta'sir yetganda yuzaga keladigan surunka-li N. k. farq, qilinadi. Bunda, asosan, kon yaratuvchi organlar, nerv sistemasi, me'da-ichak yo'li va b. organlar zararlanadi.

— O —

...oz — (lat. -osis — ozis) — kasallik holatini, patologik jarayon, kasallikni bildiruvchi murakkab so'zlarning oxiri; mas. fibroz — tolali biriktiruvchi to'qimaning o'sib ketishi, antrakoz — o'pkalarda ko'mirning to'planib qolishi, kasalliklar: tuberkulyoz, fassiolyoz.

...oma — (-oma, gr.) — o'smalarni bildiruvchi murakkab so'zlarning oxiri; mas. Fibroma — tollali biriktiruvchi to'qimadan hosil bo'lgan o'sma, adenoma — bez sifatida tuzilgan o'sma.

Onkologiya — oncologia, -ae, f (gr. oncos — o'sma, logos — ta'limot) — tibbiyotning o'smalar va ularni etiologiyasi, rivojlanishi, morfologiyasi, diagnostikasi davolash va profilaktikasi haqidagi ta'limotga bag'ishlangan bo'limi. Umumiy va xususiy farqlanadi. Umumiy O. o'smalar o'sishi va xususiyatlarga bag'ishlangan muammolarini o'rganadi, xususiy O. — o'smalarning alohida turlari bag'ishlangan savollar bilan shug'ullanadi.

Otit — otitis, -tidis, f (gr. otos — quloq + -itis) — tashqi, o'rta, ichki quloqning yallig'lanishi o'tkir yoki surunkali, eshitish organlarining strukturasi yemirilishi yoki buzilishi bilan kechadigan yiringli yoki yirinli-fibrinoz jarayon.

Obliteratsiya — obliteratio, onis, f. (lot.) — ichki organ bo'shlig'i, chiqaruv kanali yo'li, qon yoki limfa tomirlari teshigining bitib, tiqilib qolishi.

Obliteratsiyalovchi ateroskleroz — (obliteratio+atherosclerosis) — arteriyalarning keskin torayishi yoki ular teshigining bekilib qolishi bilan ta'riflanadigan *aterosklerozning* bir xili. Ko'pincha bosh miya, yurak, buyrak va oyoq arteriyalarida uchraydi.

Obliteratsiyalovchi endarteriit — (obliteratio+endarteriitis) — oyoq, arteriyalari shikastlanishi bilan kechadigan tomirlarning surunkali kasalligi; tomirlar asta-sekin torayib, bora-bora butunlay bekilib, qon bilan ta'minlana olmay halok bo'ladi. O.

e. da oyoq, tez charchaydi, tomir tortishadi, keyinchalik oqsaydigan bo‘lib qoladi, qattiq og‘riydi. Kasallik zo‘rayganda barmoqlar, ba’zan butun oyoq panjası gangrenaga uchraydi. Chekish endarteriit kechishini og‘irlashtiradi. Og‘ir hollarda operatsiya qilinadi (tomirlar tiklanadi yoki oyoq kesib tashlanadi).

Obturatsiya — obturatio onis, f. (lot.) — kovak (naysimon) organlar, shu jumladan qon va limfa tomirlari teshigiga har xil narsalar tiqilib qolishi natijasida ular o‘tkazuvchanligining buzilishi.

Ovalotsit — ovalocytus — oval (ellips) shakliga ega bo‘lgan eritrotsitlarning bir turi. Sitoplazmasida elastik tuzilma — plazmolemma bo‘ladi.

Ovqatdan bo‘ladigan toksikoinfeksiyalar — toxicoinfectiones, um, f., pl. — turli bakteriyalar va ularning zaharlari bilan zararlangan ovqatlar organizmga kirganda paydo bo‘ladigan bir guruh o‘tkir yuqumli kasalliklar majmui. Ular odatda o‘tkir boshlanadi, umumiy zaharlanish, suv-tuz almashinuvining buzilishi, me’da-ichak, yurak-tomir sistemalari faoliyatining izdan chiqishi va h. k. bilan ifodalanadi.

Ovqatdan zaharlanish — bromatotohismi, orum, m., pl. — ovqat bilan birga zaharli moddalar (zaharli o‘simliklar, zamburug‘lar, bakteriya zaharlari, kimyoviy birikmalar) ni yejish natijasida vujudga keladigan kasallik.

Ozish — uzoq vaqt yomon ovqatlanish yoki ovqatning organizmga yaxshi singmasligi oqibatida gavda vaznining kamayishi.

Oksalatlar — oksalatus — eng sodda dikarbon kislota — oksalat kislota tuzlari. O‘simliklarda kalsiy, magniy, kaliy O. ko‘p uchraydi. Tarkibida O. ko‘p bo‘lgan sabzavot va mevalar (pomidor, shovul, loviya, uzum) iste’mol qilinganda siydikda O. miqdori ko‘payadi. Normada bir kecha-kunduzda siydik bilan 10—30 mg O. chiqariladi.

Oksalaturiya — oksalaturia — siydik bilan oksalat tuzlarining chiqishi; oksalat toshlari paydo bo‘lishiga olib keladi.

Oksaloz — oksalosum — glitsin va glioksil kislotalar almashinuvining buzilishi tufayli kelib chiqadigan irsiy kasallik; nefrit, siydik-tosh kasalligi, buyrak zararlanishi, siydikda oksalatlar miqdorining ortib ketishi va b. kuzatnladi. Nasldan-naslga autosom-retsessiv tipida o‘tadi.

17-Oksikortikosteroidlar, gidrokortizon — buyrak usti bezi po‘st qavati gormoni. Glyukokortikoidlarga kiradi (q. *Kortikosteroidlar*).

Oligo... — oligos (gr.) — qo‘shma so‘z bo‘lagi; miqdori ozligini, biror narsaning kamligini, me’yordan kamayib borishini bildiradi.

Oligemiya — oligaemia, olighaemia, oligohaemia, ae, f. (gr.) — qon miqdorining kamayishi (Mas.: odam ko‘p qon yo‘qotganida); O. anemiyadan farq qilib, bunda qonning hajm birligida eritrotsitlar bilan gemoglobin miqdori kamaymagan bo‘ladi.

Oligogipomenoreya — oligomenorrhoea, ae, f. (gr.) — hayz siklining buzilishi; bunda hayz kunlari qisqa, hayz qoni esa kam bo‘ladi.

Oligodipsiya — oligodypsia — organizmning suyuqlikka bo‘lgan talabining pasayishi; ko‘pincha gipotalamusning shikastlanganligidan, ba’zan asabiyruhiy kasalliklardan dalolat beruvchi belgi hisoblanadi.

Oligokineziya — oligokinesia — ixtiyoriy harakatlarning cheklanishi; bemor juda kam va sekin harakat qiladi. Asosan bosh miyaning po‘stloq qismi markazlari (piramid markazlar) va po‘stloq osti markazlari (ekstrapiramid markazlar) ning zararlanishi natijasida kelib chiqadi. O. Parkinson kasalligida ham uchraydi.

Oligopnoe — oligopnoe — nafasning siyrak va yuza bo‘lib qolishi; nafas markazi qattiq shikastlanganda, og‘ir nafas yetishmovchiligidagi kuzatiladi.

Oligospermiya — oligospermia — shahvatning (1ml dan) kamayishi. Prostata bezi, urug‘ pufakchasi, Kuper va Litter bezlari, moyak hamda uning ortiqlarining yallig‘lanishi, shuningdek jismoniy charchash, yolchib ovqatlanmaslik, jinsiy aloqaga ruju qilish, jismoniy va ruhiy zo‘riqishlarda kuzatiladi.

Oligotsitemiya — oligocythemia — periferik qonda shaklli elementlar umumiyligi sonining kamayib ketishi.

Oliguriya — oliguria, ae, f.; oliguresis, is, f. (gr.) — siydik miqdorining kamayishi. Jazirama issiqda, suyuqlik, kam ichilganida kuzatiladi. O‘tkir buyrak yetishmovchiligidagi, zaharlanishlarda, jarrohlik muolajalaridan keyin uchraydi.

Onkogen — onsogenum — o‘sma paydo qiluvchi virus geni; xavfli hujayralar ko‘payishiga imkon yaratish xususiyatiga ega.

Onkogenez, kantserogenez — onsogenesis, is, f. (gr.) — normal hujayralar, to‘qimalarning o‘sma hujayra va to‘qimalariga aylanish jarayoni. O. bir qancha rak oldi bosqichlarini o‘z ichiga oladi va o‘sma hosil bo‘lishi bilan tugaydi. Virusli, kimyoviy, nurlanish, endokrin buzilishlar va b. tifayli kelib chiqadigan O. farq qilinadi. Onkogenetika — onkologiyaning o‘smalar vujudga kelishi va rivojlanishida irsiy omillar ahamiyatini o‘rganadigan sohasi.

Ooforit — oophoritis, itidis, f. (gr.) — tuxumdonning yallig‘lanishi; turli infeksiyalardan, ko‘pincha abort va tuqqandan so‘ng kuzatiladi.

Organizm — organismus, i, m. (lot.) — tirik mavjudot. O. o‘zining asosiy hayotiy xususiyatlari bilan jonsiz materiyadan farq qiladi. Anaerob, aerob, autotrof, geterotrof, miksotrof, ko‘p hujayrali va bir hujayrali O. lar bor. Anaerob O. kislorodsiz, aerob O. esa kislородли muhitda yashashga moslashgan. Autotrof O. anorganik moddalardan organik moddalarni sintez qila oladigan organizmlar bo‘lib, unga ko‘pgina mikroorganizmlar va o‘simliklar kiradi. Geterotrof O. anorganik moddalardan organik moddalarni sintezlay olmay, tayyor organik moddalar bilan ovqatlanadi, bularga deyarli barcha hayvonlar, ba’zi o‘simliklar va

mikroorganizmlar kiradi. Miksotrof O. ham autotrof, ham geterotrof usulda ovqatlanadi: xlorofil tutuvchi xivChinlilar, ba’zi ko‘k-yashil suv o‘tlari, hasharotxo‘r o‘simliklar. Ko‘p hujayrali O. ixtisoslashgan ko‘p hujayralardan, bir hujayralilar esa bitta hujayradan tashqil topgan.

Organizmning ichki muhiti — organizmning hujayra elementlarini yuvib o‘tadigan, ularning ovqatlanish jarayonida hamda moddalar almashinuvida bevosita ishtirok etadigan suyuqliklar (qon, limfa, to‘qima oralig‘i suyuqligi va b.) majmui. Bular organ va to‘qimalarda moddalar almashinuvi hamda ichki muhit tarkibi doimiyligini ta’minlaydi.

Organizmning suvsizlanishi organizmga turli sabablarga ko‘ra yetarli miqdorda yoki mutlaqo suv kirmasligi yohud haddan tashqari ko‘p suv yo‘qotish (Mas.: kuchli terlash, qon-plazma yo‘qotish, to‘xtovsiz qayt qilish, ich ketishi, kuyish va h. k. hollarda) natijasida ro‘y beradigan nihoyatda og‘ir, hayot uchun xavfli holat.

Organizmning tuzsizlanishi — biror sababga ko‘ra (Mas.: issiq sharoitda kuchli jismoniy ish qilganda qattiq terlash, ich ketishi, beto‘xtov qayt qilish, organizmdan tashqariga tuz chiqaruvchi dorilarni uzoq vaqt ichish va b.) organizmning haddan tashqari ko‘p tuz yo‘qotishi oqibatida yuzaga keladigan og‘ir holat.

Organizmning himoya reaksiyalari — organizmda gomeostazni, uning birbutunligi, morfofunksional faoliyati, qobiliyati, qolaversa hayotini saqlashga qaratilgan nervreflektor, endokrin, immun, hujayraviy va gumoral omillar, mexanizmlar orqali amalga oshadigan reaksiyalar (yana. q. Gomeostaz, Reaktivlik, Immunitet).

Orttirilgan immun tanqisligi sindromi (OITS — SPID) — odam immun tanqisligi virusi (VICH — virus immunodefitsita cheloveka) ko‘zg‘atadigan o‘ta xavfli kasallik; 20-asr vabosi. Birinchi bor 1981 yili AQSH da qayd qilingan bu kasallik yashin tezligida tarqalib, hozir dunyoning 180 dan ortiq mamlakatida ro‘yxatga olindi. Kasallikka yo‘liqqan bemorlarning ko‘pchilagini gomo- va biseksuallar (o‘z jinsi va boshqa jinsdagilar bilan jinsiy aloqa qiluvchilar), fohishalar, narkomanlar, shu kasallikni qo‘zg‘atuvchi virus bilan zararlangan donorlardan qon va uning mahsulotlarini qabul qilgan shaxslar — retsipientlar, virus bilan ifloslangan shpritslar qo‘llanishi natijasida uni yuqtirganlar va b. tashqil etadi. OITS ni retrovirus guruhiga mansub virus ko‘zg‘atadi. Kasallikning dastlabki klinik belgilari namoyon bo‘lguncha o‘tadigan yashirin (inkubatsion) davr 3 oydan 5 yilgacha va undan ham ko‘proq davom yetishi mumkin. Bu davrda bemor o‘zini sog‘lom sezadi, lekin virus tashuvchi sifatida atrofdagilar uchun xavfli bo‘lib qoladi. Kasallik boshlanganda bemorning tinkasi qurib, kechasi terlaydi, juda ozib ketadi, isitmalaydi, shilliq qavati va terisiga har xil toshmalar tosha boshlaydi OITS ning klinik jihatdan bir necha shakllari mavjud. Kasallikning

oldini olish uchun notanish ayollar bilan jinsiy aloqa qilishdan, gomo- va biseksuallar, fohishalar, giyohvandlardan saqlanish lozim.

Osteoma — osteoma — suyak to‘qimalaridan rivojlanadigan xavfsiz o‘sma; g‘urra shaklida bo‘ladi.

Osteodisplaziya — osteodysplasia, ae, f. (gr.) — suyak to‘qimasi kasalliklari (ko‘pincha tug‘ma) guruhi, skelet turli bo‘limlarining hosil bo‘lishi, buzilishi bilan xarakterlanadi.

Osteoartrit — osteoarthritis, itidis, f. (gr.) — bo‘g‘imning suyaklarning bo‘g‘im uchlari bilan birga yallig‘lanishi.

Osteomielit — osteomyelitis, itidis, f. (gr.) — ko‘mikning yallig‘lanishi. Bunda yallig‘lanish jarayoni keyinchalik suyakning qattiq (kompakt) moddasi va pardasiga ham tarqaladi. Yiring paydo qiluvchi mikroblar (stafilokokk, streptokokk va b.) ko‘zg‘atadi. Asosan uzun naysimon suyaklar — son, boldir, yelka suyaklari zararlanadi. Vaqt o‘tishi bilan o‘tkir O. surunkali O. ga aylanib ketadi. Suyak ichkarisida o‘lgan to‘qima — sekvestr qoladi. Ular atrofida yiring to‘plana boshlab, oqma hosil bo‘ladi va yiring okib turadi. Suyakning anchagina qismi chiriganda (nekroz) suyak o‘z-o‘zidan sinib ketishi mumkin. O. sil, zahm oqibatida ham paydo bo‘ladi.

Osteopatiya — osteopathia, ae., f. (gr.) — suyak sistemasining xususiyati aniqlanmagan har qanday kasalligi.

Osteoporoz — osteoporosis — suyakning tuzilishi o‘zgarib, to‘qimalarining yemirilishi va unda bo‘shliqlar hosil bo‘lishi. Uning bir nechta turi bor: yosh ulg‘ayishi bilan bog‘langan O., gipertrofik, gormonal, mahalliy, umumiy, shikastlanish natijasida kelib chiqqan, bir tekis, tarqalgan, sistemali, keksalarda uchraydigan, tug‘ma O. va b.

Osteoskleroz — osteosclerosis — suyak to‘qimasining ortiqcha hosil bo‘lishi natijasida suyaklarning qattqlashishi. Bu mahalliy, chegaralangan, tarqoq va sistemali bo‘lishi mumkin. O. da suyaklar to‘sirlari soni ko‘payib, ular yo‘g‘onlashadi, shakli o‘zgaradi va ko‘mik bo‘shliqlari kamayib, butunlay yo‘qolib ketishi ham mumkin.

Ostexondrit — uzun naysimon suyaklar tog‘ay bilan qoplangan qismi — epifizning, skelet kalta suyaklari epifiz qismining yallig‘lanishi.

Osteoxondropatiya — osteochondropathia, ae, f. (gr.); syn. osteochondrosis, is, f. (gr.) — osteoxondrit, osteoxondroliz, epifizionekroz — kalta suyaklar g‘ovak moddasining va uzun naysimon suyaklar epifizlarining o‘zgarishi bilan xarakterlanadigan kasalliklar guruhi, ko‘pincha bo‘g‘im tog‘ayining o‘zgarishi bilan birga o‘tadi.

Osteoxondrodisplaziya — osteochondrodisplasia — irsiy rivojlanish nuqsoni; epifiz sohasidagi tog‘ay hamda suyaklarning o‘sib ketishi tufayli qo‘l va oyoqlarning kalta, qing‘ir-qiyshik bo‘lishi.

Osteoxondroz — osteochondrosis — suyak va tog‘ay to‘qimalarda oziqlanishning buzilishi (distrofiya) natijasida to‘qimalarning o‘zgarishi (degeneratsiya). Bolalarda ham uchrab, suyaklanish jarayonining izdan chiqishi bilan ifodalanadi.

Oftob urishi — yalang boshga quyosh nurlarining uzoq vaqt tik tushishi natijasida kelib chiqadigan kasallik holati. Odamda bosh og‘riydi, qusish, hushdan ketish va b. kuzatiladi.

Oqsil yetishmovchiligi ovqatda oqsillar yetishmasligi yoki ularning to‘la qiymatli, organizm uchun zarur bo‘lgan aminokislotalar tutmasligi natijasida, ochlikning turli xillarida, shuningdek ba’zi kasallikkarda organizmda ro‘y beradigan patologik holat.

Og‘iz bo‘shlig‘i — os, oris, n.; stoma atis, n. (gr.) — hazm organlari sistemasining boshlanish qismi. Og‘izning kirish qismi — dahliz va xususiy og‘iz bo‘shlig‘idan iborat. O. b. orqa temondan burun bo‘shlig‘i, hiqildoq va halqumga qo‘shilib turadi. Nafas jarayonida, ovqatni parchalashda va nutq aktida ishtirok etadi.

Og‘iz bo‘shlig‘i sanatsiyasi — og‘iz bo‘shlig‘ini sog‘lomlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui; kasal tishlarni davolash yoki olib tashlash yo‘qotishlar yoki davolangan tishlar o‘rnini sun’iy tishlar bilan to‘ldirish yoki qoplash; og‘iz shilliq qavati, shuningdek tanglay bezlari kasalliklarining oldini olish va davolashdan iborat.

Og‘iz hidlanishi — og‘iz bo‘shlig‘ida noxush hid paydo bo‘lishi; kovak tishlarda ovqat qoldiqlarining chirishi, og‘iz shilliq qavati, tanglay bezlarining yallig‘lanishi, ichki organ kasalliklari va b. sabab bo‘ladi.

Og‘riq — dolor, oris, t.; odyne, es, f. (gr.) — o‘ta kuchli yoki yemiruvchi ta’sirlovchilarga javoban organizmda ro‘y beradigan noxush psixofiziologik holat, organizmnинг himoyalanish reaksiyasi. Turli organ va to‘qimalarda joylashgan o‘ziga xos retseptorlarning ko‘zg‘aluvchanligiga javoban paydo bo‘ladi. Og‘rituvchi ta’sirotga javoban organizmda qator o‘zgarishlar ro‘y beradi: qon tomirlari torayadi, qon bosimi ko‘tariladi, qonning ivish xossasi oshadi va qondagi qand miqdori ko‘payadi. Lo‘qillovchi, sanchuvchi, kesuvchi, lovullatuvchi, simillovchi va b. xil O. lar bo‘ladi.

Pakanalik, mikrosomiya, nanizm, nanasomiya — jismoniy o'sishdan orqada qolish. Yoshga muvofiq normaga nisbatan bo'yning past bo'lishi (ayollar bo'yining 120 sm dan, erkaklar bo'yining 130 sm dan pastligi). Bir necha xili bor. *Gipofizar* P.— somatotrop gormonning absolyut yoki nisbiy yetishmasligi yoki biologik faolligining past bo'lishi yoki periferik to'qimalarning unga nisbatan sezuvchanligi yo'qolishi yoki somatomedinlar yetishmasligi natijasida kelib chiqadigan genetik kasallik. Bo'y o'sishi 2—3 yoshdan boshlab susayib boradi. *Primordial* P.— bolaning pakana bo'lib tug'ilishi (bo'yi 20—35 sm, og'irligi 1500 g gacha) va kelgusida pakana bo'lib qolishi. *Tireogen* P. — qalqonsimon bezning tug'ma gipofunksiyasi bilan bog'liq P.

Panaortit — panaortitis, itidis, f. (gr.) — aorta devori barcha qavatlarining yallig'lanishi. P. zaxm, revmatizm, streptokokkli sepsis va b. kasalliklar oqibatida kelib chiqadi. Aortaning ko'krak va qorin bo'shlig'ida joylashgan qismi ko'proq, yallig'lanadi. Kasallik surunkali davom etadi. Ko'krak suyagi atrofida og'riq paydo bo'ladi. Bo'yin chuqurchasida aorta qon tomirlarining urishi, ba'zan ko'krak qafasi devorining qaltirashi kuzatiladi.

Panarteriit — panarteriitis, itidis, f. (gr.) — arteriya qon tomiri hamma qavatining yallig'lanishi.

Panartroz — panarthrosis, -is, f (gr. pan + arthron — bo'g'im) — bo'g'imning hamma to'qimalarining yoki tananing ko'p bo'g'imlarining shikastlanishi, ko'pincha proliferativ jarayonlarining ustunligi va tog'ay, suyak to'qimasi va paylar deformatsiyasi bilan kechadi, bo'g'im ankilozi (xarakatsizligi) bilan yakunlanadi.

Panartrit — panarthritis, itidis, f. (gr.) — o'tkir yiringli artrit. Bunda bo'g'imlar yoki bo'g'imni tashqil qilgan barcha tuzilmalar (tog'ay, paylar, sinovial qavat, boylam apparati) yallig'lanadi. Bo'g'imda yallig'lanishning hamma belgilari (qizarish, shish, og'riq, bo'g'im harakatining buzilishi) bilan bir qatorda bemorning harorati ko'tarilib, organizmning umumiy holati og'irlashadi.

Panbronxit — panbronchitis (lot). — chuqur bronxit. Bronx devori hamma qavatlarining yallig'lanishi. P. bronxlarning kengayishiga, hatto teshilishiga olib kelishi mumkin.

Panvaskulit — panvasculitides, um, f., pl.; (lot). — qon tomirlari hamma qavatining yalliglanishi. P. toksikoallergik va yuqumli kasalliklar, revmatizm, sistemali volchanka va b. oqibatida kelib chiqadi. Klinik belgilari kasalliking tarqaganligiga, qaysi organ qon tomirining zararlanganligiga bog'liq. P. qon

tomirlarining kengayib ketishi (anevrizma), qon quyilishi, tromboz, emboliya va shunga o'xhash b. asoratlarga olib keladi.

Pankardit — pankarditis — yurak perikard, miokard va endokard qavatlarining birdaniga yallig'lanishi. Revmatizm, sistemali qizil volchanka va yuqumli kasalliklardan so'ng yuzaga keladi. Bemorning ahvoli og'irlashadi, nafasi qisib, yurak atrofida og'riq paydo bo'ladi, harorati ko'tariladi. Tezda davolanmasa yurak yetishmovchiligiga olib keladi.

Pankolit — pancolitis — yo'g'on ichak hamma qismining yallig'lanishi. P. ichburug', salmonellyoz kasalligidan so'ng, zaharli ximikatlar va dori moddalari bilan zaharlanish natijasida kelib chiqadi. Yallig'lanish oqibatida yo'g'on ichakdagi qon, limfa tomirlari va nerv tolalari zararlanadi. Ovqat moddalarining so'riliishi, shira ishlab chiqarish buziladi. P. da bemor qorin bo'shlig'ining pastki yoki yonbosh qismi og'rib, qorni dam bo'ladi, og'zidan ko'lansa hid keladi, tez charchaydi.

Pankreatit — pancreatitis, -tidis, f (rp. pancreas + atos — me'da osti bezi + -itis) — me'da osti bezining yallig'lanishi. P. ga me'da osti bezi tomirlarining zararlanishi yoki unda tromblar paydo bo'lishi, infektion kasalliklar, shikastlanishlar va qorin bo'shlig'idagi turli yallig'lanishlar sabab bo'ladi. Kasallikda me'da osti bezi shishadi, uning yallig'langan qismi iriydi yoki to'qimalari nobud bo'ladi. O'tkir, surunkali, yiringli va b. xil P. farq qilinadi.

Panmieloz — panmyelosis, is, f. (gr.) — qon yaratish sistemasining ko'mikdag'i barcha element manbalari giperplaziyaga uchrashi bilan ta'riflanadigan holat; mieloproliferativ sistema kasalliklari (eritremiya va b.) ga xos.

Panotit — panotitis — tashqi, o'rta va ichki qulquning bir vaqtida yallig'lanishi; o'tkir yoki surunkali kechadi, unga ko'pincha yuqumli kasalliklar sabab bo'ladi.

Panoftalmit — panophthalmitis, — ko'z soqqasi hamma to'qimalarining yiringli yallig'lanishi. Ko'z qizarib, shishib, bo'rtib chiqadi, juda qattiq og'riydi, boshda ham og'riq paydo bo'ladi. Hozir kam uchraydi.

Pansitopeniya, — panhaemocytopenia — pangemotsitopeniya — qonda barcha shaklli elementlarning kamayishi; Mas.: gipo- yoki aplastik kamqonlik (anemiya) da kuzatiladi.

Papilloma — papilloma, -atis, f (lat. papilla — so'rg'ich, lot.) — teri epitelisidan rivojlanadigan xavfsiz o'sma. Tarmoqlangan mayda so'rg'ichlardan iborat, tuzilishida epitelidan tashqari biriktiruvchi to'qima ham ishtirok etadi.

Papillomatoz — papillomatosis — teri yoki shilliq qavatlarning biror qismida ko'plab papillomalar paydo bo'lishi bilan ifodalanadigan kasallik.

Papula — papula, -ae, f (lat.) — tuguncha, teri osti kletchatkasining o'chog'li shishishi natijasida hosil bo'ladigan, yasmiq doni kattaligida, dumaloq shaklli teri

tugunchasi. Hasharotlar chaqishidan keyin hosil bo‘ladigan, Chin ekzantemaning bir bosqichi hisoblanadi.

Para... — (gr. para ... — yonida, yaqinida) — yonidagi, yaqinidagi ma’nosini bildiruvchi murakkab so‘zlarning boshi.

Parabioz — parabiosis — 1) kuchli ta’sirga javoban qo‘zg‘aluvchan to‘qimalar ko‘zg‘aluvchanligi va o‘tkazuvchanlik xususiyatlarining fazali o‘zgarishi; 2) ikki, ba’zan bir necha hayvonni qon aylanish va limfa sistemasi orqali bir-biriga (operatsiya yo‘li bilan) sun’iy ulash. Bunda organ va to‘qimalarning o‘zaro gumoral ta’siri o‘rganiladi.

Patologik parabioz — parabiosis pathologicus, -is, f — qo‘zg‘vluvchan to‘qima shikastlanishi natijasida mahalliy qo‘zg‘alishning turg‘un tarqalmaslik jarayoni. Fiziologik va patologik P. farqlanadilar. Fiziologik P. (nerv hujayrasida, nerv ustuni retseptorida, nerv to‘qimasida) reaksiya qaytariluvchan, ya’ni nerv substrati yana faol holatga qaytadi; ikkinchi holatda — reaksiyani qaytarilmas, substratning o‘limiga sababchi bo‘ladi. Lekin patologik P. albatta hayvonning o‘limiga sababchi bo‘ladi degani emas. Nerv sistemasining ayrim qismlarini blokirovka qilganligi sababli uning moslashuv funksiyasini chegaralab qo‘yyadi. P. p. ham fiziologik P. ga o‘xshab bir xil rivojlanish bosqichlariga (tenglashriuvchi, paradoksal va tormozlantiruvchi) ega.

Paradentit — parodontitis, -is, f (gr. para + lat. dent — tish) — q. Paradontoz.

Parakeratoz — parakeratosis, -is, f (rp. para + keras — muguz) — muguzlanishi yakunlanmagan epidermis, tashqi qavatlarda yadrolari saqlanib qolganligi, tangachalar hosil qilishi, epiteliyning yumshashi va tushib ketishi, dermanging giperemiyasi va shishi bilan ta’riflanadi. Sabablar: zambrug‘li va virusli infeksiyalar.

Paralich – falaj (shol) — paralysis, is, f. (gr.) — 1) ixtiyoriy harakatlar qilish qobiliyatining batamom yo‘qolishi; 2) nerv sistemasi shikastlanishi tufayli a’zoning biror funksiyasi yo‘qolishi yoki faoliyati to‘xtashi.

Parametrit – bachadon yonidagi kletchatka (parametriy) ning yalligianishi.

Paranekroz - hujayra o‘limiga yaqin turganda, lekin hali shikastlanishining oxirgi holatidan qaytish darajasi.

Parafimoz — erlik olati qalpog‘ining yallig‘lanishi tufayli olat boshining chekka kertmak ichida qisilib qolishi; bunda olat boshi ko‘karib, shishadi va og‘riydi.

Parkinsonizm — MNS kasalligi. Bosh miyada qon aylanishining o‘tkir yoki astasekin buzilishi va bosh miyaning qattiq yallig‘lanishi sabab bo‘ladi. Epidemik ensefalitning klinik bosqichlaridan biri. Muskullar tarangligi, harakatning kamayishi va sekinlashishi bilan yuz beradi. Bemor o‘z xohishi bilan harakat qila olmay, turgan, o‘tirgan joyidan qimirlay olmay qoladi, ko‘l-oyog‘i titrab, nutqi

ham buziladi. Irsiy kasallikning bu turini ingliz shifokori J. Parkinson ta’riflab bergen.

Parodontoz — paradontosis — alveolyar pioreya, paradentit — tish atrofidagi to‘qimalar (parodont)ning surunkali distrofiyasi, yallig‘lanishi. P. parodont tomirlari va nervlarining buzilishi yoki kasallanishi natijasida tish atrofidagi to‘qimalarning qon bilan yetarli ta’milanmasligi oqibatida vujudga keladi. P. da tishning suyak to‘qimasi asta-sekin so‘riladi, tishlar qimirlab tushib ketadi; ba’zan milk yallig‘lanib shishadi, qonaydi, og‘izdan ko‘lansa hid keladi. P. da milkda yiringli «pill» hosil bo‘ladi.

Parodontolit — paradontlitis — parotitis, parotitidis, itidis, f. (gr.) — tish bo‘ynida hosil bo‘ladigan minerallashgan tosh; u milk ustida va ostida uchrashi mumkin.

Paroksizmal taxikardiya yurak maromining buzilishi xillaridan biri; tomir to‘satdan tez urib, daqika davomida 145—300 ga etadi. Yurak-tomir kasalliklarida, shuningdek yurak muskuli bo‘ylab patologik ko‘zg‘alishlar tarqalishi oqibatida yuzaga keladi.

Parotit, tepki — parotitis, parotitidis, itidis, f. (gr.) — quloq osti so‘lak bezining yallig‘lanishi. Epidemik va epidemik bo‘lmagan turlari farqlanadi. O‘tkir epidemik bo‘lmagan P. yuqumli kasalliklar oqibatida paydo bo‘ladi, uni ko‘pincha stafilokokklar, epidemik P. ni esa filtranuvchi viruslar ko‘zg‘atadi. Havodagi tomchilar orqali yuqadi, asorati og‘irrok o‘tadi.

Parri kasalligi —q., *Diffuz toksik buqoq*.

Parhez bilan davolash, dietoterapiya — parhezdan foydalanib ba’zi kasalliklar (gastrit, enterit, kolit, yara kasalligi, jigar, buyrak xastaliklari va b.) ni davolash usuli. P. bilan d. da: ovqatlanish ratsioni, tartibi va masalliqlarni pishirish usuliga idividual yondoshish, ovqat tarkibida oqsil, uglevod, yog‘, vitamin va mineral moddalarning ma’lum miqdorda bo‘lishi, shuningdek mexanik (dag‘al, badxazm ovqatlar) va kimyoviy cheklashlar — hazm bezlari faoliyatini kuchaytiruvchi va me’da-ichak harakatini qo‘zg‘atuvchi taomlar ko‘zda tutiladi.

Parhez taomlar - maxsus ishlovdan o‘tkazilgan, tarkibida ma’lum miqdorda uglevod, yog‘, oqsil, vitamin va mineral tuzlar tutgan, shuningdek mexanik va kimyoviy ta’sirlari cheklangan taomlar. Parhez bilan davolash-da P. t. turi shartli ravishda raqamlar bilan belginlanadi. Mas.: yurak-tomir kasalligida 10 raqami, jigar kasalligida 5, me’da-ichak kasalligida 1, buyrak kasalligida 7 raqamli P. t. buyuriladi.

Patoarxitektonika — organlarning surunkali yallig‘lanishi, amiloidoz, ateroskleroz, gipertoniya kasalliklari natijasila hujayralar, to‘qima, qon tomir va biriktiruvchi to‘qimalarning patologik qayta qurilishi.

Patogen — pathogenus —kasallik tug‘diruvchi.

Patogenez — pathogenesis, is, f. (gr. pathos + genesis — proisxojdenie) —1) kasalliknish vujudga kelishi, rivojlanishi va kechishi haqida ta’limot. 2) kasallik holati, patologik jarayon yoki aniq bir kasallikning rivojlanish mexanizmi. Yoki kasallikni rivojlanish mexanizmi, kechishi va oqibatini o‘rganadigan patologik anatomiya va patologik fiziologiyaning bo‘limi. Kasallik rivojlanishi va kechishi, ko‘pincha ta’sir yetgan etiologik omil bo‘lmagan davrlida hosil bo‘ladigan patologik omillarga bog‘liq bo‘ladi. Boshlang‘ich sabab kasallik jarayonini “bosholab beradi”, keyinchalik bo‘lmaydi va asosiy rol o‘ynamaydi. Bunday kasalliklar juda ko‘p uchraydi. Demak kasallik bilan kurashish uchun faqatgina etiologik omilni bilishimiz yetarli emas. Boshlang‘ich sabab yo‘qolganidan keyin kasallik jarayoni rivojlanish mexanizmlarini chuqurroq o‘rganish ko‘proq ahamiyatga ega. Kasallik ahamiyati va uning oqibatini tushunish patogenezni chuqurroq ochishga bog‘liq bo‘ladi.

Patologik jaraen — processus pathologicus (lat. processus — oldinga harakat + gr. pathos + logos) patogen omilning shikastlovchi ta’siriga nisbatan ma’lum bir qonuniyat asosida ketma-ket yuzaga keladigan reaksiyalar — hujayra, to‘qima, a’zo va b. tuzilishi hamda faoliyatining buzilib borishi. P. j. ning tipik, rivojlanib boruvchi (Mas.: yallig‘lanish, gipoksiya va h. k.), maxalliy hamda umumiyl turlari farq qilinadi. P. j. kasllikni ta’riflaydigan, murakkab jarayonlar kompleksiga kiruvchi patologik va ximoya-moslashuv reaksiyalarining kombinatsiyasi. P. j. asosan organizmning patogen qo‘zg‘atuchiga qarshi reaksiyasini ifodalaydi. P. j. ning rivojlanishi nafaqat patogen qo‘zg‘atuchiga, shu bilan bir qatorda organizm reaktivligiga ham bog‘liq. Organizmga yuqori yoki past harorat, elektr toki, nurlanish ta’sir qilgandan keyin bu qo‘zg‘atuvchilar yo‘qoladi, lekin undan keyin hosil bo‘lgan P. j. murakkab sabab-oqibat zanjirnining dinamikasi bo‘yicha rivojlanishni davom etadi.

Patologik reaksiya — pathologicus reactio — patologik ta’sirotlarga nisbatan organizmning qisqa muddatli javob reaksiyasi; Mas.: qizarish, oqarish, leykotsitlarning ko‘payishi yoki kamayishi, eritrotsitlar cho‘kish tezligining ortishi va h. k. P. r. da ro‘y bergen o‘zgarishlar ta’sirot tugagach yana o‘zining avvalgi asliga qaytishi mumkin.

Patologik fiziologiya — pathophysiologia, ae, f. (gr.) — kasal organizmda ro‘y beradigan funsional o‘zgarishlar, kasallikning paydo bo‘lishi, avj olishi, kechishi va oqibati qonuniyatlarini o‘rganadigan fan. Umumiy va xususiy P. f. farq qilinadi. Umumiy P. f. kasallikda organizmning biologik va fiziologik qonuniyatlarining buzilishini, bir butun organizmning reaksiyasi nuktai nazaridan o‘rganadi. Xususiy P. f. da esa turli organ va sistemalar (Mas.: yurak, jigar, nerv sistemasi, ichki sekrediya bezlari va b.) funksiyasining buzilish sabablari, rivojlanishi, kechishi va

oqibati qomuniyatlari o‘rganiladi. P. f. kasalliklarni davolash tadbirlarini eksperimental sharoitda ularning modellarini yaratib ishlab chiqadi.

Patologiya — pathologia, ae, f. (gr.) — kasallik, patologik jarayon yoki biror noxush holatning kelib chiqishi va rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganadig‘an fan. O‘rganadigan sohasi (Mas.: klinik, akusherlik), tekshiradigan manbai (Mas.: hujayra) hamda doirasi (Mas.: umumiy, xususiy) ga ko‘ra P. ning bir qancha soha, bo‘limlari bor.

Patologik holat — status pathologicus (lat. status — holat, vaziyat + pathos, gr.) — normal holatdan turg‘un chetga chiqishi. P. h. ko‘pincha patologik jaryonning bir etapi yoki oqibati bo‘lib, uzoq vaqt (yillar) davomida o‘zgarmasdan qoladi. Mas.: yurakning ichki qavatining yallig‘lanishi — endokardit (patologik jarayon), yurak klapanlarining butunligini buzilishini chaqirishi mumkin — patologik holat. Patologik jarayon ko‘p hollarda P. h. ga o‘tadi, qaytib o‘tishi ham kuzatiladi.

Pentozalar — molekulasida besh atom uglerod bo‘lgan monosaxarid. Asosiy vakillari riboza va dezoksiriboza, nuklein kislotalar tarkibiga kiradi.

Pentozuriya — siydikda pentozalar miqdorining ko‘p bo‘lishi.

Periartrit — bo‘g‘imlar fibroz pardasini o‘rab turuvchi yumshoq to‘qimalarning yallig‘lanishi. Kollagenoz, zahm, brutsellyoz va b. kasalliklarda bo‘g‘im va bo‘g‘im atrofidagi to‘qimalar (paylar, aponevroz va b.) yallig‘lanadi. Bo‘g‘imlarda shish, og‘riq paydo bo‘lib, zararlangan joy qizaradi, harakat paytida og‘riq kuchayadi.

Perikard — pericardium, ii, p. (gr.) — yurak xaltasi — seroz pardadan tuzilgan xalta; uning bo‘shlig‘ida yurak joylashgan. Bo‘shliqda seroz suyuqlik ham bo‘lib, u xaltani namlab, yurakning urishnni osonlashtiradi. P. ichki tomonda yurakka va yurak qon tomirlariga o‘tib, ularni o‘rab turadi va epikard deb ataladi. P. tashqi tomondan fibroz biriktiruvchi to‘qima bilan qoplangan.

Perikardit — pericarditis, itidis, f. (gr.) — perikardning yallig‘lanishi. o‘tkir va surunkali P. bo‘ladi. Utkir P. ko‘pincha revmatizm, sil, uremiya, miokard infarkti, ko‘krak qafasi jarohatlanganda va b. kasalliklarda kuzatiladi. Surunkali P. sil kasalligi oqibatida kelib chiqadi. P. ning quruq yoki perikard bo‘shlig‘ida suyuqlik to‘planishi bilan kechadigan ekssudatli xillari farq qilinadi. Ekssudatli, serozli, yiringli, gemorragik P. bo‘lishi mumkin.

Perilimfangit — perilymphangitis — limfa tomirlari atrofidagi to‘qimalarning yallig‘lanishi. Limfa tomirlari, limfa bezlari yoki bu tomirlar atrofidagi organ va to‘qimalarning yallig‘lanishi oqibatida vujudga keladi. P. ko‘pincha sil bilan og‘rigan bemorlarda uchraydi. Yallig‘lanish o‘pkadan limfa tomirlari orqali limfa bezlariga, limfa atrofidagi to‘qimalarga va bronxlar atrofiga tarqaladi. Bemorning harorati ko‘tarilib, o‘pka silinnng belgilari paydo bo‘ladi.

Perinatal davr — pperinatalis, -e (gr. peri + lat. natus — tug‘ilish) — ona qornidagi 28 haftalik homiladan to 7 kunlik chaqaloqlikkacha bo‘lgan davr.

Perinefrit — perinphritis — buyrak fibroz xaltachasining yallig‘lanishi. Yiringli, seroz, fibroz xillari farq qilinadi. Pielonefrit, paranefrit va b. kasalliklar bilan birga uchraydi. Belda og‘riq paydo bo‘lishi P. uchun xos alomatdir.

Periodontit — periodontitis — *periodontning* yallig‘lanishi. Pulpitning asorati sifatida, shuningdek kimyoviy yoki mexanik shikastlanish natijasida yuzaga keladi; o‘tkir va surunkali kechadi.

Peristaltika — peristaltica, ae, f. (gr.) — me’da, ichak, qizilo‘ngach va b. kovak organlar devorining to‘lqinsimon harakati. P. kovak organlar devoridagi silliq muskullarning qisqarishi natijasida ovqat massasining proksimal qismidan distal tomonga o‘tishiga sabab bo‘ladi. P. o‘z-o‘zidan amalga oshadi.

Peritonit — peritonitis, itidis, f. (gr.) — qorinpardaning yallig‘lanishi. qorin bo‘shlig‘idagi organlarning shikastlanishi yoki ularga mikroblar (ichak tayoqchasi, stafilokokk, streptokokk, pnevmokokk va b.) tushishi oqibatida kelib chiqadi. Me’da va o‘n ikki barmoq ichak yarasi, o‘t pufagi va ko‘richakning yorilib ketishi, churraning qisilib qolishi va b. sabab bo‘ladi. P. mahalliy va umumiyl bo‘lib, o‘tkir va surunkali kechadi. P. keltirib chiqaradigan sabablariga ko‘ra spetsifik (sil, zahm) va nospetsifik bo‘ladi. Uning kriptogen va pelvio-peritonit turlari ham bor.

Peritromboflebit — perithrombophlebitis — yallig‘lanish jarayonining vena atrofidagi to‘qimalardan uning devoriga tarqalishi natijasida rivojlanadigan tromboflebit.

Periuretrit — periurethritis — siydik chiqarish kanali atrofidagi biriktiruvchi to‘qimaning yallig‘lanishi. Odatta uretritdan keyin rivojlanadi. Uretra bo‘shab og‘riq seziladi, siyganda og‘riq zo‘rayadi.

Periflebit — periphlebitis — vena qon tomiri atrofidagi to‘qimaning yallig‘lanishi; vena flebiti va trombozi bilan birga kechadi.

Perixolangit — perisholangitis — o‘t yo‘llari atrofidagi to‘qimalarning yallig‘lanishi. Ko‘pincha jigar va o‘t pufagi kasalliklari oqibatida kelib chiqadi.

Perixoletsistit — perisholecistitis — o‘t pufagi seroz pardasining reaktiv yallig‘lanishi. Qo‘pincha jigar va o‘t pufagi kasalliklari oqibatida kelib chiqadi.

Peritsitoma, gemangioperitsitoma — qon tomirlarning xavfli o‘smasi; peritsitlardan rivojlanadi, terida qattiq tuguncha ko‘rinishida bo‘ladi.

Periezofagit — perioesophagitis — qizilo‘ngach atrofidagi to‘qimalarning yallig‘lanishi. Ko‘pincha biror yot moddalarning qizilo‘ngachga tiqilib, devorini shikastlashi oqibatida yuzaga keladi.

Pes — vitiligo, inis, f. — vitiligo — terida yara-chaqasiz oq dog‘lar paydo bo‘lishi (pigment yo‘qolishi). Nerv va endokrin sistemasi kasalliklari alomati bo‘lishi mumkin. P. paydo bo‘lishida irsiy omillarning ham roli bor. P. dog‘lari asta-sekin

kattalashib, bir-biri bilan qo'shilishi, har xil shaklga kirishi va terining talaygina qismini egallab olishi mumkin. P. dog'lari tushgan soha yallig'lanmaydi, qichishib achishmaydi, og'rimaydi, *bemorni mutlaqo bezovta qilmaydi*. *Dog' tushgan* joyda terining sezish xususiyati yo'kolmaydi. P. yuqumli emas.

Petexiya — petechiae, arum, f., pl. (gr.) — kapillyarlarga qon quyilishi tufayli teri va shilliq qavatlarda mayda (1—2 mm kattalikda) dog'lar paydo bo'lishi.

Petrifikat — petrificat — to'qimaning kalsiy mayda zarrachalar shaklida cho'kib to'plangan, o'lgan yoki chuqur distrofiyaga uchragan qismi.

Petrifikatsiya — petrificatio, onis, f.; syn. lapidificatio, onis, f. — o'lgan yoki chuqur distrofiyaga uchragan to'qimalarda kuzatiladigan mahalliy ohaklanish. Metastatik, distrofik, metabolitik ohaklanish farq qilinadi.

Pielit — pyelitis, itidis, f. (gr.) — buyrak jomingning yallig'lanishi.

Pielonefrit — pyelonephritis, itidis, f. (gr.) — buyrak, buyrak jomi, kosachasi va to'qimasining yallig'lanishi. Siydk-tanosil kasalliklari orasida eng ko'p uchraydi. P. buyrak to'qimasiga kasallik mikroblari kirishi natijasida vujudga keladi. Mikroblar *uretrit yoki sistitda siydik yo'li bo'ylab* yuqoriga ko'tariladi yoki organizmda yallig'langan joylar bo'lganida, angina, tonsillit, tishlar chiriganida *infeksiya qon tomirlaridan* borib, buyrakka kiradi. Birlamchi va ikkilamchi hamda o'tkir va surunkali P. farq qilinadi.

Piloroduodenit — pyloroduodenitis — me'daning chiqish qismi (pilorus) va o'n ikki barmoq ichakning birgalikda yallig'lanishi.

Pilorospazm — pylorospasmus, i, m. (gr.) — me'da chiqish qismining qisilishi (spazmi). Nevrozlarda, me'da yarasida kuzatiladi.

Pio... — pyo (gr.) — old qo'shimcha; qo'shma so'zlarda yiringlanish, yiring to'planishi yoki yiringga oid degan ma'nolarni anglatadi.

Piroterapiya — pyrotherapia — sun'iy usulda gavda haroratini keskin oshirish yo'li bilan ba'zi kasalliklar (zaxm, shizofreniya, brutsellyoz va b.) ni davolash. Bunda organizmga vaksinalar, oqsillar, elektr toki, havo yuborib ta'sir etiladi.

Piuriya — pyuria — siydikda yiring bo'lishi; buyrak, siydik chiqarish yo'llari hamda erkaklar jinsiy organlarining yallig'lanish kasalliklarida uchraydi.

Plazmoliz, plazmolizis — plasmolysis, is, f. (gr.) — 1) protoplazmaning bujmayishi; gipertonik eritma va b. ta'sirida hujayra tanasining bujmayib, hujayra qobig'idan ko'chishi; 2) proteolitik fermentlar ta'sirida protoplazmaning pilchillab qolishidan iborat bo'lган sitoliz davri.

Plazmotsit — plasmocyti, plasmacyti, orum, m., pl. (gr.) — biriktiruvchi to'qimaning hujayra elementlaridan biri. Organizmda gumoral immunitetni ta'minlaydi. Organizmda antigen paydo bo'lganida unga qarshi antitelo (gammaglobulin) ni sintezlaydi va uni zararsizlantiradi. P. odatda ichak shilliq qavati, charvi, turli bezlar (sut, so'lak bezlari) ning interstitsial biriktiruvchi

to‘qimasi, limfa tugunlari, taloq, ko‘mikda uchraydi. Ular V-limfotsitlardan hosil bo‘ladi.

Plazmotsitaferez — qonning ayrim tarkibiy qismlari (plazmasi, shaklli elementlari) ni ajratib olib, qolganini qon o‘zaniga qayta quyish; davolash va dori preparatlari tayyorlash maqsadida qo‘llaniladi.

Plevralgiya — ko‘krak sohasidagi og‘riq. Nafas olish vaqtida yallig‘langan plevra pardalarining bir-biriga ishqalanishi natijasida yuzaga keladi. Ko‘pincha quruq P. da kuzatiladi.

Plevrit — pleuritis, itidis, f. (gr.) — plevrانing yallig‘lanishi. Sil, zotiljam, revmatizm oqibatida yuzaga keladi; plevra bo‘shlig‘ida suyuqlik to‘planmaydigan (quruq P.) yoki suyuqlik to‘planadigan (ekssudatli P.) P. farq qilinadi, Belgilari: bemor nafas olganda ko‘krak qafasi sanchib og‘riydi, yo‘taladi, harorati ko‘tariladi, nafasi qisiladi va h.k.

Plevroperikardit — pleuropericarditis — plevra va yurak xaltasi (perikard) ning yallig‘lanishi.

Pletora — plethora, ae, f. — tomirlar o‘zanida qon hajmining, ortishi. P. ning kelib chiqish va rivojlanish mexanizmlariga ko‘ra bir necha turi (Mas.: gidremik, giperkinetik, oddiy, oligo- va politsitemik, seroz, Chin, qizil va h. k.) farq qilinadi.

Pnevmoniya — k. *Zotiljam*.

Pnevmplevrit — pneumopleuritis — ekssudativ plevrit; bunda plevra bo‘shlig‘iga ekssudat bilan birga havo yig‘iladi. Ko‘pincha bronxlardagi oqma yaralar, ko‘krak qafasi jarohatlanganda yoki sun’iy pnevmotoraks qilinayotganda plevra bo‘shlig‘iga infekiiya tushishi oqibatida vujudga keladi.

Pnevmoskleroz — rneumosclerosis — o‘pkadagi biriktiruvchi to‘qimaning qalinlashib ketishi; odatda o‘pkaning surunkali yallig‘lanishi, silikoz, antrakoz, shuningdek yurak nuqsonlarida kichik qon aylanish doirasida qon dimlanganda ro‘y beradi. P. da bronxlar deformatsiyalanadi, o‘pkaning nafas yuzasi kichrayadi.

Pnevmotoraks — pnaeumothorax, acis, m. (gr.) — plevra bo‘shlig‘ida havo yoki gaz to‘planishi; odatda ko‘krak qafasi shikastlanganda, o‘pka alveolalari yorilganda (sil, o‘pka emfizemasi va b. o‘pka kasalliklarida) paydo bo‘ladi yoki sun’iy yo‘l bilan (plevra bo‘shligiga maxsus igna orqali havo yoki gaz kiritish) hosil qilinadi.

Podagra — podagra, ae, f. (rp.) — organizmda purin moddasi almashinuvining buzilishidan kelib chiqadigan surunkali kasallik. Qonda siydik kislota miqdori ko‘payib, bo‘g‘imlar, to‘qima va organlarda shu kislota tuzlari yig‘iladi. Asosan kichik bo‘g‘imlar deformatsiyalanadi. Bemorning harorati ko‘tariladi. Kasallik ko‘pincha erkaklarda uchraydi.

Poykilotsitoz — poekilocytosis — periferik qonda turli shakldagi (oval, noksimon, bolg‘asimon va h. k.) eritrotsitlar bo‘lishi. Zaharlanish, yuqumli kasalliklar va b.da kuzatiladi.

Poliavitaminoz — polyvitaminosis — organizmga zarur bo‘lgan turli vitaminlar (S, A, V, E, K, V va b.) yetishmasligi oqibatida paydo bo‘ladigan kasallik.

Poliadenit — polyadenitis — bir qator limfa bezlarining birgalikda yallig‘lanishi. Sil, brutsellyoz, tulyaremiya, qon kasalliklari va b. kasalliklarda regionar limfa bezlarining yallig‘lanishi kuzatiladi. Bezlar kattalashib bir-biri bilan birlashib ketishi mumkin. Ba’zan yallig‘lanish natijasida bezlardan suyuqlik oqib chiqadi.

Polartrit — polyarthritis — bir yoki bir necha bo‘g‘imlarning birdaniga yoki ketma-ket yallig‘lanishi. P. kollagenozlarning asosiy belgisi hisoblanadi. Ba’zan yuqumli kasalliklar (sil, so‘zak, zardobli gepatit, brutsellyoz, sepsis va b.) da bo‘g‘imlarning distrofik o‘zgarishlari natijasida ham P. paydo bo‘ladi. Bo‘g‘imlar og‘rib, teri qizarishi, shishishi, harakati cheklanib, shakli ham o‘zgarib qolishi mumkin.

Poldipsiya — polydypsia — patologik chanqashning kuchayishi natijasida ko‘p suyuqlik ichish. Birlamchi va ikkilamchi P. farqlanadi. Bosh miyaning organik zararlanishi oqibatida birlamchi P., ko‘p siyish natijasida (Mas.: poliuriyada) ikkilamchi P. kuzatiladi.

Poliinfeksiya — polyinfektionis — organizmning bir vaqtda bir necha xil mikroorganizmlar bilan zararlanishi; har xil yuqumli kasalliklar (Mas.: vabo bilan ich burug‘i, sil bilan yuqumli sariq kasalligi, qizamiq bilan bo‘g‘ma va b) ning birga uchrashi.

Poliploidiya — polypploydia — organizm hujayrasidagi xromosomalar sonining ikki va undan ko‘p marta ortib ketishi. Poliploid organizmlar o‘z ota va ona organizmlariga, avlod-ajdodlariga nisbatan yirik, kuchli bo‘ladi. P. hayvonlarga nisbatan o‘simliklarda keng tarqagan. Seleksiyada P. hodisasidan keng foydalilanildi.

Poliuriya — polyuria — ko‘p miqdorda siyidik ajralishi. Fiziologik (Mas.: haddan tashqari ko‘p suyuqlik ichganda) va patologik P. (Mas.: qandli va qandsiz diabetda) farq qilinadi.

Polietiologiya — polyaetiologia — etiologiyadagi yo‘nalishlardan biri; bu yo‘nalishga ko‘ra biror aniq kasallikning paydo bo‘lishiga bir emas, balki bir necha sabab bo‘lishi mumkin.

Pollakiuriya — pollakuria — tez-tez (sutkada 6 martadan ortiq) siyish. qovuqning kichik bo‘lishi yoki uning yallig‘lanishi, buyrak va siyidik yo‘llari sili, *prostatit* va b. da kuzatiladi.

Pollinoz — polynosis — o‘simliklar changi ta’sirida kelib chiqadigan allergik kasalliklar majmui. Asosan tumov, ko‘z achishishi, yoshlanishi, ba’zan bronxial

astma xuruji ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Kasallik mavsumiy xarakterga ega bo‘lib, o‘simliklar gullab bo‘lguncha davom etadi.

Porfirinlar — porphirinum — siklik tetrapirrollar, ularni boshlang‘ich tetrapirrol porfin unumi deb qarash mumkin. Uning 8 vodorod atomi to‘la yoki qisman alkil, gidroksialkil, vinil, karbonil, karboksil kislotalar bilan to‘lib, turli P. hosil bo‘ladi. P. unumi — protoporfirin IX bir qator biologik muhim strukturalar: gemoglobin, mioglobin, sitoxromlar tarkibidagi gemda uchraydi. Bir qancha metall ionlari P. bilan metalloporfirinlar, gemin, *geminin* hosil qiladi. Xlorofil — magniyning turli P. bilan tuzgan kompleksidir.

Porfirinuriya — porphirinuria — siydikda porfirinlar paydo bo‘lishi; porfirinlar ortiqcha hosil bo‘lganda yoki ularning parchalanishini ta’minlovchi fermentlar faolligi susaygan hollarda kuzatiladi.

Porfiriya, porfirin kasalligi — morbus porphirinum — porfirinlar almashinushi va gem sintezining buzilishi natijasida yuzaga keladigan irsiy kasalliklarning umumi nomi. Paydo bo‘lishi va rivojlanishiga ko‘ra jigar P. si, terining kechikkan P. si, tug‘ma eritropoetik va b. xil P. farq qilinadi.

Preagonal holat — preagonia — *preagoniya* — organizmning nihoyatda og‘ir yoki «qil ustida turgan» holati; agoniyanidan oldingi holat. MNS oliv bo‘limlarda tormozlanish avj olishi, ong xiralashishi, ba’zan bulbar markazlarning qo‘zg‘atishi bilan ifodalananadi.

Proliferatsiya — proliferatio, -onis, f (lat. proles — avlod + ferre — tashish, yaratmoq) — to‘qima elementlarining ko‘payishi; hujayralarning to‘g‘ri va noto‘g‘ri bo‘linishi tufayli ro‘y beradi.

Progeriya — progerya — barvaqt qarish belgisi bilan kechadigan kasallik. Bolalar va katta yoshdagi kishilar P. si farq qilinadi. Ba’zan sog‘lom odamlarda ham paydo bo‘ladi. Bolalarda aqliy va jismoniy yetishmovchilik bilan davom etadi. Ular 5—8 oylik yoki 3—4 yosh bo‘lgach avval bo‘yi o‘sishdan to‘xtaydi, keyin sochi oqaradi, tokiladi, terisi qurib, bujmayib qoladi. Bolaning soch va tishlari siyrak, tirnog‘i yupqa, jinsiy a’zolari kam rivojlangan, aqli zaif bo‘lib o‘sadi.

Prognоз — prognosis, is, f. (gr.) — kasallikning kelgusidagi kechishi va qanday tugashi haqida shifoqorning ilmiy asoslangan fikr-mulohazalari; P. ma’lum bemorda kasallikning o‘ziga xos kechishiga doir olingan anamnez va statistik ma’lumotlarga, kasallik etiologiyasi va patogenezini bilishga asoslanadi.

Proinsulin — proinsulinum — insulinning nofaol biosintetik old moddasi. Me’da osti bezi Langerxans orolchalarining beta-hujayralarida sintezlanadi. 81—86 aminokislota qoldig‘idan tashkil topgan potipeptid. P. dan fermentativ yo‘l bilan S peptnd (birlashtiruvchi peptid) ajralganda *insulin* hosil bo‘ladi.

Proyomenoreya — xayz sikli orasidagi kunlarning qisqa bo‘lishi, bot-bot (xar 18—20 kunda) hayz ko‘rish.

Proktit — proctitis, itidis, f. (rp) — to‘g‘ri ichak shilliq pardasining yallig‘lanishi. P. so‘zak, dizenteriya, ovqatdan zaharlanish, bavosir, kolit oqibatida kelib chiqadi. P. ning gemorragik, kataral, yiringli, yarali va nekrotik turlari bor. P. da bemor tez-tez hojatga boradi, to‘g‘ri ichak achishib og‘riydi, shilliq, ba’zan qon ajraladi. Tashqi chiqaruv yo‘li shishib, qizaradi. Bemor ozib ketadi, darmoni quriydi.

Proktosigmoidit — to‘g‘ri va sigmasimon ichak shilliq qavatlarining birgalikda yallig‘lanishi. Turli kimyoviy moddalar (simob, ko‘rg‘oshin, yod) dan zaharlanish, infeksiya va b. sabab bo‘ladi. P. da bemorning harorati ko‘tariladi, ichi ketadi, qorni burab ogriydi. Qon, yiring aralash axlat keladi. P. ning atrofik, kataral, yarali xillari bor.

Prostatit — prostatitis, itidis, f.(gr.) — prostata bezining yallig‘lanishi. Infeksiya prostata beziga qon va limfa orqali yoki siyidik chiqarish kanali (uretra) dan o‘tishi natijasida kelib chiqadi. O‘tkir va surunkali bo‘ladi. O‘tkir P. da bemor tez-tez siyadi. Siyganida shu soha og‘riydi, achishadi, siyidik jildirab tushadi, hojat vaqtida to‘g‘ri ichak sohasnda og‘riq paydo bo‘ladi, isitma ko‘tariladi. Oldi olinmasa, surunkali tus olishi, jinsiy zaiflik, bepushtlik kabi og‘ir asoratlar yuzaga kelishi mumkin.

Prostaglandinlar (PG) — prostaglandinum — hayvonlar gormoni turkumi. To‘yinmagan uzun zanjnrli (S 20) yog‘ kislotalardan sintezlanadi. Birinchi marta odamlarning urug‘don suyuqlig‘ndan topilgan. Hamma hayvon to‘qimalarida juda kam kontsentratsiyada mavjud bo‘lib, ko‘p a’zolarga xilma-xil ta’snr ko‘rsatadi: bronxlarni kengaytiradi (astmada), me’da sekretsiyasini nazorat qiladi (me’da yarasini davolashda), angiotenzinning qon bosimini pasaytirish va siyidik chiqarishni kamaytirishiga qarshi ta’sir qiladi, tug‘ish og‘riqlarini yengillashtiradi. PG tez sintezlanib va tez parchalanib ketadi.

Proteinogen aminlar — biologik faol moddalar; odam va hayvonlar ichagida bakterial floralar ta’sirida aminokislotalardan hosil bo‘ladi (Mas.: putressin, kadaverin). Ba’zi P. a. zaharli.

Proteinuriya — proteinuria, -ae, f (proteinlar + uron, gr.) — siyidikda oqsil ko‘p bo‘lishi. Odatla sog‘lom kishi siyidigi bilan bir kunda 50 mg yoki 0,033 g/l oqsil chiqadi. Siyidik yo‘li kasalliklarida oqsil miqdori oshadi.

Psevdogemofiliya — pseugaemophylia – klinik ko‘rinishi gemofiliyaga o‘xshash, ammo qondagi antigemofil omillar soni o‘zgarishsiz qolgan qon ketishiga moyil kasalliklar (gemorragik diatez) ning umumiy nomi. Irsiy P., shuningdek jigar sirrozida qonda protrombin kamayiishdan yuzaga keladigan P. tafovut qilinadi.

Purin — purinum — qondensirlangan piridinimidazol halqasiga ega geterotsiklik modda. P. unumlari adenin va guanin nuklein kislotalar tarkibiga

kiradi. P. ba'zi hayvonlarda azot almashinuvining oxirgi mahsulotlaridan biri — siyidik kislota (uratlar) shaklida siyidik bilan ajratiladi.

Purpura — purpura, ae, f.; syn. peliosis, is, f. — teri va shilliq pardalarda paydo bo'ladigan pushti rang toshma; mayda-mayda qon quyilgan joylar. Simptomatik va doridan bo'ladigan P. farq qilinadi.

Pustula — pustula, -ae, f (lat. pustula — yiringli pufakcha) ichiga yiring to'plangan pufakcha; terida paydo bo'ladi. P. ning terida yuza yoki chuqr joylashishiga qarab yuzaki (husnbuzar, follikulit, impetigo, sizlog'ich) hamda chuqr (ektima, ruliya) xillari farq qilinadi. Terining turli yiringli kasalliklari (piodermiya) va zahmnning ikkinchi davrida uchraydi. Chuqr P. bitganidan keyin o'rni chandiq bo'lib qoladi.

— R —

Radikulit — radiculitis, itidis, f. — orqa miyaning nerv ildizlari va ulardan ketadigan nerv tolalari kasalligi. Ko'pincha umurtqa pog'onasi kasalligi (osteoxondroz) sabab bo'ladi. R. jarohatlar oqibatida, sovuq qotish, organizm ichdan zaharlanganda, yuqumli kasalliklar asorati sifatida ro'y berishi mumkin. Zararlangan nerv ildizchalari va nerv tolalari bo'ylab og'riq paydo bo'ladi, sezuvchanlikning yo'qolishi, ba'zan harakat buzilishi ham kuzatiladi. Nerv tolalarining qaysi qismi zararlanganligiga qarab bel-dumg'aza, bo'yin-yelka, ko'krak R. va b. farq qilinadi (*yana q. Belangi, Ishias, Ishialgiya*).

Rak — carcinoma, atis, n. (gr.) — kantser, karsinoma, saraton kasalligi —epiteliy to'qimasidan rivojlanadigan havfli o'sma. Epiteliy hujayrasi bor barcha organlar — teri, shilliq qavatlar, qizilo'ngach, o'pka, me'da-ichak yo'li, siyidik-tanosil organlari, shuningdek miya va h. k. da paydo bo'ladi. R. hujayralari juda tez bo'linadi va rivojlanadi hamda atrofdagi sog'lom hujayralarni yemirib boradi. R. odatda o'zi o'rashgan joydagи to'qimani yemirishi, retsediv, metastaz berishi va organizmning umumiyligi holatiga ta'sir ko'rsatishi. Kaxeksiya (ozib-to'zib ketish) bilan xavfsiz o'smalardan farq, qiladi. R. alohida viruslar faoliyati, shuningdek turli fizik, kimyoviy va biologik omillar, kantserogen moddalarining odam organizmiga ta'siri hamda organizmning o'zida sodir bo'ladigan endogen (ichki) kantserogen moddalar, radioaktiv nurlar ta'sirida vujudga kelishi mumkin.

Raxit — rachitis, is, f. (gr.) — organizmda D vitamin yetishmasligi tufayli fosfor-kalsiy almashinuvining buzilishi natijasida kelib chiqadigan kasallik. Odatda 2—3

oylikdan 2—3 yoshgacha bo‘lgan bolalarda uchraydi. R. ga ko‘pincha bolaning chala tug‘ilishi, quvvatsizligi, noto‘g‘ri sun’iy ovqatlantirish sabab bo‘ladi. Bola yaxshi parvarish qilinmasa, ochik havo va quyosh nuridan bahramand bo‘lmasa, noto‘g‘ri ovqatlantirilsa, uning organizmiga D vitamin yetarli miqdorda kirmaydi yoki ultrabinafsha nurlar yetishmaslidan terida D vitamin hosil bo‘lishi buzilib, R. kuchayadi. Bundan tashqari, bolaning tez-tez kasallanishi, homilador onada ovqat ratsionining buzilishi ham R. ga sabab bo‘ladi. R. moddalar almatiinuvining buzilishi hamda turli organ va sistemalar ishining izdan chiqishiga olib keladi.

Reaktivlik — (re + activus — faol, ta’sir ko‘rsatadigan, lot.) — atrof muhitning u yoki bu omillari ta’siriga tirik organizmning o‘ziga xos ma’lum tarzda javob bera olish xususiyati. R. ning biologik tur, yosha aloqador, immunologik, patologik, fiziologik va b. turlari tafovut qilinadi (yana k. *Immunitet, Rezistentlik*).

Reaksiya — reactio, -onis, f (re + action — ta’sir, harkat, lot.) 1) organizmning tashqi yoki ichki ta’sirotlarga javobi; 2) kimyoviy, fizik va biologik agentlar ta’sirida kelib chiqadigan o‘zgarish yoki shu jarayonlar natijasida biror moddaning boshqa moddaga aylanishi.

Reanimatsiya — reanimatio, -onis, f (lat. re + animation — tiriltirish) klinik o‘lim holatidagi kishilarni tiriltirish, baxtsiz hodisalar, kasallik va uning asoratlari natijasida hayot uchun muhim bo‘lgan organlarning to‘satdan yuqolgan va o‘zgargan funksiyalarini tiklash uchun zudlik bilan ko‘riladigan chora-tadbirlar majmui. R. ga yurak massaji, sun’iy nafas oldirish, qon quyish va b. choralar kiradi.

Reversiya — reversia, -onis, f — mutatsiyaga uchragan organizm fenotipining teskari mutatsiya natijasida yana avvalgi holatiga qaytishi; bunday teskari mutatsiyalar natijasida genda dastlabki nukleo-tidlar ketma-ketligi qaytadan asli holatnga qaytadi. Bunday organizmlar revertantlar deb ataladi.

Revmatizm, — rheumatismus, i, m. (gr.) — bod — biriktiruvchi to‘qima yallig‘lanishi bilan kechadigan yuqumli allergik kasallik (q. *Kollagenozlar*); asosan yurak-tomir sistemasi va bo‘g‘imlar zararlanadi. Ko‘pincha angina va A turkumidagi streptokokklar ko‘zg‘atadigan boshqa kasallikkardan so‘ng rivojlanadi. Aksariyat 7—15 yashar o‘smirlarda uchraydi. R. ma’lum vaqtidan keyin yurak-tomir sistemasining zararlanish (q. *Revmokardit*) belgilari paydo bo‘lib, yurak porogiga olib keladi. Miya R. ida xoreya ro‘y berishi mumkin. Kasallik ko‘pincha surunkali kechib, vaqtiga bilan qo‘zib turadi.

Revmokardit — rheumocarditis, itidis, f. (gr.) — revmatizm (bod) oqibatida yuzaga keladigan yurak kasalligi; bunda yurakning ichki (endokardit), muskul (miokardit) va tashqi (perikardit) qavatlari yallig‘lanishi mumkin. R. da asosan yurakning biriktiruvchi to‘qimalarida ekssudatli yallig‘lanish ro‘y berib, unda spetsifik tugunchalar (revmatik granulyoma) hosil bo‘ladi. Tugunchalar

chandiqlanib, yurak porogi, kardioskleroz vujudga keladi. Bemor darmonsizlanadi, isitmatalaydi, yuragi tez-tez uradi va qattiq og'riydi, nafasi qisadi.

Regeneratsiya — regeneratio, -onis, f (re — snova + generare — ishlab chiqarish, tiklanish, lot.) — 1) tiklanish, asliga kelish; o'lgan hujayralar, to'qimalarning qayta tiklanishi; 2) biologiyada — organizmda olib tashlangan yoki shikastlangan qism o'rnida yangi qism hosil bo'lishi.

Regurgitatsiya — regurgitatio, onis, f. — kovak organlar muskullarining qisqarishi tufayli uning ichidagi narsalarning fiziologik yo'nalishga nisbatan qarama-qarshi tomonga o'tishi, siljishi.

Rezorbsiya, resorptio, -onis, f (lat. re + sorbere — yutmoq) — dori yoki zaharli moddalarning qonga so'rildigan so'ng ta'sir yetishi.

Regressiya — regressio, -onis, f (re + gressus — chekinish, qaytish, lot.) — organizmlarning soddalashuviga olib boradigan o'zgarishlar; biologik R.— organizmlarning ma'lum turi yoki boshqa guruhlar sonining kamayishi, ularning yo'qolib ketishi; fiziologik R.— yashash sharoitiga moslashish tufayli ayrim organlar yoki organlar sistemasi funksiyalarining soddalashuv tomoniga qaytishi.

Rezistentlik — resistantia, -ae, f (+ sistere — qarshilik ko'rsatish, lot.) — organizmning turli shikastlovchi ta'sirotlarga barqarorligi, chidamliligi, ularga qarshi harakat qilishi.

Rezus-antitelo — rezus-omil izoantigenlaridan biriga yoki ularniig kombinatsiyasiga qarshi ta'sir ko'rsatadigan antitelo.

Rezus-omil, rezus-faktor — rezus makakalar (maymunlar) va odamlar eritrotsitlarida bo'ladigan antigen. R. o. bor-yo'qligiga qarab rezus-musbati (odamlarning 85%) va rezus-manfiy (odamlarning 15%) organizmlarga ajratiladi. Rezus-manfiyli odamlarga rezus-musbati odamlarning qoni quyilsa yoki rezus-manfiyli ayolning homilasi rezus-musbati bo'lsa, immun kasallik (chaqaloqlarning gemolitik kasalligi va b.) vujudga kelishi mumkin.

Remissiya, remissio, -onis, f (kamayish, kuchsizlanish, lot.) — kasallikning kechishida unga xos belgi hamda ko'rinishlarning vaqtincha susayishi yoki yuqolishi bilan ifodalanadigan davr. Astenik, giperstenik, paranoid, spontan va h. k. R. tafovut qilinadi.

Restriksiya — hujayraning maxsus fermentlari — ekzonukleazalar ta'sirida hujayraga kirgan yot dezoksiribonuklein kislotaning parchalanishi; R. ni amalga oshiruvchi fermentlar restriktazalar deb ataladi.

Retikulosarkoma - retikulyar to'qima hujayralari (retikulyar, hujayra, gistiotsitlar va b.) dan rivojlanadigan xavfli o'sma.

Retikulotsit — reticulocytus — retikulyar hujayralar; qon yaratuvchi organlar asosini hosil qiladi. Sitoplazmasi bazofil bo'yaluvchi, yadrosi oval, mayda donador xromatinli hujayralar. R. ichak, buyrak va b. organlarning *shilliq* qavatlarida

uchraydi. R. turli mikroblar va b. moddalarni yutishi bilan boshqa hujayralardan farq qiladi.

Retikulotsitoz — reticulocytosis — periferik qonda retikulotsitlarning ko‘payishi; qon ishlab chiqaradigan organlar faoliyati kuchayganida kuzatilali.

Retikulotsitopeniya — periferik qonda retikulotsitlar sonining kamayishi; qon ishlab chiqaruvchi organlar faoliyati susayganida kuzatiladi.

Retsidiv — recidivum, -i, n (orqaga + cidere — qaytarish, lot.) — biror kasallikka uchragan bemorda mazkur kasallik belgilarining *remissiyalangandan* so‘ng yana qaytalanishi.

Rilizing gormonlar, rilizing omillar, liberinlar, statinlar — gipotalamusning ayrim yadrolarida sintezlanadigan neyrogormon — peptidlar turkumi. U gipotalamusdan qon tomirlar orqali gipofizning old bo‘lagiga yetib, trop gormonlar (tireotropin, somatotropin, gonadotropin) hosil bo‘lishi va ajralishini boshqaradi. R. g. hujayralarda sintezlanadi, ularning ishlab chiqarilishi nerv signallarining gormonal signalga aylanishini ifodalaydi. Tireotropin R. g. (TRG) — tireoliberin gipofizning old bo‘lagida tireoid stimullovchi gormon sintezini va ajralishini kuchaytiradi; lyuteinlovchi gormon ajralishi omili lyuliberin — gipofiz old bo‘lagida follikul stimullovchi gormon (FSG) va lyuteinlovchi gormon (LG) ishlanishi va sekretsiyasini kuchaytiradi; kortikotropin R. g. — gipofizning old bo‘lagida kortikotropin sintezini va sekretsiyasini stimullovchi gormon. Somatotropin R. g. (SRG) — somatoliberin; bunday tabiiy gormon aniq belgilangan emas, ammo somatotropin sintezi va sekretsiyasini stimullaydigan dekapetid topilgan. Somatotropin ajralishnni ingibirlovchi gormon (SIG), somatostatin, prolaktin ajralishini ingibirlovchi gormon (PIG), melanotropin ajralishini ingibirlovchi gormon (MIG) shular jumlasidandir.

Rinolit — rhinolithus, i, m. (gr.); syn. calculus nasalis — burun toshi; asosan yosh bolalarda uchraydi. Bunda burunga tinqilgan yot jismlar o‘z vaqtida olib tashlanmasa, vaqt o‘tishi bilan ular atrofida tarkibida ohak tuzlari ham bo‘lgan burun suyuqligi to‘planadi va u asta-sekin ko‘payib, qattiqlasha borib, burun toshiga aylanadi.

Rinopatiya — rhinopathia — vazomotor va allergik tumovlarning umumiy nomi.

Rinoreya — rhinorrhoea — tumov belgisi; bunda burun bo‘shlig‘i shilliq pardasi va uning ostki to‘qimalaridagi shilliq bezlar chiqaradigan suyuqlik miqdori nihoyatda ortib ketadi.

Rinofaringit — rhinopharyngitis — burun va halqum shilliq pardasining bir vaqtda yallig‘lanishi.

Rinofaringoskleroma — burun bo‘shlig‘i va halqum biriktiruvchi to‘qimalarining skleroma kasalligi.

Rinofima — rhinophyma, atis, n.(gr.); — burun terisining surunkali yallig‘lanishi; asosan burun uchi va qanolari sohasidagi teri qalinlashib, qip-qizarib turadi, unda infiltrat va tugunchalar paydo bo‘ladi.

Rozeola — roseola, -ae, f (lat. roseola — atirgulcha) — teridagi yuza joylashgan qon tomirlarining yallig‘lag‘ishi tufayli paydo bo‘ladigan pushti-qizil dog‘lar. Oval yoki dumaloq shaklda, kattaligi moshdek, ba’zan no‘xatdek bo‘lib, barmoq bilan bosilganda yo‘qoladi, barmoq olinsa yana paydo bo‘ladi. Zahmning ikkinchi davrida, terlama, qizamiq, qizilcha va b. yuqumli kasalliklarda uchraydi.

Rubor — rubor, -oris, m (lat. rubere — qizarish) — qon tomirlaning to‘laqonligi hisobiga (giperemiya) qizarish, yallig‘langishning klassik belgilaridan biri.

Ruhiy kasalliklar — morbi psychici — psixik kasalliklar psixozlar — bosh miya faoliyatining buzilishidan kelib chiqadngan xastaliklar. R. k. ning paydo bo‘lishida irsiy omil (nasl) asosiy o‘rin tutadi. Mas.: oligofreniya, psixopatiya, maniakal — depressiv psixoz, epilepsiya va shizofreniyaning kelib chiqishi ko‘pincha kishining nasl nasabiga bog‘liq. Surunkali alkogolizm va giyohvandlik ham bora-bora kishini R. k. ga olib kelishi mumkin. R. k. ning vujudga kelishida kishining o‘ziga xos xususiyatlari, jinsi, yoshi ham ahamiyatga ega. R. k. da asosan gallyusinatsiya, alaxlash, shilqimlik, xayajonlanish, ong va xotira zaiflashuvi, esi pastlik, telbalik va h. k. holatlar kuzatiladi.

— S —

Sadizm — sadismus, i, m. — jinsiy buzuqlik; boshqa shaxsni ma’naviy (tahqirlash, haqoratlash) yoki jismoniy qiynash yo‘li bilan jinsiy maylni qondirish.

Saliuriya — saliuria — siydik bilan haddan tashqari ko‘p tuz ajralishi.

Salpingit — salpingitis, itidis, f. (gr.) — bachadon (Fallopiy) nayining yallig‘lanishi; nayga so‘zak, sil infeksiyasi va b. mikroblar tushishi natijasida ro‘y beradi. Bachadon naylari berqilib qolishi va chandiqlanishi mumkin. Kasallik odatda o‘tkir va surunkali kechadi.

Sanchiq — colica, ae, f. — qorin bo‘shlig‘i organlarida bo‘ladigan qattiq og‘riq hurujlari. Qorindagi biror organ muskullarining uzoq vaqt, keskin qisqarishidan hosil bo‘ladi.

Saraton kasalligi — q., *Rak*.

Sarkoidoz — sarcoidosis — granulyomatoz kasallik; o‘ziga xos granulyomalar hosil qilib, turli organlarni, xususan limfa sistemasi, ichki a’zolar va terini shikastlaydi.

Sarkoma — sarcoma, atis, n. (gr.) — biriktiruvchi to‘qimadan paydo bo‘ladigan xavfli o‘sma; turli klinik-morfologik ko‘rinishlarga ega. S. qon orqali tarqalib, atrofidagi to‘qimalarni yemiradi, olib tashlangandan keyin yana o‘saveradi, juda tez metastaz beradi.

Satiriazis — erkaklarda jinsiy aloqa maromining buzilishi, jinsiy aloqadan qanoatlanmay, unga ruju qilish holati.

Saturnizm — qo‘rg‘oshin bilan surunkali zaharlanish. Bunda bemor organizmida porfirinlar almashinushi buzilib, anemiya vujudga keladi, polinevrit va b. o‘zgarishlar bo‘ladi.

Saxaroza — glyukoza va fruktozadan iborat disaxarid. Iste’mol qilinadigan, ovqatga ishlataladigan qand. Shakarqamish, lavlagida ko‘p bo‘lgani uchun qamish shakari, lavlagi qandi deb yuritiladi.

Seboreya — yog‘ bezlari funksiyasining buzilishi bilan kechadigan teri kasalligi. Asosan gipofiz bezining faoliyatiga, yog‘ almashinushi va teri yog‘ bezlari ishining buzilishiga bog‘liq. S. da yog‘ bezlaridan ajralib chiqadigan yog‘ ko‘payib yoki kamayib ketib, sifati ham o‘zgaradi. Ko‘pincha balog‘at yoshidagi o‘smirlarda kuzatiladi. S. alomatlari asosan yuz, bosh, ko‘krakning yuqori qismi va yelkada, yani yog‘ bezlari ko‘p joylashgan erlarda uchraydi. Moyli va quruq S. farq qilinadi. Moyli S. da teri yaltirab turadi, quruq S. da esa aksincha yog‘ kam chiqadi, teri yupqa va quruq bo‘ladi. Boshga qazg‘oq yig‘iladi. Bemor badaniga pushti, qizil rangli, usti qipiqli, kattaligi va shakli har xil dog‘lar tushadi.

Sekvestr — sequestrum, i, n. — to‘qimaning nobud bo‘lib, ajralib chiqqan qismi. Mas.: taloqda infarkt bo‘lganida undan ajralgan qismi yoki suyak silida oqma yaradan yiring bilan ajralib chiqadigan o‘lik suyak qismi.

Sekretin — secretinum, i, n. — polipentid gormon. Uning aminokislota tartibi glyukagon, vazoaktiv intenstinal peptid va gastrin ingibirlovchi peptidga yaqin. O‘n ikki barmoq ichakning shilliq pardasida ovqat moddalari (uglevodlardan tashqari) ta’sirida, kislotali sharoitda kamayadi. S. qonga ajraladi. U karbonatga boy pankreatik shira va o‘t ajralishini stimullaydi, me’dada xlorid kislota hosil bo‘lishini kamaytiradi.

Semizlik, — lipomatosis, is, f. (g‘p.) — yog‘ bosishi moddalar almashinuvining buzilishi natijasida teri osti kletchatkasi va to‘qimalarda ortiqcha yog‘ yig‘ilishi, gavda og‘irligini ko‘rsatkichdan 20 foiz va undan ko‘p oshishi. Kasallik gipotalamus ishtaha markazining zaifligi, endokrin kasalliklar va MNS kasalliklari oqibatida kelib chiqadi.

Sensibilizatsiya — sensibilisatio, onis, f. — organizm yoki uning ayrim ko‘zg‘aluvchi organlari (Mas.: sezgi organlari) ning atrof-muhit yoki ichki muhitning ba’zi omillari ta’siriga nisbatan sezuvchanligining oshishi. S. bir qancha

allergik kasalliklar (bronxial astma, pollinozlar, allergik tumov, dermatit va b.) asosini tashqil etadi.

Sepsis — sepsis, is, f. (gr.) — og‘ir infekzion kasallik; maxalliy infeksiya o‘chog‘idan yiring hosil qiluvchi mikroblar (stafilokokklar, streptokokklar) ning qonga, limfa yo‘llari, ulardan esa bemorning hamma to‘qima va organlariga tarqalishi. Bemor umumiy ahvolining og‘irlashishi, haroratning ko‘tarilishi, hushsizlik, organlarda yiring hosil bo‘lishi (septikopiemiya) va b. bilan ifodalanadi. Chaqaloqlar sepsisi bolaning chaqaloqlik davrida rivojlanadi; mikroorganizmlar bola organizmiga ona qornida yoki tug‘ruq paytida teri, kindik, nafas va me’da-ichak yo‘li orqali o‘tadi.

Septikopiemiya — septicopyemia — yiring metastazi oqibatida ro‘y beradigan sepsis; bunda organizmning zaharlanishi bilan birga turli organ va to‘qimalarda yiring to‘planadi.

Septitsemiya — septicemia — sepsisning qonda patogen mikroblar bo‘lganda ham yiringli yalliglanish o‘choqlari hosil bo‘lmaydigan shakli.

Seroprofilaktika — yuqumli kasalliklarning oldini olish maqsadida organizmga qon zardobidan tayyorlangan mahsulotlar (Mas.: gammaglobulin) yuborib, passiv immunitet hosil qilish usuli.

Seroterapiya — serotherapy, serumtherapia, ae, f. — odam va hayvonlar yuqumli kasalliklarini immun zardoblar bilan davolash usuli; zardob tarkibidagi antitelo (antitoksin) lar yordamida mikroblar (toksinlar) ni zararsizlantirishga asoslanadi.

Serotonin, 5- gidroksitriptamin — biogen amin, neyrotransmitter. MNS, o‘pka, taloq va ingichka ichakning shilliq pardasida triptofandan sintezlanadi. S. qonning semiz hujayralari va trombotsitlarda saqlanadi. S. neyrotransmitter (vositachi) sifatida ingichka ichak qisqarishini quchaytiradi, nafas yo‘llariga va tomirlar sistemasiga ishlatiladigan miqdoriga qarab kengaytiruvchi yoki qisqartiruvchi ta’sir ko‘rsatadi.

Sigmoidit — sygmoiditis — yo‘g‘on ichakning pastga tushuvchi qismi bilan to‘g‘ri ichak o‘rtasidagi qismi (sigmasimon ichak) ning yallig‘lanishi. S. da qorinning chap tomonida og‘riq, ich qotishi, og‘riqli kuchaniq kuzatiladi. Ahlat shilimshiqli, ba’zan qonli bo‘lishi mumkin. S. ning o‘tkir, surunkali, kataral, yarali, gemitogen va gemorragik turlari farqlanadi.

Sideroz — siderosum — 1) qizil temir rudasini qazib oluvchi konchilar, quyuv sexi ishchilari, elektr payvandchilar, metall buyumlarni pardozlovchilar va b. da uchraydigan o‘pka qattiqlashishi kasalligi (qizil S.). Bunda o‘pka sariq-qo‘ng‘ir-qizil rangli bo‘lib qoladi. Temir (II) - oksid yoki ko‘mir va fosfor birikmalari changining o‘pkaga o‘tirib qolishi oqibatida uning qora rangga kirishi (qora S.); 2) to‘qimalar va organlarda temir birikmalari to‘planishi.

Sideropeniya — sideropenia — qon zardobida temir miqdorining kamayishi oqibatida organizmda temir yetishmasligi; Mas.: temir yetishmasligi natijasida kelib chiqadigan anemiya (kamqonlik).

Siydik — urina, ae, f.; uron (gr.) — *peshob* — buyraklar ishlab chiqaradigan va organizmdan siydik yo'llari orqali chiqarib yuboriladigan biologik suyuqlik. Siydik tarkibnda suv (96%), tuzlar, moddalar almashinushi mahsulotlari (siydikchil, siydik kislota va b.) hamda yot moddalar bor. S. ning faol reaksnyasi odamlarda iste'mol qilingan ovqatga qarab o'zgaradi: rN — 4,3 dan 8,0 gacha bo'lishi mumkin. Ajraladigan S. miqdori organizmdagi suv balansiga bog'liq. Odam normada bir kecha-kunduzda 1,2—1,6 l S. ajratadi.

Syydik yuli — ureter, eris, m. — siydikni buyrak jomidan qovuqqa o'tkazuvchi juft naysimon organ. Qorin bo'shlig'ining orqa devorida, umurtqa pog'onasining ikki tomoni bo'ylab joylashgan. Uzunligi 25—30 sm, diametri 2,5—13 mm.

Siydik kislota, urat kislota — purin mahsuloti, azot almashinuvining muhim oxirgi maqsuloti. Ksantindan oksidlanish natijasida hosil bo'ladi. Asosan qushlar ajratadi. Odamlar siydigida S. k. siydik bilan ajratiladigan umumiy azotning 1—3 foizini tashqil qiladi.

Siydik tuta olmaslik — siyish ehtiyoji bo'limgan holda siydik chiqarish kanalidan beixtiyor siydik ajralishi; turli urologik, ginekologik, nevrologik kasallikkarda kuzatiladi. Doimiy (absolyut) va qisman (nisbiy) S. t. o. hamda tungi siyg'oqlik tafovut qilinadi. Doimiy S. t. o. da siydik qovuqqa yig'ilmay, to'xtamasdan oqib turaveradi. Bu tug'ma nuqsonlarda bo'ladi. Qisman S. t. o. da siydik beixtiyor o'z-o'zdan keladi. Kishi qattiq yo'talganida, og'ir yuk ko'targanida, kulganida, aksirganida siyib yuboradi. S. t. o. qovuq va siydik chiqarish kanali sfinkterlari shikastlanganida ham kuzatiladi. Tungi siyg'oqlik — uyquda beixtiyor siyib qo'yish — ko'pincha yosh bolalarda uchrab, MNSdagi vaqtincha funksional o'zgarishlar sabab bo'ladi va bola 12—16 yoshga yetganda to'xtaydi.

Siydik tutilishi, ishuriya — ischuria, ae, f. (gr.) — siydik tanosil sistemasi organlarining turli kasalliklari: o'sma, prostata bezi adenomasi, shu bezning yallig'lanishi, siydik toshi kasalligi va b. da siydik chiqarish kanali teshigining bekilib siydik tutilib qolishi. MNS kasalliklari, shuningdek to'g'ri ichak va but sohasidagi yallig'lanishlar, chanoq suyagi shikastlanishi natijasida siydik chiqaruv kanalining zararlanishi ham S. t. ga sabab bo'ladi. S. t. da bemorning tez-tez siygisi qistaydi, biroq siya olmaydi, chov va but sohasnda og'riq paydo bo'ladi,

Siydik tsilindrлari — siydik cho'kmalarining tsilindr shakllli elementlari. Soxta va Chin S. s. bor. Soxta S. s. tuz, mioglobin va bakteriyalardan iborat. Chin S. s. gialinli, donador va sharsimon bo'ladi. Siydikda gialinli tsilindrлar bo'lishi buyrakda biror illat borligini ko'rsatadi.

Siydik chiqarish, siyish — uresis, is, f, (gr.) — qovuq to‘lganda vaqt-i-vaqt bilan uni bo‘shatib turishdan iborat murakkab fiziologik jarayon.

Siydik chiqarish kanali, uretra — urethra, ae, f. (gr.) — siydik sistemasining qovuqdan tashqariga siydik chiqaradigan nay shaklidagi organi. Ayollar S. ch. k. (uzunligi 4—5 sm) qovuq tubidagi teshikdan boshlanib, tashqi teshigi kin dahliziga klitordan bir oz pastroqdan ochiladi. Erkaklarda S. ch. k. (uzunligi 20 sm cha) qovuqdan boshlanib, zakar boshchasining uchida tashqi siydik chiqaruv teshigi bilan tugaydi.

Siydik hosil bo‘lishi — uropoiesis, is f. (gr.) — qon plazmasidan buyraklarda siydik hosil bo‘lish jarayoni. Organizmdan moddalar almashinushi chiqindilari, ortiqcha tuzlar, shuningdek suv va b. ning chiqib ketishini ta’minlaydi. MNS va gormonlar vositasida idora etiladi.

Siydikchil, mochevina, karbamid — karbonat kislota diamidi. Azot almashinuvining asosiy oxirgi mahsuloti. Organizmda mstabolik jarayonlarda ajraladigan ammiakni zaxarsizlantirish yo‘li; S. ammiak va karbonat angidriddan sintezlanadi. Bir kecha-kunduzda odam siydiqi bilan taxminan 30 g S. ajratadi.

Silikoantrakoz — pnevmokonioz, ko‘mir changini uzoq vaqt yutishdan paydo bo‘ladigan kasallik.

Silikoz, pnevmokonioz —tarkibida kremniy qo‘sh oksid zarrachalari bo‘lgan changlarni uzoq vaqt yutishdan paydo bo‘ladigan o‘pka kasalligi. S. asosan tog‘ ruda sanoatida, er osti shaxtalarida, mashina qurilishi sanoatida va shunga o‘xhash soxalarda ishlovchi kishilarda kuzatiladi.

Simmonds — **Shien sindromi**, gipotalamus — gipofiz kaxeksiyasi, gipopituitarizm — adenogipofiz va oraliq miyadagi destruktiv o‘zgarishlar natijasida hamma trop gormonlar sekretsiyasi kamayib ketishi yoki yo‘q bo‘lishi oqibatida kelib chiqadigan kasallik. Unga o‘smlar, kalla suyagi shikastlanishlari natijasida adenogipofizga qon quyilishi, tug‘ish vaqtida ko‘p qon ketishi oqibatida gipofiz nekrozi sabab bo‘ladi. Qalqonsimon bez, jinsiy bezlar, buyrak usti bezi faoliyatining keskin pasayishi belgilari va kaxeksiya ro‘y beradi.

Simpatalgiya —vegetativ nerv sistemasi simpatik qismining zararlanish sindromi; to‘qimalar achishib og‘riydi va trofik o‘zgarishga uchraydi (shish paydo bo‘lib, terining rangi o‘zgaradi, ma’lum bir joy terlaydi va b.).

Simptom — symptomata, um, n., pl. — patologik holat yoki kasallik belgisi. Sub’ektiv (bemordan so‘rab olingan) va ob’ektiv (bemorni turli yo‘l, Mas.: rentgen bilan tekshirib bilingan) S. lar farq qilinadi.

Simptomatika — kasallik gruppalari yoki ayrim kasalliklar belgilarining yig‘indisi. Ichki kasalliklarni aniqlashda foydalilanadi.

Sinalbumin — qon zardobidagi o‘zining fiziologik mohiyatiga ko‘ra insulinga qarshi bo‘lgan albumin.

Sindrom — syndromum, i, n. — yagona patogenez bilan bog‘liq kasallik belgilarining birgalikda yuzaga chiqishi; mustaqil kasallik (Mas.: Mener sindromi) yoki biror kasallik bosqichi (Mas.: surunkali nefritda nefrotik S., uremiya) deb qaraladi.

Skleroz — sclerosis, is, f. (rp.) — surunkali yallig‘lanishlar oqibatida organ va to‘qimalarda biriktiruvchi to‘qimalar o‘sib ketishi va ularning qattiqlashib qolishi, S. tarqalgan va o‘choqli bo‘lishi mumkin. Tarqalgan S. da organlar qattiqlashishdan tashqari, bujmayyb, yuzasi donador yoki g‘adir-budir bo‘lib qoladi (ikkilamchi buyrak bujmayishi, jigar va o‘pka sirrozi). o‘choqli S. esa nekroz o‘choqlarida chandiqlar hosil qiladi.

Somatoliberin — q. *Rilizing gormonlar*.

Somatomedinlar — o‘sishni kuchaytiruvchi va insulinga o‘xhash ta’sir etuvchi biologik faol polipeptidlar turkumi. S. ga odam qonidan ajratib olingan A va S. S., qonning antiinsulin, antitelolar tomonidan jabrlanmaydigan I, II insulinsimon ta’sirga ega omillari va boshqa bir nechta moddalar kiradi. Ular tuzilishi va ta’siriga ko‘ra bir-biriga o‘xhash. S. ning biologik ta’siri juda keng. Ular tog‘ay o‘sishini va undagi bir qator biokimyoviy jarayonlarni quvvatlaydi. Qondagi S. asosan jigardan kelib chiqadi. Ular miqdori somatotrop gormonga (STG) yaqindan bog‘liq bo‘lsa ham, S. ta’siri ancha xilma-xilligi bilan farqlanadi.

Somatostatin — somatotrop gormon va gipofizning boshqa bir nechta gormonlari sekretsiyasini, periferik endokrin bezlar funksiyasini hamda me’da-ichak fermentlarini susaytirish xususiyatiga ega gipotalamik neyrogormon. S. asosan gipotalamusning nerv yadrolarida, shuningdek nerv sistemasining boshqa bo‘limlarida va me’da-ichak yo‘lida sintezlanadi. S. ta’sir spektrining ancha keng bo‘lishi uning dori sifatida qo‘llanishini qiyinlashtiradi.

Somatotrop gormon (STG), somatotropin — o‘sish gormoni. Gipofizning old bo‘lagi gormoni. Oqsil tabiatiga ega. Organigmda moddalar almashinuvining barcha turlarini rostlab turadi. Asosiy ta’siri oqsil almashinuviga anabolik (oqsillarni o‘zlashtirish, sintetik jarayonlarni kuchaytirib, yemirilishni pasaytirish) effektdan iborat; skelet o‘sishini kuchaytiradi, tanani kattalashtiradi. S. g. ortiqcha ishlab chiqarilganda *akromegaliya* nomli og‘ir kasallik kelib chiqadi, yosh organizmda gigantizm kuzatiladi. S. g. va boshqa bir qator trop gormonlar yetishmaganda odam o‘sishdan keskin orqada qoladi, skelet va boshqa to‘qimalar differensiatsiyalanishi sekinlashadi, bu *nanizmga* sabab bo‘ladi.

Somnambulizm — somnambulismus, i, m. — lunatizm — ong buzilishi; bunda bemor uyquda odatdagи harakatlarni g‘ayriixtiyoriy bajaradi (Mas.: yuradi, buyumlar-i olib taxlaydi va x. k.).

Soxta gematuriya — pseudohaematuria — siydikda qon pigmentlari aralashmalari bo‘lishi (Mas.: gemoglobinuriyada) tufayli uning qizil rangga bo‘yalishi.

Soch — crinis, is, m.; capillus, i, m.; pilus, i, m.; trix, trichos, f. (gr.) — odamning bosh terisidan o‘sadigan ipsimon shox unum. S. mayin, dag‘al, jingalak bo‘ladi. S. ning teri ustidagi qismi tola, teri ostidagi qismi esa ildiz deyiladi. S. ildizi S. xaltachasida joylashgan. Xaltachaning ichki qinida S. piyozchasi va so‘rg‘ichi o‘rnashgan. S. asosan azot va oltingugurtga boy oqsilli shox modda — keratindan tashqil topgan. S. rangi kora, malla, oqish bo‘ladi, bu sochdagi pigmentlar miqdoriga bog‘liq. Yosh o‘tgan sayin pigmentlar kamayib. S. oqara boshlaydi. S. piyozchadan o‘sadi, bu jarayon organizmning umumiyligi ahvoliga, nerv va endokrin sistema holatiga, moddalar almashinushi, ovqatlanish tarzi, shuningdek uni parvarish qilishga bog‘liq.

Soch oqarishi — soch rangining o‘zgarishi; soch ildizi pigmsntining kamayishi yoki yo‘qolishidan kelib chiqadi. Asosan kishi qariganda kuzatiladi. 35—40 yoshlarda bir-ikkita tola oqarib, keyinchalik ko‘paya boshlaydi, ba’zan soch vaqtidan ilgari oqarishi ham mumkin. Dastlab chekkadagi, keyinroq butun boshdagi soch oqaradi; qosh va kipriklar kechrok oqaradi. Qariganda S. o. normal fiziologik holatdir; yoshlikda S. o. ga nerv va endokrin sistema faoliyatining buzilishi, kamqonlik, vitaminlar yetishmasligi, asabiy holat, o‘ta toliqish va b. sabab bo‘ladi. Vaqtidan ilgari S. o. irsiy bo‘lib, nasldan-naslga o‘tishi ham mumkin.

Soch to‘qilishi — alopecia, ae, f. (gr.). — sochning butunlay yoki qisman to‘qilishi. Qarilikda S. t. yosh ulg‘ayishi bilan terida yuz beradigan o‘zgarishlarga, shuningdek soch oqarishi kabi normal fiziologik holatga yoki organizmning umumiyligi qarishiga bog‘liq. Vaqtdan ilgari S. t. turli yoshda kuzatilib, ko‘pincha biror betoblik alomati bo‘lishi mumkin. S. t. ga aksariyat seboreya sabab bo‘ladi. Bolalarda S. t. og‘ir yuqumli kasalliklar (gripp, bezgak va b.), shuningdek organizmda vitaminlar yetishmasligi, jigar, me’d-a-ichak, nerv sistemasi, qalqonsimon bez va jinsiy bezlarning surunkali kasalliklari oqibatida ro‘y beradi. Ba’zan soch piyozcha qismining to‘la rivojlanmasligi tug‘ma soch chiqmay qolishiga sabab bo‘ladi.

Soqovlik — eshituv organining tug‘ma yetishmaganligi yoki ilk bolalik davrida ro‘y bergen karlik oqibatida, shuningdek miyadagi nutq markazlarining yetarli takomillashmaganligi yoki shikastlanishi natijasida kelib chiqadigan nuqson. Eshitish qobiliyati saqlanib qolganda esa S. ka nutq markazi yoki MNS ning zararlanishi sabab bo‘ladi.

Spazm — spasmus, i, m . — muskullarning beixtiyor qisqarishi. Ko‘ndalang-targ‘il (skelet) muskullar, silliq muskullar, qon tomirlar devori, bronxlar, qizilo‘ngach spazmi farqlanadi.

Spazmofiliya, shaytonlash — nerv-muskul qo‘zg‘alishi belgilari kuchayishining larintospazmga moyillik bilan birga kuzatilishi; qonda kalsiy miqdorining kamayishi natijasida paydo bo‘ladigan kasallik. Ko‘pincha raxit bilan og‘rigan 6—18 oylik bolalarda uchraydi. Xromosomalar tutadi. S. meyoz yo‘li bilan bo‘linib, haploid to‘plamli xromosoma tutuvchi II tartibli S. ga aylanadi.

Spermaturiya — spermaturia, ae, f. (gr.) — siydikda spermatozoidlar bo‘lishi. Jinsiy aloqa qilganda yoki ixtilom bo‘lganda shahvatning siyidik bilan aralashuvidan bo‘ladi.

Spid (sindrom priobretnogo immunodefitsita) — q. *Orttirilgan immun tanqisligi sipdromi*.

Spondilit — spondylitis, itidis, f. (gr.) — umurtqa pog‘onasining surunkali yallig‘lanishi. Ko‘pincha sil kasalligidan keyin kelib chiqadi. Zahm, aktinomikoz, stafilokokk infeksiyasi, revmatizmga aloqador artrit va b. kasallikkarda kamroq uchraydi. S. da umurtqalar tanasi yemirilib, umurtqa pog‘onasi-ni t shakli o‘zgaradi. Kasallik og‘irlashganda umurtqa pog‘onasini o‘rab turgan to‘qimalarda oqma paydo bo‘lib, orqa miyaning zararlanishi kuzatiladi.

Staz — stasis, is, f. (gr.) — tananing biror bir qismida qon yoki boshqa fiziologik suyuqliklar (Mas.: o‘t, siyidik, so‘lak) tabiiy oqimining to‘xtashi, harakatlanmay turib qolishi.

Stenoz — stenosis, is, f. (gr.) — naysimon organ yoki uning tashqi teshigining torayib qolishi. S. qaysi organda yuz bergenligiga qarab bir necha turi farq qilinadi. **Stenokardiya**, yurak *sanchig‘i* — stenocardia, ae, f. (gr.) — yurak ishemik kasalligining bir xili; bunda ko‘krak qafasining‘ markazida (to‘sh suyagi orqasida) yoki chap qismida g‘ijimlovchi og‘riq paydo bo‘lib, u chap qo‘lga, bo‘yinga tarqalib, qo‘rquv va holsizlanish bilan kechadi. S. hurujlari jismoniy zo‘riqqanda, hayajonlanganda, ba’zan tinch holatda ham ro‘y berib, odatda bir necha daqiqa davom etadi. S. yurak toj tomirlari aterosklerozida, gipertoniya, ba’zan kollagen kasallikkarda kuzatiladi.

Steridlar — sterinlar va yuksak yog‘ kislotalarning murakkab efirlari. Aksari S. tarkibiga yog‘ kislotalardan stearat, palmitat va oleat kislotalar kiradi.

Sterinlar, sterollar — ko‘p halqali tetragidrofenantren A halqasining 3-o‘rinda gidroksil va 17-o‘rinda yon shoxcha tutadigan tabiiy steroidlar. Ular hayvon va o‘simlik hujayralarida erkin va glikozid yoki efir shaklida uchraydi. S. kelib chiqishiga qarab zoosterinlar (hayvonlarda), fitosterinlar (o‘simliklarda), mikosterinlarga (zamburug‘larda) bo‘linadi. Eng muhim S. qatoriga xolesterin (zoosterin), stigmasterin (fitosterin) va ergosterin (mukosterin) kiradi.

Steroidlar — qator biologik muhim birikmalar: sterinlar, steroid gormonlar, o‘t kislotalari, kortikosteroидлар, jinsiy gormonlar, D vitaminlar tarkumi, yurak glikozidlari va b. ni o‘z ichiga oladigan ko‘p halqali uglevodorod — siklopentanopergidrofenantren unumlarining katta tarkumi. Bir qator sintetik va tuzilishi o‘zgartirilgan steroid gormonlar farmakologik jihatdan katta ahamiyatga ega. S. ning eng muhim vakili — xolesterin. S. keng tarqalgan variantlarining biosintetik bevosita oldsubstratidir.

Stomatit — stomatitis, itidis, f. (gr.) — og‘iz bo‘shlig‘i shilliq pardasining yallig‘lanishi. S. mustaqil kasallik holida kechishi, shuningdek boshqa kasalliklar belgisi bo‘lishi mumkin; og‘iz bo‘shlig‘ini toza tutmaslik ham S. ga sabab bo‘ladi. Bunda milk qizaradi, achishib og‘riydi, so‘lak oqadi, og‘iz bo‘shlig‘i shilliq pardasida mayda yarachalar paydo bo‘ladi va h. k. S. ning kataral, yarali nekrotik, aftoz, medikamentoz, qandidoz, travmatik xillari farq. qilinadi.

Stress — stress (ingl.) —xaddan tashqari kuchli yoki patologik ta’sirotlar natijasida organizmda sodir bo‘ladigan asabiylilik holati.

Stupor — stupor, oris, m. — odamning barcha tashqi ta’sirotlar, jumladan og‘riq sezgisiga javob berolmay, qotib qolishi. Ko‘pincha ruhiy kasalliklarda kuzatiladi.

Sulfanilamidlar — sulphаниlamide — ximiotapevtik dorilar, sulfanil kislota hosilalari. Asosan infeksioi kasalliklarni davolashda qo‘llaniladi. S. dan etazol, sulfadimezin, ftalazol preparatlari ko‘p ishlatiladi.

So‘rilish — absorptio, onis, f. — moddalarning hujayra qobig‘i orqali hujayraga, hujayradan esa qon va limfaga o‘tishi. Faol fiziologik jarayon. S. ovqat hazm qilish yo‘lida (asosan ichakda), shuningdek o‘pka, plevra, bachardon, siydik, qon, teri va b. yerlarda uchraydi. Ko‘pchilik ovqat moddalari me’da-ichak yo‘lida fermentlar ta’sirida oddiy birikmalarga aylang‘andan so‘ng so‘riladi. Ayrim chiqaruv organlari (Mas.: buyrak) da qayta S. fiziologik jarayonning bir ko‘rinishidir.

— T —

Talamus — thalamus, i, m. (gr.) — ko‘rvu do‘mboqlari —oraliq miyaning sezuvchi yadrolari. Asosan po‘stloq osti markazi bo‘lib, barcha sezuvchi (temperatura, ogriq va b.) impulslarni miya stvoliga, po‘stloq osti tugunlari va katta yarimsharlar po‘stlog‘iga yo‘naltiradi. Talamusda spetsifik va nospetsifik yadrolar bo‘ladi.

Talassemiya — thalassemia — nasldan-naslga o‘tadigan gemolitik anemiya; gemoglobinopatiyaning bir xili. Eritrotsitlarning aynishi, gemoglobin tarqabidagi

globin sintezining buzilishi xarakterli; og‘ir kechgan hollarda kamqonlik avj oladi, jigar, taloq kattalashadi, badan sarg‘ayadi va h. k.

Talkoz — pnevmokonioz, talk changini uzoq vaqt yutishdan paylo bo‘ladigan kasallik.

Tanatogenez — o‘limning sabablari va ro‘y berish mexanizmi, o‘lim jarayonidagi klinik, biokimyoviy hamda morfologik o‘zgarishlar dinamikasi.

Taxikardiya — tachycardia, ae, f. (gr.) — yurak qisqarishlarining tezlashishi. Yurak qisqarish sonining minutiga 90 martadan ortishi. Jismoniy ish qilganda, ko‘p ovqat iste’mol qilgandan keyin, hayajonlanganda yoki yurakka ba’zi bir biologik faol moddalar ta’sir yetganda kuzatiladi.

Ta’m bilish — geusia, ae, f. (gr.) — maza bilish — turli eriydigan moddalarning ta’m sezish retseptorlariga ta’sir yetishi natijasida paydo bo‘ladigan sezgi. Bunday rsseptorlar asosan til so‘rg‘ichlarida joylashgan. T. b. ko‘zg‘alish signallari ko‘rinishida maxsus nerv yo‘llari orqali T. b. analizatorlarining markaziy bo‘limiga yetib boradi. Asosiy tam sezgisi: shirin, achchiq, nordon va sho‘r. Ta’m sezgilari yuzaga kelishi uchun ta’sirlovchi modda erigan holda bo‘lishi kerak.

Tenezm — tenesmus, i, m. — ichakning tez-tez qisqarishi natijasida kuchaniq paydo bo‘lib, og‘riq tutishi. Bunda bemor ha deb xojatga borgisi keladi, ammo najas o‘rniga ichak og‘rib, bir oz shilimshik ajraladi yoki hech narsa kelmaydi. To‘g‘ri ichak yallig‘laishi, dizenteriya, proktit, kolitda kuzatiladi.

Tepki — parotitis, parotitidis, itidis, f. (gr.) — epidemik parotit — quloq oldi so‘lak bezining yallig‘lanishi bilan o‘tadigan o‘tkir yuqumli kasallik. Filtrlanuvchi viruslar ko‘zg‘atadi. Asosan 5—15 yashar bolalarda uchraydi. Havo tomchilari orqali, ko‘pincha bemor bilan yaqin munosabatda bo‘linganda, shuningdek uning idish-tovog‘i, sochig‘i va x. k. dan yuqadi. T. da dastlab harorat ko‘tarilib, ishtaha yo‘qoladi, darmon qurib, bosh og‘riydi. Kasallik og‘ir kechganda burun qonashi, quisish, tirishish alomatlari paydo bo‘ladi.

Terminal holat — hayotning oxirgi bosqichi. Biologik o‘lim oldidan organizm faoliyatining so‘nishi. Uch bosqichda o‘tadi: agoniya oldi holati, agoniya holati va klinik o‘lim. T. h. da hayotni tiklash imqoniyati saqlanadi, shuning uchun bu holatda zudlik bilan organizmni tirilti-rish tadbirlarini ko‘rish zarur.

Tetaniya — tetania, ae, f. — tonik (tarangligi ortgan) tomir tortishishi xurujlari ko‘rinishidagi patologik holat. T. ning bolalarda uchraydigan (q. *Spazmofiliya*), me’daga aloqador, yashirin va b. turlari farq qilinadi.

Tetanus — tetanus, i, m. — muskul tolalariga turli nerv impulslarining ketma-ket ta’sir yetishi natijasida muskullarning uzoq vaqt, kuchli qisqarishi, T. muskullarning yuqori chastotadagi qo‘zg‘aluvchanligida vujudga keladi. Bunda muskullar bo‘shashishga ulgurmay, qisqargan holicha turaveradi. Tishsimon va silliq T. farqlanadi.

Timozin, timopoetin — timusdan olingan polipeptid gormon; timotsitlarning umumiy rivojlanishi uchun zarur. T. immunologik holatning shakllanishiga ta'sir ko'rsatmaydi.

Tireoglobulin — thyreoglobulinum — qalqonsimon bezning yod saqlovchi asosiy oqsili, glikoproteid. T. molekulasi ichida yod qalqonsimon bez gormonlari — tiroksin (T_4) va triyodtironin (T_3) hamda yod tutuvchi aminokislotalar — monoyodtirozin, diyodtirozin shaklida bog'langan holda saqlanadi. T. proteoliz yo'li bilan parchalanganda ajralib chiqadigan T_4 va T_3 qonga sekretsiya qilinadi.

Tireoidit — thyreoiditis — qalqonsimon bezning yallig'lanishi. **Autoimmunli tireoidit** — Xashimoto buqog'i — autoagressiv kasallik. Immunologik nazoratning tug'ma nuqsoni oqibatida qalqonsimon bez to'qimasi limloid va plazmotsitar infiltratsiyaga uchrab, keyinchalik uning o'rnini biriktiruvchi to'qima egallaydi. Kasallik uzoq davom etib, buqoq va gipotireoz belgilari bilan ifodalanadi. **Surunkali fibrozli tireoidit**, Ridel buqog'i — qalqonsimon bezda biriktiruvchi to'qima o'sib, parenxima o'rnini qoplab olishi oqibatida kelib chiqadigan kasallik. Asta-sekin boshlanib, qalqonsimon bez kattalashib boradi, yog'ochdek qattiqlashadi, atrofidagi to'qimalarga tutashganligi uchun joyidan qimirlatish cheklangan. Keyinchalik nafas olish qiyinlashadi, ovoz bo'g'ilib (afoniya), yo'tal tutadi. Kasallik yillab davom etib, gipertireozga olib kelishi mumkin. **O'tkir yirintli tireoidit** — qalqonsimon bezning yallig'lanishi oqibatida kelib chiqadigan kasallik. To'satdan boshlanadi, bezning jarohatlangan joyi qattiq og'rib, yutunganda, yo'talganda, boshni qayirganda og'riq zo'rayadi va pastki jag', quloq hamda ensa sohasiga tarqaladi. Bez kattalashib, terisi qizarib qiziydi. Gavda harorati 39—40° gacha ko'tarilib, qonda yallig'lanish belgilari bo'ladi. **O'rtacha kechuvchi tireoidit**, de Kerven bukog'i. Kasallikka virusli infeksiya sabab bo'ladi. Yallig'lanish natijasida qalqonsimon bezning follikul hujayralari va follikullar destruksiyasi kolloid yo'qolishiga olib boradi, shikastlangai joyda infiltrat va keyinchalik fibroz paydo bo'ladi. Qonda T_3 , T_4 ko'payib, tireotoksikoz belgilar yuzaga chiqadi (tireotoksik bosqich), keyingi davrda o'tkinchi gipogireoz bo'lishi mumkin.

Tireotoksik adenoma — qalqonsimon bez avtonom adenomasi yoki bir nechta adenomaning TTG bilan bog'liq bo'lмаган ortiqcha faoliyati natijasida kelib chiqadigan gipertireoid holat. Kasallik alomatlari diffuz toksik buqoq klinikasiga o'xshash, lekin bunda yurak-tomir sistemasi faoliyatining buzilishi va miopatiya ko'proq yuz beradi.

Tireotoksikoz — thyreotoxicosis — q., Buqok, (diffuz toksik buqoq).

Tireotrop gormon — hormonum thyreotropi — tireoidstimullovchi gormon, tireotropin (TTG, TSG) — gipofizning old bo'lagi gormoni. Qalqonsimon bezning normal tuzilishi va funksiyasini ta'minlab turadi. Murakkab oqsil tabiatiga ega

glikoproteid. T. g. ning gipofizda sintez qilinishi va sekretsiyasi gipotalamusning tireoliberin nomli neyropeptidi (rilizing omili) tomonidan idora qilinadi T. g. ajralishiga qondagi tireoid gormonlar teskari aloqa mexanizmi bo'yicha salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Tirishish — convulsio, onis f. — muskullarning to'satdan beixtiyor qisqarishi.

Tirozinoz — thyreosinosum — jigar, buyrak va b. a'zolarda tirozin to'planib qolishi bilan ta'riflanadigan irsiy kasallik; T. da gepatomegaliya, suyakda raxitga o'xhash o'zgarishlar, buyrak shikastlanishi, gemorragik sindrom, MNS faoliyatining buzilishi va b. kuzatiladi. Tahminlarga ko'ra T. ga 4-gidroksifenilpiruvatdioksigenaza yoki tirozinaminotransferaza fermentlarining yetishmasligi sabab bo'ladi.

Tiroksin — thyroxinum — 3, 5, 3', 5'-tetrayodtironin, T₄ qalqonsimon bez ishlab chiqaradigan, o'sish va rivojlanish uchun juda zarur yod tutuvchi gormon. Qalqonsimon bez follikullarida tireoglobulin molekulasida yodtirozinlardan qalqonsimon bezning ikkinchi gormoni 3, 5, 3'- triyodtironin bilan birga sintezlanadi. T₄ tireoglobulinning gidrolizida ajralib, qonga so'riladi va qon orqali hamma a'zolarga yetib borib, hujayradagi metabolik jarayonlar boshqarilishida qatnashadi. T₄ oqsillar, uglevodlar, yog' moddalar almashinuvini, kislorod yutilishini, oksidlanish reaksiyalarini tezlashtiradi.

Titrash — fremitus, us, m.; tremor, oris, m. — qaltirash, *tremor* — ba'zi ruhiy va nerv kasalliklarida biror organ yoki butun gavdanshg beixtiyor bir maromda tebranib turishi.

Tish — dens, dentis, m. — og'iz bo'shlig'idagi suyakli tuzilma: koronka, bo'yin va ildizdan iborat. Koronka va ildiz ichida T. bo'shlig'i hamda ildiz kanallari bor. T. ning asosiy qismini dentin tashqil etadi. Koronka qismi emal, ildizi suyak to'qimasi (sement) bilan qoplangan. Embrional rivojlanish davrida. T. etitelial burmalar — tish plastinkalaridan hosil bo'ladi. Katta yoshdagи kishilarda har bir tish qatorida shakli va ildizlar soni bilan bir-biridan farq qiladigan 16 ta T.: 4 ta kesuvchi, 2 ta qoziq, 4 ta kichik jag' va 6 ta katta jag' T. joylashgan; aql T. odatda 18—25 yoshlarda chiqadi. Yuqori va pastki T. qatorlari ma'lum munosabatda jipslashadi (prikus). Odatda sut va doimiy T. lar bo'ladi. Sut T. lar doimiy T. lar shakliga o'xhash, lekin kichik va ildizi birmuncha kaltaroq; ular emizikli yoshda yorib chiqadi va doimiy T. lar bilan almashguncha, ya'ni 12—13 yoshgacha turadi. T. tishlash, ovqatni tutib qolish, chaynash vazifasini bajaradi, shuningdek tovushlarni talaffuz qilishda ishtirop etadi.

Tish toshi — tish bo'ynidagi ohakli qattiq hosila; ko'pincha milkni zararlab, tish koronkasi va ildizini qoplab oladi. Unda juda ko'p mikrob bo'ladi. Og'izdagи yasama tishlar yetarli parvarish qilinmaganda ham T. t. paydo bo'lishi mumkin.

Tish chirishi — caries, -ei, f (chirish, chirikoik, aynish, yirish lot.) karies — tish qattiq to‘qimalarining zararlanishi; tish emali va (dentin)-ning asta-sekin yemirilib, kovak hosil bo‘lishi. Dastlab tish emali xiralashib, g‘adir-budirla-shadi, oqish yoki sarg‘imtir dog‘ paydo bo‘ladi, keyinchalik bu joy yumshab qoladi, bunga yuza karies deyiladi. Bunda tish cho‘tka bilan toza-langanda, shirin, nordon narsalar yeyilganda og‘riydi. Karies kovagi sekin-asta chuqurlashib, emaldan dentinga o‘tadi, buni o‘rta karies deb ataladi. Karies jarayoni dentin to‘qimasining ichiga o‘tishi natijasida chuqur karies vujudga keladi; bunda tish kovagiga ovqat kirishi, issiq., sovuq ta’sir yetishi bilan kuchli og‘riq paydo bo‘ladi.

Toksemitiya — toxemia — qonda turli zaharli moddalar bo‘lishi; intoksikatsiyalar, ko‘pgina yuqumli kasalliklar, nur kasalligi va b. da kuzatiladi.

Toksigenlik — toxigenes — hayvon, o‘simlik yoki mikroorganizmlarning boshqa organizmlarga zaharli ta’sir yetish xususiyatiga ega moddalar hosil qilishi.

Toksikoz — toxikosis — uzoq yoki qisqa muddatli zaharlanish yoki biror sababga ko‘ra kelib chiqqan toksemitiya natijasida yuzaga kelgan patologik holat. T. ning paydo bo‘lish sabablari va omillari hamda rivojlanish mexanizmlariga ko‘ra bir necha turi (Mas.: geliotrop T., yovoyi o‘simliklardan bo‘ladtan T., oziq-ovqat T. i, shikastlanishga, homiladorlikka aloqador T. va b.) farq qilinadi.

Toksin — toxinum — hayvonlar va odam organizmiga tushganda ularni kasallantirish yoki halok qilish xususiyatiga ega modda. Kelib chiqishiga ko‘ra bakteriya, o‘simlik yoki hayvonlarga mansub murakkab (ko‘pincha oqsil tabiatli) birikma. Ilon, o‘rgimchak, chayonlar zaharida bo‘ladi. Bakterial T. qoqshol, botulizm va b. kasalliklar paydo qiladi. T. anatoksinlar olishda qo‘llaniladi.

Tomir yetishmovchiligi — arteriyalar devori tonusining pasayishi natijasida arterial gipotensiya va hayot uchun muhim organlarning qon bilan ta’minlanishi (perfuziya) buzilishiga olib keladigan patologik holat. T. e. ning o‘tkir (Mas.: *hushdan ketish, kollaps, shok*) hamda surunkali (Mas.: simptomatik yoki birlamchi arterial gipotensiya) rivojlanuvchi turlari tafovut qilinadi.

Tomoq — og‘iz bo‘shlig‘idan halqumga o‘tish teshigi; yuqorida yuqorida tanglay chodiri, ikki yon tomordan tanglay ravoqlari, pastdan tilning orqa yuzasi va til ildizi bilan chegaralangan.

Tonzillit — tonsillitis, itidis, f. — tanglay murtaklarining yallig‘lanishi. o‘tkir va surunkali bo‘ladi. O‘tkir T. to‘satdan boshlanadi. Surunkali T. ga esa tez-tez angina bilan og‘rish, burundan qiynalib nafas olish, burun yondosh bo‘shliqlarining yallig‘lanishi, chirigan tishlar va b. sabab bo‘lib, u bot-bot qo‘zib turadi. Bemorning tomog‘i og‘rib, achishadi, og‘riq ba’zan quloqqa o‘tadi. harorat ko‘tarilib, bosh og‘riydi, ish qobiliyati pasayadi. Kasallik oqibatida yurak va buyrak faoliyati izdan chiqishi, bo‘g‘imlarda og‘riqpaydo bo‘lishi mumkin.

Travma — trauma, atis, n, (gr.) — tashqi ta'sirotlar natijasida to'qimalar va organlar faoliyatiga yetadigan shikast. Shikastlovchi omillarga ko'ra mexanik, kimyoviy, elektrik, termik hamda psixik T. farq qilinadi. T. ga sabab bo'lgan hodisa va shart-sharoitlarga qarab ishlab chiqarish, sport, turmush, ko'cha, transport shikastlari ajratiladi

Transverzit — yo'g'on ichak ko'ndalang joylashgan qismining yallig'lanishi. Segmentar kolitning bir xili.

Transmissiv kasalliklar — morbis transmissive — odam va hayvonlarning yuqumli va parazitar kasalliklari; qo'zg'atuvchilar bo'g'imoyoqlilar (chivin, burga, kana va h. k.) chakqanda o'tadi. Odamda ko'zg'atuvchilar organizmga faqat tarqatuvchi orqali kiradigan obligat (mukarrar) T. k. (bezgak, sariq isitma, qaytalovchi terlama va b.) va qo'zg'atuvchilar odamdan-odamga bevosita nafas, hazm yo'llari orqali kiradigan fakultativ (shartli) T. k. (tulyaremiya, o'lat, kuydirgi va b.) bo'ladi.

Transplantat — transplantatum — *transplantatsiya* uchun foydalaniladigan organ va to'qimalarning bir qismi. Olingan manbai, tayyorlash usuli, ko'chirilgan joyi va b. xususiyatlari ko'ra T. ning bir necha turi farq qilinadi.

Transplantatsiya — transplantatio, onis, f. — patologik jarayon natijasida shikastlangan yoki olib tashlangan to'qimalar yoki organlar o'rniga o'ziga o'xshashini ko'chirib o'tkazish. Ko'chirib o'tkaziladigan to'qima yoki organ kimdan olinganiga qarab transplantatlar quyidagicha farqlanadi: autotransplantat — bemorning o'zidan, allotransplantat — odamdan odamga, ksenotransplantat — boshqa individdan. Hozir buyrak transplantatsiyasi juda keng yo'lga qo'yilgan. Boshqa organlar: yurak, jigar, endokrin bezlar, o'pka va b. organlarni ko'chirib o'tqazish maxsus klinikalarda bajarilmoqda.

Transsudat — transsudatum, i, n. — tanada shish, istisqo paydo bo'lganda organ va to'qimalar oraliqlari hamda bo'shliqlarida to'planadigan, oqsilga kamchil suyuqlik.

Transsudatsiya — transsudatio — qon suyuq qismining kapillyarlar va venulalardan to'qima oraliqlari hamda tana bo'shliqlariga chiqishi.

Transfuzion reaksiya — venaga suyuq dori yuborilganda unga javoban yuzaga keladigan o'tkinchi bir holat; lohaslik, qaltirash, gavda haroratining ko'tarilishi va b.

Traxeit — tracheitis, itidis, f. (gr.) — traxeya (kekirdak) shilliq pardasining yallig'lanishi. Sovqotish, yuqumli kasalliklar (gripp, qizamiq, ko'kyo'tal) sabab bo'ladi. Asosan bahor va kuzda ko'p uchraydi. O'tkir va surunkali kechadi. Bemor yo'taladi (yo'tal kechasi va ertalab zo'rayadi), balg'am ajraladi, tomoq va to'sh sohasida og'riq paydo bo'lib, yo'talganda kuchayadi.

Traxeobronxit — tracheobronchitis — traxeya va bronxlar shilliq pardasiing yallig‘lanishi.

Treonin, Tre — q. *Aminokislotalar*.

3, 5, 3'-Triyodtironin, T₃ — qalqonsimon bez gormoni; uch atom yod saqlaydi. Qalqonsimon bez follikulalarida tireoglobulin molekulasida sintezlanadi va periferik a’zolarda, qisman qalqonsimon bezda tiroksindan bir atom yod ajralishi (deyodirlanish) reaksiyasida hosil bo‘ladi. T₃ hujayra metabolizmiga, kislorod yutilishiga tiroksinga qaraganda 5—10 marta kuchliroq ta’sir ko‘rsatadi, tiroksinning hujayradagi faol shakli hisoblanadi. Ammo uning qondagi miqdori tiroksinnikiga qaraganda tahminan 100 marta kam.

Triplet — nuklein kislotalar zanjiridagi ketma-ket joylashgan uchta nukleotid o‘rami; genetik kod birligi.

Tripsin — trypsinum, i, n. — me’da osti bezida proferment (tripsinogen) holida sintezlanadigan proteaza. Tripsinogen me’da osti bezidan o‘n ikki barmoq ichakka o‘tib, u erda enterokinaza ta’sirida T. ga aylanadi. T. endopeptidaza, u kuchsiz ishqoriy sharoitda ichakda ovqat moddalar tarkibidagi oqsillarni gidroliz qiladi. T. ayniqla lizin va arginin aminokislotalari hosil qilgan peptid bog‘larni uzadi.

Tripsinogen — *tripsinning* nofaol profermenti. Me’da osti bezida ishlab chiqarilib, o‘n ikki barmoq ichakda faol ferment — tripsinga o‘tadi. T. ning faollanishi uning molskulasidan kichik qismi — geksapeptidning gidrolitik yo‘l bilan ajralishiga bog‘liq. Enterokinaza nomli ferment ta’sirida boshlangan bu jarayon so‘ngra gipokatalitik davom etadi.

Triptamin — indoletilamin biogen amin; triptofanning dekarboksillanishidan hosil bo‘ladi. T. qon tomirlari, bachadon va MNS silliq muskullari qisqarishini stimullaydi. T. hayvon va o‘simliklarda triptofanning bakteriyalar ta’sirida parchalanish mahsuloti sifatida topilgan.

Triptofan, Trp — geterotsiklik, almashinmaydigan aminokislota. T. ning ovqat tarkibida ahamiyati juda muhim; u oqsillarda nisbatan kam miqdorda bo‘lsa ham, hujayradagi metabolizmda undan bir qator zarur mahsulotlar hosil bo‘ladi. Indikan, serotonin, triptamin va b. shunday mahsulotlardandir.

Trisomiya (genetikada) — polisomianing bir xili; bunda uch gomologik xromosoma bo‘ladi. T. meyoz mexanizmining buzilishidan kelib chiqadi, unda qiz hujayralarga xromosomalar teng taqsimlanmaydi, ulardan biri ikkinchisiga nisbatan bitta xromosomani ortiq oladi. Odamlarda uchraydigan T. holati salbiy nuqsonlarga olib keladi.

Trisomiya — D. Patau sindromi rivojlanish nuqsonlari kompleksi: mikrotsefaliya, tang‘lay va yuqori labning bitmay qolishi, yurak poroklari va b. Bu nuqsonlar odatda D guruhiga kiruvchi xromosomalar trisomiyasi natijasidir.

Tromb — thrombus, i, m, (gr.) — qon yoki limfa tomirlarida tiqilib qolgan qon (limfa) laxtasi (k. Tromboz).

Trombin — thrombinum, thrombosinum, i, n. (gr.) — qon ivishi fermenti fibrinogenning fibringga o‘tishini ta’minlaydi. Protrombinning faollanishidan hosil bo‘ladi. Mahalliy qon to‘xtatuvchi vosita sifatida qo‘llanishi mumkin.

Tromboz — thrombosis, is, f. (gr.) tirik organizmda tomir ichida qon laxtasi (tromb) hosil bo‘lishi; eritrotsit, leykotsit, trombotsit va fibrindan iborat laxta tomir devoriga yopishib, qon oqimiga xalaqit beradi. Arteriya T. i qon oqimiga to‘sinqilik qilishi tufayli qon bilan ta’milanuvchi a’zolarda ishemiya va infarkt (Mas.: miokard infarkti) kelib chiqishiga sabab bo‘ladi, yurak bo’shliqlari va venalar T. i esa *tromboemboliya* hosil qilishi bilan xavfli.

Trombokapillyarit — kapillyarlar yallig‘lanib, unda trombozlar paydo bo‘lishi.

Trombofiliya — thrombophilia — qon ivishi tezlashib, trombozlar paydo bo‘lishi bilan kechadigan patologik holat.

Tromboflebit — thrombophlebitis, itidis, f. (gr.) — vena devori yallig‘lanib, unda *tromb* hosil bo‘lishi. T. da ko‘pincha oyoq venalari kengayadi; ayrim infeksioi kasalliklar yoki venalar shikastlanishi oqibatida, ba’zan tug‘ruqdan keyingi asorat sifatida paydo bo‘lishi mumkin.

Trombotsit — thrombocyti, orum, m., pi. (gr.) — hujayra tuzilishiga ega bo‘lmagan qon plastinkalari; ko‘mikdagi megakariotsit hujayralarining maydalangan parchalari. 1 mm³ qonda 180—320 ming T. bo‘ladi. T. asosiy plastinka — gialomer va unda joylashgan donachalar — granulomerlardan tuzilgan. Donachalar tarkibida serotonin, ATF, ADF hamda tromboplastlar bo‘ladi. T. ning tuzilishi bo‘yicha yosh, yetuk, qari, gigant va degenerativ xillari farqlanadi. T. qon ivishida ishtirok etadi, ular soni kamayganda — *trombotsitopeniya* kuzatiladi.

Trombotsitoz — thrombocytosis — periferik qonda trombotsitlar sonining ortib ketishi; shikastlanishlar, shuningdek ba’zi leykozlarda kuzatiladi.

Trombotsitoliz — thrombocytolysis — trombotsitlarning yemirilish jarayoni.

Trombotsitopatiya — thrombocytopathia — trombotsitlarning norasoligi bilan bog‘liq gemorragik diatezlarning umumiyligi nomi; trombotsitar gemostazning izdan chiqishi, tomirlarda laxtalar hosil bo‘lishi bilan ifodalanadi.

Trombotsitopeniya — thrombocytopenia — periferik qonda trombotsitlar (qon plastinkalari) sonining kamayib ketishi; fiziologik (Mas.: hayz mahalida) yoki turli kasalliklar alomati bo‘lishi mumkin. T. odamdan qon ketib turishiga olib keladi.

Tromboemboliya — thromboembolia — trombning uzilgan qismi (qon laxtasi) yoki butun tromb hosil qilgan embolning tomirlarga tiqilishi natijasida ularning bekilib qolishi. Ko‘pincha miya tomirlarida kuzatiladi. O‘pka arteriyasi T. si

o'pkada gemorragik infarktga, shu arteriyaga embollar tiqilishi esa bemorning hayoti uchun juda havfli bo'lib, hatto to'satdan o'limga sabab bo'lishi mumkin.

Tumov — rhinitis, itidis, f, (gr.) — *rinit*, burun shilliq pardasining o'tkir yoki surunkali yallig'lanishi; yuqori nafas yo'llari kasalliklarining eng ko'p uchraydigan xili. Organizm qarshilik ko'rsatish kuChining pasayishi,sovqotish, turli mikroblar ta'siri sabab bo'ladi. T. mustaqil kasallik yoki biror yuqumli kasallik belgisi bo'lishi mumkin. O'tkir T. bot-bot qaytalab tursa, surunkali T. ga aylanib ketadi. Surunkali T. burun bo'shlig'i shilliq pardasining o'sib, qalin tortishi (gipertrofiya) yoki uning yupqalashib ketishi (atrofiya) ga olib keladi, natijada nafas olish qiyinlashadi. Chin va soxta T. farq qilinadi. Vazomotor T. ga burun qon tomirlarini idora etuvchi nerv tolalari faoliyatining buzilishi sabab bo'ladi. Allergik T. esa o'simlik, hayvon, oziq-ovqat, dori-darmonlar va b. turli-tuman allergenlar ta'sirida vujudga keladi.

Tuxumdon — ayollardagi bir juft jinsiy bez. Bachadonning ikki tomonida joylashgan. Unda tuxum hujayra hosil bo'ladi va etiladi. T. ning po'stlok va mag'iz qavati bor. T. estrogen va progesteron gormonlarini ishlab chiqaradi.

Tuxum hujayra, tuxum — ayollarning jinsiy hujayrasi; spermatozoid bilan otalanishi natijasida, ba'zan otalanmasdan partenogenet yo'li bilan undan yangi organizm rivojlanadi. T. h. sitoplazmasida oziq modda — sariqlik mavjud. Sariqlikning bor-yo'qligi, miqdori va sitoplazmada tarqalishiga qarab aletsital, gomeletsital, sentroletsital, teloletsital va b. xil T.h. lar ajratildi.

To'qima — histos (rp.); tela, ae, f.; textus, us, m. —kelib chiqishi, tuzilishi, funksiyalari o'xhash hujayralar sistemasi. T. tarkibiga hujayralararo modda va tuzilmalar kiradi. 4 xil to'qima farqlanadi: nerv, muskul, epitelli T. si va biriktiruvchi T. Biriktiruvchi T. qon va limfa bilan birga ichki muhit to'qimasini hosil qiladi.

To'qima suyuqliq'i — to'qimalardagi bo'shliqni to'ldirib turuvchi suyuqlik; tarkibida moddalar almashinushi mahsulotlari hamda qondan o'tadigan moddalar bo'ladi.

To'qimalar nomuvofiqligi, immunologik mos kelmaslik — donor va retsipientda genetik shartlangan antigenning mavjudligi; bu transplantatsiya qilingan to'qima va organlarning ajralib chiqishi — ko'chib ketishiga olib keladi.

To'qimalarning ezilishi — to'qimaga uzoq muddat kuchsiz tazyiq bo'lishi na ijasida ro'y beradigan hodisa. Bunda teri qavatlari buzilmaydi, yirtilmaydi, lekin to'qimalar qattiq shikastlanadi. Yumshoq to'qimalarning katta hajmi uzoq vaqt davomida ezilib qolsa, shikastlanish natijasidagi zararlanishga olib keladi. Bu «ezilish sindromi» yoki «ezilish-maydalanish sindromi» deb ataladi.

— U —

Ubixinon, koenzim Q — nafas zanjirining past molekulyar elektron tashuvchi komponenti. U. degidrirlanish reaksiyasida ikkita vodorod qabul qilib, digidroubixinonga o‘tadi, undan ikkita proton va elektronlar ajralgach, qaytadan tiklanadi.

Uglevodlar — carbohydrata, orum, n., pl. — poligidroksikarbonil tuzilishiga ega birikmalar va ular unumlarini o‘z ichiga oladigan tabiiy moddalarning katta turkumi. Ularni karbon atomining suv molekulasi bilan qo‘shilgan shakli deb qarash mumkin. U. molekulalarining buyukligiga qarab quyidagi turkumlarga bo‘linadi: 1) monosaxaridlar, sodda U. Monosaxaridlarni ko‘p atomli spirlarning aldegidlari yoki ketonlari deb qarash mumkin. Bundan aldoza va ketoza turkumi kelib chiqadi. Tarkibidagi uglerod atomlari soniga qarab monosaxaridlar trioza, tetroza, pentoza, geksoza, geptozalar deb yuritiladi. Monosaxaridlar orasida biologik eng muhimlari: 1) geksozalardan — aldogeksoza glyukoza, galaktoza, mannoza, ketogeksoza, fruktoza; pentozalardan — riboza, dezoksiribozalardir. 2) oligosaxaridlar 2 dan 10 gacha monosaxaridlar qoldig‘idan tashqil topgan. Ularning eng muhim vakillari: disaxaridlar — saxaroza, laktoza, maltozalardir. 3) polisaxaridlar — U. ning son jihatdan eng katta turkumi. 10 dan ortiq monosaxaridlarning glikozid bog‘lar orqali birikishidan hosil bo‘ladi. Aksari ular yuzdan ortiq monosaxaridlardan tuzilgan polimer bo‘lib, yuqori molekulyar og‘irlikka ega. Asosiy vakillari: kraxmal, glikogen, kletchatka. U. organizmda asosan energetik modda sifatida ahamiyatga ega bo‘lsa ham, ayrim vakillari turli komplekslarda (gliqolipidlar, glikoproteinlar, mukopolisaxaridlar va b.) spetsifik vazifani bajaradi.

Uzoq umr ko‘rish — ijtimoiy-biologik xodisa; o‘rtacha yoshdan ko‘ra ancha uzoq (90 yoshdan ortiq) yashash.

Uyqu — somnus, i, m. — organizmning fiziologik ehtiyoji. U. da nerv sistemasi, asosan bosh miya po‘stlog‘ining aktivligi pasayadi, ong, muskul tonusi va sezuvchanlik susayadi. Reflektor funksiyalar pasaygan, shartli reflekslar tormozlangan, shartsizlari ancha susaygan bo‘ladi. Chakaloqlar (4—5 oylik bo‘lgunicha) sutkasiga 17-18 soat, 5—6 yoshlik bolalar 9—11 soat, o‘smirlar 8—10 soat, katta kishilar esa 6—8 soat uxbaydi. Normal (fiziologik) U. ning davriy sutkalik va davriy faslli (hayvonlarning yozgi va kishqi U. si) turlariga bir necha xil patologik (narkotik, letargik va b.), shuningdek maxsus ta’sirlar oqibatida yuzaga keladigan gipnotik U. farq qilinadi.

Uyqusizlik — insomnia, ae, f.; syn. agrypnia, ahypnia, asominia, ae, f. — agripniya, asomniya, diksomniya, insomniya — uyquning buzilishi; tunda kam yoki yuzaki uqlash, uyqu kelmaslik, bevaqt uyg'onaverish, shuningdek juda erta uyqu o'chib ketishi va b.

Uratlar — urata, orum, n., pl. — siydik kislota tuzlari; organizmda purin nukleotidlarning almashinuv mahsuloti sifatida hosil bo'ladi. Odatda siydik bilan chiqariladi. Ba'zan shu tuzlardan toshlar paydo bo'ladi. Siydik toshlari urat kislota yoki nordon ammoniy va natriy U. dan vujudga kelishi mumkin. Ba'zi kasallikkarda, Mas.: podagra, nefrit, leykemiyada qonda U. yig'iladi.

Uraturiya — uraturia — siydikda ortiqcha miqdorda uratlar bo'lishi.

Uratsil — 2,6-diokspirimidin; piramidon asosi, nukleotidlar tarkibida RNK molekulalariga kiradi.

Uremiya — uraemia, ae, f. (gr.) — buyrak faoliyati buzilishi tufayli organizmning siydnk bilan zaharlanishi. U. da buyrak suv-tuz almashinishi, kislota-ishqor muvozanatini rostlay olmay qoladi, oqsil almashinuvining zaharli mahsulotlari to'planadi, nerv-gumoral regulyasiya ham uzgaradi, bu esa organizmdagi barcha organ va sistemalar faoliyatining buzilishiga olib keladi. O'tkir va surunkali U. farq qilinadi. U. da lohaslik, quvvatsizlik, tez toliqish, bosh og'rig'i, uyqu buzilishi, ishtaha yo'qolishi, xotira pasayishi kuzatiladi, teri qurishib qichishadi, bemor hadeb tashna bo'laveradi, ozib ketadi; ayrim organlardan qon ketadi, ko'z xiralashadi, oldi olinmasa uremik koma vujudga keladi.

Ureterit — ureteritis, itidis, f. — siydik yo'lining yallig'lanishi. Aksari erkaklarda uchraydi. Siyganda achishish, og'riq paydo bo'ladi; uretradan yiringli chiqindi keladi.

Ureterogidronefroz — buyrak jomi va siydik yo'llarining kengayishi; siydik oqimi buzilganda kuzatiladi.

Uretra — urethra. q., *Siydik chiqarish kanali*.

Uretrit — ureteritis, itidis, f. — siydik chiqarish kanali (uretra) ning yallig'lanishi. Birlamchi va ikkilamchi, shuningdek o'tkir va surunkali U. farq qilinadi. Birlamchi U. siydik chiqarish kanalining o'zidan, ikkilamchi U. esa sistit yoki jinsiy organlar kasalligidan keyin boshlanadi. Belgilari: siyganda ogriq achishish va qichishish; uretra teshigidan shilliq yoki shilliq aralash yiring oqadi. Ba'zan tashqi uretra teshigi atrofi qizarib shishadi.

Uretrotsistit — siydik chiqarish kanali va qovuqning yallig'lanishi. Dastlab uretra yoki qovuk yallig'lanadi, so'ngra yallig'lanish qo'shni organlarga tarqaladi. U. da uretrit va sistitga xos belgilar namoyon bo'ladi.

Uridin — uratsil va ribozadan tuzilgan nukleozid. Fosfat kislota molekulalari bilan U. monofosfat (UMF), U. difosfat (UDF) va U. trifosfat (UTF) nukleotidlarini tashqil qiladi. U. RNK molekulasiga kiradi.

Urikemiya — qonda siydk kislota miqdorining ortib ketishi.

Urobilin — q. Urobilinogen.

Urobilinogen — urobilinogenum, i, n.; — o‘t pigmenti — bilirubinning ichakda bakteriyalar ta’sirida qaytarilishidan hosil bo‘ladigan rangsiz birikma. U tashqarida oksidlanib, rangli urobilinga aylanadi.

Urobilinuriya — urobilinuria, ae, f. — siydkda urobilin miqdorining ortishi. Pielonefrit, pionefroz, prostatit, jigar faoliyatining buzilishi va b. hollarda kuzatiladi.

Urosepsis — urosepsis — urologik kasalliklar asorati. Buyrak va siydk chiqarish organlarida bo‘lgan infeksiyaning qonga o‘tishi.

Uch karbon kislotalar sikli, izolimon kislota sikli, Krebs sikli UKS — oqsillar, yog‘lar, uglevodlar oksidlanishining oxirgi bosqichidagi muhim reaksiyalar halqasi. Nafas olish zanjiri bilan birga UKS energiyaga boy ATF molekulalari sintezini va bir qator biosintez uchun zarur metabolitlarni ta’minlaydi. UKS da hujayra metabolizmining assosiy metaboliti — atsetil SoA tarkibidagi atsetil turkumning oksidlanishi va SO₂ hosil qilib parchalanishi amalga oshadi.

— F —

Fag — phage —bakteriyalarni yemiradigan virus (q., bakteriofag).

Fagodiagnostika — phage diagnosis (angl.) — diagnostika usuli; bunda oldindan tayyorlab qo‘ylgan maxsus bakteriofaglar yordamida bemor organizmidan ajratib olingan bakteriyalarning qaysi turga mansubligi aniqlanadi.

Fagoterapiya — phagotherapy, ae, f. (gr.) — davolash usuli; bunda infektion kasallik bilan og‘rigan bemor yoki kasallik ko‘zg‘atuvchisini tashib yuruvchi kishi organizmiga maxsus baktirofaglar yuboriladi.

Fagotsit — phagocyt, orum, m., pl. — siyrak tolali biriktiruvchi to‘qimaning emiruvchi hujayralari. F. iqki turga; makrofaglar va mikrofaglarga ajratiladi. Mikrofaglar (neytrofillar) yallig‘lanish jarayonida hosil bo‘lgan zararli moddalar va zarrachalarni yemiradi. Makrofaglar qondagi monotsitlardan hosil bo‘ladi. Kuchli *fagotsitoz* qilish qobiliyatiga ega. F. sitoplazmasida kuchli rivojlangan lizosomal apparat mavjud.

Fagotsitoz — phagocytosis, is, f. (gr.) — bir hujayrali organizmlar yoki maxsus hujayralar — fagotsitlar tomonidan mikroorganizmlar va organizmga yot zarralarni faol qamrab olinishi va yutib yuborilishi.

Faringit — pharyngitis, itidis, f. (gr.) — halqum (yutqin) shilliq pardasi va limfa to‘qimasining yallig‘lanishi. O‘tkir va surunkali F. tafovut qilinadi. O‘tkir F. da halqum qurib, tupuq yutganda og‘riydi, ba’zan harorat ko‘tariladi. Surunkali F. da halqumda shilimshiq to‘planadi, bemor yo‘taladi, balg‘am tashlaydi. Burun, murtach va chirigan tishlarning yiringli yallig‘lanishi, tumov, organizmda moddalar almashinuvining buzilishi, o‘pka, yurak, jigar, buyrak kasalliklari tufayli surunkali F. paydo bo‘ladi. Havo quruqligi, temperaturaning keskin o‘zgarishi, chang va gazli muhit kabi zararli omillar ham F. ga sabab bo‘ladi.

Faringospazm — pharyngospasmus —halqum muskullarining beixtiyor tortishib qolishi. Shaytonlash, talvasa tutishi va b. ruhiy kasalliklarda kuzatiladi.

Fenilketonuriya, Felling kasalligi — fenilalanin almashinuvining buzilishi natijasida kelib chiqadigan irsiy kasallik; bunda bemor jismoniy va aqliy jihatdan rivojlanmaydi, harakati va muskullar tonusi buziladi (giperkineziya, diskineziya). Kasallik autosom-retsessiv tipda nasldan-naslga o‘tadi.

Fenotip — phaenotypus, phenotypus, i, m. (gr.) — organizm tuzilishi va hayot faoliyatining o‘ziga xos xususiyati. Genotip bilan muhit sharoitining o‘zaro ta’siri natijasida vujudga keladi. F. da hamma irsiy imkoniyatlar yuzaga chiqmasdan, balki ma’lum sharoitlarga bog‘liq bo‘lganlarigina ro‘yobga chiqadi, shuning uchun ham genotip jihatidan butunlay bir xil bo‘lgan bir tuxumdan rivojlangan egizaklar har xil tashqi muhit ta’sirida o‘siganida ko‘zga ko‘rinarli fenotipik farqlarni kuzatish mumkin.

Feoxromotsitoma — buyrak usti bezi miya moddasining xromaffin to‘qimalardan hosil bo‘ladigan xavfsiz o‘sma.

Fermentlar — fermenta, orum, n., pl.; enzyma, orum, n., pl. — enzimlar — oqsil tabiatli katalizatorlar. Hujayra oqsillarining 90 foizi F. dir, ba’zi struktura oqsillari (Mas.: aktin va miozin) ham reaksiyalarni tezlashtiradi. F. hujayrada ba’zan nofaol proferment shaklida sintezlanib, turli omillar ta’sirida faollashadi (Mas.: me’da shirasida pepsinsgen xlorid kislota tasirida faollanib pepsinga o‘tadi, tripsinogenni boshqa bir ferment — enterokinaza faollashtiradi). F. faolligini susaytiradigan omillar ham bor. Ular ingibitorlar deb atalib, ko‘pchiligi antibiotiklar, alkaloidlar va b. organik birikmalar, anorganik ionlardir. F. yuqori spetsifiklikka ega, ular faqat ayrim birikmaga yoki bir tipdagи bog‘ bilan birikkan birikmalar turkumiga ta’sir qilib, ma’lum reaksiyani tezlashtiradi. F. nomenklaturasi ular ta’sir etadigan substrat va kataliz qiladigan reaksiya nomiga qarab, usha so‘zlarga aza ko‘shimchasini qo‘shish yo‘li bilan tuziladi. Mas.: protein — proteinaza, gidroliz — gidrolaza va b. F. molekulasiда substratni spetsifik bog‘laydigan (qontakt o‘rni)

va kimyoviy o'zgarishni ta'minlaydigan faol qismi bor. F. uzhilishiga qarab bir komponentli va ikki komponentli bo'ladi. Bir komponentli F. da uning faol qismi oqsil molekulasining o'zida joylashgan. Ikki komponentli F. oqsilli qism (apoferment) va oqsilsiz, kichik molekulyar qism (koferment) dan tuzilgan. Bunday F. da substratni bog'laydigan qontakt joyi oqsilning o'zida bo'lib, substratli kimyoviy o'zgarishni F. ning oqsil qismiga vaqtincha birikadigan koferment bajaradi. Apoferment va koferment alohida-alohida holatda fermentlik faoliyatiga ega emas, ular birikkandagina faol to'la F. hosil qiladi. hujayrada 2000 dan ortiq F. kashf etilgan. Ulardan ko'pchiligining kimyoviy strukturasi o'r ganilgan. F. ni katalizlaydigan reaksiyalariga qarab oltita asosiy sinfga bo'linadi: 1) oksidoreduktazalar; 2) transferazalar; 3) gidrolazalar; 4) liazalar, 5) izomerazalar; 6) ligazalar (sintetazalar).

Fermentli moddalar — ta'sir etuvchi qismi fermentlardan iborat bo'lgan dori moddalar (pepsin, tripsin, gialuronidaza va b.).

Ferritin — sutmizuvchi hayvonlarda temirni ehtiyyot modda sifatida saqlovchi eng muhim birikma. U tanadagi temirning taxminan 25 foizini tutadi. Taloq, jigar, o'pka, ko'mik va retikulotsitlarda mavjud. Ichak shilliq pardasida apoferritinga oksidlovchi omil ishtirokida temir qo'shilishidan hosil bo'ladi.

Fibrillyasiya — fibrillatio, onis, f. — ayrim muskul tolalarining tez qisqarishi; motoneyronlar va orqa miyaning oldingi shoxlari jarohatlanganda kuzatiladi.

Fibrin — fibrinum, i, n. — qon ivishining oxirgi mahsuloti, oqsil. U plazma oqsili — *fibrinogenlan* trombin ta'sirida kalsiy ionlari ishtirokida hosil bo'ladi.

Fibrinogen — fibrinogenum, i, n. — *fibrinning* bevosita old moddasi. Qon plazmasining iviydigan yagona oqsili. F. juda ham uzun, eruvchan glikoprotein, tarkibida 2 foiz uglevod bo'ladi.

Fibrinolitik moddalar — fibrin quyqasini eritib yuboradigan dorivor moddalar; tromb hosil bo'lishi bilan o'tadigan kasalliklarni davolashda qo'llaniladi (Mas.: fibrinolizin, streptataza va b.).

Fibroadenoma — fibroadenoma — adenofibroma — yaxshi rivojlangan biriktiruvchi to'qimalardan paydo bo'ladigan xavfsiz o'sma; asosan sut bezlarida uchraydi. Bezning sut yo'li ichiga o'sgani — *ichki* F., sut yo'li atrofidagisi — I ; III k. i F., aralash o'sgani — ulkan F. (yaproqsimon); ko'pincha teri bilan birikib kyetgan yaproqsimon shakldagi yarali tugunlar paydo bo'ladi.

Fibroblast — fibroblasti, orum, m., pl. — biriktiruvchi to'qima hujayrasi. Kollagen tolalar va glikozaminoglikanlarni sintez qiladi. F. yirik (20 mkm ga yaqin), noto'g'ri shaklda bo'lib, qobig'i bir talay uzun o'simtalar hosil qiladi. F. da lipid donachalari, multivezikulyar tanachalar va mielin tuzilmalari uchraydi. F. ning asosiy organellalari — mitokondriyalar, granulyar endoplazmatik to'r va plastinkasimon Goldji kompleksi.

Fibroblastoma — fibroblastoma — biriktiruvchi to‘qimadan yoki fibroblastdan vujudga kelgan xavfli o‘sma (Mas.: fibrosarkoma).

Fibroma — fibroma — atrofidagi to‘qimalardan chegaralangan, tolali biriktiruvchi to‘qimadan yuzaga kelgan xavfsiz o‘sma. Ko‘pincha boshqa to‘qimalar — muskul (fibromioma), tomirlar (angiofibroma). Bez (fibroadenoma) to‘qimalari bilan birga o‘sadi. Terida, shilliq pardalar, paylar, sut bezi, bachadonda hosil bo‘ladi.

Fibromatoz — fibromatosis — birtalay xavfsiz o‘smalar, fibromalar. Tug‘ma-oilaviy, keloidli F. hamda o‘spirinlar F. i farq qilinadi. F. skelet muskullari bo‘ylab rivojlanadi.

Fibrosarkoma — fibrosarcoma, atis, n. — xavfli o‘sma; fibroblastlardan iborat, ichki a‘zo va qorin bo‘shliqlari, shuningdek qo‘l-oyoqning yumshoq to‘qimalarida kuzatiladi. F. erkaklarga nisbatan o‘rta yosh ayollarda ko‘proq uchraydi; retsidiq berishga o‘ta moyil.

Flavin nukleotidlar — flavin fermentlarning kofermentlari. Ular prostetik turkum hosil qiladi, lekin bir nechta flavin fermentlar ulardan osonlik bilan ajraladi.

Flavin fermentlar — prostetik turkumi FAD yoki FMN bo‘lgan 70 dan ortiq turli oksidoreduktazalar guruhi. Bu kofermentlar vodorodni bevosita substrat (Mas.: suksinat degidrogeneza) yoki NAD (R)N dan qabul qilib qaytariladi va vodorodni boshqa akseptorga uzatib, qaytalama oqsillanadi.

Flavinadenindinukleotid (FAD), riboflavinadenozindifosfat — juda ko‘p flavin fermentlarning faol turkumi. Tarkibidagi izoalloksazin halqasi qaytalama oksidlovchi — qaytaruvchi sistema shaklida ishlaydi.

Flavinmononukleotid (FMN), riboflavin 5'-fosfat — turli flavin fermentlarning prastetik turkumi.

Flebit — phlebitis — venaning yallig‘lanishi. Vena tashqi pardasining yallig‘lanishi — periflebit, ichki pardasining yallig‘lanishi — endoflebit, hamma qavatining yallig‘lanishi — panflebit deb ataladi. Atrof to‘qimalarining yallig‘lanishi, kuyish, sovuq urishi, flegmonalar ko‘pincha periflebitga sabab bo‘ladi. Vena shikastlanganda unga kateter kiritish, punksiya qilish, har xil eritmalar yuborish ko‘pincha endoflebitni keltirib chiqarishi mumkin. Venada qon qotib qolganida ham uning devori yallig‘lanib, tromboflebitga olib keladi.

Flebotromboz — phlebothrombosis — venada tromb hosil bo‘lishi; bu vena tomirining qisman yoki butunlay bekilib qolishiga olib boradi.

Flegmona — phlegmone, es, f. (gr.) — teri ostidagi, muskullar orasidagi va b. to‘qimalarning tarqoq yiringli yallig‘lanishi. Bunda teri qizarib, shishadi va og‘riydi, atrofidagi to‘qimalar ham shishib, yaqinidagi limfa tugunlari yallig‘lanadi. Karbunkul, chipqon, gidradenit, hasmol kabi yaralarga o‘z vaqtida

davo qilinmasligi oqibatida kelib chiqadi. F. ni aerob va anaerob muhitda o'sadigan mikroblar ko'zg'atadi. Uning alohida turi gazli F. dir.

Flyuktuatsiya — fluctuatio, onis, f. — suyuqlik (Mas.: yiring, transsudat) bilan to'la organning tashqi kuch ta'sirida tebranishi. Buning uchun chap ko'lning barmoqlari bilan qorinning chap tarafini paypaslab turib, o'ng qo'l bilan o'ng tarafdan sekin-sekin qorinni turtildi, shunda chap tarafga ketayotgan to'lqinlarni chap ko'l barmoqlari orqali sezildi.

Follikul — folliculus, i, m. — organlarda turli vazifani bajaradigan pufakcha. Mas.: tuxumdon follikulida tuxum hujayra bo'ladi; soch follikuda — soch ildizi va piyozchalar joylashgankan; limfa follikuli — limfotsitlar rivojlanadigan chegaralangan limfold to'qimalar to'plami; qalqonsimon bez follikuli — gormonlar sintezlanadigan pufakcha.

Follikullarni stimullovchi gormon (FSG) — gipofizning gonadotrop gormoni; tuxumdonda follikullarni, urug'donda spermatogenezni kuchaytiradi. F. s. g. gipofizning old bo'lagida gipotalamus neyrogormoni (rilizing omili) nazoratida sintez qilinadi va qonga chiqariladi. Uning sekretsiyasini esterogenlar teskari aloqa mexanizmi bo'yicha tormozlaydi. F. s. g. gipofizning boshqa gormonlari kabi oqsil-peptid tabiatiga ega.

Fosfagenlar — energiyaga boy guanidin yoki adenin fosfatlar; muskullarda yuqori energiyaga boy fosfatni saqlash uchun xizmat qiladi. F. qatoriga umurtqasiz hayvonlarda adenin fosfat, umurtqalilarda kreatin fosfat kiradi.

Fosfatazalar — monofosfatefirlarni gidroliz qiluvchi esterazalar. Organizmda keng tarqalgan ferment, ta'sir yetish rN optimumiga qarab nordon F. (Mas.: jigar, eritrotsitlar, prostatada bezi F. si) yoki ishqoriy F. (ingichka ichak shilliq pardasi, yo'ldosh va suyak F.si) ga bo'linadi.

Fosfatidlar — q. *Fosfolipidlar*.

Fosfaturiya — siydikda fosfat tuzlari miqdorining ortishi. Ko'pincha buyrak va siydik chiqarish yo'llarining yallig'lanishi va urolitiazda kuzatiladi.

Fosfolipazalar, fosfotidazalar — letsitinni parchalaydigan karboksilat kislota esterazalari. A₁, A₂, V, S, D, F. va fosfodiesterazalarning umumiyligi nomi. A₁ F. glitserinning S-1 o'rnidan yog' kislotani ajratib, eritrotsitlarni gemoliz qiladigan lizofosfatidlar hosil qiladi. F. ayniqsa jigar, o'n ikki barmoq ichakda, ari va ilon zaharida juda faol bo'ladi.

Fosfolipidlar, fosfatidlar — fosfat kislotaning mono- yoki diefirlarini tutuvchi lipidlar. Ular biologik membranalarning asosiy komponenti bo'lib, miyada va nervlarning mielin pardasida ko'p. F. yo'ch atomli spirit — glitserin (umumiyligi nomi glitserofosfolipid) yoki sfingozin (sfingofosfolipid) dan kelib chiqadi. Glitserofosfolipidlar (fosfoglitrideridlar) glitserinning qolgan ikki gidroksilini yog' kislotalar bilan murakkab efir hosil qilib bog'lanishidan kelib chiqqan

glitserofosfat (fosfatidil kislota) unumlaridir. Fosfat tarkumi yana xolin, etanolamin, serin, glitserol yoki inozitol bilan efirlanib, fosfatidilxolin (letsitin), fosfatidil etanolamin (kefalin), serinfosfatidlar, fosfatidilinozitol yoki fosfatidilglitserin hosil qiladi. Plazmogenlar glitserofosfatidlar tarkumidan bo'lib, ularda glitserin to'yinmagan zanjir bilan bog'langan. Sfingofosfolipidlar (sfingomielinlar) uzun, to'yinmagan aminospirt — sfingozin unumlaridir. Barcha F. yog' kislota yoki sfiigozinning uzun uglevodorod zanjiridan iborat qat'iy gidrofob tarkumga va gidrofil bosh qismiga ega. Suvli muhitda F. ikki qatlam tashqil qilib joylashishga moyildir.

Fruktoza — fruktosa, ae, f.; syn. laevulaso, ae, f.; laevoglucose — meva shakari — monosaxarid ketogeksoza. Hamma qand moddalar ichida eng shirini. Glyukoza va saxaroza bilan birga ko'p mevalarda uchraydi.

Fruktozuriya — siydikda fruktoza miqdorining ortishi. Asosan uglevodlar almashinuvi buzilishidan kelib chiqadi.

Fruktokinaza — transferaza sinfiga kiradigan ferment; jigar va ichak devorida fruktozani fosforirlash reaksiyasini katalizlaydi. Uglevodlar almashinuvida ishtirok etadi.

Furunkulyoz — furunculosis, is, f. — ko'p sonli chipqon chiqishi.

— X —

Xemotaksis — chemotahis, chimiotahis, is, f. — mikroorganizmlar va erkin harakatlanuvchi hujayralarning kimyoviy ta'sirotlar tufayli harakatga kelishi.

Ximotripsin — chymotrypsinum — me'da osti bezida proferment ximotripsinogen shaklida sintezlanadigan va to'planadigan proteazalar oilasi. Ximotripsinogenning faollanishi tripsin ta'sirida boshlanib, keyin avtokatalitik davom etadi. Faollanish jarayonida undan kichik peptidlarni ajraladi. X. fenilalaiin, tirozin va triptofanni peptidlarni osonroq gidrolizlaydi.

Ximus — chymus — ovqat hazm bo'lishi jarayonida me'da yoki ichaklarda hosil bo'ladigan yarim suyuq, gomogen yoki suyuq bo'tqaga o'xshash mahsulot. X. tarkibida me'dadan o'tgan ovqat mahsulotlari, o't, me'da osti bezi va ichak shirasi, mikroorganizmlar bo'ladi. Bir sutkada ingichka ichakdan yo'g'on ichakka 400 g X. o'tadi.

Xirillash — rhonchi, orum., pl. (rp.) — nafas shovqinlari. Nafas yo'llarining torayishi yoki ularda patologik holat bo'lishi natijasida yuzaga keladi. Ho'l X.— nafas yo'llariga suyuqlik yig'ilishi natijasida pufakcha yorilganda chiqadigan

tovushga o‘xshagan ovoz eshitilishi. Quruk X.— nafas yo‘llari torayganda eshitiladigan X. Nafas yo‘llari shilliq qavatining shishi yoki unda yopishqoq shilliq borligi sabab bo‘ladi.

Xolangioma — sholangioma — o‘t yo‘lining xavfsiz o‘smasi; yakka va ko‘p tugunchalar ko‘rinishida o‘t yo‘li epiteliysidan rivojlanadi.

Xolangit — sholangitis — jigar o‘t yo‘llarining yallig‘lanishi; o‘t pufagidan, me’da-ichak yo‘lidan qon va limfa orqali o‘t yo‘llariga infeksiya o‘tishi, shuningdek turli yuqumli kasalliklar oqibatida paydo bo‘ladi. X. da jigar sohasida og‘riq, haroratning ko‘tarilishi, ko‘ngil aynishi, quşish, teri va ko‘z oqining sarg‘ayishi, jigar, ba’zan taloqning kattalashuvi kuzatiladi.

Xolat kislota — o‘t tarkibiga kiradigan yog‘larning emulsiya hosil qilishini osonlashtiradigan o‘t kislotalardan biri.

Xolekalsiferol, D₃ vitamin — yog‘da eriydigan vitamin; sut emizuvchilar, qushlar, baliqlar jigarida, shuningdek tuxum sarig‘i va baliq moyida bo‘ladi. Ovqatda X. yetishmaganda bolalarda raxit, kattalarda esa osteoporoz, paresteziya kelib chiqadi, muskullar og‘riydi.

Xolekinetiklar — jigar o‘tining ichakka tushishini ta’minlaydigan spazmolitik dorilar; X. ga atropin sulfat, noshpa, papaverin gidroxlorid, magniy sulfat va b. kiradi.

Xolelitiaz — cholelithiasis, is, f. (gr.) q., o‘t-tosh kasalligi.

Xolemiya — cholemya — qonda o‘t va uning tarkibiy qismlari (o‘t kislotalari, bilirubin-glyukuronid) ning ko‘p bo‘lishi; o‘t yo‘llarida o‘t turib qolganida, jigar parenximasi zararlanganda kuzatiladi

Xolestaz — cholestasis — o‘t yo‘llari yoki yo‘lchalarida o‘t to‘xtab, so‘rilmay qolishi.

Xolesteatoma — cholesteatoma, atis, n. (gr.) — keratin, xolesterin kristallari va muguzlangan epitelial tangachalardan iborat biriktiruvchi to‘qimali kapsula bilan o‘ralgan o‘smasimon tuzilma. Haqiqiy va soxta X. farqlanadi. Haqiqiy X. — embriogenezning boshlang‘ich davrida ektodermaning noto‘g‘ri shakllanishidan vujudga keladi. Soxta X. — shikastlanishlar va yallig‘lanish oqibatida paydo bo‘ladi.

Xolesterin — cholesterol, i, n. (gr.) — xolesterol — yuqori darajada tuzilgan hayvonlarning eng muhim steroli. Barcha to‘qimalarning lipidlarida, ko‘pincha fosfolipidlar bilan birga erkin yoki yog‘ kislotalar bilan esterifikatsiya qilingan holda uchraydi. X. ayniqsa miya, buyrak usti bezlari, tuxum sarig‘ida ko‘p bo‘ladi. Qonda uning miqdori taxminan 100 ml da 200 mg ga teng. X. bir qator steroidlar, jumladan steroid gormonlar, D vitaminlar, o‘t kislotalari biosintezida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. X. organizmda o‘z navbatida atsetil KoA dan sintezlanadi.

Xolesterinemiya — cholesterinaemia, ae, f. (gr.) — qonda xolesterin miqdorining ko‘payishi.

Xoletsistit — cholecystitis, itidis, f. (gr.) — o‘t pufagining yallig‘lanishi. X. ga o‘t-tosh kasalligi, virusli hepatit, o‘t pufagi funksiyasining buzilishi (diskineziya) sabab bo‘ladi. Bolalarda surunkali tonsillit, epidemik hepatit, chirigan tishlar bo‘lishi, adenoid oqibatida uchraydi. O‘tkir, surunkali, gangrenoz, yiringli, kataral va b. X. farq qilinadi.

Xoletsistopankreatit — cholecystopancreatitis — o‘t pufagi va me‘da osti bezining bir vaqtda yallig‘lanishi. Qorinning yuqori qismida og‘riq kuzatiladi. Bemor qusadi, terisi va ko‘z oqi sarg‘ayadi, tili quriydi, qon bosimi pasayadi. X. ga infeksiya, gjijalar, o‘t toshlari sabab bo‘ladi.

Xoletsistopatiya — cholecystopathia — o‘t pufagi kasalliklarining umumiyligi nomi.

Xondroblast — hondroblast — tog‘ay to‘qimasi hujayralari. Yassi uzunchoq shaklga ega. Yetuk tog‘ayda X. lar tog‘ay ustki pardasining ichki qavatida joylashadi. X. hujayralari hisobiga tog‘ay yonidan o‘sadi. Keyinchalik xondrotsit hujayralariga aylanadi.

Xondroblastoma — hondroblastoma — uzun naysimon suyaklarning cheti qismida bo‘ladigan xavfsiz o‘sma; kam uchraydi.

Xondrosarkoma — hondrosarcoma — suyakning xavfli o‘smasi, tog‘ay to‘qimalaridan vujudga keladi; suyak o‘smalarining 10—15 foizini tashqil qiladi.

Xoreya — chorea, ae, f. (gr.) — tez-tez takrorlanadigan beixtiyoriy harakatlar, qo‘l-oyoqlarning to‘satdan qimirlay boshlashi. Giperkinezning bir turi. Bir necha xil bo‘ladi: *Dyubini* xoreyasi — bosh miyada juda tez rivojlanadigan o‘tkir yallig‘lanishning surunkali giperkinez bilan birga o‘tishi. 2. *Kichik* xoreya, *Sidengam* xoreyasi — asosan revmatizm oqibatida bosh miya yallig‘langanda gavdaning ayrim sohalari (ko‘l, oyoq yoki yuz muskullari, til yoki bitta qo‘l-oyoq) da kuchsiz beixtiyoriy harakatlar paydo bo‘lishi. 3. *Gentingon* xoreyasi — irsiy kasallik; surunkali kechadi, g‘ayritabiyy harakatlar bilan birga aql ham tobora zaiflashib boradi. Kasallikda yuz muskullari, qo‘l, oyoq, tana, tilda harakat tartibsizlanib, bemor doim gandiraklab, chayqalib, sakrab, o‘ynayotgandek harakat qiladi. Bir so‘zni aytish uchun bemorning barcha yuz, bosh, bo‘yin, qo‘l muskullari harakatga keladi, hatto tinch turganda ham ana shu harakatlar o‘zidan-o‘zi takrorlanaveradi.

Xoriokarsinoma, xorionepitelioma — trofoblast xo‘jayralaridan rivojlanadigan xavfli o‘sma. Odatda tuxumdon, bachardon tanasi va bo‘ynida uchraydi.

Xorioretinopatiya — ko‘z to‘r va tomirli pardalarining yallig‘lanishsiz zararlanishi. Qon bosimi yuqori bemorlarda, arteriosklerozda to‘r va tomirli

pardalar arteriyalari torayadi, venalari kengayib, devorining o'tkazuvchanligi buzilidi. Shuning uchun o'sha pardalar yuzida turli dog', tuguncha va qon quyilishlar paydo bo'lib, ko'rish o'tkirligiga halal beradi.

Xotira — memoria, ae, f. — o'tmish tajribalari yoki voqealari va xodisalarni esga tushirish qobiliyati. X. nerv sistemasi xususiyatlaridan biri bo'lib, tashqi olam voqealari va organizm reaksiyalari haqidagi axborotni uzoq saqlash hamda uni ong faoliyatida va xulq, hatti-harakat doirasida takror tiklash qobiliyatida namoyon bo'ladi. Eslab qolish, esda saqlash va esga tushirish jarayonlari ajratiladi. Ixtiyoriy va ixtiyorsiz, bevosita va bilvosita, qisqa muddatli va uzoq muddatli X. lar farq qilinadi. X. ning odatiy, emotsiyonal, obrazli va so'z-mantiqiy turlari mavjud.

Xromosoma kasalliklari — irsiy kasalliklarning bir turi; xromosomalar soni, tuzilishi yoki tarkibining o'zgarishi natijasida kelib chiqadi. Jinsi hujayralar yetilishi (meyoz) jarayonida xromosomalarning noto'g'ri taqsimlanishi sabab bo'ladi.

Xromosoma to'plami — hayvon yoki o'simlik organizmining har qanday hujayra yadrosidagi xromosomalar to'plami. Har bir biologik turning doimiy xromosomalar soni bo'lib, ular ma'lum kattalikka va morfologik xususiyatga ega.

Xromosomalar — chromosomata, chromatosomata, n., pl. (gr.) — hujayra yadrosining struktura elementlari; tarkibida organizmdagi irsiy axborotni tashiydigan DNK bo'ladi. X. da genlar chiziqli tartibda joylashgan. X. ning o'zidan ikkiga bo'linib ko'payishi hamda qonuniy ravishda X. ning qiz hujayralarga taqsimlanishi organizmlarning irsiy xususiyatlari avloddan-avlodga o'tishini ta'minlaydi. X. ning aniq strukturaviy tuzilishini faqat hujayraning bo'linish jarayonida (mikroskopda) kuzatish mumkin. X. o'ziga xos shakl va hajmga ega. Har bir organizmda X. soni turg'un bo'ladi, Mas.: odamda 46 (23 juft). X. soni va tuzilishining mutatsiyalar tufayli o'zgarishi odam organizmida X. kasalliklarining kelib chiqishiga sabab bo'ladi (q. *Irsiy kasalliklar*). hujayraning 99% DNK si xromosomada joylashgan. Yadrosi differensiyalanmagan hujayralardagi DNK ning qo'sh spiralli yakka molekulasi ham X. deb ataladi.

— S —

Sianoz — cyanosis, is, f. (gr.); syn. cyanochroia, ae, f.; — qon kislородга то'йнмаслиги натижасида тери ва шиллиқ pardaning ko'kimtir tusga kirishi, mo'mataloq bo'lib ketishi.

Siklik nukleotidlar — nukleozid tri fosfatlardan adenilatsiklaza, guanilatsiklaza fermentlari ta'sirida pirofosfat ajralib, ribozaning 3', 5'-uglerod atomlari fosfatefir bog'lari orqali halqa (sikl) hosil qilib birikishidan kelib chiqqan mahsulotlar. S. n. ning eng muhim vakili 3', 5'-siklik adenozinmonofosfat (s AMF) ATF dan adenilatsiklaza fermenti ta'sirida hosil bo'ladi va S. n. fosfadesterazasi tomonidan AMF gacha parchalanadi. S. n. ning hujayra ichidagi konssntratsiyasini aniqlash gormonlar, farmakologik preparatlar ta'sirini nazorat qilishda tibbiyotda ahamiyatga ega.

Tsilindrilar — siydik tsilindrлari — buyrak kanalchalarining ayrim qismlaridan «qolipini» olgandek tsilindr shakliga kirib qolgan siydik cho'kmasi elementlari. S. ning tarkibiga ko'ra bir necha turlari farq qilinadi

Tsilindruriya — siydik bilan siydik tsilindrлarining chiqishi.

Singa — q., Lavsha.

Sirroz — cirrhosis — biriktiruvchi to'qimaning zo'r berib o'sishi oqibatida organning bujmayishi va shaklining o'zgarishi. «S.» termini sklerozning sinonimi sifatida ham ishlatiladi.

Sirroz-rak — jigar raki; yirik tugun paydo qilmasdan sirroz tarzida kechadi. Jigar raki va sirroziga xos alomatlар: meteorizm, qon quşish, qornida og'riq va suv yig'ilishi, taloq kattalashishi, qorin devoridagi teri osti venalarishng kengayishi, bemor ahvolining og'irlashishi va b. kuzatiladi.

Sistinoz (Abdergalden — Kaufman — Linyak sindromi) — aminokislota — sistin almashinuvining buzilishi natijasida kelib chiqadigan irsiy kasallik; bunda ko'mik retikulyar hujayralarida, jigar, taloq, limfa tugunlari, ko'z pardasi xujaylarida sistin kristallari ko'p to'planadi. S. da bo'y o'sishi susayadi, suyklarda raxitga xos o'zgarishlar, ko'rishning aynishi, siydikda aminokislota va glyukoza miqdorining ortishi, qonda fosforning kamayishi, kamqonlik belgilari kuzatiladi. Nasldan-naslga retsessiv tipda o'tadi.

Sistinuriya — irsiy kasallik; organizmda aminokislotalar: sistin, lizin, arginin, ornitin almashinuvining izdan chiqishi sabab bo'ladi, bunda shu aminokislotalarning buyrak kanalchalarida qayta so'rishi buziladi va siydikda ular miqdori ortadi. Pielit, pielonefrit, siydik-tosh kasalligi, gastrit va yara kasalligi, shuningdek xolepatiya kuzatiladi. Nasldan-naslga autosom-retsessiv tipda o'tadi.

Tsistit — cystitis, itidis, f. (gr.) — qovuqning yallig'lanishi. Qovuqqa turli infeksiyalar tushishi oqibatida ro'y beradi; kasallikning asosiy belgisi bemor teztez (har 10—15 minutda) siyadi, siyganda og'riqsezadi; og'riq ayniqsa siygisi qistaganda va siygandan keyin zo'rayib, lovullash, achishish paydo bo'ladi. Ba'zan siydikda qon va yiring bo'lishi mumkin. Kasallikning o'tkir davrida oldi olinmasa surunkali tus oladi.

Sitokininlar, kininlar — hujayra bo‘linishi va umuman o‘simliklarda moddalar almashinushi, xususan RNK va oqsillar sintezini tezlatadigan gormonlar. Kimyoviy tomondan S. adenin unumidir. Boshqa o‘simlik gormonlari (gibberellinlar va auksinlar) bilan birga o‘simliklarga tashqi muhit (Mas.: nur) ta’sirining vossttachisi bo‘ladi. S. ning eng muhim vakillari kinetin va zeatindir.

Sitoliz — cytolysis, is, f. (gr.) — hujayralarning yemirilishi.

Sitotoksin — cytotoxinum — hujayralarga zaharli ta’sir ko‘rsatadigan moddalarning umumiyligi nomi.

— Ch —

Chaynash — ovqatni og‘iz bo‘shlig‘ida ishlash. Ch. da ovqat tishlanadi, ezib maydalanadi, so‘ngra yutiladi. Chaynov muskullari qisqarganda pastki jag‘ yuqori jag‘ga nisbatan harakatlanadi, yuqori va pastki tishlar bir-biriga tegib, ovqatni uzib, kesib, maydalab beradi. Ovqat so‘lak bilan ho‘llanib, yumshab, yutish uchun qulay holga keladi.

Chandiq — cicatrix, cis, f. — teri, shilliq parda, organ yoki to‘qimaning jaroxatlangan, patologik jarayonga uchragan qismining o‘rnida hosil bo‘lgan biriktiruvchi to‘qima. Ko‘pincha kuygan, sovuq urg‘an va jarohatlangan joyda paydo bo‘ladi. Asta-sekin so‘rilib, o‘rni deyarli bilinmaydigan atrofiyalanuvchi Ch. hamda teri sathidan ko‘tarilib turadigan gipertrofik Ch. farq qilinadi. Ch. bo‘yin, qo‘l-oyoqda bo‘lsa, ular harakatini cheklab qo‘yishi mumkin, bu holat qontraktura deb ataladi.

Charchash — jismoniy yoki aqliy mehnat qilish natijasida organizm ish qobiliyatining vaqtincha pasayishiga olib keladigan funksional holat. O‘ta va surunkali Ch. farq qilinadi. O‘ta Ch. zo‘r berib jismoniy mehnat qilish natijasida ro‘y beradi. Surunkali Ch. turli funksional sistemalar va butun organizmdagi o‘zgarishlarning oylar va yillar davomida to‘liq, tiklanmasligi bilan bog‘liq. Mehnat qilishda ishtirok etadigan muskul guruuhlarining hajmiga qarab Ch. niig lokal, regional va global turlari farqlanadi. Sportda global Ch. kuzatiladi.

Chipqon, fununkul — furunculus, i, m. — soch xaltachasi (follikula) va atrofidagi yog‘ bezi hamda to‘qimalarining o‘tkir yiringli nekrotik yallig‘lanishi. Stafilokokklar qo‘zg‘atadi. Terida yog‘ va ter ajralishining kuchayishi, avitaminoz, moddalar almashinuvining buzilishi, tozalikka rioya qilmaslik, terining tiralishi, chakalanishi Ch. ga sabab bo‘ladi. Ch. terining tukli qismiga, ko‘pincha bo‘yin (ensa sohasi), yuz, bel, dumba, soch va b. erlarga chiqadi.

Chirish — putrefactio, onis, f. — tarkibida azot bo‘lgan organik birikmalar (asosan oqsillar) ning mikroorganizmlar tomonidan parchalaiishi. Tabiatda moddalar almashinuvida ahamiyatga ega. Ch. jarayonida aerob, fakultativ va obligat anaerob bakteriyalar ishtirok etadi. Oqsilni parchalovchi (proteolitik) fermentlar yordamida mikroorganizmlar oqsilni aminokislotalargacha parchalaydi. Odam va hayvonlarda Ch. jarayoni asosan ichakda kechadi. Ch. mahsulotlari jigarda zararsizlanadi va qisman buyrak orqali tashqariga chiqadi.

— SH —

Shabkurlik, gemeralopiya — hemeralopia, ae, f. (gr.) — qorong‘ida (shom va tunda) ko‘z ko‘rish layoqatining buzilishi. Asosan tug‘ma bo‘ladi. Sh. ka ko‘z to‘r pardasi tayoqcha hujayralarida i organik o‘zgarishlar yoki shu hujayralar tarkibidagi ko‘rvu purpuri (rodopsin) ning yetishmovchiligi sabab bo‘ladi. Ko‘proq o‘g‘il bolalarda uchraydi. Sh. da ko‘rish maydonchasi borgan sari torayib borib, 45—50 yoshda ko‘z yaxshi ko‘rmay qoladi.

Shamollash — refrigeration, -onis, f — organizm sovqotishn natijasida vujudga keladigan respirator va b. o‘tkir kasalliklarga bevosita sabab bo‘ladigan omil.

Shereshevskiy — **Terner sindromi** — ayollar xromosoma kasalligi. Jinsiy xromosomalar anomaliyasi sababli embrional davrda gonadlar rivojlanishi buziladi. Kasallik jinsiy bezlar bo‘lmasligi, bachardon gipoplaziyasi, gipogenitalizm belgilari, bo‘y o‘smany qolishi, somatik anomaliyalar, sfinksni eslatuvchi tashqi ko‘rinish (pterigium sindromi) bilan ifodalanadi. Kasallikka meyoz jarayonida ota-onada jinsiy xromosomalarining ajralmay qolishi sabab bo‘ladi.

Shikastlanish — laesio, onis, f. — tashqi muhitning fizik yoki kimyoviy ta’sirotlari organga yoki tananing bir qismiga ta’sir yetganda to‘qimalar butunligining mahalliy buzilishi yoki ular vazifasining izdan chiqishi. Mexanik ta’sirotdan, issiqlik, elektr toki, kimyoviy moddalar va nurdan Sh. farq qilinadi. Mexanik ta’sirotdan Sh. belgilariga qarab ochiq (yaralar) va yopik bo‘ladi. Anatomik substratlarga qarab yumshok to‘qimalar, suyaklar, bo‘g‘imlar va ichki organlar Sh.i ajratiladi.

Shilimshiq — mucosus, a, um. — to‘qimalarni mexanik ta’sirlanishdan saqllovchi yopishqoq moddalar. Odam va hayvon organizmida shilimshiq. hujayralarida

ishlanadi. Ovqat xazm qilish, nafas organlari, siylik-tanosil sistemasi, burunning yondosh bo'shliqlari, o'rta quloi va b.ni qamrab turadi.

Shovqin — odam organizmiga salbiy ta'sir etadigan va uning ishlashiga, dam olishiga halaqt beradigan tovushlar majmui.

Shok — shock (ingl.) — nihoyatda kuchli, g'ayritabiyy ta'sirotlar natijasida MNS, qon aylanishi, nafas sistemalari faoliyati hamda moddalar almashinuvining keskin buzilishi bilan ifodalananadigan, hayot uchun xavfli og'ir patologik jarayon. Sh. ni keltirib chiqargan sabablari, o'ta murakkab rivojlanish mexanizmlari, unga olib kelishi mumkin bo'lgan kasalliklar, omillar, jarayonlar va h. k. ga ko'ra anafilaktik, gemotransfuzion, kardiogen, travmatik, emotsiyal va b. turlari farq. qilinadi. Sh. ning boshlang'ich davrida bemor bezovtalanadi, rangi oqaradi, qarashlari bejo, esi kirar-chiqar bo'lib qoladi, ba'zan o'zining og'ir ahvolini sezmay, o'midan sapchib turib ketadi. Keyinchalnk es-hushi joyida bo'lsa ham, atrof-muhitga butunlay befarq bo'lib qoladi, gavda temperaturasi, qon bosimi pasayib, nafasi tezlashadi, ba'zan qayt qiladi va h. k.

— E —

Ezofagit — oesophagitis, itidis, f. (gr.) — qizilo'ngach shilliq qavatining yallig'lanishi. Ko'pincha yuqumli kasalliklar (qizamiq, skarlatina, terlama va b.), qizilo'ngachning termik, kimyoviy va yot jismlar bilan jarohatlanishi sabab bo'ladi. E. da jig'ildon qaynashi, ovqat eganda to'sh orqasining achishishi, qizilo'ngach bo'y lab yutumning og'riqli o'tishi va b. kuzatiladi.

Ekzogen — exogenous — organizmda biror jarayonga tashqi muhit omillarining ta'siri natijasida ro'y beradigan demak.

Ekzogeniya — exogenia — biror patologik jarayon yoki kasallikning organizmdan tashqaridagi omil ta'sirida kelib chiqishi.

Ekzotoksin — exotoxina, orum, n., pl.(gr.) — patogen mikroblar atrof-muhitga ishlab chiqaradigan zaharli modda; mikroblarning kasallik paydo qilish ta'siri shu moddalarga bog'liq. Ular to'qima hujayralari faoliyatini buzadi, yallig'lanish va yiripglanish jarayonlariga sabab bo'ladi.

Ekzoftalm — exophthalmus, i, m., e ^ophthalmia, ae, f. (gr.) — ko'z soqqasining chaqchayib turishi. Bazedov kasalligida, ko'z soqqasining hajmi va shakli o'zgarganda, ko'z orqasida paydo bo'lgan o'sma yoki shish turtib chiqqanda

kuzatiladi. Ko‘z kosasidagi yallig‘lanishlar, organizmdagi umumiy kasalliklar va b. sabab bo‘ladi.

Ekssudat — exsudatum, i, n. — yallig‘lanish tufayli mayda venalar va kapillyarlardan atrofdagi bo‘shliq va to‘qimalarga to‘planadigan suyuqlik; oqsil va qonning shaklli elementlaridan iborat. Tarkibiga ko‘ra E. ning bir necha xili farq qilinadi.

Ekssudativ-katalal diatez allergik holat; asosan yosh bolalarda uchraydi. E.-k. d. da bolaning terisi va shilliq qavatlari turli ta’sirotlarga hamda katalal-yallig‘lanish kasalliklariga tez chalinuvchan bo‘ladi. Bola organizmida moddalar almashinuvining buzilishi yoki ba’zi oziq-ovqat mahsulotlarini ko‘tara olmaslik E.-k. d. ga olib kelishi mumkin. E-k.d. li bola tumov, angina, bronxit va b. kasalliklarga tez chalinadi.

Ekssudatsiya — exsudatio, onis, f. — ekssudatning to‘planish jarayoni.

Ekstra... — extra — “old qushimda”, “tashqi” “eng” “juda ham”ma’noga to‘g‘ri keladi.

Ekstrasistola — extrasystole, f. — yurakning navbatdan tashqari qisqarishi. Yurak muskullari qo‘zg‘aluvchanligi oshganda yuz beradi.

Ekstrasistologiya — extrasystolia, ae, f. — yurak ritminin buzilishi; ekstrasistola bilan ifodalanadi. Yurak muskullari (miokard) qo‘zg‘aluvchanligi oshganda yuz beradi.

Elastin — elastinum, i, n. — biriktiruvchi to‘qima, tog‘ay va b. paylarning elastik tolalari asosini tashqil qiladigan skleroproteinlar turkumiga oid oqsil; tarkibida ko‘p miqdorda prolin, glitsin, valin, alanin qoldiqlari bo‘lishi bilan farq, qiladi.

Embol — embol — qon oqimiga tushgan yoki chetdan kirgan va qon tomiriga tiqilib qolishi mumkin bo‘lgan biror modda, zarra, havo va h. k.

Emboliya — embolia, ae, f., ambolismus, i, m. (gr.) — qon yoki limfada aylanib yuradigan, normal sharoitda uchramaydigan zarrachalar — embolning tomirda tiqilib qoliish. Uzilib chiqqan tromb qismlari (tromboemboliya), yog‘ tomchilari (yog‘ E. si), havo pufakchalar (havo E.si), ezilib kyetgan organlardan (Mas.: shikastlanishda) ajralib chiqqan to‘qima bo‘laklari (to‘qima E. si), o‘sma hujayralari, homila tuklari, snaryad yoki o‘q parchalari, bakteriya yoki zamburug‘lar to‘plami, yirik parazitlar (Mas.: exinokokk) E. si bo‘lishi mumkin.

Embriopatiya — embryo, onis, m. (gr.) — embrional rivojlanish davrida paydo bo‘ladigan nuqsonlarning umumiy nomi.

Emotsiya — emotio, onis, f. — odam va hayvonlarning tashqi hamda ichki ko‘zg‘atuvchilar ta’siriga bo‘lgan javob reaksiysi; sezgirlik va keChinmaning barcha turlarini o‘z ichiga oladi. Organizmning turli ehtiyojlari qondirilishi (ijobiy E.) yoki qondirilmasligi (salbiy E.) bilan bog‘langan. Kishining oliy ijtimoiy

ehshtiyojlari asosida paydo bo‘luvchi differensial va turg‘un E. lar odatda hissiyot (intellektual, estetika, ahloqiy hissiyot) deb ataladi. E. ning fiziologik asosini bosh miya po‘stloq osti qismlaridagi nerv markazlarida sodir bo‘luvchi qo‘zg‘alishlar hamda vegetativ nerv sistemasidagi fiziologik jarayonlar tashqil qiladi.

Empiema — empyema, atis, n. (gr.) — organizmdagi biror bo‘shliq (Mas.: plevra bo‘shlig‘i) da yoki kovak organ (Mas.: o‘t pufagi va b.) da ko‘p miqdorda yiring to‘planishi.

Emfizema — emphysema, atis, n. (gr.) — tashqaridan kirgan havo yoki to‘qimalarda hosil bo‘lgan gaz tufayli organ yoki to‘qimalarning kengayishi.

Endarteriit — endarteriitis, endoarteriitis, itidis, f. (gr.) — arteriya ichki devorining yallig‘lanishi. Bunda tomir endoteliysi hujayralarining ko‘payishi va yalliglanish elementlarining yig‘ilishi tufayli tomir torayib, butunlay berqilib qoladi. Natijada shu tomir bilan oziqlanuvchi a’zo va to‘qimalarning qon bilan ta’milanishi buziladi.

Endo... — qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismi, “ichki”, “ichkarida” degan ma’nolarni anglatadi

Endogen — endogenous (gr.) —organizmning ichki muhiti bilan bog‘liq sabablardan kelib chiqqan.

Endokard — endocardium, ii, n. (gr.) — yurakning qopqoqlari tavaqalarini hosil qilib, bo‘shlig‘ini qoplab turadigan ichki pardasi.

Endokardit — endocarditis, itidis, f. (gr.) — *endocarditis* yallig‘lanishi. Bunda ko‘pichcha yurak qopqoqlari zararlanadi. Kelib chiqishiga ko‘ra revmatik va septik E. farq qilinadi. Revmatik E. revmatizmdan paydo bo‘ladi. Bunda yurak qopqoqlarining endoteliy to‘qimasida tromblar hosil bo‘lib, granulyasion to‘qimalar o‘sadi, shuningdek qopqoqlarda so‘galsimon (so‘galsimon E.) tuzilma paydo bo‘ladi. Septik E. ni streptokokklar ko‘zg‘atadi; qopqoqlarda yara hosil bo‘lib (yarali E.), tromblar yuzaga keladi. Yara natijasida qopqoqlar yirtilishi, teshilishi, uzilishi mumkin.

Endokrin bezlar — glandulae sineductibus; syn. g. clausae; g. incretoriae — endokrin sistemani tashqil qiladigan ichki sekretsiya bezlari. Ularga gipofiz (miya o‘sig‘i), qalqonsimon bezlar, qalqonsimon bez oldi bezlari, me‘da osti bezi (pankreatik bez), buyrak usti bezi, jinsiy bezlar, shuningdek epifiz (g‘uddasimon bez), buqoq bezi (timus), yo‘ldosh (homiladorlikning ma’lum davrida) kiradi. E. b. qon oqimiga o‘zi ishlab chiqaradigan *gormonlarni* ajratib turadi (sekretsiya qiladi).

Endokrin sistema — s. endocrinologi (gr.); s. incretologia,ae, f. — ichki sekretsiya bezlari sistemasi. Nerv sistemasi bilan birga boshqa hamma organ va sistemalarni regulyasiya va koordinatsiya qilib, shu tariqa organizmning tashqi muhit sharoitlariga moslashishini ta’minlaydi.

Endometrit — endometritis, itidis, f. (gr.) — *endometritning* yallig‘lanishi; septik infeksiya va b. mikroorganizmlar ko‘zg‘atadi. Bachadonga infeksiya qon va limfa yo‘llari orqali o‘tadi. E. ning o‘tkir va surunkali xillarp farq qilinadi.

Endonukleazalar — dezoksiribonukleip kislota (DNK) va ribonuklein kislota (RNK) ning nukleotidlargacha parchalanishini katalizlaydigan gidrolazalar sinfining fermentlari. Polinukleotidlarda nukleotidlar tartibinp aniqlashda va gen injenerligida qo‘llaniladi.

Endoparazitlar — «xo‘jayini»ning turli hujayra, to‘qima, organlari va bo‘shliqlari va h. k. da parazitlik qilib yashaydigan viruslar, bakteriyalar, ko‘pchilik zamburug‘lar, eng sodda jonivorlar va gelmintlar.

Endopeptidazalar — peptid bog‘larni peptid zanjirining butun uzunligi bo‘yicha parchalaydigan fermentlar.

Endoplazmatik to‘r — hujayra organoidi. Kanalchalar sistemasi va vakuolalardan iborat. Ular devori biologik membrana bilan o‘ralib, to‘r hosil qilib joylashadi. Membranalarida ribosomalarning bo‘lishiga qarab donador va donasiz (silliq) turlari farq qilinadi. Donador E. t. membranasining tashqi yuzasida ribosomalar bo‘lib, u hujayra ichidagi oqsillar sintezida ishtirok etadi. Donasiz (silliq) E. t. esa hujayradagi lipid va uglevodlar sintezi hamda transportida ishtirok etadi.

Endorfinlar, enkefalinlar — morfinga o‘xhash ta’sirga ega endogen peptidlar (endogen morfin); opiat retseptorlarning tabiiy ligandi. E. miya, gipofiz, ingichka ichak, qon va siydikda topilgan. E. ning fiziologik funksiyasi aniq emas, lekin ular opiatlarga o‘xhash ta’sir ko‘rsatadi. E. neyrotransmitter, uzunroq zanjirlilari esa neyrogormon bo‘lishi mumkin, ular inson tabiatini o‘zgartirish ta’siriga ham ega.

Endoteliy — endothelium, ii, n. (gr.) — siyrak tolali biriktiruvchi to‘qima hujayralari. Mezodermadan rivojlanib, qon va limfa tomirlari ichki devorini hamda yurak bo‘shliqlarining ichki yuzasini qoplab turadi.

Endotelioma — endothelioma, atis, n. (gr.) — qon va limfa tomirlarining endoteliy qavatidan paydo bo‘ladigan xavfli o‘sma.

Endotromboflebit — endotrombophlebitis, itidis, f. (gr.) — vena ichki devorining yallig‘lanishi; tromboz paydo bo‘lishi bilan birga kechadi.

Endoflebit — endophlebitis, itidis, f. (gr.) — vena ichki devorining yallig‘lanishi.

Enzimlar — q. *Fermentlar*.

Enzimologiya — fermentlar haqidagi fan. Uning nazariy va tatbiqiy yo‘nalishlari bor. Tibbiyotda E. kasalliklar diagnostikasida va davolash asoslarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Enzimopatiya organizmda biror ferment bo‘lmasligi yoki uning faolligi o‘zgarib qolishiga aloqador irsiy kasalliklar.

Enzimoterapiya — hayvonlar, bakteriyalar va o‘simliklardan olinadigan fermentlardan davo maqsadida foydalanish.

Enoftalm — ko‘z soqqasining ancha ichkariga (ko‘z kosasi tubiga) surilishi. Ko‘z kosasi suyaklarining shikastlanishi yoki undagi yog‘, etning qarilikda yuqalashib siyraklashuvi sabab bo‘ladi.

Enterit — enteritis, itidis, f. (gr.) — ingichka ichak shilliq qavatining yallig‘lanishi. Ovqatdan zaharlanish, infeksiya va b. sabab bo‘ladi. E. da tez-tez ich ketadi, ko‘p axlat keladi, qorin sohasida og‘riq bo‘ladi. Bemorning ko‘ngli ayniydi, boshi aylanadi, ko‘zi tinadi. Odatda gastrit, kolit bilan birga uchraydi. E. ning o‘tkir, surunkali, kataral, toksik, yarali xillari bor.

Enterokolit — enterocolitis, itidis, f. (gr.) — ingichka va yo‘g‘on ichak shilliq qavatlarining yallig‘lanishi. Ayrim ovqat moddalarining organizmga allergik ta’siri, ovqatdan bo‘ladigan toksikinfeksiyalar, ba’zi kimyoviy moddalar (simob, yod, ayrim sanoat zaharlari)dan zaxarlanish, ichakda gijja bo‘lishi E. ga sabab bo‘ladi. E. da ich ketadi, axlatda qon tomchilari va shilliq bo‘ladi, qorin soxasida og‘riq, ichakdan qon ketishi, ko‘ngil aynishi, quşish holatlari kuzatiladi.

Enteropatiya — enteropathia — ichak kasalliklarining umumiy nomi.

Enterospazm — enterospazmus — ingichka ichak muskulli devorining tortishib qisqarishi; ichak diskineziyasining bir turi.

Ensefalit — encephalitis, itidis, f. (gr.) — bosh miyaning yallig‘lanishi. Viruslar qo‘zg‘atadi yoki shikastlanish, zaharli moddalar (qo‘rg‘oshin, benzin, marganets va b.) ta’sirida paydo bo‘ladi. Birlamchi va ikkilamchi E. farq qilinadi. Birlamchi E. virusli kasallik hisoblanadi va ma’lum sharoitlarda epidemiya holatida uchrab turadi. Ikkilamchi E. ba’zi yuqumli kasalliklar natijasida va turli xil mikroblar ta’sirida kelib chiqadi. Bunga gripp, qizamiq, bezgak E. i kiradi. E. harorat ko‘tarilishi, umumiy darmonsizlik, tinka qurishi, uyqu bosishi, bosh og‘rishi, quşish, falajlanish va b. belgilari bilan kechadi.

Ensefalomieliit — encephalomyelitis, itidis, f. (gr.) — bosh va orqa miyaning birga yallig‘lanishi. Ko‘pgina infektion-allergik va toksik kasalliklarda MNSning zararlaniiidan kelib chiqadi, uni viruslar ham ko‘zg‘atadi. Kasallik to‘satdan boshlanib, bemor qattiq isitmatalaydi, boshi, qo‘l-oyoqlari og‘riydi, boshi aylanadi, qayt qiladi, ko‘zi xiralashadi, ko‘pincha nutqi ham o‘zgarib, ravon gapira olmaydi, falajlanish holati ham kuzatiladi, ba’zan bemor xushdan ketadi, epilepsiya xuruji bo‘lishi mumkin.

Ensefalopatiya — encephalo + pathiae, arum, f., pl. (gr.) ensefalopatia — bosh miya to‘qimasida distrofik o‘zgarishlar yuzaga kelishi bilan o‘tadigan kasalliklar.

Zaharlanish, bosh miyada qon aylanishining buzilishi, jarohatlanishi va b. sabab bo‘ladi.

Eozinofiliya — eosinophilia, ae, f. (gr.) — qonda eozinofillar sonining ko‘payishi; asosan allergiya va yuqumli kasalliklarning tuzalish davriga xos.

Epi... — epi (gr.) — qo‘shma so‘zlarning ustida, yuqorisida, ustki degan ma’noni anglatadigan tarkibiy qism.

Epidermis, epitelial qavat — odam terisining ustki qavati; bazal qavat, tikansimon qavat, donali qavat, yaltiroq va muguz (shox) qavatdan iborat. E. ning muguz qavati juda chuqur joylashgan hujayralardan shakllanadi, unda juda ko‘p nerv tolalari bor.

Epidermodermi — odam terisining ikki qavati, ya’ni xususiy teri (derma) va epidermis (epitelial qavat) ning bir vaqtda yallig‘lanishi.

Epididimit — epididymitis, itidis, f. (gr.) — moyak ortig‘i (epididimis) ning yallig‘lanishi. Infeksiya kirishi yoki yorg‘oqqa shikast yetishi sabab bo‘ladi. E. to‘satdan boshlanadi, harorat ko‘tariladi. Chov sohasida urug‘ tizimchasi bo‘ylab og‘riq tarqaladi. E. da yorg‘oqning tegishli yarmi qizarib, shishadi. Agar yallig‘lanish kuchli bo‘lsa, moyakda o‘sinqcha, shish paydo bo‘ladi.

Epikard — epicardium, ii, n. (gr.) — yurakning tashqi seroz qavati. Mezoteliy bilan o‘ralgani uchun yaltiroq. Yurak muskulini o‘rab, unga zich yopishib turadi. YUrak asosida buralib, perikardga o‘tib ketadi.

Epitelizatsiya — teri, shilliq pardalar zararlanganda shu joyning regeneratsion yo‘l orqali yangi epithelial qavat bilan qoplanishi, et bitishi.

Epiteliy, epithelial *to‘qima* — epithelium, ii, n. (gr.) — zich joylashgan hujayralar qatlami. Tanani qoplab, uning barcha bo‘shliqlarini o‘rab turadi, asosan himoya, ajratish va so‘rish vazifalarini bajaradi. Ko‘pgina bezlar ham E. dan tuzilgan. E. hujayralari yassi, qubsimon, duksimon, tsilindrsimon shaklda bo‘lib, bazal membrana ustida yotadi.

Epitelioma — epithelioma, atis, n. (gr.) — epiteliydan rivojlanadigan o‘smalarning umumiyl nomi. E. turli ko‘rinishlarga ega.

Epifizit — epiphysit — naysimon suyaklarning epifiz qismi yallig‘lanib, jarayonning atrofdagi tog‘ay moddasiga ham o‘tishi.

Eritema — erythema, atis, n. (gr.) — turli teri kasalliklari yoki ba’zi yuqumli kasalliklarda terida har xil kattalikdagi och qizil, pushti rangli dog‘lar paydo bo‘lishi; infektion E.— o‘tkir yuqumli kasalliklar (skarlatina) da uchraydi; brutsellyoz E. si brutsellyozda paydo bo‘lib, tezda yo‘qolib ketadigan, yirik, qichiydigani E. dir. Rentgenda nurlanish tufayli bo‘ladigan E., quyosh E. si, shuningdek tugunli E. farq qilinadi.

Eritremiya — erythr — ko‘mik to‘qimalarining giperplaziysi tufayli paydo bo‘ladigan kasallik.

Eritroblastik reaktsiya — ko‘mikning eritrotsitlar ishlab chiqaradigan qismida yadroli hujayralar sonining vaqtincha ko‘payishi; bunda ular sifati asosan o‘zgarmaydi. Ba’zi gemolitik anemiyalar va qon yo‘qotilgan hollarda kuzatiladi.

Eritroblastlar — erythroblasti, erythrocytoblasti, orum, m., pl. (rp.) — eritrotsitlarni hosil qiladigan hujayralar. Ko‘mikda yaratiladi.

Eritroblastoz — yetilmagan eritrotsitlarning periferik qonda (asosan ko‘mikda) ko‘payib ketishi; xususan qon kasalliklarida — leykoz va eritroblastik reaksiyalarda kuzatiladi.

Eritroblastoma — erythroblastoma — eritroblastlardan rivojlanadigan xavfli o‘sma; ko‘mik sistemasining shikastlanishi bilan kechadi.

Eritrodermiya — erythrodermia, ae, f. (gr.) — butun badan terisi yoki talaygina qismining yallig‘lanishi; bunda teri qizarib, juda ko‘p po‘st tashlaydi.

Eritrodiapedez — eritrotsitlarning kapillyarlar devori orqali qon o‘zagidan tashqariga chiqishi; gemorragik sindromlar uchun xarakterli; yuqumli kasalliklarda va odam zaharlanganida kuzatiladi.

Eritromieloz — o‘tkir leykozning bir turi; bunda dastlab ko‘mikda eritroblastlar bilan normoblastlar, keyinroq, borib esa mieloblastlar ko‘payib ketadi; normoxrom yoki giperxrom anemiya, zo‘rayib boradigan leykopeniya va trombotsitopeniya kuzatiladi.

Eritropoez, eritrotsitopoez — organizmda *eritrotsitlarning* hosil bo‘lish jarayoni. Bir kecha-kunduzda taxminan 200—250 mlrd eritrotsit hosil bo‘ladi.

Eritopoetinlar — qon yaratilishini ta’minlovchi moddalar; E. anemiya va kislород tanqisligi (gipoksiya, gipoksemya) bilan bog‘liqbo‘lgan kasalliklarda organizmda ko‘p miqdorda ishlanib chiqadi.

Eritrotsitlar, qizil qon tanachalari — erythrocyti, orum, t . , pl. (gr.) — hayvonlar va odamning yadrosiz qon hujayralari; tarkibida gemoglobin bor. Kislородни o‘pkadan organizmning barcha to‘qimalariga yetkazib beradi. E. diametri 7—8 mkm, qalinligi 2—2,5 mk, ikki.. tomoni botiq, yumaloq. Ko‘mikda hosil bo‘ladi. Erkaklarning 1 mm³ qonida 4,5—5 mln, ayollarnikida esa 4—4,5 mln E. bo‘ladi.

Eritrotsitoz — qonda eritrotsitlariing ko‘payishi; kishi zaharlanganda, tug‘ma yurak nuqsonlarida, shuningdek odam balandga ko‘tarilganda (fiziologik E.) kuzatiladi.

Eritrotsitopeniya — qonda eritrotsitlar miqdorining kamayishi.

Eritrotsituriya — eritrotsitlarning siyidik bilan ajralib chiqishi.

Esterazalar — murakkab efir bog‘ini uzuvchi gidrolazalarning katta turkumi. Efirning kislota qismini karboksil, fosfat, sulfat kislotalar qoldig‘i tashqil qilishi mumkin.

Estradiol — eng kuchli tabiiy estrogen. E. homilador ayollar siyidigi, Graaf follikullari va yo‘ldoshda yuqori kontsentratsiyada uchraydi. Organizmda E. va

estron bir-biriga o‘tib turadi. Hayz sikli buzilganda, menopauza muammolarini hal qilishda qo‘llaniladi.

Estriol — estrogen. Asosan homilador ayollar siyidigi va yo‘ldoshdan ajratib olingen. Organizmda *estrone* va estradioldan hosil bo‘ladi. Estradioldan qo‘shimcha bir gidroqsil turkum saqlashi bilan farq qiladi.

Estrogenlar — estrogeна, orум, н., пл. — аயollar jinsiy gormonlari tarkumi. Asosiy E. *estrone*, *estradiol* va *esgrioldir*. E. tuxumdonning Graaf follikullarida, sariq tanada ishlab chiqariladi, homiladorlik davrida yo‘ldoshda ham hosil bo‘ladi. E. hayz ko‘rish siklini boshqarib turadi, *progrestson* va *gonadotropinlar* bilan birga bachardon shilliq pardasining yetilishi, sut bezlarining o‘sishi va ikkilamchi jinsiy belgilarning rivojlanishiga ta’sir qiladi.

Estron — estrogen. Aယollar siyidigi, tuxumdon va yo‘ldoshda uchraydi. E. va *estradiol* organiamda bir-biriga o‘ta oladi. E. 17-o‘rinda keton turkum saqlashi bilan estradioldan farq qiladi.

Et uvishishi, junjish, sovqotish — muskullarning titrashi tufayli sovuqni sezish, qaltirash. Bunda teri «g‘oz terisi»ga o‘xshagan holatga tushadi. Isitma ko‘tarilganda yoki sovuq ta’sirida ro‘y beradi.

Etiologiya — aetiologia, ae, s (gr.) — kasalliklarning kelib chiqish sabablari, shart-sharoitlari haqidagi ta’limot.

— Yu —

Yukstaglomerulyar apparat (lat. *juxta* — yonida, *oldida* + *glomerulus* — koptokcha; sin. yuksta-glomerulyar kompleks) — renin gormonini ishlab chiqarib, qon plazmasidagi vazoknstriktor angiotenzinni shakllanishida, qon bosimni, buyrak naylarida natriy va suvning reabsorbsiyasini boshqarishdagi qator reaksiyalar zanjirida qatnashadigan buyrak koptokchasi tomirli qutbining strukturaviy kompleksi. Yukstaglomurulyar apparati quyidagi komponentlardan tashqil topgan: 1) yuksta-glomerulyar hujayralar; 2) Gurmagtig hujayralari; 3) zich dog‘ hujayralari 4) mezangial hujayralar.

Yurak — qon aylanish «istemasining markaziy organi; muskuldan tuzilgan bo‘lib, ko‘krak qafasida joylashgan. U odamning butun umri davomi-da qiskarib (sistola) va bo‘shashib (diastola) turadi. Yu. ning keng asosi yuqoriga va o‘ngga, ingichkalashgan uchi pastga va chapga yo‘nalgan bo‘ladi. Yu. devori 3 qavat: seroz qavat — epikard, o‘rta muskul qavat — miokard, ichki shilliq qavat —

endokard. Yu. 4 bo‘lak bo‘lib, o‘ng va chap bo‘lmachalar hamda o‘ng va chap qorincha-lardan iborat. o‘ng bo‘lmacha bilan o‘ng qorinchada venoz qon, chap bo‘lmacha bilan chap qorinchada kislorodga boy arterial qon bo‘ladi. Yu. ning chap qorinchasidan chiqqan aorta qonni butun organizmga tarqatadi. Gavdadan qaytayotgan karbonat angidridga boy venoz qon Yu. ning o‘ng bo‘lmachasi-ga kelib quyiladi. Ka.tta yoshdagi odamlar yuragining uzunligi 12—15 sm, eni 8—11 sm, og‘irligi ayollarda 240 g gacha, erkaklarda 330 g cha. Normal sharoitda Yu. minutiga 55—70 marta qisqarib, 4,5—5,0 l qonni haydab beradi. Yu. faoliyati neyrogumoral mexanizm bilan boshqariladi, lekin u avtomatik tarzda qisqaradi.

Yurak avtomatizmi — yurakning tashqi ta’sirotsiz o‘zida kelib chiqadigan impulslar ta’sirida qo‘zg‘ala olish qobiliyati.

Yurak bo‘lmachasi — yurak kamerasi. O‘ng va chap bo‘lmacha bo‘lib, oraliq devor orqali bir-biridan ajralib turadi. Bo‘lmachalarning ichki yuzasi taroqsimon muskullar tutamidan iborat. o‘ng bo‘lmachaga katta qon aylanish doirasidan venoz qon, chap bo‘lmachaga kichik qon aylanish doirasidan kislorodga boy arterial qon kelib quyiladi. Bo‘lmachalar qorinchalar bilan bo‘lmacha-qorincha teshiklari orqali tutashadi.

Yurak glikozidlari (kardiotonik vositalar) — glikozidlarning alohida turi; yurak yetishmovchiligidagi uning muskullari qisqaruv-chanligini tanlab kuchaytiradi. Yu. g. ko‘proq angishvonagul, marvaridgul, adonis va strofant o‘simliklarida uchraydi.

Yurak yetishmovchiligi — yurak muskullari qisqarish qobiliyatining susayishi; uning toliqishi (Mas.: yurak poroklari, gipertoniya), qon bilan ta’milanishining buzilishi (miokard infarkti) natijasida yuzaga keladi. o‘pkada va katta qon aylanish doirasida qon dimlanishi, nafas qisishi va assitga sabab bo‘ladi. O‘tkir Yu. e. (yurak astmasi) va surunka-li Yu. e. farq qilinadi. o‘tkir YU. e. kutilma-ganda yoki to‘satdan nafas qisishi va bo‘g‘ilish xuruji bilan boshlanadi. Xuruj ko‘pincha kechasi tutadi. Surunkali Yu. e. ning oxirgi bosqichlari-da moddalar almashinuvida va turli organlardagi morfologik strukturalarda patologik qayt-mas o‘zgarishlar ro‘y beradi.

Yurak yorilishi — transmural miokard in-farqtida yurak devorida to‘la yoriq hosil bo‘lishi.

Yurak poroklari, yurak nuqsonla-r i — yurakning anatomik tuzilishidagi turg‘un kamchilik, nuqsonlar; normal qon oqimiga halaqit beradi. Tug‘ma va orttirilgan Yu. p. farq qilinadi. Tug‘ma Yu. p. homila yuragi va yurak yirik tomirlarining embrional rivojlanishi davrida noto‘g‘ri shakllanishidan kelib chiqadi. Revmatizm (ba’zan septik endokardit, zaxm, ateroskleroz) oqibatida paydo bo‘lgani ortti-rilgan porok deb ataladi. Yurak qopqoqlarining (yopilish vaqtida) zich bekilmasligi (qoupqoq yetishmovchiligi) va yurakdagagi bo‘lmacha-qorinchalar (o‘ng va chap

bo‘lmacha-qorinchalar) o‘rtasidagi teshik yoki asosiy tomirlar chiqish joyining torayishi (stenoz) bilan bog‘liq bo‘lgan mitral-aortal va b. Yu. p. farq qilinadi.

Yurak-tomir yetishmovchiligi — yurak hamda qon tomirlar faoliyati yetishmovchiligining birga kechishi. Organ va to‘qimalarda qonning to‘g‘ri taqsimlanmasligi, qon aylanishi va yurak faoliyatining buzilishi, tomirlar kasalliklari va b. sabab bo‘ladi.

Yurak-o‘pka yetishmovchiligi — tashqi nafas faoliyatining yetishmoichiligi; chap yurak qorinchasi va bo‘lmachasining surunkali yetishmovchiligidan kelib chiqadigan patologik o‘zgarishlar (alveolalar yuzasining kamayishi) natijasida yuzaga keladi.

— YA —

Yara, ulcus, ulceris, n (lot.) — teri yoki shilliq pardaning (me’da, ichak) sust bitadigan nuqsoni.

M’eda va o‘n ikki barmoq ichakning yara kasalligi — morbus cruveilhier – i syn. ulcus ventriculi (lot.) — vaqt-bevaqt takrorlanib turadigan, m’eda yoki o‘n ikki barmoq ichak devorida yara hosil bo‘lishi bilan o‘tadigan umumiy surunkali kasallik.

Yallig‘lanish — inflammatio, onis, f.; syn. phlogosis, is, f. (rp.) — zararli omillar ta’siriga qarshi bir butun organizmning mahalliy himoyalanish va moslanish reaksiyasi. YA. da albatta uchta muhim komponent: alteratsiya (hujayra va to‘qimalarning shikastlanishidan iborat o‘zgarishlari), ekssudatsiya (suyuqlik va qon hujayralarining tomirlardan chiqishi) va proliferatsiya (hujayralarning ko‘payishi va to‘qimalarning o‘sib ketishi) ro‘y beradi. Ulardan qaysi birining ustunligiga qarab YA. ning alterativ, ekssudativ va proliferativ shakllari farq qilinadi. YA. qizarish, qavarish, qizish (temperaturaning ko‘tarilishi), og‘riq, funksiyaning buzilishi kabi klinik belgilar bilan namoyon bo‘ladi.

Yatrogen kasalliklar —shifokor yoki boshqa tibbiyot xodimlarining noo‘rin gaplari, hatti-xarakatlarining bemor ruhiyatiga ta’sir yetishidan kelib chiqadigan kasalliklar. Aksari injiq, vasvas, o‘ta ta’sirchan va asabi zaif kishilarda uchraydi.

Yaqindan ko‘rish — myopia, ae, f. (rp.); syn. brachymetropia, dysphotia — miopiya — ko‘zning nur sindirish xususiyati (refraksiya) nuqsoni. Bunda ko‘z optik sistemasining asosiy fokusi to‘r parda bilan gavhar o‘rtasida bo‘ladi. Ya. k. ga onaning homiladorlik davrida toksoplazmoz, gripp kabi yuqumli kasalliklar,

SPID bilan og‘rishi, ichkilikbozligi, o‘spirinlik davrida yotib o‘qish, qorong‘ida o‘qish, uzoq vaqt engashib o‘qish va b. sabab bo‘ladi. O‘z vaqtida tekshirib tegishli ko‘zoynak taqishni buyurish yoki kontakt ko‘zoynak olish shart.

— O‘ —

O‘zgaruvchanlik — mutabilitas, atis, f. (lot.) — barcha tirik organizmlarning kimyoviy, morfologik va fiziologik xossalari o‘zgartira olishi. Irsiy va noirsiy O‘. farq qilinadi. Irsiy yoki genotipik O‘. genetik materialning o‘zgarishiga asoslangan bo‘lib, evolyusiyaning zarur sharti hisoblanadi. Yuzaga keladigan o‘zgarishlar tabiatiga qarab irsiy O‘. mutatsion va kombinativ O‘. ga ajratiladi. Nasldan-naslga o‘tadigan mutatsiyalar tufayli vujudga keladigan belgilarning o‘zgarishi mutatsion O‘., urug‘lanish jarayonida genlar kombinatsiyasi orqali bo‘ladigan O‘. kombinativ O‘. deyiladi. Noirsiy yoki fenotipik O‘. genetik materialning o‘zgarishiga aloqador bo‘lmaydi; bunday O‘. atrof-muhitdagi konkret o‘zgarishlarga javoban organizm reaksiyasi bo‘lib hisoblanadi. O‘. evolyusiyaning eng muhim omillaridan biridir.

O‘zini anglash — sensorium, ii, n.; syn. perceptorium, ii, n. (lot.) — inson ongining bir ko‘rinishi; shaxsning o‘z-o‘zini anglab yetishi, «Men», «o‘zim» tuyg‘usining ma’nolariga tushunishi. Shaxsning dunyoqarashi, axloq-odobi hamda o‘z-o‘ziga tanqidiy munosabati yoki yuksakligini his yetish holatlari ham O‘. a. jarayoniga kiradi. Ko‘pgina ruhiy xastaliklarda O‘. a. buziladi.

O‘lim — mors, mortis, f.; syn. decessus, us, mn.; mors biologica thanatoa (gr.) — organizm hayot faoliyatining butunlay to‘xtashi, ortga qaytmas jarayon. O‘. organizmning qarib-chirishi tufayli tabiiy ravishda yoki kasallik yo bo‘lmasa kutilmagan voqeа tufayli to‘satdan, barvaqt yuz beradi. Klinik va biologik O‘. farq qilinadi. Klinik O‘. ortga qaytish bosqichi bo‘lib, qon aylanishi va nafas olish to‘xtaganidan keyin 5—6 minut oralig‘ida ro‘y beradi. Bu davrda ba’zan yurak bilan o‘pkani qayta ishlatish mumkin bo‘ladi. Biologik o‘.— hujayra va to‘qimalarda fiziologik jarayonlarning to‘xtab, ortga qaytmas holat sodir bo‘lishidir.

O‘pka — pulmones, um, m., pi.; pneumon (gr.) — konus shaklidagi juft organ; ko‘krak qafasida joylashgan. O‘. asosi diafragmaga tegib, uchi esa I qovurg‘adan 3—4 sm yuqorida turadi. O‘pkada tarqalgan havo yo‘li (bronxlar) oxiri havo pufakchalari sifatida tugaydi. Bu pufakchalar devori qon tomirlar (kapillyariar)

bilan o'ralgan. Nafas olinganda pufakchalar ichidagi bosim qon bosimiga nisbatan yuqori bo'lgani uchun toza havo (kislород) qonga o'tib, karbonat angidridga boy havo esa qondan ajralib, keyin nafas bilan tashqariga chiqadi. Shu tariqa havo almashinushi ro'y beradi. Ikkala o'pkada taxminan 4,9—5 l havo bo'ladi. Tinch nafas olishda (har bir nafas olganda) O'. ga o'rtacha 500 ml havo kirsa, chuqur nafas olganda 1600 ml havo kirib, 1600 ml karbonat angidridga boy havo chiqadi. O'pkaning tiriklik sig'imi o'rtacha 3500—3700 ml ga teng. O'. organizmni havo orqali kiradigan bakteriyalardan himoya qiladi.

O'pka ventilyasiysi — tashqi muhit bilan o'pka o'rtasida havo almashinushi. O'. v. ning minutlik hajmini bir minut ichida olingan nafas sonini yakka nafas olish hajmiga ko'paytirib hisoblanadi. Sog'lom katta yoshdagi erkaklarda tinch holatda bu ko'rsatkich minutiga 6—8 l ni, jismoniy ish jarayonida 30—100 l ni tashqil etadi, Chiniqqan sportchilarda 180—200 l gacha boradi.

O'pka emfizemasi — o'pkada ortiqcha havo yig'ilishi bilan o'tadigan kasallik. o'pkaning kengayishi va xarakatining cheklanishi, nafas va qon aylanish faoliyatlarining buzilishi bilan kechadi. Surunkali bronxit, bronxial astma va b. sabab bo'ladi. Kasallik uzoq davom etadi. Bemorning nafasi qisadi, yo'taladi, sianoz ro'y beradi. Alveolyar (alveolalarning kengayishi tufayli o'pkada havo ko'payishi), interlobulyar (o'pka bo'laklarining oraliq to'qimalariga havo kirishi), interstitsial (o'pkaning oraliq to'qimasiga havo kirishiga ko'ra kengayishi), atrofik (keksalarda o'pka to'qimasining atrofiyalanishi natijasida ro'y beradi) O'. e. farqlanadi.

O'pka-yurak yetishmovchiligi — insufficientia cardiopulmonalis; syn. Syndromum cardiopul-monale, cor pulmonale chronicum (lot.) — tashqi nafas va qon aylanishining yetishmovchiligi bilan ifodalanadigan kasallik asorati. Bu asosan o'pkaning surunkali kasalliklarn (pnevmonioz, pnevmoskleroz, bronxoektaz, sil, emfizema va b.) da kuzatiladi.

O'pkaning tiriklik sig'imi — odam chuqur nafas olgandan so'ng maksimal kuch bilan chiqara oladigan havo miqdori. O'. t. s. nafas havosi (500 ml), nafas olishning rezerv xajmi (1500 ml), nafas chiqarishning rezerv hajmi (1500 ml) dan tashqil topadi. O'. t. s. odamning yoshi, jinsi, sog'lig'i, nafasini mashq qilishiga qarab turlicha — erkaklarda 3,5—4,5 l, ayollarda esa 3—3,5 l, Chiniqqan sportchilarda 6—7 l bo'ladi. o'. t. s. spirometr yordamida aniqlanadi.

O'pkaning umumiyy sig'imi — maksimal nafas olgandan so'ng o'pkada bo'lgan havo hajmi; o'pkaning tiriklik sig'imi va qoldiq havo hajmidan iborat.

O'pkaning ekspirator quvvati — tashqi nafas ko'rsatkichi. Nafas chiqarishda ishtirok etadigan muskullar maksimal taranglashganda burunni va og'izni berkitib turib nafas chiqarish paytidagi havo bosimi.

O'pkaning qoldiq havo hajmi — chuqur maksimal nafas chiqargandan so'ng o'pkada qoladigan havo hajmi; 1000—1500 ml ga teng.

O'sish — hujayralar, shuningdek hujayra bo'lмаган tuzilmalar soni va massasining ortishi hisobiga organizm yoki tana a'zolari hajmi va massasining o'sib borishi. O'. asosan gipofiz, qalqonsimon, jinsiy bezlar gormonlari ta'sirida amalga oshadi. Odamning o'sishi muhit va irsiy omillarga bog'liq. Bo'y o'sishining uch davri farq qilinadi: 1) tug'ilgandan voyaga yetguncha bo'lган davrda o'sish, ancha sust; 2) voyaga yetgan davrda o'sish — jadal va barqaror; 3) bundan keyingi davrda o'sish — juda sust yoki deyarli to'xtaydi. O'sish asosan erkaklarda 18—20, ayollarda esa 16—18 yoshda to'xtaydi. Ichki sekretsiya bezlari faoliyatining buzilishi tufayli pakanalik va darozlik hollari uchraydi.

O'sish muhiti — hujayralar, to'qimalar, hatto ayrim organlarni ham organizmdan tashqarida sun'iy o'stirishga imkon beradigan oziqlanish muhiti; ularning kimyoviy tarkibi organizmning fiziologik suyuqliklariga yaqin bo'ladi. Shu tufayli hujayralar sun'iy muhitda bo'linish, harakatlanish va b. fiziologik jarayonlarni amalga oshirishi mumkin.

O'sma — neoplasma (lot.) — blastoma — organizmdagi o'zgargan va o'zining odatdagи shakli hamda funksiyasi yo'qolgan (sifati buzilgan) hujayralardan iborat to'qimalarning zo'r berib o'sib ketishi. O'. ga ionlovchi nurlar, kantserogen moddalar va onkogen viruslar sabab bo'lishi mumkin. O'. ning paydo bo'lishi va rivojlanishida organizmning tug'ma yoki hayotda orttirilgan umumiy reaksiyasi ahamiyatga ega. Klinik va morfologik nuqtai nazardan xavfsiz (atrofdagi to'qimaga o'sib kirmaydigan, metastaz bermaydigan) va xavfli O'. lar farq qilinadi. Xavfli O'. tez rivojlanib, boshqa to'qimalarga o'sib kirib, ularni tez yemiradi; bunda qon tomirlarga ham shikast yetadi; qon va limfa tomirlari devorining yemirilishi natijasida qon yoki limfaga tushgan O'. hujayralari turli organ va to'qimalarga metastaz beradi, ya'ni O'. tarqalib ketadi. O'. ning metastaz berish-bermasligi va uning tezligi organizmning immunobiologik holatiga bog'liq.

O'sma kasalligiga qarshi moddalar — xavfli o'smalar (rak, sarkoma) ni davolashda qo'llaniladigan moddalar (ftoruratsil, siklofosfamid, merkaptopurin, olivomitsin va b.).

— Q —

Qabziyat, ich qotishi — uzoq vaqt ich kelmasligi yoki qiyinlik bilan kelishi; noto'g'ri ovqatlanish, nerv regulyasiya faoliyatining buzilishi, ichak kasalliklari va b. da kuzatiladi. Alimentar (uzoq vaqt yengil hazm bo'ladigan ovqatlarni iste'mol

qilganda), atonik (yo‘g‘on ichak harakatining susayishi bilan kechadi), nevrogen (ichaklarning nerv regulyasiyasi buzilishi oqibatida) Q. bo‘ladi.

Qadoq — calli, orum, m., pl.; tylos (gr.) — odam terisidagi ko‘p ishqalanadigan va qisiladigan joyning qalinalashuvi; ko‘proq oyoq panjalari, tovon, kaft, ba’zan qo‘l barmoqlarida uchraydi. Q. har xil kattalikda, sarg‘ish bo‘lib, ushlaganda qattiq, unnaydi, bosganda bezillab og‘riydi.

Qazg‘oq — boshning sochli qismida paydo bo‘ladigan mayda qipiqlar. Organizmida vitaminlar (xususan A va V gruppasi vitaminlari) yetishmasligi, nerv sistemasi va me’da-ichak faoliyatining buzilishi, infektion kasalliklar, sochni noto‘g‘ri parvarish qilish va b. sabab bo‘ladi. Yog‘li va yog‘siz Q. farq qilinadi. Yog‘siz (oddiy) Q. da yog‘ bezlari yaxshi ishlamaydi: boshda mayda, quruq, oq qipiqlig‘ilib, to‘kilib turadi, bosh qattiq qichishadi, soch quruq, mo‘rt, xira tortib, ko‘p tokiladi. Yog‘ bezlarining zo‘r berib ishlashi tufayli yog‘li q. paydo bo‘ladi, bunda q. teri va sochga yopishib qoladi.

Qalqonsimon bez gormonlari, tireoid gormonlar — qalqonsimon bez follikullarida hosil bo‘ladigan yod saqlovchi gormonlar — tiroksin va triyodtironin. Bu gormonlar tireoglobulinni gipofizning tireoid stimullovchi gormoni ta’sirida gidrolizlanishidan ajralib chiqib sekretsiya qilinadi. Qalqonsimon bezning parafollikulyar S hujayralari kalsinonni ham sintezlaydi.

Qandlar — uglevodlar sinfining quyi molekulali vakili (monosaxaridlar va oligosaxaridlar). Q. birinchi qaysi manbadan olingan bo‘lsa, o‘shaning nomi bilan ataladi. Mas.: glyukoza — uzum qandi, laktoza — sut qandi, maltoza — solod qandi, saxaroza — lavlagi qandi va b. q. moddasi deganda Q. bo‘lmagan tabiiy va sintetik monosaxaridlar ham tushuniladi. Q. taomga shirin ta’m beradigan va ko‘p iste’mol qilinadigan oziq-ovqat mahsulotidir.

Qarish — yosh ulg‘aya borishi bilan organizmning organ va sistemalarida paydo bo‘ladigan o‘zgarishlar. Ular organizmning hayotga moslashuv imkoniyatlarining susayishiga, qarishga olib keladi. Patologik q. (barvaqt q.) biror kasallik oqibatida yuzaga keladi. Fiziologik Q. (tabiiy q.) uzoq umr ko‘rishga to‘siq bo‘lmaydi, aqliy va jismoniy kuch, ish qobiliyati saqlanadi. U odamda shartli ravishda 75 yoshdan keyin boshlanadi.

Qizil Yug‘uruq — lupus erythematoses seu lupus erythematosus; syn. atrophodermatitis centrifuga — 1) bir yoki bir necha gardishi (diski) yuzning u yoxud bu qismida, asosan, yonoqlarda, qulq suprasida, boshning soch qismida joylashishi bilan ifodalanadigan surunkali kasalligi.

Qin — vagina, ae, f.; colpos (gr.) — diloq — naysimon, muskulli elastik organ; qizlik pardasidan boshlanib, bachardon bo‘yni yopishadigan joyda tugaydi; uzunligi 7—9 sm. Qiz bolalarda qin teshigi yupqa parda (qizlik pardasi) bilan bekilib turadi, parda o‘rtasida kichkina teshik bor. Qin devori uch qavat (shilliq parda, muskul 182

qavati va o‘rab turuvchi kletchatka) dan iborat. Qin sekreti oqimtir, o‘ziga xos hidli, qin shilliq pardasini ozgina namlab turadi. Sog‘lom ayol qin chiqindilarini sezmaydi.

Qin tushishi — qinning o‘z o‘rnidan pastga siljishi; ko‘pincha bachadon siljishi bilan birga kechadi.

Qichish, qichishish — teri yoki shilliq qavatning ma’lum bir qismidagi qichishga undaydigan, og‘riqqa o‘xshash sezgi. Badanni hasharot chaqqanda yoki ular badanda yurganida, qichitqi o‘t tekanida, ba’zi bir teri kasalliklari va b. allergik holatlarda Q. ro‘y beradi. Q. me’da-ichak yo‘li, jigar, buyraklar kasalligi va moddalar almashinuvi kasalliklari bilan birga kechishi mumkin.

Quloq — auris, is, f.; us, otos, n. (gr.) — eshitish hamda muvozanat organi. Tashqi, o‘rta va ichki Q. farq qilinadi. Tashqi Q. ga quloq suprasi va tashqi eshituv yo‘li kiradi. o‘rta Q. nog‘ora bo‘shlig‘i (ichi havo bilan to‘la), eshituv suyakchalari (bolg‘acha, sandon, uzangi) va halqum bilan tutashgan Yevstaxiy nayidan tashqil topgan. Ichki Q. chakka suyagining piramida qismi ichidan o‘rin olgan bo‘lib, suyak va parda labirintdan iborat.

Quloq kiri, sernaya probka — quloq sarig‘i ko‘p ajralib, tashqi eshituv yo‘lida yig‘ilgan kir; quloqdan ajralgan chirknинг yopishqoqligi tufayli quloq ichida turib qolishi, tashqi eshituv yo‘lining tor va egri-bugri bo‘lishi hamda devorlarining yallig‘lanishi, eshituv yo‘liga chang va b. narsalar tushishi Q. k. ga sabab bo‘ladi.

Quloq og‘irligi — surditas, atis, f — eshitish qobiliyatining pasayishi. Eshituv nervi va ichki quloqdagi illatlar, bolalikda ro‘y bergen o‘tkir yoki surunkali otit, burun va burun-halqum kasalliklari (ko‘pincha adenoid), kattalarda esa otoskleroz, ichki quloq qon aylanishining buzilishi, eshituv nervining yoshga qarab o‘zgarishi, shuningdek uzoq vaqt kuchli shovqin ta’sir etib turishi va h. k. sabab bo‘ladi.

Quloq shang‘illashi - tashqaridan tovush ta’sir etmagani holda quloqda shovqin sezilishi. Sog‘lom kishilarda ba’zan shovqinsiz tinch sharoitda ham q. sh. (fiziologik Q. sh.) kuzatiladi. Patologik Q. sh. ga esa toliqish, jismoniy va ruhiy zo‘riqish, doridan zaharlanish, eshituv nervi kasalligi va b. sabab bo‘ladi. Ichki quloqda, kamroq bir tomonda doimiy shang‘illash bo‘lishi o‘rta va ichki quloq kasalliklarining asosiy belgilaridan biridir.

Qo‘rquv — fobiae — his-tuyg‘u va kayfiyatning buzilish turlaridan; bunda odamni asossiz ko‘rquv bosadi, kishi nimadandir bezovtalanib, ko‘ngli g‘ashlanadi, oromi buziladi, ruhan azob chekadi. Ko‘pgina ruhiy kasallikkarda Q. alomatlari kuzatiladi.

Hayz — menstruatio, onis, f.; emmenia, ae, f.; fluxus menstrealis (lot) — hayz sikli, oy ko‘rish — ayollarda har 21—30 (ko‘pincha 28) kunda sodir bo‘ladigan biologik jarayon. h. ko‘rish sikli MNS (bosh miya po‘stlog‘i, gipofiz, gipotalamus) tomonidan boshqariladi; H. sikelida asosan tuxumdon va bachadonda o‘zgarish ro‘y beradi, bachadondan ma’lum miqdorda qon ketadi. Qiz bolaning birinchi H. ko‘rishi, unda ikkilamchi jinsiy belgilar (Mas.: sut bezi to‘lishib, qov usti va qo‘ltiqda tuk o‘sishi va b.) yetilganidan keyin boshlanadi. Birinchi hayz ko‘rish muddati qiz bolaning sog‘lig‘i va turmush tarziga, shuningdek turar joyi va iqlimga bog‘liq. Homiladorlik, ba’zan bola emizish va klimaks davrida H. qo‘rilmaydi.

Hiqichoq — singultus, us, m. (gr.) — diafragmaning hamda nafas olish apparatining harakatlantiruvchi qismining klinik qisqarishi tufayli kelib chiqadigan simptom — to‘satdan tovush chiqarib nafas olish. Qorin bo‘shlig‘ining ba’zi kasalliklarida va bosh yoki orqa miya shikastlanganda ro‘y beradi.

Hid sezish — olfactus, us, t.; syn. osmaesthesia, osmia osphresia, rhinaesthesia, ae, f. (gr.) — hayvonlar va odamning har xil hidli moddalar hidini sezish va ajrata olish xususiyati.

Homila — fetus, foetus, i, m.; embryo (gr.) — ona qornida 2-oyning oxiridan (9 hafta) boshlab tug‘ilish vaqtigacha (40-hafta) rivojlanayotgan pusht (embryon). 9-haftada H. inson qiyofasiga kiradi (bu davrda h. ning boshi, ko‘zi, burni, og‘zi, tanasi, qo‘l-oyoqlari aniq bo‘ladi); ulkan (vazni 5 kg dan ortiq), yashashga layoqatli (23 haftalik, vazni 1 kg cha, bo‘yi 35 sm dan kam bo‘lmagan), yirik (vazni 4—5 kg cha), chala (28—38 xaftalik, vazni 2,5 kg va bo‘yi 45 sm dan kam bo‘lmagan), yashashga layokatsiz (28 haftalikdan kam vazni 1 kg, bo‘yi 35 sm dan kam), tug‘ilish muddati o‘tgan 42 xaftalikdan o‘tgan) h. farq qilinadi.

Homiladorlar istisqosi — hydros + graviditatis — kech toksikozlarning boshlanishi bo‘lib, asosan shish paydo bo‘lishi bilan kechadi. Odatda u to‘piqdan boshlanib, tizza, son, qorin va tashqi jinsiy organlarga o‘tadi, so‘ngra asta-sekin butun tanaga tarqaladi. Ayolning yuzi ko‘pchiydi, ammo uning umumiy ahvoli unchalik o‘zgarmaydi.

Homiladorlar nefropatiyasi — nephropathia, ae, f. + graviditatis seu gestationis (gr.) — kech toksikozlardan; homiladorlikning ikkinchi yarmida odatda homiladorlar istisqosidan keyin paydo bo‘ladi. Belgilari: qon bosimi oshadi, shish, siyidikda oqsil bo‘ladi, homila tuzuk rivojlanmaydi.

Homiladorlarning quşishi — vomitus, us, m., vomitio, onis, f.+graviditatis seu gestationis (gr.) — homiladorlikning ilk davriga xos toksikozlaridan; bunda ayol hadeb qayt qilaveradi, darmonsizlanadi, ozadi, ba’zan to‘xtovsiz (bir kecha-kunduzda 20 martagacha) quşish organizmning suvsizlanishiga olib keladi.

Homiladorlik — graviditas, atis, f.; syn. gestatio, onis, f.; (gr.) — og‘ir oyoqlik — urug‘langan tuxum hujayraning ona organizmida rivojlanib, yetuk homilaga aylanishidan iborat fiziologik jarayon. Ayol tuxumdonida yetilib chiqqan tuxum hujayraning erkak jinsiy hujayrasi bilan qo‘silishi (urug‘lanishi)dan boshlanadi va o‘rtal hisobda 280 kun, ya’ni 10 qamariy oy davom etadi. Urug‘lanish bachadon nayida ro‘y beradi; urug‘langan tuxum hujayra bachadon nayining chuvalchangsimon qisqarishi tufayli bachadon bo‘shilig‘iga qarab surilib boradi. Ana shu vaqtda u mayin tuklar (vorsinkalar) bilan qoplanib, ko‘p hujayrali embrionga aylanadi, o‘sha tuklari yordamida bachadon shilliq pardasiga payvandlanib oladi; shu vaqtdan homila shakllana boshlaydi va ayol organizmidagi ba’zi sistemalar funksiyasi tegishlichcha o‘zgaradi. Bachadon naylarining turli kasalliklarida tuxum hujayraning bachadonga qarab surilib kelishiga to‘sinqinlik qiladigan o‘zgarishlar oqibatida tuxum hujayra bachadon nayiga payvandlanib qolishi mumkin (bachadondan tashqari homiladorlik).

Homila matseratsiyasi — maceratio fetus (lat. maceratio — suyuqlik ta’sirida qattiq moddaning yumshab ketishi; fetus, us — homila) — bachadonda nobut bo‘lgan homilaning yumshab ketishi.

Homiladorlik toksikozlari, toxicosis, is, f, graviditatis seu gestationis (gr.) — gestoz —homiladorlik davrida uchraydigan kasallik holati; nerv, yurak-tomir, endokrin sistemalar va moddalar almashinuvining o‘zgarishi tufayli kelib chiqib, tug‘ruqdan so‘ng o‘tib ketadi. H. t. ga homiladorlik yoki organizmda mavjud xastaliklar sabab bo‘ladi. H. t. ba’zi ayollarda ertaroq, ba’zilarida esa kechroq kuzatiladi. Homiladorlikning birinchi (ilk) va ikkinchi yarmi (kech) toksikozlari farq qilinadi.

Hujayra — cellula, ae, f.; — elementar tirik sistema. H. o‘simlik va hayvon organizmining takomillashishi, tuzilishi va yashash jarayonlarining asosi hisoblanadi. Moddalar almashinuvida ishtirok yetishi, yangi hujayra hosil qilishi va doimo yangilanib turishi H. ning o‘ziga xos xususiyatidir. Odam va hayvon organizmida H. kattaligi, shakli va tuzilishi jihatidan bir-biridan farq qiladi. Bajaradigan funksiyasiga ko‘ra H. har xil shaklga ega bo‘ladi. Xar bir H. sitoplazma (membrana) va yadrodan tashqil topgan.

Hujayra kiritmali — hujayra sitoplazmasining doimiy bo‘lmagan tarkibiy qismi. Ular hujayralardagi moddalar almashinuvi jarayonida hosil bo‘ladi. Trofik, sekretor, ekskretor va pigment kiritmalar farqlanadi.

Hujayra markazi — centrosoma, atis, n. — (sentrosoma) — xujayra organoidi; sitoplazmaning tig‘iz qismi. Hujayraning interfaza holatidagi X. m. 2 ta sentrioladan iborat. Bo‘linish davrida X. m. ning tuzilishi murakkablashib, sentriolalar orasida sentrodesmoza va atrofida nurli zona astrosfera hosil bo‘ladi.

Hujayra yadrosi — nucleus, i, m.; caryon, karyon, ii, n. (gr.) — eukariot hujayralarining asosiy tuzilmasi. Tuban prokariot organizmlarda yadro funksiyasini nukleoid bajaradi. Unda genetik axborotni o‘zida saqlovchi DNK, joylashadi. H. ya. ellips, duksimon, yumaloq, taqasimon, segmentlarga bo‘lingan bo‘lishi mumkin. Yadro faqat eritrotsitlarda bo‘lmaydi. H, ya.— yadro qobig‘i, karioplazma, xromatin tuzilmalari va yadrochadan tuzilgan.

Hujayra qobig‘i — cellula, ae, f.; cytus (gr.) membranae sitoplazmatik membrana — hujayrani tashqi tomondan o‘rab turuvchi parda. Hujayralarning tashqi muhit bilan moddalar almashinuvini ta’minlaydi, hujayralardagi ma’lum biokimyoviy jarayonlarni boshqaradi va xujayralarni tashqi muhitdan ajratib (chegaralab) turadi.

Hushdan ketish — ap. (o) psychia, ae, f. (gr.); syn. syncope, es, f.; syncopa, ae, f. (rp.); — hushsizlik — miyaning qon bilan ta’milanishi buzilishi natijasida qisqa muddat ro‘y beradigan holat. h. k. da odam to‘satdan holdan toyadi, ko‘ngli behuzur bo‘ladi, boshi aylanadi, butunlay hushini (bir necha sekund yoki minut) yo‘qotadi. Ruxiy iztirob (ko‘rkish, hayajonlanish), og‘rnq (buyrak, jigar og‘rig‘i), ichak sanchig‘i, oftob urishi ta’sirida, ba’zan yotgan odam birdan o‘rnidan turganida va b. da kuzatiladi. h. k. MNS yoki yurak faoliyatining buzilganlik belgisi bo‘lishi mumkin.

Ho‘ppoz — carbunculus, i, m.; syn. ignis persicus, karbunkul, ko‘k yara — yonma-yon joylashgan bir necha soch xaltachasi va ter bezlari hamda shu sohadagi teri va teri osti yog‘ qatlamining o‘tkir yiringli (nekrotik) yallig‘lanishi. Moddalar almashinuvining buzilishi, qandli diabet, semirib ketish va b. h. chiqishiga qulay sharoit tug‘diradi. Yallig‘langan joy bezillab og‘riydi, qip-qizarib yaltirab turadi, o‘rtasi ko‘qaradi («ko‘k yara» deb atalishi shundan), keyin madda boylab, atrofida mayda «ko‘zlar» hosil bo‘ladi. Madda yorilib, ichidan yaraning «o‘ligi» chiqadi, atrofidagi irigan to‘qimalar ko‘chib tushadi va yara bita boshlaydi.

